ERON ISLOM RESPUBLIKASINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI
ELCHIXONASINING MADANIYAT ISHLARI BO'YICHA
VAKOLATXONASI

**ABBOSALI VAFOIY, SHERALI AVEZMETOV**

# O'ZBEK TILIGA O'ZLASHGAN FORSCHA SO'ZLAR

«Ал-Ҳудо» халқаро нашриёти «Мовароуннаҳр» нашриёти

Tehron-Toshkent
2005

www.ziyouz.com kutubxonasi

انتشارات بین‌المللی الهدی
تهران - صندوق پستی ۴۳۶۳-۱۴۱۵۵
تلفن: ۶۴۰۶۲۶۱ فاکس: ۶۴۰۶۲۴۰

**واژه‌های فارسی در ازبکی**

**مؤلفان:** دکتر عباسعلی وفایی
شیر علی عوض مت اف
**ناشر:** رایزنی فرهنگی سفارت جمهوری اسلامی ایران در تاشکند
**نوبت چاپ:** اوّل
**تعداد:** ۱۰۰۰ نسخه
**تاریخ انتشار:** پاییز ۱۳۸۴ هجری شمسی
**چاپ:** انتشارات بین المللی الهدی و ماوراء النهر
**شابک:** ۰ _ ۱۰۳ _ ۴۳۹ _ ۹۶۴

www.ziyouz.com kutubxonasi

**Xudo nomi bilan**

# SO'ZBOSHI

Fors tili o'tmishda Markaziy Osiyo xalqlarining ilmiy va rasmiy tili bo'lgan. Maktab va madrasalarda darslar asosan ushbu tilda o'qitilgan. Turli ilmiy sohalardagi ko'plab asarlar fors tilida bitilgan bo'lib, bugungi kunda ular katta boqiy va o'lmas xazinani tashkil etadi. Ayniqsa, ushbu o'lkadagi ikkita katta tarixiy va ilmiy markazlardan sanalgan Samarqand va Buxoro shaharlari fors tili va adabiyoti sohasida ulkan beshik bo'lib, bugungi kunda ham u yerda ko'p forsiyzabon xalqlar yashaydi.

O'zbekiston Respublikasida o'zbek tili rivojlanib, davlat tili maqomi berilgandan keyin ham bu ikki til o'rtasida mushtaraklik va ittifoq o'z barqarorligini saqlab qoldi. Olimlar bu ikki til rivojlanishi yo'lida katta sa'y-harakatlar ko'rsatdilar va asrlar davomida shakllangan ikkala tilda ijod etish an'anasini davom etdirdilar. Bu ikki til ma'no, mazmun va so'zlarning boyishida bir-biriga sezilarli ta'sir ko'rsatgan bo'lib, bu haqda batafsil so'z yuritish uchun alohida kitob yozish lozim bo'ladi.

Mazkur asarda asosan o'zbek tilida fors-tojik tilidan o'tgan so'zlar miqdorini belgilash orqali bu ikki tilning mushtarak jihatlari naqadar ko'p ekanligiga e'tiborni qaratdik.

Har bir tilning boshqa til ta'siriga uchrashi va so'zlar o'zlashtirilishi tabiiy jarayondir. Til o'zining asl xususiyatini saqlagan holda boshqa tillardan yangi leksik elementlarini o'zlashtirgan taqdirdagina rivojlana oladi.Bu xususda o'zbek tili ham boshqa tillardan mustasno emas. Albatta, forscha so'zlarning o'zbek tiliga qanday ta'sir ko'rsatganligini bildiruvchi ko'pgina omillar mavjud. Bu omillarning eng asosiysi sifatida asrlar davomida tojik va o'zbek xalqlarining yonma-yon yashab kelganlari, O'zbekistonning Tojikiston va Afg'oniston bilan chegaradosh ekanligi, shuningdek, O'zbekistonda fors tilida ko'plab ilmiy, adabiy va diniy-falsafiy asarlarning mavjudligini ko'rsatish haqiqatdan uzoq emas.

Shuni ham qayd qilish kerakki, ushbu o'lkada yashayotgan tojiklarning leksikasida ham o'zbekcha so'zlar ko'p bo'lib, tadqiqotchilar bu borada qator izlanishlar olib borganlar va kelajakda ham bunday xayrli ishlar davom etajak.

Qo'lingizdagi kitob ana shu yo'nalishdagi tadqiqotlarning mantiqiy davomi bo'lib, undan qiyosiy leksikologiya, leksikografiya sohasidagi izlanishlarda, umuman, o'z tili va millati taqdiriga befarq bo'lmagan har bir inson tomonidan foydalaniladi, degan umiddamiz.

**Abbosali Vafoiy,**
***filologiya fanlari doktori, professor, Eron Islom Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi elchixonasi huzuridagi Madaniyat ishlari vakolatxonasi rahbari***



www.ziyouz.com kutubxonasi

# A

| | | |
|---|---|---|
| abdolvash | ( ابدال وش ) | arab-fors. qalandarsifat, sodda. |
| abgor | ( ابگار ) | fors. nochor, xarob, yomon vaziyatga tushgan, kasodga uchragan kimsa. |
| ablahona | ( ابلهانه ) | arab-fors. 1) nodon kishilardek, ahmoqona; 2) qabihlarcha, razillarcha, razilona. |
| abr | ( ابر ) | fors. bulut. |
| abrishim | ( ابریشم ) | fors. 1) ipak; ipak gazlama, shoyi. |
| abro‘ | ( ابرو ) | fors. qosh. |
| abro‘kamon | ( ابروکمان ) | fors. qoshikamon, qoshi yoydek, qoshlari qayrilgan. |
| abzal | ( ابزل ) | fors. yugan, egar-jabduq. |
| adibona | ( ادیبانه ) | arab-fors. 1) adib kabi; 2) adabiy. |
| adolatpanoh | ( عدالت پناه ) | arab-fors. adolatni himoya qiluvchi, adolatli, odil. |
| adolatparvar | ( عدالت پرور ) | arab-fors. adolat tarafdori, adolat, haqqoniyat uchun kurashuvchi. |
| adolatpesha | ( عدالت پیشه ) | arab-fors. odil, adolatli. |
| adras | ( ادرس ) | fors. paxta ipi va ipakdan to‘qilgan mato. |
| adrasbof | ( ادرس باف ) | fors. adrasdan mato to‘quvchi usta, kosib. |
| afgor | ( افگار ) | fors. 1) yarador, majruh; 2) qiynalgan, toliqqan, ezilgan, horg‘in. |
| afsona | ( افسانه ) | fors. 1) afsona, ertak, doston; 2) cho‘pchak, uydirma, yolg‘on-yashiq. |
| afsonaviy | ( افسانوی ) | fors. 1) afsona, ertakka taa’lluqli; 2) yolg‘on, aqlga sig‘maydigan. |
| afsonavor | ( افسانه وار ) | fors. aql bovar qilmaydigan, misli ko‘rilmagan, mislsiz. |
| afsun | ( افسون ) | fors. 1) sehr, jodu; 2) makr, hiyla. |
| afsungar | ( افسونگر ) | fors. sehrgar, jodugar. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| afsunkor | (افسونکار) | fors. 1) afsungar; 2) g'oyat go'zal, dilbar, yoqimli, jozibali. |
| afsus | (افسوس) | fors. 1) afsuslanish, o'kinish, pushaymon; 2) attang, esiz, esizgina. |
| aftoda | (افتاده) | fors. 1) zaif, notavon; 2) yiqilgan, qulagan; 3) g'am-anduh bilan yoki dard chekib ozib-to'zib ketgan, ahvoli tang. |
| aftodahol | (افتاده حال) | fors-arab. 1) aftoda; 2) o'lim to'shagida yotgan kishi. |
| afg'on | (افغان) | fors. faryod, nola, fig'on. |
| agar | (اگر) | fors. agar, agarda, -sa ham, -ganda. |
| agarchi | (اگر چه) | fors. agarchi, garchi, agar. |
| ahdnoma | (عهدنامه) | arab-fors. shartnoma, ahdnoma, ahd, bitim. |
| ahd-paymon | (عهد و پیمان) | arab-fors. 1) kelishuv, rozilik; 2) o'zaro sodiqlikka qilingan ahd, va'da; 3) davr, vaqt. |
| ahmoqona | (احمقانه) | arab-fors. ahmoqlarcha, ahmoqlarga xos, tentaklarcha. |
| ajabo | (عجبا) | arab-fors. 1) ajablanarli, g'aroyib; 2) nahotki, rostdanmi, ha-ya. |
| ajabtovur | (عجب طور) | arab. binoyiday, yaxshigina. |
| ajamiy | (عجمی) | arab. arab bo'lmagan, eronlik. |
| ajdaho | (اژدها) | fors. 1) ajdar; 2) qonxo'r (yovuz odam haqida). |
| ajdar | (اژدر) | fors. ajdar, ajdaho. |
| ajdarho | (اژدرها) | fors. ajdar, ajdaho. |
| ajdarnafs | (اژدرنفس) | fors-arab. ajdar kabi yeb to'ymas, ochko'z, badnafs. |
| ajoyibxona | (عجایب خانه) | arab-fors. muzey. |
| alak | (الک) | fors. elak. |
| alamangiz | (الم انگیز) | arab-fors. azob beruvchi, tashvish uyg'otuvchi, qayg'uli, xafa qiladigan. |
| alamdiyda | (المدیده) | arab-fors. ranj, azob, g'am chekkan. |
| alamdor | (علم دار) | arab-fors. bayroqdor, bayroq, tug' ko'taruvchi. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

alamnok (الم ناک) arab-fors. 1) og'riq. azob berayotgan joy 2) ranj. alam chekkan.

alamzada (الم زده) arab-fors. 1) ranj, azob chekkan; 2) g'azabining qattiqligidan o'ch olishga qasd qilgan kimsa. darg'azab.

aloqador (علاقه دار) arab-fors. 1) aloqasi bo'lgan, daxldor, bog'liq, tegishli; 2) manfaatdor, qizziqqan.

amaldor (عمل دار) arab-fros. mansabdor shaxs, lavozim egasi.

amalparast (عمل پرست) arab-fors. mansabparast, martabaparast, amalni yaxshi ko'ruvchi.

amlokdor (املاک دار) arab-fors. 1) zamindor, mulkdor, katta yer egasi; 2) soliq yig'uvchi ma'mur (Buxoro xonligi davrida).

ammavachcha (عمه بچه) arab-fors. ammavachcha (ota singlisinig farzandlari).

anbarafshon (عنبر افشان) arab-fors. anbar hid taratuvchi, xushbo'y, xushhid.

anbor (انبار) fors. ombor, omborxona.

anborxona (انبارخانه) fors. ombor.

anbur (انبور) fors. ombir, qisqich.

andak (اندک) fors. 1) kam, ko'p bo'lmagan; 2) ozgina, ahamiyatsiz; 3) bir muncha, bir qadar.

andarmon (اندرمان) fors. band, mashg'ul, ovora.

andaza (اندازه) fors. 1) andaza, qolip, namuna; 2) o'lchov, me'yor, mezon.

andisha (اندیشه) fors. 1) aqllilik, donolik, uzoqni ko'rishlik, tadbirlilik; 2) o'y, fikr, mulohaza, tafakkur; 3) uyat, or, nomus, sharm hayo.

andom (اندام) fors. 1) tan, badan, jism; 2) qaddi-qomat, gavda.

andoza (اندازه) fors. 1) o'lchov; 2) me'yor, chegara, had; 3) bichiq, bichim.

anduh (اندوه) fors. 1) g'am, g'ussa, qayg'u, hasrat; 2) afsuslanish, ta'assuf.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| angushtvona | ( انگشتوانه ) | fors. angishvona. |
| anjir | ( انجیر ) | fors. anjir (meva). |
| anjirzor | ( انجیر زار ) | fors. anjir bog'i, anjirzor. |
| anjom | ( انجام ) | fors. 1) uy-ro'zg'or buyumlari; 2) kerak-yaroq, aslahaanjom, asbob; 3) mol-mulk. |
| anjuman | ( انجمن ) | fors. 1) majlis, yig'ilish, qurultoy; 2) tashkilot, uyushma. |
| anor | ( انار ) | fors. anor (meva). |
| anorzor | ( انار زار ) | fors. anor bog'i. |
| aqidaparast | ( عقیده پرست ) | arab-fors. aqidaparast, aqidalarga ko'r-ko'rona ergashuvchi, ishonuvchi. |
| arabshunos | ( عرب شناس ) | arab-fors. arabshunos, arab tili mutaxassisi. |
| aroqxo'r | ( عرق خور ) | arab-fors. ichkilikka berilgan, aroqni ko'p ichadigan kishi, mayzada. |
| aravakash | ( عرابه کش ) | arab-fors. 1) aravakash; 2) yuk tashuvchi, kirakash. |
| aravasoz | ( عرابه ساز ) | arab-fors. aravasoz, arava tuzatuvchi, arava yasovchi usta. |
| arizaboz | ( عریضه باز ) | arab-fors. arizaboz, turli ariza, shikoyatlar yozish bilan shug'ullanuvchi kimsa, g'iybatchi, ig'vogar. |
| arizanavis | ( عریضه نویس ) | arab-fors. pulga ariza, shikoyat yozib beruvchi shaxs. |
| arjumand | ( ارجمند ) | fors. 1) aziz, mehribon, qimmatli; 2) sazovor, loyiq; 3) boy, taminlangan; 4) saxiy, javonmard, himmati baland; 5) dono, hushyor, oqil, farosatli. |
| ark | ( ارک ) | fors. ark, shahar ichidagi podshoh saroyi. |
| armon | ( ارمان ) | fors. 1) orzu, umid, istak; 2) pushaymonlik, o'kinch. |
| armug'on | ( ارمغان ) | fors. hadya, sovg'a, tuhfa, tortiq. |
| arobakash | ( عرابه کش ) | arab-fors. aravakash. |
| arra | ( اره ) | fors. arra. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| arrakash | ( اره کش ) | fors. arrakash, kasbi arralash bo'lgan kimsa. |
| arzanda | ( ارزنده ) | fors. 1) aziz, sevikli, qadrdon (ko'proq farzand haqida); 2) qimmatli, arziydigan; 3) erka, erkatoy, bebosh; 4) ayollar nomi. |
| arzgo'y | ( عرضگوی ) | arab-fors. arz bilan kelgan yoki murojaat qilgan kishi. |
| arznoma | ( عرضنامه ) | arab-fors. ariza, arznoma, iltimosnoma. |
| arzon | ( ارزان ) | fors. arzon, bahosi past, uncha qimmat bo'lmagan. |
| arzongaron | ( ارزان گران ) | fors. arzongarov. |
| arzongarov | ( ارزان گراو ) | fors. asl qiymatidan juda arzon, deyarli tekin. |
| asilzoda | ( اصل زاده ) | arab-fors. asilzoda, oqsuyak. |
| aslahasoz | ( اسلحه ساز ) | arab-fors. qurol yasovchi usta. |
| aslahaxona | ( اسلحه خانه ) | arab-fors. qurol-yaroq ombori. |
| asp | ( اسپ ) | fors. 1) ot; 2) shahmatda ot shaklidagi sipoh, ot; 3) asp yili - ot yili. |
| asrdosh | ( عصر داش ) | arab-fors. asrdosh, zamondosh. |
| astar | ( استر ) | fors. astar, taglik. |
| astoyidil | ( از ته دل ) | fors. 1) chin ko'ngildan, chindan, sidqidil bilan; 2) chinakamiga, rostakamiga, jiddiy ravishda; 3) halollik bilan, insof bilan, vijdonan. |
| avbosh | ( اوباش ) | fors. qaysar, o'jar, razil, bezori. |
| avliyonamo | ( اوليا نما ) | arab-fors. darvishsifat, darvishnamo. |
| avra | ( اوره ) | fors. avra, kiyim, adyolning ust tomoni. |
| avra-astar | ( اوره استر ) | fors. kiyimning osti va usti. |
| avratpush | ( عورت پوش ) | arab-fors. shariat bo'yicha ochish mumkin bo'lmagan joylarni berkitib turuvchi kiyim. |
| avvalambor | ( اولا بار ) | arab-fors. avval shuki, avvalo. |
| axloqiy | ( اخلاقی ) | arab. axloqiy, axloqqa tegishli. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| axlatxona | (اخلاط خانه) | arab-fors. axlat to'kish uchun maxsus ajratilgan joy. |
| aybdor | (عیبدار) | arab-fors. 1) aybdor, gunohkor, jinoyatchi; 2) jismoniy jihatdan biror kamchiligi bo'lgan, aybli. |
| aybnoma | (عیب نامه) | arab-fors. 1) aybnoma, ayblov xulosasi, ayblov; 2) fosh qiluvchi hujjat, asar va sh. k. |
| aybona | (عیبانه) | arab-fors. to'lov, tovon, zarar o'rniga pul to'lash. |
| ayolmand | (عیالمند) | arab-fors. oilali, uylangan, ko'p bolali, bola-chaqali. |
| ayvon | (ایوان) | fors. ayvon. |
| ayyorona | (عیارانه) | arab-fors. ayyorona, makkorona, ayyorlik bilan, quvlik bilan, ayyorlarcha. |
| ayshgoh | (عیش گاه) | arab-fors. ishratxona, aysh-ishrat, kayf-safo joyi. |
| az | (از) | fors. 1) -dan (chiqish kelishigi qo'shimchasi); 2) az ro'zi azal - avval boshdan, qadimdan, ilgaridan. |
| azador | (عزادار) | arab-fors. azador, motamsaro, ta'ziyali. |
| azoyimxon | (عزایم خوان) | arab-fors.kasallarga dam solib, sehr-afsunlar o'qib davolashni o'ziga kasb qilib olgan odam, duoxon. |
| azbaroyi | (از برای) | fors. uchun, sababli. |
| azimkor | (عظم کار) | arab-fors. buyuk ishlarni bajaruvchi, buyuk ishlarga qodir kimsa. |
| azmkor | (عزم کار) | arab-fors. qat'iyatli, jur'atli, so'zida qat'iy turadigan. |
| azmoyish | (آزمایش) | fors. 1) sinov, imtihon, tajriba; 2) taxmin qilish, chamalash, faraz etish, gumon qilish. |
| azoyimxon | (عزایم خوان) | arab-fors. duoxon, afsungar. |
| aztahidil | (از ته دل) | fors. chin qalbdan, samimiy. |
| ashk | (اشک) | fors. ko'z yoshi. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# B

| | | |
|---|---|---|
| bad | ( بد ) | fors. 1) yomon, razil, past, yaramas, palid; 2) yoqimsiz, xunuk. |
| badar | ( به در ) | fors. badar ketmoq - nom-nishonsiz ketmoq, qorasini ham ko'rsatmay g'oyib bo'lmoq. |
| badastir | ( بد ستير ) | fors. har tomonlama ta'minlangan, kam-ko'sti yo'q. |
| badavlat | ( بد دولت ) | fors-arab. badavlat, boy, puldor, davlatmand. |
| badaxloq | ( بد اخلاق ) | fors-arab. axloqi yomon, axloqsiz. |
| badaz | ( بعد از ) | arab-fors. keyin, so'ng, -dan keyin. |
| badbaxt | ( بدبخت ) | fors. baxtsiz, sho'rpeshana, tolei past. |
| badbashara | ( بد بشره ) | fors-arab. badbashara, xunuk, beo'xshov, badburush. |
| badbin | ( بد بين ) | fors. 1) umidsiz, ruhi tushgan, ertangi kunga umidsizlik bilan qarovchi kishi; 2) ichi qora, yomon niyatli, birovlarga yomonlik tilaydigan kimsa. |
| badbo'y | ( بد بوى ) | fors. badbo'y, sassiq hid, qo'lansa. |
| badfe'l | ( بد فعل ) | fors-arab. badfe'l, yomon odatli kimsa. |
| badgir | ( بدگير ) | fors. boshqalarga yomonlik, yovuzlik tilovchi kimsa, ko'ngli qora odam. |
| badgumon | ( بدگمان ) | fors. 1) yomon gumon, yomon xayol qiluvchi; 2) rashk qiluvchi, hasadchi. |
| I. badhavo | ( بدهوا ) | fors-arab. yomon, iflos havo. |
| II. badhavo | ( بد هوا ) | fors-arab. takabbur, havoyi, burni osmonda bo'lgan kimsa. |
| badhaybat | ( بد هيبت ) | fors-arab. qo'rqinchli, dahshatli. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| badjahl | ( بد جهل ) | fors-arab. badjahl, qahrli, zolim, achchig'i tez, jahli yomon. |
| badkirdor | ( بد کردار ) | fors. badkor, yomon, yaramas ish qiluvchi kimsa. |
| badkor | ( بدکار ) | fors. 1) yomon, yaramas ish qiluvchi kimsa; 2) zinokor, fosiq. |
| badmast | ( بد مست ) | fors. badmast, qattiq mast, mast bo'lib yomon qiliqlarlar qiladigan. |
| badmuomala | ( بد معامله ) | fors-arab. yomon muomalali, muomalasi yomon, iltifotsiz, madaniyatsiz kimsa. |
| badnafas | ( بد نفس ) | fors-arab. nafasi sovuq, bo'lajak bir ishdan yaxshilik emas, yomonlik kutuvchi, yomon nafas qiluvchi. |
| badnafs | ( بد نفس ) | fors-arab. 1) nafsi yomon, ochko'z, tamagir; 2) shahvatparast. |
| badnamo | ( بد نما ) | fors. basharasi xunuk, yoqimsiz, sovuq, jirkanch. |
| badniyat | ( بد نیت ) | fors-arab. yomon niyatli, yovuzlik tilovchi, yovuzlik istovchi kimsa. |
| badnom | ( بد نام ) | fors. yomonlik bilan, sharmandalik bilan, yovuzlik bilan, ot, nom chiqargan kimsa, yomon otliq. |
| badrashk | ( بد رشک ) | fors. haddan tashqari rashk qiluvchi, o'ta rashkchi. |
| badro'y | ( بد روی ) | fors. xunuk yuzli, badbashara, basharasi sovuq. |
| badtar | ( بدتر ) | fors. 1) yomonroq, yanada yomonroq; 2) yanada ko'proq, ko'proq darajada. |
| badxat | ( بد خط ) | fors-arab. 1) xati yomon, yozuvi xunuk; 2) o'qib bo'lmaydigan xunuk xat. |
| badxoh | ( بدخواه ) | fors. ko'ngli qora, ichi qora, yomon niyatli kimsa. |
| badxulq | ( بد خلق ) | fors-arab. yomon xulqli, yaramas, qilig'i sovuq. |
| badxo'r | ( بد خور ) | fors. 1) bemaza, mazasiz; 2) yeb bo'lmaydigan. |
| badxo'y | ( بد خوی ) | fors. fe'li, xulq-atvori yomon, yaramas. |
| badzot | ( بد ذات ) | fors-arab. zoti, nasli yomon, tagi past. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

badchehra (بد چهره) fors. 1) badbashara, basharasi xunuk, ko‘rimsiz; 2) chehrasi sovuq, kayfi, avzoyi buzuq, chehrasi ochilmaydigan.

bafarmon (به فرمان) fors. farmon, amr bilan.

bafurja (به فرجه) fors-arab. xotirjamlik bilan, shoshmasdan, bamaylixotir.

baham (به هم) fors. baham ko‘rmoq, o‘rtada bo‘lmoq.

bahamjihat (بهم جهت) fors-arab. bahamjihat, yakdil, do‘stona.

baharhol (بهر حال) fors-arab. har holda, hech bo‘lmaganda.

baharnav (بهر نوع) fors-arab. 1) yomon emas, chidasa bo‘ladigan; 2) har holda.

bahavo (با هوا) fors-arab. havosi mo‘l va musaffo, shu bilan birga keng, ochiq.

bahayo (با حيا) fors-arab. hayoli, iboli, orli.

bahaybat (بهيبت) fors-arab. 1) juda katta, ulkan; 2) dahshatli, qo‘rqinchli.

baho (بها) fors. 1) baho, ball; 2) narx, qiymat.

bahona (بهانه) fors. 1) bahona, vaj, ro‘kach; 2) boshlang‘ich sabab, bois.

bahor (بهار) fors. 1) bahor (fasl nomi); 2) Bahor (qizlar nomi).

bahori (بهارى) fors. bahorda ekilib shu yilning yozida yetiladigan (asosan don ekinlari haqida).

bahorikor (بهار كار) fors. sug‘orilmaydigan, lalmikor.

bahoriston (بهارستان) fors. 1) bahor mamlakati, gullagan diyor; 2) Abdurahmon Jomiy asarining nomi.

bahra (بهره) fors. 1) foyda, naf’; 2) maza, huzur, zavq, lazzat; 3) hissa, ulush; 4) hosil, meva.

bahramand (بهره مند) fors. 1) foydalanuvchi, istifoda qiluvchi; 2) zavq oluvchi, lazzat qiluvchi, huzur qiluvchi.

bahridil (بهر دل) fors. bahridili ochildi - ko‘ngli ochildi, kayfi chog‘, vaqti xush bo‘lib ketdi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| bahrom | ( بهرام ) | fors. 1) Mirrix sayyorasining nomi; 2) Eronning qadimgi podsholaridan birining nomi; 3) erkaklar ismi. |
| bahuzur | ( بحضور ) | fors-arab. 1) tinch, xotirjam, osoyishta; 2) yengil, erkin, bemalol; 3) bemalol, ruxsat. |
| bajo | ( بجا ) | fors. 1) yaxshi, durust, joyida, chakki emas, yomon emas; 2) xo'p, xo'p bo'ladi, ma'qul. |
| bajon | ( بجان ) | fors. bajonidil. |
| bajonidil | ( بجان دل ) | fors. bajonidil, chin ko'ngildan, mamnuniyat bilan, jon deb. |
| bakor | ( بكار ) | fors. 1) biror kishining ishiga, hojatiga yaramoq; 2) uddalamoq, ustun kelmoq. |
| baland | ( بلند ) | fors. 1) baland, yuksak; 2) uzun; 3) oliy; 4) yuqori (isitma). |
| balandmartaba | ( بلند مرتبه ) | fors-arab. yuqori martabali, katta lavozimli. |
| balandparvoz | ( بلند پرواز ) | fors. 1) baland parvoz qiluvchi, osmonda yuksaklikka ko'tariluvchi; 2) dabdabali, balandparvoz; 3) lofchi; 4) o'zini katta oladigan, katta gapiradigan, juda ham mag'rur. |
| balki | ( بلكه ) | fors. balki, ehtimol. |
| balli | ( بلی ) | fors. 1) ofarin, yasha (maqtov); 2) tasdiq, ta'kid; 3) ha, to'g'ri. |
| balogardon | ( بلا گردان ) | arab-fors. 1) balo, ofatni daf qiluvchi, qaytaruvchi, xaloskor; 2) baloga qolgan odam. |
| baloxo'r | ( بلاخور ) | arab-fors. tekinxo'r, o'zgalarning haqini yeyuvchi kimsa, haromxo'r. |
| bama'ni | ( بمعنى ) | fors-arab. 1) ma'noli, mazmunli; 2) hushli, aqlli, farosatli. |
| bamaslahat | ( بمصلحت ) | fors-arab. maslahatlashib, kengashib, fikrlashib. |
| bamaylixotir | ( بميل خاطر ) | fors-arab. 1) xotirjam, osoyishta, oshiqmay; 2) hech qanday o'ng'aysizlik sezmasdan, hech narsadan xavotir olmay, bemalol. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| bamisli | ( بمثل ) | fors-arab. misli, xuddi, kabi. |
| bamisoli | ( بمثال ) | fors-arab. kabi, xuddi, singari, -dek. |
| band I. | ( بند ) | fors. 1) dasta, tutqa; 2) bo'g'im, bo'g'in. |
| band II. | ( بند ) | fors. 1) mashg'ul, ovora; 2) ip, tanob; 3) kishan, bo'g'ov, zanjir; 4) asir, tutqun. |
| banda | ( بنده ) | fors. 1) qul, banda; 2) men, kamina; 3) mute', itoatkor; 4) shaydo, oshiq. |
| bandargoh | ( بندرگاه ) | arab-fors. 1) yo'l, guzargoh; 2) po'rt, kemalar to'xtaydigan joy. |
| bandi | ( بندى ) | fors. 1) asir, mubtalo; 2) mahbus. |
| bang | ( بنگ ) | fors. taryok, nasha. |
| bangi | ( بنگى ) | fors. taryok iste'mol qiluvchi, nashavand. |
| bangidevona | ( بنگى ديوانه ) | fors. bangidevona (kayf beruvchi giyoh). |
| banginamo | ( بنگى نما ) | fors. nashavand, ko'knori kabi ko'rinishdagi kimsa, bangi tabiat odam. |
| bangixona | ( بنگى خانه ) | fors. nashavandlar jam bo'lib bang chekadigan xona. |
| banogoh | ( بنا گاه ) | fors. nogoh, to'satdan, birdan, kutilmaganda, ittifoqo. |
| baqadrihol | ( بقدر حال ) | fors-arab. imkon qadar, mumkin qadar, qo'ldan kelgancha, baholi qudrat. |
| baqavli | ( به قول ) | fors-arab. bamisoli, xuddi. |
| baqiyador | ( بقيه دار ) | arab-fors. qarzdor, boqimandachi. |
| baquvvat | ( بقوت ) | fors-arab. 1) sog'lom, quvvatli, kuchli; 2) mustahkam, pishiq; 3) puldor, boy, davlatli; 4) yaxshi o'sgan, barivoj. |
| bar | ( بر ) | fors. kiyim etagi. |
| bar'aks | ( بر عكس ) | fors-arab. teskari, aksincha. |
| baravar | ( برابر ) | fors. 1) baravar, teng, bir xil; 2) bir vaqtda, bir paytda. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| baravj | ( بر اوج ) | fors-arab. avjida. |
| barbod | ( بر باد ) | fors. 1) vayron, xarob, buzilgan; 2) foniy, o'tkinchi. |
| bardam | ( بردم ) | fors. sog'lom, tetik, g'ayratli. |
| bardor-bardor | ( بردار بردار ) | fors. 1) qo'lma-qo'l ko'tarmoq, olqishlamoq; 2) tilyog'lamalik, xushomadgo'ylik, yaltoqlanish. |
| bardosh | ( برداش ) | fors. sabr-toqat, chidam, matonat, to'zim. |
| barg | ( برگ ) | fors. barg, yaproq. |
| bargak I. | ( برگک ) | fors. quritilgan, danagi olingan o'rik. |
| bargak II. | ( برگک ) | fors. tilla va kumush tangalardan iborat ayollar peshonasiga taqadigan ziynat taqinchoq. |
| bargikaram | (برگ کرم ) | fors. 1) karam rangidagi, pista rang; 2) shunday rangdagi gullari bo'lgan ipak mato. |
| bargcha | ( برگچه ) | fors. bargcha, kichik yaproq. |
| barham | ( برهم ) | fors. 1) barham bermoq, chek qo'ymoq, tugatmoq, bekor qilmoq; 2) tashvishlangan, hayajonlangan. |
| barhaq | ( بر حق ) | fors-arab. haqiqiy, rost, haqiqatan ham mavjud, haqqoniy. |
| barhavo | ( بر هوا ) | fors-arab. bohavo, havosi toza, xushhavo. |
| barhayot | (بر حيات ) | fors-arab. tirik, barhayot, yashab turgan. |
| barkamol | ( بر كمال ) | fors-arab. barkamol, yetuk, nuqsonsiz. |
| barkash | ( بر كش ) | fors. doira shaklidagi mis yoki kumush lagan (patnis o'rnida ishlatiladi). |
| barno | ( برنا ) | fors. 1) yosh, navqiron, 2) chiroyli, kelishgan, xushbichim; 3) qizlar ismi. |
| barobar | ( برابر ) | fors. 1) baravar, teng, bir xil; 2) birga, bir vaqtda, birgalashib, bir yoqadan bosh chiqarib. |
| barodar | ( برادر ) | fors. 1) aka; 2) do'st, o'rtoq. |
| barpo | ( برپا ) | fors. 1) qurmoq, yasamoq; 2) tashkil qilmoq, tuzmoq. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| barra | ( بره ) | fors. 1) qo'y, ohu bolasi; 2) yosh, yangi, endigina ko'kargan, mayin; 3) qo'zichoq terisi. |
| bartaraf | ( برطرف ) | fors-arab. 1) bartaraf qilmoq, hal qilmoq, to'g'rilamoq, yo'lga qo'ymoq; 2) tugatmoq, yo'q qilmoq. |
| barvaqt | ( بر وقت ) | fors-arab. 1) erta tong; 2) ertaroq, oldinroq; 3) belgilangan vaqtdan oldin, muddatidan ilgari. |
| barvasta | ( بروسته ) | fors. qaddi baland, kelishgan, gavdali, bo'ydor, keng yag'rinli. |
| barzangi | ( بر زنگی ) | fors. 1) qora tanli; 2) qorachadan kelgan, savlatli, jussali, to'la. |
| barsh | ( برش ) | fors. taryok, afyun. |
| bas | ( بس ) | fors. 1) bas, yetar, bo'lar, kifoya, bo'ldi, qo'ying; 2) demak, shunday qilib. |
| basalobat | ( بصلابت ) | fors-arab. savlatli, ko'rkam, ulug'vor, muhtasham, dabdabali, hashamatli. |
| basavlat | ( بصولت ) | fors-arab. savlatli, ko'rkam, ko'rinishi, qiyofasi hurmat-ehtirom uyg'otadigan, ulug'vor. |
| bast | ( بست ) | fors. qaddi-qomat, gavda, tana. |
| basta | ( بسته ) | fors. bog'langan, zanjirlangan, qulflangan, bog'liq. |
| bastakor | ( بسته کار ) | fors. 1) musiqa yozuvchi; 2) bo'shang, lanj, sust, sekin ishlaydigan. |
| batafsil | ( بتفصیل ) | fors-arab. mufassal, batafsil, tola-tokis, mukammal, tafsiloti bilan. |
| batamiz | ( با تمیز ) | fors-arab. tamizi bor, tamizli, farosatli. |
| batamom | ( بتمام ) | fors-arab. tamoman, butunlay, qati'yan, uzil-kesil. |
| batang | ( بتنگ ) | fors. quloqlarni batang qilmoq, quloqlarni garang qilmoq. |
| batartib | ( بترتیب ) | for-arab. tartibli, intizomlil, saranjom-sarishta. |
| battar | ( بدتر ) | fors. yomonroq, yomon. |
| battarin | ( بدترین ) | fors-arab. o'taketgan yomon, juda yomon. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| baxayr | (بخير) | fors. 1) yaxshi, soz, ezgu; 2) bemorning tezroq tuzalishiga bo'lgan istak ifodasi. |
| baxt | (بخت) | fors. baxt, tole, omad, iqbol. |
| baxtiyor | (بختيار) | fors. 1) baxtli, saodatli, iqbolli; 2) erkaklar ismi. |
| baxtiyoriy | (بختيارى) | fors. uzum navi. |
| baxtnoma | (بختنامه) | fors. baxt- saodatni madh qiluvchi she'r, asar va shu kabilar. |
| baxsh | (بخش) | fors. 1) hadya etmoq, sovg'a qilmoq; 2) chiroy, ko'rk, jilva bermoq; 3) avf etish, kechirish; 4) bo'lak, parcha, ulush, qism. |
| baxshish | (بخشش) | fors. sadaqa, ehson, xayr, in'om. |
| bayonnoma | (بيان نامه) | arab-fors. bayonnoma. |
| bazm | (بزم) | fors. bazm, ziyofat, mehmondorchilik. |
| bazmgoh | (بزمگاه) | fors. bazmxona, bazm o'tkaziladigan joy. |
| bazmoro | (بزم آرا) | fors. bazmga jon kirgizuvchi, bazmni qizdiruvchi, xushkayfiyat beruvchi. |
| bazmxona | (بزم خانه) | fors. ziyofat, bazm o'tkaziladigan joy. |
| bazo'r | (بزور) | fors. zo'rg'a, qiyinchilik bilan, arang, bir amallab, mashaqqat bilan. |
| bag'ayrat | (بغيرت) | fors-arab. g'ayratli, harakatchan, faol, serg'ayrat. |
| bag'oyat | (بغايت) | fors-arab. o'ta, juda, g'oyat, nihoyatda, g'oyat darajada. |
| basharti | (بشرط) | fors-arab. agar, mabodo, agarda, modomiki. |
| bachadon | (بچه دان) | fors. bachadon. |
| bachkana | (بچكنه) | fors. 1) bolalar uchun, bolalarniki (kiyim-kechak va shu kabilar); 2) bolalarcha, yengiltabiatlik bilan qilingan, qo'pol. |
| bachcha | (بچه) | fors. 1) bola, go'dak; 2) farzand. |
| bachchaboz | (بچه باز) | fors. bachchavoz, bolavoz. |
| bachchadon | (بچه دان) | fors. bachchadon. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

bachchataloq (بچه طلاق) fors-arab. 1) taloq bo'lgan ayoldan tug'ilgan bola; 2) shumtaka, shayton (yengil koyish).

beadab (بی ادب) fors-arab. 1) betarbiya , adabsiz, ahmoq, tentak, tarbiya ko'rmagan; 2) nomunosib, nojo'ya, chakki, noloyiq; 3) savodsiz, ilmsiz, o'qimagan.

beadabona (بی ادبانه) fors-arab-fors. odob-tarbiya ko'rmagan kishilardek, odobsizlarcha.

beadad (بی عدد) fors-arab. cheksiz, son-sanoqsiz, behisob.

bea'mal (بی عمل) fors-arab. 1) mansabi, unvoni, lavozimi bo'lmagan; 2) dangasa, yalqov, ishyoqmas.

beamr (بی امر) fors-arab. buyruqsiz, ko'rsatmasiz, dastursiz.

beandisha (بی اندیشه) fors. 1) o'ylamasdan, mulohaza qilmasdan; 2) behayo, besharm, uyatsiz, nomussiz.

beandoza (بی اندازه) fors. 1) andozasiz, o'lchovsiz; 2) mutanosib bo'lmagan, haddan tashqari, chegaradan tashqari, juda ham; 3) o'lchovni, me'yorni bilmaydigan.

beaql (بی عقل) fors-arab. 1) ahmoq, nodon, tentak; 2) aqlsiz, ilmsiz.

bearmon (بی آرمان) fors. 1) armonsiz, xursand, rozi, orzusiga yetishgan; 2) to'yguncha, istagancha, xohlagancha.

beaxloq (بی اخلاق) fors-arab. 1) axloqsiz, axloqi buzuq; 2) tarbiya ko'rmagan, adabsiz.

beayb (بی عیب) fors-arab. 1) aybsiz, gunohsiz; 2) zarar yetmagan, nuqsonsiz, beillat.

beaziyat (بی اذیت) fors-arab. aziyatsiz, qiyinchiliksiz, mashaqqatsiz, azobsiz, osonlik bilan.

bebaho (بی بها) fors. qimmatli, qimmatbaho, juda qadrli.

bebahra (بی بهره) fors. 1) benasib, foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lgan; 2) faqir, kambag'al, darvish; 3) foydasiz, behuda, bekor, befoyda.

bebaraka (بی برکه) fors-arab. barakatsiz, foydasiz, foyda keltirmaydigan; 2) kamsamara, unumsiz.



www.ziyouz.com kutubxonasi

bebaxt (بی بخت) fors. 1) baxtsiz, omadsiz; 2) g'amgin, ma'yus, qayg'uli.

bebok (بی باک) fors. qo'rqmas, mard, botir, dovyurak.

bebozor (بی بازار) fors. bebozor, begim kuni, bozor kunidan boshqa kun.

beburd (بی برد) fors. 1) so'ziga vafo qilmaydigan, betayin, subutsiz; 2) burdsiz, bachkana, ishonchni yo'qotgan, tuturuqsiz.

bedarak (بی درک) fors-arab. daraksiz, nom-nishonsiz, noma'lum, hech qanday xat-xabarsiz.

bedard (بی درد) fors. 1) dardsiz, og'riqsiz;2) berahm, zolim.

bedarmon (بی درمان) fors. zaif, kuchdan qolgan, darmoni qurigan, holsiz.

bedarvoza (بی دروازه) fors. 1) darvozasiz, darvozasi yo'q; 2) nazoratsiz, egasiz.

bedov (بی داو) fors-arab. uchqur, o'ynoqi (ot haqida).

bedavlat (بی دولت) fors-arab. davlatsiz, boyliksiz, mulksiz.

bedavo (بی دوا) fors-arab. 1) davolab bo'lmaydigan, tuzalmas; 2) juda xunuk, kelishmagan, ko'rimsiz, badbashara.

bedil (بی دل) fors. 1) g'amgin, xafa, hazin, qayg'uli; 2) iltifotsiz, bemehr, nomehribon; 3) hushidan ayrilish darajasida sevgan, oshiq, ishq o'tida kuygan.

bedin (بی دین) fors-arab. dinsiz, xudosiz, dahriy.

bedod (بی داد) fors. bedod bo'lmoq, hech kimga arz-dod qilolmay noiloj qolmoq.

bedona I. (بی دانه) fors. urug'siz qora kishmishning bir navi.

bedona II. (بی دانه) fors. bir-ikki yashar molning terisidan ishlangan charm.

bedor (بیدار) fors. 1) uyg'oq, uxlamasdan; 2) hushyor, ogoh, ziyrak, tiyrak, sergak.

bedov (بی داو) fors-arab. tez yuguradigan (ot haqida).



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| bee'tibor | (بی اعتبار) | fors-arab. 1) e'tiborsiz, hurmatga loyiq bo'lmagan; 2) haqiqiy emas, bekor qilingan (hujjat haqida); 3) beparvo, aqli parishon, hardamxayol. |
| befahm | (بی فهم) | fors-arab. farosatsiz, befarosat, ovsar, merov, anqov, kaltafahm. |
| befarosat | (بی فراست) | fors-arab. farosatsiz, kaltafahm, befahm, aqli yo'q, betamiz. |
| befarq | (بی فرق) | fors-arab. 1) beparvo, betafovut, e'tiborsiz; 2) halol-haromni, yaxshi-yomonni farqlamaydigan. |
| befarzand | (بی فرزند) | fors. farzandsiz, bolasiz, bola ko'rmagan. |
| befayz | (بی فیض) | fors-arab. fayzsiz, yoqimsiz, ko'rimsiz, xunuk. |
| befikr | (بی فکر) | fors-arab. o'z fikr va qarashiga ega bo'lmagan. |
| befirqa | (بی فرقه) | fors-arab. firqasiz, partiyasiz, firqaga a'zo bo'lmagan. |
| befoyda | (بی فایده) | fors-arab. 1) behuda, bekor, nojo'ya, natijasiz, ma'nosiz; 2) nafsiz, samarasiz, foyda, daromad keltirmaydigan. |
| begona | (بیگانه) | fors. 1) begona, o'zga, notanish; 2) ajnabiy, xorijiy. |
| begumon | (بی گمان) | fors. 1) shubhasiz, shaksiz; 2) shak-shubha, gumon qilmaydigan. |
| begunoh | (بی گناه) | fors. aybsiz, gunohsiz, pok, aybi, jinoyati yo'q. |
| beh | (به) | fors. yaxshi, durust. |
| behad | (بی حد) | fors-arab. benihoya ko'p, cheksiz, hadsiz. |
| behalovat | (بی حلاوت) | fors-arab. 1) ko'ngilsiz, huzur-halovatsiz; 2) notinch, vahimali, tinchi yo'q. |
| behavsala | (بی حوصله) | fors-arab. 1) behavas, beshavq, qiziqmaydigan; 2) sabrsiz, shoshqaloq. |
| behayo | (بی حیا) | fors-arab. 1) uyatsiz, sharmanda, nomussiz, betsiz, yuzsiz, surbet; 2) odob-axloq doirasiga sig'maydigan, beadab. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| behikmat | (بی حکمت) | fors-arab. 1) hikmatsiz, qadr-qimmatsiz; 2) ijobiy xususiyatlarga ega bo'lmagan. |
| behis | (بی حس) | fors-arab. 1) hissiz, tuyg'usiz, hushsiz; 2) ablah, yaramas; 3) muhabbatsiz, ishqsiz, sevgisiz, zavq-shavqsiz. |
| behisob | (بی حساب) | fors-arab. 1) hisobsiz, son-sanoqsiz, bitmas-tuganmas; 2) hisobga olmaganda, sanamaganda; 3) behuda, befoyda. |
| behisht | (بهشت) | fors. jannat, firdavs. |
| behishti | (بهشتی) | fors. uzum navi. |
| behol | (بی حال) | fors-arab. 1) kuchsiz, zaif, bo'shashgan, sust; 2) bemor, kasal, darmonsiz. |
| behruz | (بهروز) | fors. 1) yaxshi, saodatli kun; 2) baxtli, iqbolli, baxtiyor, saodatli; 3) erkaklar ismi. |
| behtar | (بهتر) | fors. 1) yaxshiroq, afzalroq; 2) qulupnay navi. |
| behuda | (بیهوده) | fors. 1) bekor, foydasiz; 2) ma'nosiz, puch, yolg'on, bo'lmag'ur, safsata; 3) o'rinsiz, nohaq; 4) be'mani, bemaza, asossiz. |
| behurmat | (بی حرمت) | fors-arab. hurmatsiz, hurmatga noloyiq, izzat-nafsni yerga urmoq, obro'sini to'kmoq. |
| behuzur | (بی حضور) | fors-arab. o'zini yomon his qilish, ko'ngli aynish. |
| behush | (بیهوش) | fors. 1) hushsiz, hushini yo'qotgan; 2) es-hushini yo'qotgan, xayoli qochgan, parishon. |
| behzod | (بهزاد) | fors. 1) nasli toza, yaxshi nasldan bo'lgan; 2) erkaklar ismi. |
| beibo | (بی اباء) | fors-arab. uyatsiz, ibosiz, hayosiz, nomussiz, sharmanda, or-nomusni bilmaydigan. |
| beihtiyot | (بی احتیاط) | fors-arab. ehtiyotsizlik bilan, beparvo, o'ylamasdan, mulohaza qilmasdan. |
| beijozat | (بی اجازت) | fors-arab. ruxsatsiz, ijozatsiz, so'ramasdan. |
| beillat | (بی علت) | fors-arab. ayb-nuqsonsiz, kam-ko'stsiz, aybsiz, bejirim, benuqson. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| beimon | ( بی ایمان ) | fors-arab. 1) imonsiz, din-diyonatsiz; 2) vijdonsiz, yolg'onchi, surbet, behayo. |
| beinsof | ( بی انصاف ) | fors-arab. 1) insofsiz, vijdonsiz, surbet; 2) zolim, sitamkor. |
| beintizom | ( بی انتظام ) | fors-arab. tartibsiz, intizomsiz. |
| beistisno | ( بی استثنا ) | fors-arab. istisnosiz, beistisno, mustasno qilmay, yalpisiga. |
| beixtiyor | ( بی اختیار ) | fors-arab. ixtiyorsiz, bexosdan, daf'atan, o'ylamasdan, g'ayri ixtiyoriy ravishda. |
| beishkal | ( بی اشکال ) | fors-arab. silliq, ravon, qiyinchiliksiz, mashaqqatsiz, oson, chalkash joyi yo'q. |
| bejavob | ( بی جواب ) | fors-arab. 1) javobsiz; 2) ijozatsiz, ruxsatsiz, so'rovsiz. |
| bejiz | ( بی چیز ) | fors. *bechizga qarang.* |
| bejo | ( بیجا ) | fors. 1) bevaqt, bemahal; 2) behuda, befoyda; 3) nojo'ya, noo'rin. |
| bejon | ( بی جان ) | fors-arab. 1) jonsiz, ruhsiz, murda, o'lik; 2) hushsiz, karaxt; 3) zaif, omonat. |
| bejoy | ( بی جای ) | fors. 1) joysiz, o'rinsiz, makonsiz; 2) bemavrid, bevaqt. |
| bekamiko'st | (بی کم و کاست) | fors. 1) nuqsonsiz, aybsiz; 2) to'la, tugal, mukammal. |
| bekas | ( بی کس ) | fors. 1) qarindosh-urug'i bo'lmagan kishi; 2) bechora, kambag'al, yo'qsil, qashshoq. |
| bekor | ( بی کار ) | fors. 1) ishsiz, bekorchi; 2) behuda, o'rinsiz, befoyda; 3) hech narsaga arzimaydi, bir pul; 4) yolg'on, noto'g'ri. |
| bel | ( بیل ) | fors. bel, belkurak, kurak. |
| bemador | ( بی مدار ) | fors-arab. madorsiz, zaif, sust, holdan toygan, bedarmon. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

bemahal (بی محل) fors-arab. 1) bevaqt, bemavrid; 2) bemahal, vaqtidan ilgari, erta; 3) o'rinsiz, nojo'ya, kelishmagan; 4) kech, kech payt.

bemajol (بی مجال) fors-arab. majolsiz, zaif, ojiz, quvvatsiz, holdan toygan, darmoni yo'q.

bemalol (بی ملال) fors-arab. 1) shoshmasdan, xotirjamlik bilan; 2) qiyinchiliksiz, to'siqsiz, osongina; 3) tortinmasdan, erkin, dadil, bahuzur; 4) aniq, ravshan, yaqqol.

bema'ni (بی معنی) fors-arab. 1) ma'nosiz, kelishmagan, bemaza; 2) noma'qul, bema'ni; 3) yaramas, bo'lmag'ur.

bemaqsad (بی مقصد) fors-arab. maqsadsiz, murodsiz, niyatsiz.

bemaslahat (بی مصلحت) fors-arab. maslahatsiz, kengashsiz.

bemavrid (بی مورد) fors-arab. bevaqt, mavridsiz, o'rinsiz.

bemaza (بی مزه) fors. 1) mazasiz, bemaza, ta'mi yo'q; 2) qiziqarsiz, zerikarli ( asar, hikoya ... to'g'risida); 3) yomon, nomunosib, arzimaydigan (odam to'g'risida); 4) siyqa, chaynalgan.

bemashaqqat (بی مشقت) fors-arab. mashaqqatsiz, qiyinchiliksiz, mashaqqat chekmasdan qilinadigan, oson, jo'n.

bemehnat (بی محنت) fors-arab. 1) mehnatsiz, ishsiz; 2) bekorchi, bekor.

bemehr (بی مهر) fors. mehrsiz, muhabbatsiz, nomehribon, iltifotsiz.

beminnat (بی منت) fors-arab. minnatsiz, malomatsiz, qilgan xizmatini, yaxshiligini minnat qilmaydigan.

bemisl (بی مثل) fors-arab. mislsiz, o'xshashi yo'q, tengi yo'q, timsoli yo'q.

bemor (بیمار) fors. kasal, xasta, dardli.

bemubolag'a (بی مبالغه) fors-arab. mubolag'asiz, bo'rttirishsiz.

bemuddat (بی مدت) fors-arab. muddatsiz, muddati belgilanmagan, cheklanmagan, abadiy.



www.ziyouz.com kutubxonasi

bemuhlat (بی مهلت) fors-arab. muhlatsiz, muddatsiz.

bemuruvvat (بی مروت) fors-arab. kimsaga muruvvat qilmaydigan, odamgarchilikni bilmaydigan; 2) berahm, shafqatsiz.

bemustasno (بی مستثنا) fors-arab. beistisno, istisnosiz.

benamoz (بی نماز) fors. 1) namoz o'qimaydigan kimsa; 2) harom, razil odam.

benarvon (بی نروان) fors. narvonsiz, narvon qo'ymasdan.

benasib (بی نصیب) fors-arab. 1) tegishli hissadan, nasibadan mahrum bo'lgan, quruq qolgan, bebahra 2) ezilgan, mazlum, baxtsiz.

benavbat (بی نوبت) fors-arab. navbatsiz, navbatdan tashqari.

benavo (بی نوا) fors. baxtsiz, tolei past, faqir, badbaxt, bechora.

benazir (بی نظیر) fors-arab. tengi yo'q, mislsiz, naziri yo'q, o'xshashi yo'q.

benihoyat (بی نهایت) fors-arab. 1) nihoyasiz, poyonsiz, benihoya, behad; 2) juda, o'ta, haddan tashqari.

benishon (بی نشان) fors. nishonsiz, belgisiz, izsiz.

benom (بی نام) fors. nomi, oti yo'q, nomlanmagan, nomsiz.

benomunishon (بی نام و نشان) fors. 1) notanish, shuhrati, nomi uncha chiqmagan; 2) bedarak, nom-nishonsiz.

benomus (بی ناموس) fors-arab. besharm, behayo, uyatsiz, sharmanda, sharm-hayoni bilmaydigan, or-nomusi yo'q.

benuqson (بی نقصان) fors-arab. aybsiz, nuqsonsiz, kamchiligi yo'q, bekami-ko'st, mukammal, to'kis.

beobro' (بی آبرو) fors. obro'siz, obro'yi yo'q sharmanda.

beodob (بی آداب) fors-arab. 1) beadab, tarbiya ko'rmagan, adabsiz; 2) uyatsiz, nojo'ya (so'z haqida).

beomon (بی امان) fors-arab. shafqatsizlik bilan, omon bermay, ayamay, rahmsiz, shafqatsiz.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| beoqibat | ( بی عاقبت ) | fors-arab. 1) oqibatsiz, nonko'r, noshukur, qadr bilmaydigan; 2) natijasiz, oqibatsiz, samarasiz. |
| beor | ( بی عار ) | fors-arab. 1) uyatsiz, hayosiz, surbet, beadab; 2) yer tanlamaydigan, har qanday joyda ham o'saveradigan (o'simlik haqida). |
| beorom | ( بی آرام ) | fors. 1) orom bilmaydigan, notinch, bezovta; 2) uzluksiz, to'xtovsiz, muttasil, tinmay. |
| beozor | ( بی آزار ) | fors. 1) ziyonsiz, zararsiz, bezarar, yuvosh; 2) og'riqsiz, oson, yengil. |
| bepadar | ( بی پدر ) | fors. 1) o'z otasini tanimaydigan; 2) otasi yo'q yetim; 3) badbaxt, la'nati. |
| beparda | ( بی پرده ) | fors. 1) pardasiz, parda osilmagan; 2) behayo, uyatsiz, hayosiz. |
| bepardoz | ( بی پرداز ) | fors. pardozsiz, bezaksiz, ziynatsiz. |
| beparhiz | ( بی پرهیز ) | fors. 1) parhezni bilmaydigan, nafsi yomon, ovqatlanish rejimiga rioya qilmaydigan; 2) o'zini tutolmaydigan, o'zini tiyabilmaydigan, hech narsadan hazar qilmaydigan, nopok. |
| beparvo | ( بی پروا ) | fors. 1) beg'am, bexayol, qayg'usiz; 2) e'tiborsiz, diqqatsiz, aqli parishon; 3) behavas, beshavq, befarq, loqayd. |
| bepoyon | ( بی پایان ) | fors. 1) cheksiz, chegarasiz, poyoni yo'q; 2) benihoya, behad. |
| bepul | ( بی پول ) | fors. 1) pulsiz, bepul; 2) faqir, kambag'al, qashshoq. |
| bepusht | ( بی پشت ) | fors. bepusht, farzand ko'rmaydigan, nasli bo'lmaydigan. |
| beqadr | ( بی قدر ) | fors-arab. 1) qadrsiz, qimmatsiz; 2) hurmati, izzati bo'lmagan. |
| beqaror | ( بی قرار ) | fors-arab. 1) o'zgaruvchan, turlanuvchi, aynimachoq; 2) sabrsiz, chidamsiz, tek turmas, qo'nimsiz. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| beqiyos | ( بی قیاس ) | fors-arab. 1) misli yo'q, tengi yo'q, tengsiz, yakka-yagona; 2) juda, cheksiz, behad. |
| berahm | ( بی رحم ) | fors-arab. 1) rahmsiz, bag'ritosh, ko'ngli qattiq; 2) zolim, sitamkor. |
| berang | ( بی رنگ ) | fors. rangsiz, bo'yoqsiz. |
| berinj | ( برنج ) | fors. gurunch. |
| beruxsat | ( بی رخصت ) | fors-arab. ruxsatsiz, ijozatsiz, o'zboshimcha, ruxsat olmay so'ramay. |
| besabab | ( بی سبب ) | fors-arab. sababsiz, dalilsiz, asossiz, bevaj. |
| besabot | ( بی ثبات ) | fors-arab. 1) sabotsiz, omonat, qaltis; 2) tuturuqsiz, betayin. |
| besabr | ( بی صبر ) | fors-arab. sabrsiz, toqatsiz, betoqat, shoshqaloq. |
| besamar | ( بی ثمر ) | fors-arab. foydasiz, natijasiz, samarasiz. |
| besar | ( بی سر ) | fors. xafa, ta'bi xira, ko'ngli g'ash, halovatini yo'qotgan. |
| besaranjom | ( بی سرانجام ) | fors. 1) tartibsiz, betartib, pala-partish; 2) isqirt, iflos; 3) bezovta, tashvishli, hayajonlangan, behalovat; 4) beqaror, sabrsiz. |
| besarishta | ( بی سرشته ) | fors. tartibsiz, betartib, pala-partish. |
| besavod | ( بی سواد ) | fors-arab. savodsiz, ilmsiz, ma'rifatsiz. |
| betahlika | ( بی تهلیه ) | fors-arab. bexatar, tinch, tahlikasiz, tashvishsiz, xavf-xatarsiz. |
| betakalluf | ( بی تکلف ) | fors-arab. 1) beadab, dag'al, qo'pol, andishasiz, takallufsiz; 2) ortiqcha takallufni, mulozamatni yoqtirmaydigan yoki takallufni, mulozamatni bilmaydigan, sodda, kamsuqum. |
| beta'lim | ( بی تعلیم ) | fors-arab. adabsiz, tarbiyasiz, tarbiya ko'rmagan, o'zini tutishni bilmaydigan, ta'lim olmagan. |
| beta'm | ( بی طعم ) | fors-arab. bemaza, ta'msiz, mazasiz. |
| betamiz | ( بی تمیز ) | fors-arab. 1) tushunmaydigan, idroksiz, zehni past; 2) anqov, dag'al odam, befahm, befarosat. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| betaraf | (بی طرف) | fors-arab. betaraf, xolis, hech qaysi tomonga yon bosmaydigan. |
| betarafona | (بی طرفانه) | fors-arab-fors. betarafona, xolisona, hech qaysi tomonga yon bosmay. |
| betartib | (بی ترتیب) | fors-arab. tartibsiz, intizomsiz, besaranjom. |
| betavfiq | (بی توفیق) | fors-arab. 1) vijdonsiz, uyatsiz, behayo; 2) imonsiz, murtad, munkir. |
| betayin | (بی تعیین) | fors-arab. 1) noma'lum, noaniq, notanish; 2) tartibsiz, pala-partish, betayin; 3) tagi puch, asossiz; 4) mujmal, muhmal, dudmol. |
| betashvish | (بی تشویش) | fors-arab. 1) tinch, xotirjam, osoyishta; 2) beg'am, beparvo. |
| betimsol | (بی تمثال) | fors-arab. tengi yo'q, mislsiz, g'oyat go'zal, ajoyib. |
| betob | (بی تاب) | fors. 1) kasal, bemor, xasta; 2) notinch, betoqat, beqaror. |
| betoqat | (بی طاقت) | fors-arab. 1) besabr, sabrsiz, notinch; 2) zaif, notavon, betob. |
| beustuxon | (بی استخوان) | fors. ustixonsiz, suyaksiz, suyagi yo'q. |
| beva | (بیوه) | fors. beva, tul xotin, tul erkak, eri yoki xotini o'lgan. |
| beva-bechora | (بیوه بیچاره) | fors. faqirlar, yetimlar, muhtoj, nochor kishilar. |
| bevafo | (بی وفا) | fors-arab. 1) ahdiga, va'dasiga vafo qilmaydigan, besadoqat; 2) oniy, o'tkinchi, tez o'tib ketadigan, bebaqo. |
| bevajh | (بی وجه) | fors-arab. asossiz, besabab, sababsiz. |
| bevaqt | (بی وقت) | fors-arab. vaqtsiz, erta, bemahal; 2) bemavrid, mavridsiz, kech tunda. |
| bevasiqa | (بی وثیقه) | fors-arab. 1) hujjatsiz, vasiqasiz; 2) bachkana, burdsiz. |
| bevatan | (بی وطن) | fors-arab. 1) boshpanasiz, uy-joysiz, g'arib, makonsiz; 2) vatansiz. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

bevosita (بی واسطه) fors-arab. bevosita, to'g'ridan-to'g'ri, to'g'ri.

bexabar (بی خبر) fors-arab. 1) xabardor bo'lmagan, xabarsiz; 2) ma'lumoti yo'q, bilimsiz.

bexarxasha (بی خرخشه) fors. xarxashasiz, bejanjal, janjalsiz, tinch.

bexatar (بی خطر) fors-arab. xavotirsiz, xavfsiz, qo'rqinchsiz, xavf-xatarsiz.

bexato (بی خطا) fors-arab. xatosiz, aniq, to'g'ri, yanglishsiz.

bexavotir (بی‌خواطر) fors-arab. xavf-xatarsiz, bexatar, tinch, osoyishta.

bexirad (بی خرد) fors. aqli kam, nodon, bema'ni, betamiz.

bexislat (بی خصلت) fors-arab. yaxshi, ijobiy xislatlari bo'lmagan, xislatsiz.

bexiyol (بی خیال) fors-arab. 1) nogahon, daf'atan; 2) o'ysiz; fikrsiz; 3) beg'am, loqayd.

bexonumon (بی خانمان) fors. 1) uysiz, boshpanasiz, makonsiz; 2) darbadar, sargardon.

bexos (بی خاص) fors-arab. 1) kutmaganda, to'satdan; 2) g'ayriixtiyoriy ravishda.

bexosiyat (بی خاصیت) fors-arab. 1) xosiyati yo'q, yomon; 2) yomonlik keltiradigan, nomuborak.

bexud (بیخود) fors. 1) behush, behol; hayajonlangan, bezovtalangan, behalovat bo'lgan.

bezabon (بی زبان) fors. tilsiz, lol.

bezahmat (بی زحمت) fors-arab. 1) qiyinchiliksiz, mashaqqatsiz; 2) yengil, oson; 3) lutfan, marhamat yuzasidan.

bezarar (بی ضرر) fors-arab. 1) ziyonsiz, zararsiz, beziyon, beozor; 2) ziyon-zahmatsiz, buzilmagan, sinmagan, qirilmagan.

bezavol (بی زوال) fors-arab. 1) zavolsiz, abadiy, mangu; 2) doimo gullab yashnovchi, taraqqiy qiluvchi.

beziyon (بی زیان) fors. *bezararga qarang.*

bezor (بیزار) fors. 1) birovdan nafratlanmoq, birovni yomon ko'rmoq; 2) bezmoq, ko'ngilga tegmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| bezori | (بیزاری) | fors. bezori, hammani bezor qiluvchi. |
| bezot | (بی ذات) | fors-arab. 1) nasldor emas, zotdor bo'lmagan; 2) zodagonlar, aslzodalar naslidan bo'lmagan kimsa. |
| beg'am | (بی غم) | fors-arab. 1) g'amsiz, qayg'usiz, beparvo, beg'am; 2) g'am-tashvishdan xoli, betashvish, xotirjam. |
| beg'araz | (بی غرض) | fors-arab. 1) xolis, odilona; 2) tama'siz, g'arazsiz. |
| beg'arazona | (بی غرضانه) | fors-arab-fors. xolisona, odilona, g'arazsiz qilingan. |
| beg'ubor | (بی غبار) | fors-arab. 1) changsiz, g'uborsiz, toza, tiniq; 2) samimiy, ochiq ko'ngil, qalbi toza, ko'nglida kiri yo'q; 3) dog' tushmagan, billurdek toza, pok. |
| beshafqat | (بی شفقت) | fors-arab. 1) berahm, zolim, tosh ko'ngil; 2) berahmona, zolimona. |
| beshak I. | (بی شک) | fors.arab. begumon, shubhasiz, albatta, shaksiz. |
| beshak II. | (بی شک) | fors-arab. tez pishuvchi qovun navi. |
| besharm | (بی شرم) | fors-arab. 1) behayo, uyatsiz, sharmanda, beor; 2) takallufsiz, adabsiz, yuzsiz. |
| beshikast | (بی شکست) | fors. 1) butun, beayb, sinmagan, zarar yetmagan, buzilmagan; 2) lat yemagan, omon, sog'-salomat. |
| beshubha | (بی شبهه) | fors-arab. shubhasiz, aniq, muqarrar ravishda. |
| bechiz | (بی چیز) | fors. sababsiz, bekor, asossiz, bekorga. |
| bechora | (بیچاره) | fors. 1) kambag'al, qashshoq, faqir; 2) chorasiz ahvolga tushib qolgan, nochor. |
| bechorahol | (بیچاره حال) | fors-arab. kambag'al, qashshoq, faqir. |
| bechoraparvar | (بیچاره پرور) | fors. kambag'allar to'g'risida qayg'uruvchi, faqirlarga yordam beruvchi, himoya qiluvchi. |
| bid'atkor | (بدعت کار) | arab-fors. 1) bid'atchi, din, aqidalariga qarshi chiqqan kishi; 2) eskilik qoldiqlariga ko'r-ko'rona ergashuvchi kimsa. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

binafsha (بنفشه) fors. 1) binafsha, gunafsha; 2) binafsha rang, sapsar.

binobarin (بنابراين) arab-fors. shunga ko'ra, shu sababli, demak.

binokor (بناكار) arab-fors. 1) quruvchi, binokor, imorat quruvchi ishchi; 2) barpo etuvchi; ijodkor.

birodar (برادر) fors. 1) aka yoki uka, og'a yoki ini; 2) aka-ukalardek, do'st, hamdam; 3) o'rtoq, og'ayni (murojaatda).

birodarona (برادرانه) fors. 1) akalarcha, qardoshlarcha; 2) do'stlarcha, o'rtoqlarcha, do'stona.

bisyor (بسيار) fors. 1) ko'p, birtalay, ancha; 2) juda, juda ham, g'oyat, nihoyatda ortiq darajada.

biyobon (بيابان) fors. dasht, sahro, cho'l.

biyoboniy (بيابانى) fors. sahroyi, dasht ...-i(-si), biyobonda yashovchi.

biyron I. (بيران) fors. o'tkir, burro, ravon, dona-dona (til, nutq haqida).

biyron II. (بيران) fors. qizartirib pishirilgan, qovurilgan.

biyron III. (بيران) fors. jig'ibiyron bo'lmoq, ortiq darajada kuyinmoq, kuyib-pishmoq, tutaqib ketmoq.

bo (با) fors. 1) yana, undan tashqari, buning ustiga; 2) qani, ha; 3) bilan, birga.

boadab (با ادب) fors-arab. odobli, axloqli, tarbiyali, xushmuomala, adabli.

bobo (بابا) fors. 1) katta ota, buva; 2) otaxon, buvajon.

bobokalon (بابا كلان) fors. 1) katta bobo; 2) ota-bobolar, ajdod.

bod I. (باد) fors. yel, shamol, sabo.

bod II. (باد) fors. bod (kasallik).

boda (باده) fors. may, sharob, ichkilik.

bodafurush (باده فروش) fors. may, sharob sotuvchi.

bodaparast (باده پرست) fors. mayparast, mayxo'r, ichkilikboz.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| bodom | (بادام) | fors. 1) daraxt va meva nomi; 2) yor, mahbuba ko'zi. |
| bodomzor | (بادام زار) | fors. bodomzor, bodom bog'i. |
| bodparak | (بادپرک) | fors. varrak. |
| bodpoy | (باد پای) | fors: yelday tez yuradigan, uchqur, chopqir (ot haqida). |
| bodring | (باد رنگ) | fors. bodring. |
| bohavo | (با هوا) | fors-arab. xush havo, havosi toza. |
| bohayo | (با حیا) | fors-arab. hayoli, uyatchan, iboli, tortinchoq. |
| boj | (باج) | fors. boj, bojxona yig'imi. |
| bojgir | (باجگیر) | fors. boj undiruvchi, bojxona xodimi. |
| bojxona | (باج خانه) | fors. bojxona, boj olinadigan joy. |
| bolish | (بالش) | fors. bolish, yostiq. |
| bolor | (بالار) | fors. to'sin. |
| boloxona | (بالاخانه) | fors. boloxona, ikkinchi qavatdagi uy. |
| boloxonador | (بالاخانه دار) | fors. 1) boloxonali, ikki qavatli; 2) serhasham, jimjimador, bejama; 3) dudmol, tushunib bo'lmaydigan. |
| bomdod | (بامداد) | fors. 1) musulmonlar tongda, quyosh chiqmasdan oldin o'qiydigan namoz; 2) tong, erta tong, sahar. |
| bomgoh | (بامگاه) | fors. tong, erta tong. |
| bong | (بانگ) | fors. 1) qattiq qichqiriq, baland ovoz; 2) qo'ng'iroq, zang; 3) sado, ovoz, chaqiriq. |
| bonu | (بانو) | fors. 1) xonim (ayollarga hurmat belgisi sifatida qo'llaniladi); 2) kelin; 3) malika, shahrbonu. |
| boobro' | (با آبرو) | fors. obro'li, e'tiborli. |
| bop | (باب) | fors. mos, munosib, yaxshi. |
| boqimanda | (باقی مانده) | arab-fors. 1) tekinxo'r, tekintamoq, birovning qo'liga qarab qolgan kimsa; 2) qoldiq, qolgan narsa. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| bor | ( بار ) | fors. marta, daf'a, marra. |
| bora | ( باره ) | fors-arab. 1) soha, haq, xusus; 2) xususida, borasida. |
| botartib | ( با ترتیب ) | fors-arab. *batartibga* qarang. |
| boumid | ( با امید ) | fors. umidvor, umidli, orzuli, havasli. |
| bovar | ( باور ) | fors. ishonch, ishonish. |
| bovujud | ( با وجود ) | fors-arab. shunga qaramasdan, qat'iy nazar, shunday bo'lsa ham. |
| boxabar | ( با خبر ) | fors-arab.xabardor, biluvchi, biron sohada ilmi, ma'lumoti zo'r kishi. |
| bozor | ( بازار ) | fors. 1) bozor; 2) erkaklar ismi. |
| bozorbop | ( بازار باپ ) | fors. bozorbop, bozorda talab katta bo'lgan narsa. |
| bozorgir | ( بازارگیر ) | fors. tez o'tadigan, tez ketadigan (tovar to'g'risida). |
| bozorgoh | ( بازارگاه ) | fors. bozor joylashgan joy; bozor maydoni. |
| bozori | ( بازاری ) | fors. maxsus bozor uchun, sotish uchun tayyorlangan narsa. |
| bozorcha | ( بازارچه ) | fors. kichik bozor. |
| bog' | ( باغ ) | fors. bog', bog'cha. |
| bog'bon | ( باغبان ) | fors. bog'bon, bog'dorchilik mutaxassisi. |
| bog'dor | ( باغدار ) | fors. 1) bog'bon, bog' egasi; 2) bog'lardan iborat yer. |
| bog'iston | ( باغستان ) | fors. serbog' joy,bog'lar o'lkasi, bog'-rog'lar bilan obodlashgan joy. |
| bog'cha | ( باغچه ) | fors. 1) kichik bog'; 2) bolalar bog'chasi. |
| budor | ( بودار ) | fors. xushbo'y, hidi yaxshi. |
| budushud | ( بود و شد ) | fors. bor mol-mulk, boylik, davlat, kishining ixtiyoridagi, bisotidagi bor narsasi. |
| bulbul | ( بلبل ) | fors. 1) bulbul (qush); 2) xushovoz navozanda, mohir nutq yoki go'zal yor haqida. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| bulbuligo'yo | ( بلبل گویا ) | fors. 1) xushovoz bulbul; 2) gapga chechan, gapga usta odam. |
| bunyod | ( بنیاد ) | fors. 1) qurish, yaratish; 2) poya, asl, negiz. |
| bunyodkor | ( بنیادکار ) | fors. quruvchi, yaratuvchi, binokor. |
| burd | ( برد ) | fors. sodiqlik, vafodorlik (so'zga), batartiblik, puxtalik (ishda). |
| burda | ( برده ) | ford. bo'lak, parcha, tilim, burda. |
| buromad | ( برآمد ) | fors. xarajat, chiqim. |
| burro | ( برا ) | fors. 1) keskir, o'tkir; 2) gapga chechan, gapga usta. |
| but | ( بت ) | fors. 1) but, sanam; 2) xoch; 3) ma'shuq, mahbub. |
| buta | ( بوته ) | fors. buta, tagidan shoxlab o'sadigan mayda daraxt. |
| butazor | ( بوته زار ) | fors. nuqul buta o'sadigan, buta ishg'ol etgan yer. |
| butparast | ( بت پرست ) | fors. butparast, butga sajda qiluvchi. |
| butxona | ( بت خانه ) | fors. 1) cherkov; 2) majusiylar ibodatxonasi. |
| buzruk | ( بزرگ ) | fors. 1) katta, ulug'; 2) aziz avliyo; 3) tuyaning laqabi (hazil); 4) Shashmaqomdagi birinchi maqom nomi. |
| buzrukvor | ( بزرگوار ) | fors. 1) ulug', katta; 2) ulug' hurmatga loyiq, muhtaram, aziz; 3) aziz, avliyo. |
| bo'hron | ( بهران ) | fors. bo'hron, iqtisodiy tanglik, kasod. |
| bo'sa | ( بوسه ) | fors. o'pich, muchchi, bo'sa. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# D

dabba (دبه) fors. 1) dabba, churra (kasallik); 2) tovarga bo'lgan talabning tushib ketishi, kasodlik, turg'unlik.

dabdababoz (دبدبه باز) arab-fors. yasama, yuzaki, tashqi ko'rinishga intiluvchi kimsa, dabdabani yaxshi ko'ruvchi kimsa.

daftardor (دفتر دار) arab-fors. 1) buxgalter, pul, kirim-chiqim ishlarini boshqaruvchi kimsa; 2) kotib.

daftarcha (دفترچه) arab-fors. daftarcha, yon daftar.

daha (دهه) fors. 1) shaharning bir qismi, bo'lagi; 2) o'n kunlik, o'n kun.

dahan (دهن) fors. 1) og'iz; 2) so'zamollik ramzi; 3) biror narsaning ochiq tomoni, og'zi, labi.

dahana (دهنه) fors. 1) ekinga suv qo'yish uchun qilingan joy; 2) suv o'tadigan qisqa joy.

dahanaki (دهنكى) fors. dahanaki jang, janjallashish, so'kishish, og'zaki do'q, qattiq aytishish.

dahriy (دهرى) arab-fors. xudoni inkor qiluvchi kimsa.

dahyak (ده يک) fors. dehqonlardan hosilning o'ndan birining soliq sifatida olinishi.

dam I. (دم) fors. 1) nafas, nafas olish; 2) istirohat, hordiq, orom; 3) havo, gaz; 4) jazirama issiq, jazira.

dam II. (دم) fors. 1) lahza, on, fursat; 2) ba'zan, ora-sira, ahyon-ahyonda.

dam III. (دم) fors. 1) tig', qirra; 2) achchiqlik.

dam IV. (دم) fors. chet, qizg'oq.

dambadam (دم به دم) fors. tez-tez, tinmay, hadeb, hardamda, dam o'tmay.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| damduz | (دم دوز) | fors. kamgap, indamas, sir boy bermaydigan. |
| damgar | (دم گر) | fors. temirchilik bosqonini bosuvchi ishchi. |
| damgir | (دم گیر) | fors. palov damini olishi uchun qozon ustiga bosiladigan parcha. |
| damodam | (دمادم) | fors. hamisha, doimo, uzluksiz. |
| dandon | (دندان) | fors. 1) tish, tishlar; 2) fil suyagi. |
| dandona | (دندانه) | fors. 1) tish, kichik tish; 2) mola. |
| dara | (دره) | fors. 1) dara, tog' yo'li; 2) qorin, oshqozon. |
| daraknoma | (درک نامه) | arab-fors. yozma xabar, darak. |
| daraxt | (درخت) | fors. daraxt. |
| daraxtzor | (درخت زار) | fors. daraxtlar bilan band yer, maydon. |
| darbadar | (در به در) | fors. uysiz, joysiz, sargardon, qashshoq. |
| darband | (در بند) | fors. 1) tog' orasidagi tor yo'l, tor dara; 2) qala', qo'rg'on; 3) asir, mahbus. |
| darbon | (دربان) | fors. 1) amir xonadoni eshigida qorovullik qiluvchi kimsa, nigahbon; 2) darvozabon, shveytsar. |
| darbor | (دربار) | fors. 1) podsholar, xonlar saroyi; 2) manzil, uy, saroy. |
| dard I. | (درد) | fors. 1) kasal, og'riq, xastalik; 2) g'am, g'ussa, qayg'u, alam; 3) ko'ngil orzusi, yurakdagi fikr; 4) to'lg'oq tutishi. |
| dard II. | (درد) | fors. koyish shakli, qurib ketkur, shayton. |
| darddosh | (درد داش) | fors. hamdard, xayrixoh, birovning dardiga sherik bo'luvchi. |
| dardisar | (درد سر) | fors. 1) ortiqcha tashvish, bosh og'rig'i; 2) qiyinchilik, mashaqqat. |
| dardkash | (دردکش) | fors. 1) azob chekuvchi, qiynaluvchi; 2) hamdard, qayg'usiga o'rtoq bo'lmoq. |
| dardmand | (دردمند) | fors. 1) kasal, bemor, xasta; 2) g'amgin, qayg'uli ma'yus; 3) orzularga to'la yurak. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| dardnok | (دردناک) | fors. dardli, g'amgin. |
| dargoh | (درگاه) | fors. 1) saroy, qasr; 2) uy, xonadon, oila; 3) darvoza, eshik; 4) xizmat, faoliyat o'rni, makoni; 5) sig'inadigan muqaddas joy. |
| dargumon | (در گمان) | fors. shubhali, mujmal, dudmol, gumonli. |
| darhaqiqat | (در حقیقت) | fors-arab. haqiqatan, haqiqatdan ham, rostdan ham, chindan ham. |
| darhol | (در حال) | fors-arab. darrov, tezda, tezlik bilan, bir onda. |
| darig' | (دریغ) | fors. achinish, rahm qilish nidosi, ovozi, ey darig', hay attang, afsus. |
| darig'o | (دریغا) | fors. darig'ga qarang. |
| daricha | (دریچه) | fors. 1) kichik eshik; 2) derazacha; 3) uy tomi yoki devoriga yorug' tushishi uchun ochilgan tuynuk. |
| darkor | (در کار) | fors. kerak, zarur, lozim. |
| darmon | (درمان) | fors. 1) kuch, qudrat; 2) dori, dori-darmon; 3) suyanchiq, madad, tayanch. |
| daromad | (درآمد) | fors. 1) kirim, foyda; 2) so'z boshi, muqaddima; 3) biror joyga kiriladigan yo'l, eshik, yo'lak. |
| daroyi | (درایی) | fors. uzum navlaridan birining nomi. |
| daroz | (دراز) | fors. 1) uzun, bo'ydor, baland, novcha, bo'ychan; 2) uzundan-uzoq, uzun. |
| darparda | (در پرده) | fors. 1) oyna o'rniga shaffof qog'oz yopishtirilgan deraza; 2) deraza yoki eshik pardasi. |
| darra | (دره) | fors. 1) qamchi, darra; 2) xalq o'yinlaridan birining nomi. |
| darranda | (درنده) | fors. vahshiy hayvon, yirtqich. |
| darrov | (در او) | fors. darhol, tez, tezlik bilan, bir zumda, bir onda. |
| darsxon | (درس خوان) | arab-fors. o'quvchi, o'rganuvchi. |
| darsxona | (درس خانه) | arab-fors. darsxona, auditoriya, dars o'tiladigan xona. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| darvesh | (درویش) | fors. 1) so'fi, qalandar; 2) zohid, go'shanishin; 3) kambag'al, qashshoq, faqir. |
| darveshnamo | (درویش نما) | fors. darveshsifat, darveshlarga o'xshagan. |
| darveshsifat | (درویش صفت) | fors-arab. darveshnamo, darveshlarcha ish tutuvchi. |
| darvoqe' | (در واقع) | fors-arab. 1) darhaqiqat, haqiqatan, haqiqatda ham; 2) aytganday, jumladan, aytmoqchi. |
| darvoza | (دروازه) | fors. darvoza. |
| darvozabon | (دروازه بان) | 1) shahar yoki qal'a darvozasi qorovuli, qo'riqchisi; 2) darvozabon (futbolda). |
| daryo | (دریا) | fors. 1) daryo; 2) dengiz; 3) ko'p, behisob, sonsiz, son-sanoqsiz. |
| daryo-daryo | (دریا - دریا) | fors. juda ko'p, behad ko'p. |
| darz | (درز) | fors. 1) yoriq, yorilgan joy, darz ketgan; 2) yomonlashmoq, buzilmoq; 3) kichik yoshli qiz. |
| darg'azab | (در غضب) | fors-arab. g'azablangan, jahli chiqqan. |
| darcha | (در چه) | fors. kichik eshik, daricha. |
| dast | (دست) | fors. qo'l. |
| dasta I. | (دسته) | fors. band, sop. |
| dasta II. | (دسته) | fors. bog'lam, shoda, bir to'da. |
| dasta III. | (دسته) | fors. chillak. |
| dasta-dasta | (دسته دسته) | fors. 1) bir qancha bog'lam, ko'p-ko'p; 2) to'da-to'da, to'p-to'p. |
| dastak | (دستک) | fors. 1) tayanch, vosita; 2) asosiy dalil, hujjat, bahona; 3) band, sop, dasta. |
| dastaki | (دستکی) | fors. qo'l ...i (-si), qo'l ..., qo'l bilan ishlangan, qo'lda yasalgan. |
| dastarra | (دست اره) | fors. qo'l arrasi. |
| dastavval | (دست اول) | fors-arab. 1) avval, boshida, hammasidan oldin; 2) oldin, dastlab; 3) birinchi marta, ilk bor. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

dastgir (دستگیر) fors. 1) yordamchi, ko‘makchi, madadkor; 2) dasta, sop, band; 3) xaloskor, qutqazuvchi; 4) murshid.

dastgoh (دستگاه) fors. dastgoh.

dastidaroz (دست دراز) fors. birovning moli va nomusiga tajovuz qiluvchi kimsa.

dastmol (دستمال) fors. dastmol, latta, qozon sochiq.

dastmoya (دستمایه) fors. sarmoya, mablag‘; 2) dalil, ro‘kach, sabab, bahona; 3) yagona boylik.

daston (دستان) fors. 1) doston, poema; 2) tarix, sarguzasht.

dastor (دستار) fors. salla.

dastorgul (دستار گل) fors. dastorgul (o‘simlik).

dastpanja (دست پنجه) fors. qo‘l panjasi, besh panja, qo‘l.

dastur (دستور) dastur, qo‘llanma, ko‘rsatma, qoida.

dasturulamal (دستور العمل) fors-arab. dastur, qoida, qo‘llanma.

dasturxon (دستار خوان) fors. 1) o‘rtaga yozib ustiga taom qo‘yiladigan mato; 2) o‘rtaga yozilgan shunday buyum va uning ustiga qo‘yilgan taomlar.

dastxat (دست خط) fors-arab. dastxat, kishining o‘z qo‘li bilan yozilgan xat.

dastshuy (دستشوی) fors. 1) ovqatdan keyin qo‘l yuviladigan maxsus tog‘ora, jom; 2) qo‘l yuvish.

da’vatnoma (دعوت نامه) arab-fors. 1) chaqiriq qog‘ozi, chaqiriq xati; 2) taklifnoma, yozma taklif.

davlatmand (دولتمند) arab-fors. 1) boy-badavlat, puldor; 2) baxtli, saodatli.

da’vogar (دعوی گر) arab-fors. 1) da’vogar, haq talab qiluvchi, talabgor; 2) xiralik qiluvchi, shilqimlik qiluvchi, tirnoq ostidan kir qidiruvchi kimsa.

davoxona (دوا خانه) arab-fors. 1) shifoxona, kasalxona; 2) dorixona.

davriy (دوری) arab-fors. davriy, vaqti-vaqti bilan bo‘lib turadigan, takrorlanib turadigan, o‘qtin-o‘qtin.



www.ziyouz.com kutubxonasi

daxldor (دخل دار) arab-fors. 1) aloqador, tegishli, daxldor, aloqasi bo'lgan; 2) sherik, ishtirok etuvchi, qatnashuvchi.

daxma (دخمه) fors. maqbara, sag'ana, qabr ustiga o'rnatilgan yodgorlik.

daxmaza (دخمسه) fors. ortiqcha tashvish, dardisar, bosh og'rig'i.

dashnom (دشنام) fors. so'kish, haqorat, koyish.

dasht (دشت) fors. 1) cho'l, sahro, biyobon; 2) keng, ochiq maydon, dala.

dashtpiyoz (دشت پیاز) fors. piyozning yovvoyi bir navi.

deg (دیگ) fors. qozon.

degcha (دیگچه) fors. kichik qozon.

dev (دیو) fors. 1) dev, shayton, iblis; 2) pahlavon, novcha, daroz odam, zabardast, bahaybat; 3) ig'vogar, fitnachi, g'alamis.

devkor (دیو کار) fors. o'ta ishchan, serg'ayrat, ishga layoqatli, charchashni bilmaydigan.

devkorona (دیو کارانه) fors. 1) devdek, pahlavondek; 2) ulug'vorona, ulkan, g'oyat katta.

devon I. (دیوان) fors. devon, bir shoirga tegishli sherlar to'plami.

devon II. (دیوان) fors. 1) vazirlik; 2) idora, boshqarma.

devona (دیوانه) fors. 1) beaql, jinni, telba; 2) g'alati, qiziq odam; 3) gadoy, tilanchi.

devonavash (دیوانه وش) fors. devonalardek, telbalardek, tentaknamo.

devonavor (دیوانه وار) fors. devonavashga qarang.

devonbegi (دیوان بیگی) fors-turk. 1) Buxoro xonligidagi yuqori mansablardan biri; 2) hukmdorlar saroyida moliya ishlarini yurituvchi shaxs; 3) Eronda fuqarolar sudi raisi.

devonxona (دیوان خانه) fors. 1) devon IIga qarang; 2) sud, sud idorasi.

devor (دیوار) fors. 1) devor, paxsa; 2) parda, jild, qobiq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

devordarmiyon (دیوار در میان) fors. 1) yonma-yon, umumiy bir devor orqali yashovchi qo'shnilar; 2) chegaradosh, yonma-yon.

devoriy (دیواری) fors. devoriy, devorga osib qo'yiladigan, devorga solingan, chizilgan.

devorzan (دیوار زن) fors. loydan devor yasovchi usta.

devpechak (دیو پیچک) fors. pechak, zarpechak.

devqomat (دیو قامت) fors-arab. devdek, bahodirona qaddi-qomat.

devzira (دیو زیره) fors. guruch navi.

digar (دیگر) fors. boshqa, o'zga, bo'lak.

dil (دل) fors. 1) qalb, yurak; 2) jon, ko'ngil; 3) qorin, oshqozon; 4) mardlik, jasurlik.

dilabgor (دل ابگار) fors. g'amgin, qayg'uga cho'kkan, qalbi yaralangan, ko'ngli siniq, dili vayron bo'lgan.

dilafgor (دل افگار) fors. dilabgorga qarang.

dilafro'z (دل افروز) fors. 1) ko'ngilni yashnatuvchi, xursand qiluvchi, jozibador, kishini maftun qiladigan; 2) bir nav nok nomi; 3) ayollar nomi.

dilband (دلبند) fors. 1) jozibador, yoqimli, dilbar, maftun etadigan, shaydo qiladigan; 2) aziz, qadrdon, qimmatli; 3) mahbub, ma'shuq, sevikli.

dilbar (دلبر) fors. 1) yoqimli, yoqimtoy, juda chiroyli, suluv, sohibjamol, maftun etadigan; 2) ma'shuqa, mahbuba, yor; 3) ayollar ismi.

dildor (دلدار) fors. 1) ma'shuqa, mahbuba, yor; 2) suluv, sohibjamol, zebo, parizod, go'zal; 3) mehribon, shafqatli; 4) ayollar ismi.

dilfigor (دل فگار) fors. dilabgorga qarang.

dilfuro'z (دل فروز) fors. dilafro'zga qarang.

dilgir (دلگیر) fors. 1) zerikkan, xunob bo'lgan, ziq bo'lgan; 2) g'amgin, ma'yus, xafa.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| dilkash | (دلکش) | fors. 1) ko'ngilni yayratadigan, yoqimli, jozibador; 2) samimiy, jonajon, qadrdon, ulfat, sirdosh. |
| dilkusho | (دلکشا) | fors. ko'ngilni yayratuvchi, yaxshi kayfiyat bag'ishlovchi, dilni ochuvchi, yoqimli. |
| dilnavoz | (دل نواز) | fors. 1) ko'ngilni erkalovchi, lazzat beruvchi, dilga yaqin, mehribon; 2) ma'shuqa, mahbuba, sevgili, yor. |
| dilnoz | (دلناز) | fors. dilnavozga qarang. |
| diloro | (دل آرا) | fors. 1) ko'ngilni quvontiruvchi, jozibador, sohibjamol, kishini maftun qiladigan. 2) ayollar ismi. |
| dilorom | (دل آرام) | fors. 1) dilga orom beruvchi, rohat bag'ishlovchi, huzur-halovat bag'ishlovchi; 2) mahbuba, ma'shuqa, yor; 3) ayollar ismi. |
| dilovar | (دلاور) | fors. 1) mard, botir, shijoatli, qo'rqmas; 2) ayollar va erkaklar ismi. |
| dilozor | (دل آزار) | fors. ko'ngilni og'rituvchi, ko'ngilga ozor beruvchi, ranjituvchi, dilozor, muomalasi sovuq. |
| dilpazir | (دلپذیر) | fors. ko'ngilga yaqin, yoqimli, ko'ngiltortar, xush yoqadigan. |
| dilpora | (دل پاره) | fors. ko'ngli singan, ko'ngli cho'kkan, g'amgin, mayus. |
| dilrabo | (دلربا) | fors. 1) kishi ko'nglini o'ziga jalb qiluvchi, go'zal, sohibjamol, chiroyli; 2) ma'shuqa, mahbuba, yor; 3) ayollar ismi. |
| dilroz | (دلراز) | fors. ko'ngil orzusi, muqaddas orzu, ko'ngil rozi. |
| dilsiyoh | (دلسیاه) | fors. 1) ko'ngli qora, ichi qora, yomon niyatli; 2) yomon kayfiyat, g'amgin hol, tushkun kayfiyat. |
| dilso'z | (دلسوز) | fors. dilni kuydiradigan, o'tkir, ta'sirli. |
| diltang | (دلتنگ) | fors. 1) g'amgin, dilxasta, ruhi tushgan, ma'yus; 2) asabiy, serg'ash, jizzaki, tajang, serjahl. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

dilxasta (دلخسته) fors. 1) g'amgin, ko'ngli cho'kkan, qayg'uli, ma'yus; 2) bemor, kasal.

dilxiroj (دل خراج) fors-arab. o'zbek musiqalaridan birining nomi.

dilxoh (دلخواه) fors. ko'ngil orzu qilgan, ko'ngildagi, xohlangan, istalgan.

dilxona (دل خانه) fors. insonning ichki dunyosi, qalb.

dilxun (دلخون) fors. umidsizlikka tushgan, noumid, g'amgin, qayg'uli, bag'ri qon.

dilxush (دلخوش) fors. 1) xursand, quvnoq, xushhol, shod; 2) ko'ngilni yayratuvchi, xursand qiluvchi, shodlantiradigan.

dilshikasta (دلشکسته) fors. 1) ko'ngli siniq, noumid, g'amgin, mayus; 2) ozor chekkan, ranjigan.

dilshod (دلشاد) fors. 1) xushhol, xursand, shod, masrur, quvnoq; 2) sovg'a, hadya; 3) ayollar va erkaklar ismi.

dimog' (دماغ) fors. 1) burun, halqum; 2) kayfiyat, ruhiyat; 3) takabburlik, manmanlik, takabbur, kekkayish, g'urur, dimog'dorlik.

dimog'dor (دماغدار) fors. takabbur, manman, kekkaygan, kibrli, o'ziga bino qo'ygan, dimog'i shishgan.

dindor (دین دار) arab-fors. dindor, xudojo'y, dinga ishonuvchi.

dindosh (دین داش) arab-fors. dindosh, biror kishi bilan bir dinda bo'lgan kishi.

dinor (دینار) fors. dinor, tilla tanga.

dinparvar (دین پرور) arab-fors. 1) din himoyachisi, din uchun kurashuvchi; 2) dindorga qarang.

diram (درم) fors. 1) Eron, Iroq va Buxoro xonligida og'irlik o'lchovi; 2) pul birligi.

diyda (دیده) fors. 1) ko'z; 2) ko'z qorachig'i; 3) nigoh, nazar.

diydagiryon (دیده گریان) fors. ko'zlari yoshlangan, yig'lagan, ko'z yoshi to'kkan.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| diydor | (ديدار) | fors. 1) chehra, yuz, siymo, qiyofa; 2) uchrashuv, uchrashish, muloqat; 3) ko'z. |
| dod | (داد) | fors. 1) faryod, fig'on, yordamga chaqirish; 2) shikoyat, arz-dod, hasrat; 3) qonun; 4) insof, adolat. |
| dod-bedod | (داد و بيداد) | fors. 1) nola, fig'on; 2) shikoyat, hasrat, arz-dod. |
| dodfig'on | (داد فغان) | fors. 1) baqiriq, chaqiriq, hayqiriq; 2) nola, shikoyat, hasrat. |
| dodxoh I. | (دادخواه) | fors. adolat, haqiqat izlovchi. |
| dodxoh II. | (دادخواه) | fors. Buxoro xonligidagi yuqori mansablardan biri bo'lib, uning vazifasi amir nomiga kelgan arznomalarni qabul qilish va javoblarni topshirishdan iborat bo'lgan. |
| dohiyona | (داهيانه) | arab-fors. dohiylarcha, ijodiy kuchga ega bo'lgan, dohiylarga xos, donolik bilan, oqilona. |
| dol I. | (دال) | fors. huddi, ayni, to'g'ri, qoq. |
| dol II. | (دال) | fors.1) fors alifbosidagi to'qqizinchi harf nomi; 2) egri, bukilgan, kaj. |
| dolon | (دالان) | fors. 1) usti berk yo'lak; 2) dahliz, uy dahlizi. |
| dolzarb | (دال ضرب) | fors-arab. muhim, zarur, qizg'in, avj. |
| dolchin | (دالچين) | fors. dolchin, dorchin (daraxt). |
| dom | (دام) | fors. 1) tuzoq, dom, qopqon; 2) hiyla, nayrang. |
| domangir | (دامن گير) | fors. norozi, xafa, ko'ngli qolgan; 2) da'vogar, talabgor. |
| domod | (داماد) | fors. kuyov. |
| don | (دان) | fors. don, g'alla. |
| dona | (دانه) | fors. dona, ...-ta; 2) don, urug'; 3) alohida, bo'lak, aniq, tushinarli. |
| donabay | (دانه بيع) | fors-arab. donalab sotiladigan. |
| donador | (دانه دار) | 1) donador, mag'izli; 2) dona-dona. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

donasho'r (دانه شور) fors. mol yeydigan bir tur yovvoyi giyoh.

dong I. (دانگ) fors. shuhrat, shon, sharaf, mashhurlik.

dong II. (دانگ) fors. shoshib qolmoq, dovdirab qolmoq, qotib qolmoq, esankirab qolmoq.

dongdor (دانگدار) fors. mashhur, atoqli, xalqqa tanilgan, nomi chiqqan, dong'i chiqqan.

donish (دانش) fors. bilim, ilm, fan, ma'rifat.

donishmand (دانشمند) fors. olim, dono, bilimdon.

donkosa (دان کاسه) fors. qushlarga don beradigan kosa.

dono (دانا) fors. 1) dono, ilmli, aqlli, ma'rifatli; 2) ayollar ismi.

donxona (دان خانه) fors. 1) non, g'alla ombori; 2) oziq-ovqat ombori.

donxo'r (دان خور) fors. donxo'r, don bilan ovqatlanadigan (tovuq, qush).

donxo'rak (دانخورک) fors. qushlarga don beradigan idish (qafasda).

dor (دار) fors. 1) dorboz ustidan yuradigan arqon; 2) kiyim-kechak quritish uchun tortiladigan ip; 3) jinoyatchini osish uchun yog'och va arqondan iborat qurilma, dor.

dorboz (دار باز) fors. dorvoz, dorda o'ynovchi kishi.

dori (دارو) fors. 1) dori, kasalni davolash uchun ishlatiladigan modda; 2) spirtli ichimlik.

dori-darmon (دارو درمان) fors. dori, dori-darmon, har xil dorilar.

dorigar (داروگر) fors. dori ishlab chiqaruvchi, dori yasovchi.

dorivor (دارووار) fors. 1) dori-darmonlar, dori vositalari; 2) ziravor, ovqatga solinadigan mazaliklar.

dorixona (داروخانه) fors. dorixona, dorilar sotiladigan do'kon.

doru (دارو) fors. doriga qarang.

dorug'a (داروغه) fors. 1) uy yoki idora qo'riqchisi; 2) shahar boshlig'i, shahar hokimi; 3) guruh boshlig'i.

dorchin (دارچین) fors. dolchin (daraxt).



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| doston | (داستان) | fors. 1) doston, poema; 2) tarix, sarguzasht; 3) erkaklar ismi. |
| dov I. | ( داو ) | fors. 1) bo'ychan, uzun, gavdali, bo'ydor; 2) botir, jasur, qo'rqmas, dovyurak, jasoratli. |
| dov II. | ( داو ) | fors. dov, qimorda o'rtaga tikilgan pul yoki boshqa qimmatli narsa. |
| dov III. | ( داو ) | fors. talab, da'vo. |
| doxiliy | (داخلى) | arab-fors. ichki, ichkaridagi. |
| doya | ( دايه ) | fors. 1) doya (ayolning tug'ishiga yordamlashuvchi kimsa); 2) bola tarbiyalovchi, parvarishlovchi ayol. |
| dog' I. | ( داغ ) | fors. qashqa, yuq. |
| dog' II. | ( داغ ) | fors. g'am, qayg'u, hasrat, alam. |
| dog' III. | ( داغ ) | fors. o'ta issiq, jazirama, kuydiruvchi issiq. |
| dog'dor | (داغدار) | fors. dog'li, xol-xol, ola-chipor. |
| dog'uli | (داغولى) | fors. makkor, ayyor, hiylakor, xoin, xiyonatkor. |
| dud | ( دود ) | fors. 1) tutun, is, dud; 2)g'am, qayg'u, anduh; 3) g'ubor, dog'. |
| dudama | ( دودمه ) | fors. ikki tomoni o'tkir, dudama. |
| dudburon | (دودبران) | fors. 1) mo'ri, tutun quvuri; 2) tom yoki oshxona devorida tutun chiqishi uchun ochilgan teshik. |
| dudxona | ( دودخانه ) | fors. go'sht dudlaydigan xona. |
| dugma | (دگمه) | fors. tugma. |
| dugoh | (دو گاه) | fors. shashmaqomdagi uchinchi maqom nomi. |
| dugona | ( دو گانه ) | fors. o'rtoq, do'st (qizlar o'rtasida). |
| dum | (دم) | fors. dum, quyruq. |
| dumba | (دنبه) | fors. dumba, sag'ri. |
| dumbador | ( دنبه دار ) | fors. dumbali, dumbasi katta bo'lgan. |
| dumdor | ( دم دار ) | fors. dumli, dumi bor. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

dumg'oza (دمغازه) fors. 1) dumg'aza, qushlarning dum patlari o'sib chiqadigan bo'g'im-bo'g'im suyagi; 2) qo'yning shunday suyagiga yopishgan go'shti.

dunyodor (دنيا دار) arab-fors. boy, badavlat, puldor, dunyosi, mol-mulki ko'p.

dunyoparast (دنيا پرست) arab-fors. tama'gir, mol-dunyoga hirs qo'ygan, dunyo yig'ishga o'ch.

dunyoxo'r (دنيا خور) arab-fors. tekinxo'r, baloxo'r, molimardumxo'r.

duogo'y (دعا گوی) arab-fors. duo qiluvchi, xudoga munojot qiluvchi, yaxshilik istovchi.

duoxon (دعاخوان) arab-fors. duo o'quvchi, duo o'qish orqali kasallarni davolovchi tabib.

dupoya (دو پايه) fors. yamoqchi ustalarning uchi qayrilgan temir asbobi.

duradgor (درودگر) fors. duradgor.

durafshon (در افشان) fors. dur kabi yaraqlovchi, yaltirovchi.

durang I. (دو رنگ) fors. teng, barobar (o'yinda).

durang II. (دو رنگ) fors. maxsi yoki etikning chokiga ikki xil rang bilan tikilgan gulli hoshiya, uqa.

durbin (دوربين) fors. durbin, uzoqni yaqin va katta qilib ko'rsatadigan asbob.

durda (درده) fors. 1) murabbo, shinni ustida, betida hosil bo'ladigan qumoq-qumoq parda; 2) quyqa, loyqa.

durdona (دردانه) arab-fors. 1) dur donasi, marvarid, katta marvarid donasi; 2) saralangan, tanlangan, terib olingan, eng yaxshi; 3) sevikli, aziz; 4) ayollar ismi.

durust (درست) fors. 1) yaxshi, yomon emas, tuzuk, munosib, loyiq, bop; 2) xo'p, mayli.

duto (دو تا) fors. egilgan, bukilgan.

dutor (دو تار) fors. ikki torli musiqa asbobi, dutor.

duxoba (دو خوابه) fors. baxmal (mato).



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| dushanba | (دوشنبه) | fors. dushanba, haftaning birinchi kuni nomi. |
| dushman | (دشمن) | fors. dushman, raqib, muxolif. |
| dushvor | (دشوار) | fors. qiyin, og'ir, mashaqqatli, mushkul. |
| duchor | (دچار) | fors. nogahon uchrashib qolmoq, to'g'ri kelib qolmoq, uchramoq. |
| do'kondor | (دکاندار) | arab-fors. do'kon, magazin egasi. |
| do'konxona | (دکان خانه) | arab-fors. 1) magazin, do'kon; 2) hunarmand ustaxonasi, ishxonasi. |
| do'koncha | (دکانچه) | arab-fors. kichik do'kon, savdo budkasi. |
| do'st | (دوست) | fors. 1) do'st, o'rtoq; 2) oshiq. |
| do'st-ag'yor | (دوست اغیار) | fors-arab. do'st-dushmanlar. |
| do'st-dushman | (دوست دشمن) | fors. o'zga va begona. |
| do'stona | (دوستانه) | fors. do'stlarcha, samimiy, o'rtoqlarcha. |
| do'stparvar | (دوست پرور) | fors. do'stlikni qadrlovchi, do'stlikni yoqlovchi, mehribon, g'amxo'r. |
| do'st-yor | (دوست یار) | fors. do'st-yor, yaqinlar, hamdamlar. |
| do'zanda | (دوزنده) | fors. tikuvchi. |
| do'zax | (دوزخ) | fors. do'zax, jahannam. |
| do'zaxi | (دوزخی) | fors. 1) do'zaxga kiradigan, do'zaxga mahkum kimsa; 2) razil, past, yaramas, yomon, shum. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# E

ehtiyotkor (احتياط كار) arab-fors. 1) ehtiyotli, orqa-oldiga qarab ish qiladigan, uzoqni ko'radigan, tadbirli; 2) avaylab, sekin-sekin, ehtiyotlik bilan, tejab-tergab, tejamkor.

ehtiyotkorona (احتياط كارانه) arab-fors. ehtiyotkorlik bilan, avaylab, sekin, ehtiyot bo'lib.

e'lonnoma (اعلان نامه) arab-fors. e'lon, bildirish, murojaatnoma.

eroniy (ايرانى) fors. eronlik.

eronzamin (ايران زمين) fors. Eron mamlakati.

eronshunos (ايران شناس) fors. eronshunos, eron tili va adabiyoti mutaxassisi.

e'tiroznoma (اعتراض نامه) arab-fors. e'tiroz, norozilik xati.



www.ziyouz.com kutubxonasi

# F

faqirona (فقيرانه) arab-fors. kambag'alona, qashshoqlarcha, gadoydek.

farahbaxsh (فرح بخش) arab-fors. quvonchli, quvonch bag'ishlovchi, ko'tarinki ruh bag'ishlovchi, xushhol qiluvchi.

farahmand (فرحمند) arab-fors. farahnokga qarang.

farahnok (فرحناک) arab-fors. shod, xushchaqchaq, quvnoq, xursand.

farang (فرنگ) fors. fransuz, yevro'palik; 2) usta, mohir, omilkor.

farangiston (فرنگستان) fors. Fransiya, Yevro'pa.

farishta (فرشته) fors. 1) farishta, malak; 2) oqila va chiroyli ayol.

farmon (فرمان) fors. 1) farmon, buyruq, ko'rsatma; 2) ruxsat, ijozat; 3) mashina ruli.

farmonbardor (فرمانبردار) fors. 1) itoatkor, bo'ysunuvchi, mute'; 2) xushomadgo'ylik, laganbardorlik qiluvchi kimsa.

farmonnoma (فرمان نامه) fors. yozma farmon, yozma buyruq, yorliq, rasmiy hujjat.

farmonomuz (فرمان آميز) fors. buyruqona, amirona, buyruq ohangida.

farmoyish (فرمايش) fors. buyruq, hukm, amr, topshiriq, ko'rsatma.

faromush (فراموش) fors. unutmoq, yoddan chiqarmoq, esdan chiqarmoq.

faromushxotir (فراموش خاطر) fors-arab. unutuvchan, parishonxotir, parishon.

farovon (فراوان) fors. 1) mo'l, serob, ko'p, boy; 2) tinch, baxtli, bexatar, osoyishta; 3) to'q, badavlat, boy.

farrux (فرخ) fors. 1) xushhol, xursand, shod, iqbolli; 2) go'zal, chiroyli, zebo; 3) erkaklar ismi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| farsang | (فرسنگ) | fors. 7-8km.ga teng bo'lgan uzunlik o'lchovi. |
| farsax | (فرسخ) | fors. farsangga qarang. |
| faryod | (فرياد) | fors. dod, fig'on, faryod, o'kirib yig'lash. |
| farzand | (فرزند) | fors. 1) bola, go'dak, chaqaloq; 2) o'g'il, farzand. |
| farzin | (فرزين) | fors. farzin (shahmat). |
| farzona | (فرزانه) | fors. aqlli, zukko, dono, donishmand. |
| fazogir | (فضا گير) | arab-fors. samoni, koinotni zabt etuvchi. |
| faylasufnamo | (فيلسوف نما) | arab-fors. faylasufga o'xshash, faylasuf kabi, faylasuflardek. |
| fayziyob | (فيض ياب) | arab-fors. 1) go'zal, juda chiroyli, juda yaxshi, fayzli; 2) biror narsadan bahramand bo'lmoq. |
| feruz | (فيروز) | fors. 1) o'zbek musiqasi nomi; 2) baxtli, saodatli; 3) g'olib; 4) erkaklar ismi. |
| feruza | (فيروزه) | fors. 1) feruza; 2) feruza rang; 3) ayollar ismi. |
| fidokor | (فداكار) | arab-fors. fidokor, jonboz, o'zini qurbon qiluvchi, fidoyi. |
| fidokorona | (فداكارانه) | arab-fors. fidokorlik ko'rsatib, jonbozlik bilan, sadoqat bilan, berilib. |
| fikrdosh | (فكر داش) | arab-fors. maslakdosh, hamfikr. |
| fikriy | (فكرى) | arab-fors. aqliy, ma'naviy, ruhiy. |
| finjon | (فنجان) | fors. choy piyolasi, dastali piyola. |
| firib | (فريب) | fors. makr, hiyla, aldov. |
| firibgar | (فريبگر) | fors. aldamchi, ayyor, dog'uli, muttaham, tovlamachi. |
| fig'on | (فغان) | fors. nola, oh-zor, dod-faryod, o'kirib yig'lash. |
| fohishaboz | (فاحشه باز) | arab-fors. buzuq, axloqsiz erkak. |
| fohishaxona | (فاحشه خانه) | arab-fors. fohishaxona, islovatxona. |
| folbin | (فالبين) | arab-fors. folbin, romchi ayol,fol ochuvchi shaxs. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| fors | (فارس) | fors. 1) fors, forsiy; 2) fors tilida gaplashuvchi kimsa. |
| forsigo'y | (فارسی گوی) | fors. fors tilida yozuvchi va gaplashuvchi. |
| forsixon | (فارسی خوان) | fors. fors tili bilimdoni, fors tilida o'qishni biladigan kimsa. |
| forsiy | (فارسی) | fors. 1) forsiy; 2) eronlik; 3) zardushtiy; 4) Eron xalqi tili. |
| fotihaxon | (فاتحه خوان) | arab-fors. fotiha o'quvchi. |
| foydaxo'r | (فایده خور) | arab-fors. 1) dallol, olibsotar; 2) sudxo'r. |
| fuqaroparvar | (فقرا پرور) | arab-fors. o'z xalqi manfaatlarini himoya qiluvchi, xalqini yaxshi ko'ruvchi, unga har tomonlama yordam beruvchi. |
| fusun | (فسون) | fors. 1) dilrabolik, dilni maftun etishlik, jazb qilish, joziba, chiroy; 2) sehr, jodu, afsun. |
| fusunkor | (فسون کار) | fors. go'zal, juda chiroyli, dilbar, jozibali, o'ziga tortadigan, sehrli. |
| fuzun | (فزون) | fors. ko'p, ortiq, ziyod, ko'payuvchi, ortib boruvchi. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# G

gado (گدا) fors. 1) gadoy, tilanchi, soil; 2) kambag'al, qashshoq; 3) muhtoj, ehtiyojmand.

gadoy (گدای) fors. gadoga qarang.

gadoyvachcha (گدای بچه) fors. gadoyning, qashshoqning o'g'li.

gajak (گجک) fors. 1) jingalak, gajak; 2) egilgan, qayrilgan.

gajakdor (گجک دار) fors. 1) gajakdor, gajakli; 2) bejama, serhasham.

gala (گله) fors. 1) gala, to'da; 2) guruh, tabaqa; 3) olomon to'da.

ganda (گنده) fors. axlat, najas.

gang (گنگ) fors. 1) kar, garang; 2) o'zini yo'qotmoq, sarosimaga tushmoq, boshi qotmoq.

ganj (گنج) fors. 1) hazina, dafina, dunyo; 2) mahbuba, sevgili.

ganjina (گنجینه) fors. hazina, qimmatbaho narsalar saqlanadigan joy.

gap I. (گپ) fors. 1) so'z, nutq, suhbat; 2) ish, hol, ahvol, vaziyat; 3) jumla, gap.

gap II. (گپ) fors. navbatma-navbat beriladigan ziyofat, o'tirish, bazm.

gapboz (گپ باز) fors. mahmadona, ezma, safsataboz, quruq gap sotuvchi.

gapdon (گپ دان) fors. 1) so'zamol, mahmadona, qaqildoq; 2) topqir, hozirjavob, tili o'tkir.

gap-gashtak (گپ گشتک) fors. bazm, ziyofat, o'tirish.

gapxona (گپ خانه) fors. ziyofat, bazm o'tkaziladigan joy, uy.



www.ziyouz.com kutubxonasi

gapxo‘r (گپ خور) fors. 1) gap, ziyofat qatnashchisi; 2) do‘st, o‘rtoq.

gar (گر) fors. agar, agarda.

gard (گرد) fors. 1) chang, g‘ubor, to‘zon, gard; 2) g‘am, anduh, g‘ussa; 3) dog‘, nuqson, g‘ubor; 4) zarra, asar.

gardan (گردن) fors. bo‘yin, gardan.

gardankash (گردن کش) fors. 1) qaysar, o‘jar, tixir, sarkash; 2) mard, shijoatli.

gardish (گردش) fors. 1) chambarak, halqa; 2) aylana, doira; 3) harakat.

gardkam (گرد کم) fors. 1) qimorbozning o‘yin paytidagi xitobi; 2) yo ostidan, yo ustidan, nima bo‘lsa bo‘lar, tavakkal.

gardun (گردون) fors. 1) osmon, falak, koinot; 2) qismat, taqdir, peshona, yozmish, tole’.

garmdori (گرم داری) fors. qalampir, garmdori.

garmiyon (گرمیان) fors. sharob tayyorlanadigan uzum navi.

garmsel (گرم سیل) fors. garmsel, quruq issiq shamol.

garov (گرو) fors. 1) garov, garovga qo‘yish; 2) garov, bas; 3) dov (qimorda); 4) kafillik.

garovxona (گروخانه) fors. aholidan narsalarni garovga olib qarz beradigan joy.

garchand (گر چند) fors. garchi, bo‘lsa ham.

gavhar (گوهر) fors. 1) qimmatbaho tosh; 2) marvarid; 3) eng yaxshi, qadrli narsa; 4) ayollar ismi.

gavharafshon (گوهر افشان) fors. 1) gavhar kabi yaraqlovchi, yaltirovchi; 2) gavhar sochuvchi.

gavharnigor (گوهر نگار) fors. gavhar bilan bezatilgan, ziynatlangan, gavhar qoplangan.

gavharshunos (گوهر شناس) fors. 1) zargar, qimmatbaho toshlar mutaxassisi; 2) bilimdon, o‘z ishining ustasi.

gazak I. (گزک) fors. yallig‘lanish, iringlash, fasod bog‘lash.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| gazak II. | (گزک) | fors. gazak, yengil ovqat, ichkilik ustidan yeyiladigan ovqat. |
| gazan | (گزن) | fors. etikdo'z pichog'i, kosiblarning charm qirqadigan maxsus pichog'i. |
| gazanda | (گزنده) | fors. 1) chayon, ilon va shu kabi chaquvchilarning umumiy nomi; 2) iflos, jirkanch, ablah, yaramas. |
| gashnij | (گشنیج) | fors. gashniz. |
| gashniz | (گشنیز) | fors. kashnich. |
| gasht | (گشت) | fors. sayr, tamosho, aysh, zavq, hālovat. |
| gashtak | (گشتک) | fors. gap, bazm, ziyofat, o'tirish. |
| gil | (گل) | fors. 1) loy, gil; 2) tuproq, xok, chang. |
| gilam | (گلیم) | fors. 1) gilam, palos; 2) yer betini to'ldirib qoplab olgan narsa (maysa, gul va shu k.). |
| gilambof | (گلیم باف) | fors. gilam to'quvchi, gilamdo'z. |
| gilamdo'z | (گلیم دوز) | fors. gilam to'quvchi. |
| gilmoya | (گل مایه) | fors. gilvata, bentonit. |
| gilos | (گیلاس) | fors. gilos. |
| giloszor | (گیلاس‌زار) | fors. nuqul gilos ekilgan yer, maydon. |
| gina | (گینه) | fors. 1) ozor, ranj, zarda, xafalik; 2) norozilik, tana, o'pka, yozg'iriq, shikoyat. |
| ginador | (گینه دار) | fors. 1) ko'nglida norozilik, tana bo'lgan kimsa, gina saqlovchi; 2) gina bilan to'lib toshgan, gina ifodalaydigan, gina aralash. |
| gina-kudurat | (گینه کدورت) | fors-arab. har xil norozilik bilan ta'nalar. |
| ginaomuz | (گینه آمیز) | fors. ginali, norozi ohangda, ginali ohangda, gina aralash. |
| ginaxon | (گینه خوان) | fors. gina, tana qiluvchi, norozilik bildiruvchi kimsa. |
| gira | (گیره) | fors. ishlov beriladigan narsani mahkam siqib qo'yadigan asbob, taxtakach. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

giranda (گیرنده) fors. ishbilarmon, chaqqon, epchil, chechan, usta, ziyrak, uddaburon.

gird (گرد) fors. 1) aylana; 2) chekka, chet, atrof.

girdak (گردک) fors. aylana, dumaloq, doiraviy.

girdibod (گردباد) fors. uydurma, quyun, girdbod.

girdob (گرداب) fors. 1) girdob, aylanma, o'pqon; 2) kishini beixtiyor chulg'ab oluvchi hodisa, harakat; 3) aylana, atrof-tevarak.

giribon (گریبان) fors. yoqa, bo'g'iz.

giriftor (گرفتار) fors. 1) mubtalo bo'lmoq, duchor bo'lmoq; 2) asir, qul; 3) oshiq, ko'ngil bog'lagan.

girya (گریه) fors. 1) yig'i, ko'z yoshi; 2) o'zbek musiqasidan birining nomi.

giryon (گریان) fors. yig'lovchi, nola qiluvchi, faryod chekuvchi.

giryona (گریانه) fors. yig'lamoq, ho'ngramoq, o'pkasi to'lib yig'lamoq.

giyoh (گیاه) fors. 1) o'simlik, nabotot; 2) o't, ko'kat, maysa, o'lan; 3) giyohvand modda.

giyohvand (گیاهوند) fors. nashavand, bangi, ko'knori.

goh (گاه) fors. gohida, ba'zan, vaqti-vaqti bilan.

goh-goh (گاه گاه) fors. ba'zan, ahyon-ahyonda, har zamonda bir, ora-sirada.

goho (گاها) fors. goho, gohida, ba'zida, ahyon-ahyonda.

govmish (گاو میش) fors. govmish, ko'p sut beruvchi sigir.

govrapush (گاوره پوش) fors. belanchak yopinchig'i.

govron (گاوران) fors. tayoq, cho'p, cho'pon tayog'i.

guftugu (گفتگو) fors. suhbat, suhbatlashish, gap.

gugurt (گوگرد) fors. gugurt.

gugurtcho'p (گوگرد چوپ) fors. gugurt.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| gul | (گل) | fors. gul, chechak. |
| gulandom | (گل اندام) | fors. 1) qaddi-qomati noziklikda gul kabi bo'lgan, nozikbadan, go'zal, sohibjamol; 2) ayollar ismi. |
| gulbadan | (گل بدن) | fors. 1) badani guldek latif va nozik bo'lgan, go'zal, chiroyli, sohibjamol; 2) ayollar ismi. |
| gulbahor | (گل بهار) | fors. 1) bahor fasli; 2) ayollar ismi. |
| gulband I. | (گلبند) | fors. 1) pichoq dastasiga o'rnatiladigan bezakli halqa; 2) bog'bon; 3) bir hil rangli ipak mato. |
| gulband II. | (گلبند) | fors. gulpoya, gul poyasi. |
| gulbarg | (گلبرگ) | fors. gul bargi. |
| gulbarra | (گلبره) | fors. gulbarra (turli bezak, naqshlardan iborat ipak mato). |
| gulbaxmal | (گلبخمل) | fors. gulbaxmal, gulxayrining bir turi. |
| gulbe'or | (گل بی عار) | fors-arab. quyonquloq, semizo't. |
| gulbog' | (گلباغ) | fors. 1) gulzor, guliston, chamanzor; 2) sayrgoh yer, tomosha bog'. |
| guldasta | (گلدسته) | fors. 1) guldasta; 2) madrasa, masjid yoki qala' darvozasi peshtoqidagi minora. |
| guldon | (گلدان) | fors. guldon, gul vazasi, gul solib qo'yiladigan idish. |
| guldor | (گلدار) | fors. gulli, bezakli, naqsh solingan. |
| gulfurush | (گل فروش) | fors. gulchi, gul sotuvchi. |
| gulgun | (گلگون) | fors. 1)qizil, alvon, qirmizi; 2) qizil yuz, lola yuz; 3) xursand, shod, quvnoq, xushhol; 4) go'zal, zebo, sohibjamol, suluv. |
| gulira'no | (گل رعنا) | fors-arab. na'matak. |
| guliston | (گلستان) | fors. 1) gulzor, chamanzor; 2) ayollar ismi. |
| gulkor | (گلکار) | fors. 1) o'ymakor usta, naqshkor usta; 2) bog'da gul ekuvchi kimsa. |
| gulmohi | (گل ماهی) | fors. xonbaliq, qizil ola balig'i. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| gulnor | (گلنار) | fors. 1) anor guli; 2) qizil, alvon, qirmizi; 3) qizil sharob; 4) ayollar ismi. |
| gulob | (گلاب) | fors. 1) qizil gul suvi; 2) sharob navi. |
| gulobi | (گلابی) | fors. 1) qizil, pushtirang; 2) nok. |
| gulqand | (گل قند) | fors. 1) shirin dorivor modda; 2) novvot. |
| gulqog'oz | (گل کاغذ) | fors. gulqog'oz, devor qog'ozi. |
| gulrang | (گلرنگ) | fors. gul rangi, qizil rang. |
| gulra'no | (گل رعنا) | fors-arab. 1) qizil gul; 2) go'zal, barno (ayol haqida); 3) ayollar ismi. |
| gulrux | (گلرخ) | fors. 1) gul yuzli, chiroyli, sohibjamol; 2) ayollar ismi. |
| gulruxsor | (گل رخسار) | fors. 1) gul yuzli, zebo, suluv, parizod; 2) ayollar ismi. |
| gulro' | (گلرو) | fors. gul yuzli, go'zal, sohibjamol. |
| gultoj | (گلتاج) | fors. gultoj. |
| gultojbarg | (گلتاج برگ) | fors. gul bargi. |
| gul'uzor | (گل عذار) | fors-arab. gul yuzli. |
| gulxan | (گلخن) | fors. gulxan, olov, o't, alanga. |
| gulxona | (گلخانه) | fors. 1) issiqxona (gullar uchun); 2) gulzor, chamanzor. |
| gulyor | (گليار) | fors. 1) ma'shuqa, mahbuba, yor, go'zal, chiroyli, zebo, sohibjamol; 2) o'zbek musiqalaridan birining nomi. |
| gulzor | (گلزار) | fors. gulzor, chamanzor, gul ekilgan yer. |
| gulg'uncha | (گل غنچه) | fors. 1) gul g'unchasi; 2) ayollar yuziga suradigan qizil bo'yoq. |
| gulshan | (گلشن) | fors. 1) gulzor, gulbog'; 2) gullab, yashnayotgan o'lka; 3) yasatilgan uy; 4) ayollar ismi. |
| gulchambar | (گل چنبر) | fors. gulchambar. |
| gulchehra | (گل چهره) | fors. 1) gul yuzli, sohibjamol, zebo; 2) ayollar ismi. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| gulchin | (گلچین) | fors. 1) tanlangan, saralangan; 2) gul uzuvchi, gul teruvchi; 3) bezakli, naqshli; 4) to'plam. |
| gum I. | (گم) | fors. 1) yo'qolmoq, g'oyib bo'lmoq, ko'zdan yashirinmoq; 2) gumroh, adashgan. |
| gum II. | (گم) | fors. chuqur, suv ostidagi chuqurlik. |
| gumashta | (گماشته) | fors. 1) savdo ishlarida birovning ishongan kishisi, vakili; 2) birovning homiyligi ostida mansabga ega bo'lgan kishi; 3) ishchi, xizmatchi. |
| gumbaz | (گنبذ) | fors. 1) qubba shaklidagi tom; 2) beso'naqay, semiz odam haqida. |
| gumdon | (گمدان) | fors. yo'qolmoq, gumdon bo'lmoq, daf bo'lmoq. |
| gumon | (گمان) | fors. 1) gumon, shubha, shak; 2) taxmin, faraz, ehtimol; 3) mo'ljal, chama. |
| gumona | (گمانه) | fors. 1) ona qornidagi bola; 2) gumonga qarang. |
| gumondor | (گماندار) | fors. shubha qiluvchi, gumon qiluvchi. |
| gumroh | (گمراه) | fors. 1) adashgan, to'g'ri yo'ldan toygan; 2) yengil koyish ma'nosida ishlatiladi. |
| gunbaz | (گنبذ) | fors. 1) minora, ravoq, toq, qubba; 2) osmon, falak; 3) piyola; 4) chodir, chayla. |
| gung | (گنگ) | fors. 1) lol va kar, soqov; 2) tilsiz, erksiz. |
| gunoh | (گناه) | fors. 1) ayb, uvol; 2) jinoyat, xiyonat; 3) xato, adashish; 4) zulm, jafo. |
| gunohkor | (گناه کار) | fors. 1) gunohkor, aybdor; 2) jinoyatchi, xiyonatkor; 3) xato qilgan, adashgan. |
| guruh | (گروه) | fors. 1) guruh, to'da; 2) to'da, gala, bir to'da odamlar. |
| guruhboz | (گروه باز) | fors. guruh tashkil qilib, unda faol ishtirok qiluvchi kimsa. |
| guruch | (برنج) | fors. guruch. |
| gustox | (گستاخ) | fors. beadab, qo'pol, andishasiz, qo'rs; 2) erka, tantiq, injiq. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

guvoh (گواه) fors. guvoh, shohid.

guvohnoma (گواه نامه) fors. guvohnoma, tug'ilganlik haqidagi guvohnoma, metrika.

guzar (گذر) fors. 1) serqatnov ko'cha, chorraha; 2) kichik bozor; 3) yo'l, yo'lka; 4) mahalla.

guzargoh (گذرگاه) fors. guzarga qarang.

go'dak (گودک) fors. 1) yosh bola, chaqaloq; 2) ona suti og'zidan ketmagan go'dak.

go'dakona (گودکانه) fors. bolalarcha, yosh bolaga xos, bachkana.

go'l (گول) fors. 1) sodda, tez ishonuvchan, laqma; 2) ahmoq, nodon; 3) makr, hiyla.

go'ng (گنگ) fors. go'ng (o'g'it).

go'ngxona (گنگ خانه) fors. go'ngxona, go'ng saqlanadigan o'ra.

go'r (گور) fors. 1) go'r, qabr, mozor; 2) qabr ustiga qo'yilgan yodgorlik, maqbara.

go'riston (گورستان) fors. mozor, qabriston, go'riston.

go'rkafan (گورکفن) fors. urf-odatlarga amal qilgan holda dafn qilmoq.

go'rkov (گور کاو) fors. 1) go'rkov, go'r qazuvchi; 2) yo'q qiluvchi, mahv etuvchi.

go'rso'xta (گور سوخته) fors. koyish: go'ring kuygur, go'rda yonib, kuyib ketgur.

go'ryor (گور یار) fors. mayda-chuyda, eski-tuski, ko'ch-ko'ron.

go'sfand (گوسفند) fors. qo'y, qo'y yili.

go'sxo'r (گسخور) fors. ahmoq bo'lgan, mayna bo'lgan, aldanib qolgan.

go'yanda (گوینده) fors. 1) aytuvchi, hikoya qiluvchi, qissa qiluvchi; 2) ashulachi, baxshi.

go'yo (گویا) fors. 1) go'yo, xuddi; 2) gapiruvchi, gapirishni biladigan.

go'yoki (گویا که) fors. go'yo, xuddi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| go'sha | (گوشه) | fors. 1) burchak, muyulish; 2) ovloq joy, ko'zdan yiroq joy, xilvat joy; 3) faqirona turar joy, boshpana, kulba. |
| go'shanishin | (گوشه نشین) | fors. yolg'izlikda yashovchi, odamlardan uzoqda yashovchi, odamlarga qo'shilmaydigan. |
| go'sht | (گوشت) | fors. 1) go'sht, et; 2) yumshoq, po'la joy; go'sht, lahm, laqqa qo'sht. |
| go'shtdor | (گوشت دار) | fors. 1) etli, goshtli, sergo'sht; 2) semiz, miqti, to'ladan kelgan. |
| go'shtxo'r | (گوشت خور) | fors. go'shtni, go'shtli ovqatni yoqtiruvchi kimsa, go'shtni ko'p yeyuvchi kishi. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# H

| | | |
|---|---|---|
| hafta | (هفته) | fors. hafta, dushanbadan yakshanbagacha bo'lgan yetti kecha-kunduzni o'z ichiga olgan vaqt o'lchov birligi. |
| haftafahm | (هفته فهم) | fors-arab. befahm, befarosat, zehni past, kallavaram, tentak. |
| haftiyak | (هفت و يک) | fors. haftiyak (Quronning yettinchi-oxirgi, alohida kitob holida chop qilingan qismi). |
| haftrang | (هفت رنگ) | fors. yetti hil rangli, rang-barang, guldor, tovlanib turgan. |
| hajvgo'y | (هجوگوى) | arab-fors. hajvchi, hajv yozuvchi. |
| hajvnoma | (هجونامه) | arab-fors. hajviy she'r. |
| hajvomiz | (هجو آميز) | arab-fors. 1) hajviy; 2) istehzoli, uzib-chaqib oladigan, achchiq. |
| halfana | (حلفانه) | arab-fors. sherikchilikka masalliq to'plab tayyorlanadigan ovqat. |
| halila | (هليله) | fors. dorivor giyoh nomi. |
| halim | (هليم) | fors. 1) halim (ovqat nomi); 2) yumshoq, muloyim, ipakdek, ko'ngli ochiq, olijanob; 3) erkaklar ismi. |
| halimxona | (هليم خانه) | fors. halim pishiriladigan va ulashiladigan joy. |
| halolxo'r | (حلال خور) | arab-fors. halol, vijdonli, o'zining halol mehnati bilan kun ko'radigan kimsa. |
| halvofurush | (حلوا فروش) | arab-fors. halvo sotuvchi, halvo savdosi bilan shug'ullanuvchi kimsa. |
| halvopaz | (حلوا پز) | arab-fors. 1) halvo pishiruvchi kishi; 2) halvo sotuvchi kishi. |
| ham | (هم) | fors. ham. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

hamasr (هم عصر) fors-arab. zamondosh, asrdosh.

hamdam (هم دم) fors. 1) samimiy do'st, mahram, sirdosh; 2) bir tilda gaplashuvchi, suhbatdosh; hampiyola, piyola sherigi; 4) sharob piyolasi; 5) erkaklar ismi.

hamdard (هم درد) fors. 1) g'amxo'r, birovning dardiga sherik bo'luvchi, xayrixoh; 2) bir hil dard, tashvishi bo'lgan ikki yoki bir necha kishi; 3) fikrdosh, sirdosh.

hamdast (همدست) fors. 1) yordamchi, ko'makchi; 2) xodim; 3) suhbatdosh, do'st.

hamdil (همدل) fors. hamfikr, fikrdosh, yakdil, fikri bir hammaslak, ahil, do'st.

hamduna (هم دونه) fors. maymun, maymun yili.

hamdo'st (هم دوست) fors. do'st, bir-biriga ko'maklashuvchi.

hamfikr (هم فکر) fors-arab. fikri, tushunchasi, dunyo qarashi bir xil bo'lgan, fikrdosh.

hamgap (هم گپ) fors. hamsuhbat, suhbatdosh, ulfat.

hamhujra (هم حجره) fors.arab. hamhujra, bir xonada yashovchi kishilar (madrasada).

hamisha (همیشه) fors. doimo, hamisha, har doim, har vaqt.

hamishabahor (همیشه بهار) fors. gulhamishabahor.

hamishagi (همیشگی) fors. doimgi, odatdagi, hamisha bo'ladigan.

hamjihat (هم جهت) fors-arab. hamjihat, birga, bir yoqadan bosh chiqarib, inoq.

hamjins (هم جنس) fors-arab. 1) bir jinsga oid, jinsdosh; 2) kelib chiqishi bir xil.

hamkasaba (هم کسبه) fors-arab. hamkasaba, hamkasb, hamkor.

hamkasb (هم کسب) fors-arab. hamkasaba, hamkasb, hamkor, kasbdosh.

hamkor (همکار) fors. hamkor, xizmatdosh, hamkasb.

hamma (همه) fors. hamma, barcha.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| hammabop | (همه باب) | fors. hammaning didiga mos keladigan, ma'qul keladigan, ommabop. |
| hammahalla | (هم محله) | fors-arab. mahalladagi qo'shni, bir mahallada yashovchi kimsalar (bir-biriga nisbatan). |
| hammaktab | (هم مکتب) | fors-arab. maktabda birga o'quvchi, maktabdosh. |
| hammaslak | (هم مسلک) | fors-arab. 1) bir dinga e'tiqod qiluvchi kimsalar; 2) maslak, e'tiqod, qarashlari biron kimsa bilan bir xil bo'lgan kimsa. |
| hammillat | (هم ملت) | fors-arab. millatdosh, bir xil millatdan bo'lgan kimsalar. |
| hammuallif | (هم مؤلف) | fors-arab. hammuallif, birgalikda maqola, kitob va shu kabilar nashr qildirgan ikki-uch muallif. |
| hamnafas | (هم نفس) | fors-arab. 1) yakdil, birdam; 2) suhbatdosh, hamsuhbat, o'rtoq. |
| hamnishin | (هم نشین) | fors. 1) yonma-yon o'tiruvchi; 2) hamsuhbat, suhbatdosh, ulfat. |
| hamohang | (هماهنگ) | fors. hamohang, uyg'un, muvofiq, munosib, monand. |
| hamon | (همان) | fors. 1) hali, yana; 2) birdan, birdaniga, bir yo'la . |
| hamono | (همانا) | fors. shu lahzada, shu paytda, o'sha zahoti. |
| hamovoz | (هم آواز) | fors. 1) ohangdosh, hamohang; 2) birdam, yakdil, maqsadi, niyati bir. |
| hamrang | (هم رنگ) | fors. hamrang, bir xil rangdagi, rangi o'xshash. |
| hamroh | (همراه) | fors. 1) hamroh, yo'ldosh; 2) yo'lovchi. |
| hamroz | (همراز) | fors. sirdosh, mahram, qadrdon do'st, mehribon, ulfat. |
| hamsafar | (همسفر) | fors. hamroh, yo'lovchi. |
| hamsinf | (هم صنف) | fors-arab. sinfdosh, bir sinfda birga o'quvchi. |
| hamsoya | (همسایه) | fors. qo'shni, hamsoya, qo'shni uyda turuvchi. |
| hamsuhbat | (همصحبت) | fors-arab. suhbatdosh, hamsuhbat. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

hamxona (هم خانه) fors. 1) birga turuvchi, birga yashovchi, hamhujra; 2) g'am, azob kabi kechinmalarga duchor, giriftor.

hamg'oya (هم غايه) fors-arab. hamfikr, maslakdosh, fikrdosh, maqsadi, g'oyasi bir xil kishi.

hamshahar (همشهر) fors. hamshahar, hamqishloq, bir shaharda tug'ilib o'sgan, bir shaharlik.

hamshira (همشيره) fors. hamshira, tibbiyot hamshirasi.

hamshisha (همشيشه) fors. hamshisha, hamtovoq (hamisha birga) ichishadigan ulfat.

hamsho'r (هم شور) fors. qayg'udosh, g'am-kulfatda sherik kimsa.

hangom (هنگام) fors. to'quv dastgohida: tandaning moki o'tadigan oralig'i.

hangoma (هنگامه) fors. 1) quvnoq, dilxush suhbat, safsata; 2) hodisa, voqea, sarguzasht, mojaro.

hanuz (هنوز) fors. hali, shu paytgacha, hozirgacha, hamon.

haqgo'y (حق گوی) arab-fors. rostgo'y, to'g'ri so'z, haqiqatni gapiruvchi kimsa.

haqiqatgo'y (حقيقت گوی) arab-fors. haqiqatni so'zlovchi, chin gapiruvchi.

haqiqatparast (حقيقت پرست) arab-fors. adolatli, odil, beg'araz, haqiqatni yoqlovchi kimsa.

haqiqatparvar (حقيقت پرور) arab-fors. haqiqatni himoya qiluvchi, odil, haqiqat tarafdori.

haqirona (حقيرانه) arab-fors. 1) juda qashshoq, g'aribona, faqirona; 2) kamsitilgan, xo'rlangan tahqirlangan holda.

haqoratomuz (حقارت آميز) arab-fors. haqoratli, haqorat qiladigan, tahqiromuz, haqoratga o'xshab ketadigan.

haqrost (حق راست) arab-fors. chin, haqiqat, rost, to'g'ri.

har (هر) fors. har, har bir, har qanday.

haramxona (حرم خانه) arab-fors. haram, haramxona.

hardam (هردم) fors. har vaqt, har doim, hamisha.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| hardamxayol | (هر دم خیال) | fors-arab. qat'iyatsiz, betayin, tuturuqsiz, har lahzada fikrini o'zgartiruvchi kimsa. |
| hargiz | (هرگز) | fors. hech qachon, hech vaqt, aslo, hech mahal, sira. |
| harifona | (حریفانه) | arab-fors. halfana, sherikchilikka masalliq to'plab tayyorlanadigan ovqat. |
| harisona | (حریصانه) | arab-fors. ochko'zlik bilan, harislik bilan, ochofatlik bilan, tama'korona. |
| harjoyi | (هر جایی) | fors. tekturmas, sabrsiz, beqaror, besaranjom. |
| haromnamak | (حرام نمک) | arab-fors. tekinxo'r, haromtovoq. |
| haromxarish | (حرام خریش) | arab-fors. 1) shariat tomonidan harom qilingan narsalar; 2) iflos, murdor, harom; 3) harom yo'l bilan topilgan, qo'lga kiritilgan narsa. |
| haromxo'r | (حرام خوار) | arab-fors. 1) shariat harom qilgan narsalarni, ovqatlarni yeyuvchi kimsa; 2) tekinxo'r, haromtovoq. |
| haromzoda | (حرام زاده) | arab-fors. 1) nikohsiz tug'ilgan; 2) so'kish: ablah, muttaham, razil, qabih. |
| harchand | (هر چند) | fors. har qancha, qanchalik, imkon boricha, kuchi boricha. |
| hasadgo'y | (حسدگوی) | arab-fors. hasadchi, hasad qiluvchi, baxil odam. |
| hasadxo'r | (حسد خور) | arab-fors. hasadgo'yga qarang. |
| hassakash | (عصاکش) | arab-fors. 1) aza yoki to'yda eshik oldida turuvchi kishi; 2) tobutni qabrga eltishda oldinda hassa tutib boruvchi kishi. |
| havaskor | (هوس کار) | arab-fors. biror narsaga qiziqadigan, orzumand. |
| havasmand | (هوسمند) | 1) havaskor, ishqivoz; 2) talabgor, ko'ngilli. |
| havo I. | (هوا) | arab-fors. havo. |
| havo II. | (هوا) | arab-fors. faxr, iftixor, g'urur, or. |
| havo III. | (هوا) | arab-fors. ohang, kuy, navo. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| havodor I. | (هوادار) | arab-fros. 1) o'g'il bolani sunnat qilish bilan bog'liq rasm-rusum; 2) to'ylarda o'yinchi, ashulachiga pul qistirish, pul tutish. |
| havodor II. | (هوادار) | arab-fors. 1) keng va baland shiftli (bino haqida); 2) toza havoli, bahavo. |
| havodor III. | (هوادار) | arab-fors. 1) baland, yuqori, uzun; 2) kibrli, manman, kekkaygan, o'ziga bino qo'ygan. |
| havoyi | (هوایی) | arab-fors. 1) yengiltak, bemulohaza, befarosat, aqli kalta, beandisha; 2) yengil, oson; 3) asossiz, dalil-isbotsiz, quruq, bema'ni; 4) havorang, osmon rang. |
| havzcha | (حوضچه) | arab-fors. 1) kichik hovuz; 2) lagancha. |
| hayfki | (حیفکی) | arab-fors. afsus, hayf, attang. |
| haykaltarosh | (هیکل تراش) | arab-fors. haykaltarosh, haykal yasovchi usta. |
| hayotbaxsh | (حیاتبخش) | arab-fors. hayotbaxsh, jonlantiradigan, hayot bag'ishlaydigan. |
| hayratbaxsh | (حیرت بخش) | arab-fors. hayratda qoldiradigan, ajoyib, hayron qolarlik. |
| hayratomuz | (حیرت آمیز) | arab-fors. kishini hayratga soladigan, hayron qoldiradigan. |
| hazilkash | (هزل کش) | arab-fors. hazilkash, qiziqchi, kuldiruvchi, askiyachi. |
| hazilmand | (هزل مند) | arab-fors. hazilkash. |
| hazilnamo | (هزل نما) | arab-fors. hazilga o'xshash, hazilmonand. |
| hazilomuz | (هزل آمیز) | arab-fors. hazilga o'xshash, hazil aralash, nojiddiy. |
| hazor | (هزار) | fors. ming, bir ming. |
| hazor-hazor | (هزار هزار) | fors. hisobsiz, son-sanoqsiz, cheksiz, juda ko'p. |
| hazoron | (هزاران) | fors. sonsiz, sanoqsiz, beadad, minglab. |
| hashamdor | (حشم دار) | arab-fors. hashamatli, serhasham, dabdabali, shukuhli, nafis ishlangan, yasatilgan. |
| hasharotxo'r | (حشرات خور) | arab-fors. hasharotxo'r, hasharot bilan oziqlanadigan, hasharot yeyuvchi. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

hech (هيچ) fors. 1) hech, butunlay, aslo; 2) hech narsa.

hibsxona (حبس خانه) arab-fors. qamoqxona, zindon.

hijronzada (هجران زده) arab-fors. ayriliq alamini tortgan, judolik dardini chekkan, hijron alamini chekkan, ezilgan.

hikmatomiz (حکمت آمیز) arab-fors. hikmatli, oqilona, aqlli.

hikoyanavis (حکایه نویس) arab-fors. yozuvchi, hikoya yozuvchi.

hisobdon (حسابدان) arab-fors. hisob-kitobni, sanoqni yaxshi biladigan kimsa.

hisobdor (حسابدار) arab-fors. hisob beruvchi, hisobot beruvchi kimsa.

hissador (حصه دار) arab-fors. sherik, paychi, aksiyador, hissador.

hissamand (حصه مند) arab-fors. 1) ishtirokchi, qatnashchi, sherik; 2) hissador, paychi.

hiylagar (حیله گر) arab-fors. ayyor, mug'ombir, makkor, shayton, firibgar, nayrangboz.

hiylakor (حیله کار) arab-fors. hiylagarga qarang.

hiylakorona (حیله کارانه) arab-fors. ayyorona, makkorona, mug'ombirona, firibgarlik bilan, hiylagarlarga xos ravishda.

hojatbaror (حاجت برار) arab-fors. balo-ofatlardan qutqaruvchi, yordam beruvchi, yaxshilik qiluvchi, jonkuyar.

hojatmand (حاجتمند) arab-fors. 1) muhtoj, ehtiyojmand, zaruratmand; 2) kambag'al, qashshoq, faqir.

hojatravo (حاجت روا) arab-fors. hojatbarorga qarang.

hojatxona (حاجت خانه) arab-fors. xalajoy, xojatxona.

hokimona (حاکمانه) arab-fors. 1) amr bilan, farmon bilan, amirona, buyruqona; 2) mag'rurona, takabburona, kibr bilan, manmanlik bilan.

holvafurush (حلوا فروش) arab-fors. halvofurushga qarang.

holvagar (حلواگر) arab-fors. halvochi.

holvapaz (حلوا پز) arab-fors. halvopazga qarang.

holvoytar (حلوای تر) arab-fors. halvoytar.



www.ziyouz.com kutubxonasi

homilador (حامله دار) arab-fors. homilador, ikkiqat, qornida bolasi bor.

hosildor (حاصل دار) arab-fors. 1) serhosil, unumdor, semiz (yer haqida); 2) mevali, meva qiladigan, meva beradigan.

hujumkor (هجوم كار) arab-fors. 1) hujum, hamla qiluvchi; 2) bosqinchi, tajovuzkor; 3) shiddatli, keskin.

hujumkorona (هجوم كارانه) arab-fors. tezlik bilan, hujumkor ruhda, jadallik bilan.

hukmdor (حكم دار) arab-fors. hukmdor, xon, podsho.

hukmfarmo (حكم فرما) arab-fors. hokim, hukmdor.

hukmron (حكمران) arab-fors. 1) hukmdor, hokim; 2) muhim, ahamiyatli.

humo (هما) fors. 1) humo (afsonaviy qush nomi); 2) ayollar ismi.

humoyun (همايون) fors. 1) viqorli, basavlat, shohona; 2) baxtli, xushbaxt, saodatli, baxtiyor; 3) erkaklar ismi.

hunar (هنر) fors. 1) sana't, mahorat, ustalik; 2) kasb, hunar; 3) chora, hiyla, makr.

hunarmand (هنرمند) fors. 1) hunarmand, kosib; 2) usta, mohir, uquvli, epchil, ishning ko'zini biladigan.

huqqaboz (حقه باز) arab-fors. ko'zboylovchi; 2) hiylagar, firibgar.

huquqshunos (حقوق شناس) arab-fors. huquqshunos, qonunshunos.

hurriyatparvar (حريت پرور) arab-fors. erksevar, ozodlikni sevuvchi.

huzurbaxsh (حضور بخش) arab-fors. lazzatbaxsh, rohatbaxsh, huzur bag'ishlovchi, g'oyat yoqimli.

hush (هوش) fors. ong, aql, idrok, fahm-farosat, es.

hushyor (هوشيار) fors. 1) sergak, ziyrak, tiyrak; 2) hushyor, spirtli ichimliklarni iste'mol qilmaydigan kimsa.

hushyorxona (هوشيار خانه) fors. hushyorxona, mast kimsalarni hushiga keltirish uchun 10-15 kun qamab qo'yiladigan xona.



www.ziyouz.com kutubxonasi

# I

| | | |
|---|---|---|
| iblisona | (ابليسانه) | arab-fors. iblislarga, mal'unlarga xos ravishda, razilona. |
| ibodatgoh | (عبادتگاه) | arab-fors. ibodatxona, cherkov, masjid. |
| ibodatxona | (عبادتخانه) | arab-fors. ibodatgohga qarang. |
| ibratomuz | (عبرت آميز) | arab-fors. ibratli, saboq bo'ladigan, namunali, o'rnak bo'larli, ibrat bo'larli. |
| ijarador | (اجاره دار) | arab-fors. 1) narsani ijaraga beruvchi kimsa; 2) birovning uyida ijaraga o'tiruvchi kishi. |
| ijaraxo'r | (اجاره خور) | arab-fors. uy-joyini yoki narsasini ijaraga qo'yib, undan kelgan daromad bilan kun ko'ruvchi, boylik orttiruvchi kishi. |
| ijodbaxsh | (ايجاد بخش) | arab-fors. ijodiy kuch bag'ishlovchi, ilhom beruvchi, ilhombaxsh. |
| ijodkor | (ايجاد كار) | arab-fors. ijodkor, ijod qiluvchi, yaratuvchi, bunyodga, vujudga keltiruvchi, bunyodkor. |
| ijodkorona | (ايجاد كارانه) | fors-arab. ijodiy, ijodkorlik bilan, yaratuvhcanlik namunalarini ko'rsatib. |
| ijozatnoma | (اجازت نامه) | arab-fors. ijozatnoma, ruxsatnoma. |
| ilhombaxsh | (الهام بخش) | arab-fors. ilhom beruvchi, ilhomlantiruvchi, ko'tarinki kayfiyat beruvchi. |
| ilhomkor | (الهام كار) | arab-fors. ilhombaxshga qarang. |
| ilmparvar | (علم پرور) | arab-fors. ilmni sevuvchi, ilmni yoqlovchi, ilmga homiylik qiluvchi, ma'rifatparvar. |
| iltimosnoma | (التماس نامه) | arab-fors. arznoma, iltimosnoma, ariza, iltimos xati. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| imoratbop | (عمارت باپ) | arab-fors. qurilishga yaroqli, imorat qurishda ishlatsa bo'ladigan. |
| imoratsoz | (عمارت ساز) | arab-fors. quruvchi, me'mor. |
| insonparvar | (انسان پرور) | arab-fors. odamparvar, odamsevar, odamlarga g'amxo'r, odamlarni sevuvchi. |
| iskana | (اسکنه) | fors. yog'och-taxtani o'yish, teshish uchun qo'llaniladigan, ichi yapaloq o'tkir po'lat asbob. |
| iskanja | (اسکنجه) | fors. 1) narsalarni siqadigan, preslaydigan asbob; 2) siqiqlik, siquv. |
| isrofgar | (اسراف گر) | arab-fors. isrofgar, isrof qiluvchi, behudaga xor nobud qiluvchi. |
| istinodgoh | (استناد گاه) | arab-fors. tayanch, suyanchiq. |
| istiqomatgoh | (استقامت گاه) | arab-fors. turar joy, yashash joyi. |
| istirohatgoh | (استراحت گاه) | arab-fors. dam olish joyi, istirohat bog'i. |
| isyonkor | (عصیان کار) | arab-fors. 1) isyonchi, g'alayonchi, qo'zg'olonchi; 2) isyonga chorlovchi, isyonga da'vat etuvchi. |
| isyonkorona | (عصیان کارانه) | arab-fors. isyonkorona, isyonkorlik bilan. |
| itoatgo'y | (اطاعت گوی) | arab-fors. so'zga kiradigan, bo'ysunadigan, itoatkor, labbaygo'y. |
| itoatkor | (اطاعت کار) | arab-fors. itoatkor, bo'ysunuvchi, so'zga kiruvchi, itoatgo'y, labbaygo'y, itoatli. |
| itoatkorona | (اطاعت کارانه) | arab-fors. itoatkorona, ojizona, bosh egib, qullik qilib, bo'yin egib, itoatkorlik bilan. |
| ittifoqdosh | (اتفاق داش) | arab-fors. ittifoqchi, ittifoqdosh. |
| izzatmand | (عزتمند) | arab-fors. izzatli, hurmatli, qadrli, muhtaram. |
| ig'vogar | (اغواگر) | arab-fors. 1) ayg'oqchi, josus; 2) fitnachi, g'alamis, ig'vo tarqatuvchi, oraga nifoq soluvchi. |
| ishqiboz | (عشق باز) | arab-fors. ishqiboz, biror narsaga qiziquvchi, biror narsaga g'oyat darajada berilgan kimsa, havaskor, havasmand. |
| ishratgoh | (عشترگاه) | arab-fors. ishratxona, fohishaxona, islovotxona. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

ishratparast (عشرت پرست) arab-fors. maishatparast, mayxo'r, aysh-ishrat bandasi.

ishratxona (عشرت خانه) arab-fors. ishratxona, fohishaxona, islovotxona.

ishtiyoqmand (اشتیاق مند) arab-fors. ishtiyoqmand, kuchli ishtiyoq egasi, juda xohlovchi, intiluvchi kimsa.

ishvakor (عشوه کار) arab-fors. 1) tannoz, noz-ishvali, satang, serishva; 2) ko'rkam, go'zal, juda chiroyli.

ishg'olgar (اشغالگر) arab-fors. tajovuzkor, bosqinchi, bosib oluvchi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

# J

| | | |
|---|---|---|
| jabrdiyda | (جبر دیده) | arab-fors. alamdiyda, g'am chekkan, azob tortgan, jabr ko'rgan. |
| jafokash | (جفاکش) | arab-fors. 1) azob chekuvchi, jafo chekuvchi; 2) mehnatsevar, mehnatkash. |
| jafokor | (جفاکار) | arab-fors. 1) zolim, qiynovchi, azob beruvchi; 2) dilozor, ranjituvchi, ko'ngil og'rituvchi. |
| jaholatparast | (جهالت پرست) | arab-fors. jaholatparast, ma'rifat, taraqqiyot dushmani. |
| jahon | (جهان) | fors. 1) dunyo, olam, jahon; 2) ayollar ismi. |
| jahonbaxsh | (جهان بخش) | fors. saxiy, qo'li ochiq. |
| jahondiyda | (جهان دیده) | fors. dunyo ko'rgan, ko'pni ko'rgan, ishni ko'zini biladigan, tajriba ko'rgan. |
| jahondor | (جهان دار) | fors. dunyo hukmdori, olam podshohi. |
| jahongashta | (جهان گشته) | fors. 1) dunyo kezgan, jahonni aylanib chiqqan; 2) tajribali, ishning ko'zini biladigan. |
| jahongir | (جهانگیر) | fors. 1) jahonni egallovchi, dunyoni zabt etuvchi, fotih; 2) erkaklar ismi. |
| jahonnamo | (جهان نما) | fors. jahon oynasi, aks etuvchi dunyoni ko'rsatuvchi sehrli oyna. |
| jahonshumul | (جهان شمول) | fors-arab. olamshumul, jahon ahamiyatiga ega bo'lgan, juda muhim. |
| janda | (ژنده) | fors. janda ( turli rangdagi mato parchalaridan tikilgan darvishlar kiyimi). |
| jandapo'sh | (ژنده پوش) | fors. 1) darvesh, qalandar; 2) uloq-quroq yoki juldur kiygan kishi. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

jang (جنگ) fors. 1) jang, urush, kurash; 2) musobaqa; 3) zo'r tortishuv, bahs, munozara.

jangari (جنگری) fors. janjalkash, jangari, urishqoq.

janggoh (جنگگاه) fors. jang, urush maydoni.

jangnoma (جنگ نامه) fors. jang, urushlar haqidagi hikoya, doston.

jangovar (جنگاور) fors. 1) jangovar, jangga aloqador; 2) jangchi, askar; 3) kurashchan, faol; 4) juda muhim, kechiktirib bo'lmaydigan, zaruriy.

janjal (جنجال) fors. janjal, mojaro, g'avg'o, nizo, to'qnashuv.

janjalkash (جنجالکش) fors. janjalkash, bahs, talashishni yaxshi ko'ruvchi, janjalchi.

jannatmonand (جنت مانند) arab-fors. jannatsimon, jannat kabi, jannatga o'xshash.

janubiy (جنوبی) arab-fors. janubiy, janub tomonga oid.

jar (جر) fors. 1) soy, chuqurlik, jarlik; 2) yo'qolish, nobud bo'lish, halok bo'lish.

jarang (جرنگ) fors. jarang, jaranglagan ovoz.

jarangdor (جرنگ دار) fors. jarangli, jaranglovchi, baland tovushli.

jarimador (جریمه دار) arab-fors. jarima solingan kishi yoki tashkilot.

jasurona (جسورانه) arab-fors. jasurlik bilan, botirona, qo'rqmasdan, botirlik bilan, dadillik bilan.

javobgar (جوابگر) arab-fors. 1) ma'sul, yelkasiga ma'suliyat yuklangan kimsa; 2) javobgar, javob beruvchi, aybdor.

javobnoma (جواب نامه) arab-fors. javob xati, xatning javobi.

javpazak (جوپزک) fors. ertapishar, chillaki.

jiddiy (جدی) arab-fors. 1) jiddiy, muhim; 2) xavfli, xatarli.

jigar (جگر) fors. 1) jigar (tana a'zosi); 2) yaqin, aziz, tug'ishgan



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| jigarband | (جگربند) | fors. 1) aziz, qadrdon, qimmatli; 2) farzand. |
| jigargo'sha | (جگر گوشه) | fors. 1) qondosh, qon-qarindosh, tug'ishgan; 2) aziz, mehribon, qadrli; 3) farzand, bola. |
| jigarpora | (جگر پاره) | fors. aziz, qadrli, yaqin, qadrdon (asosan farzand to'g'risida). |
| jigarso'xta | (جگر سوخته) | fors. 1) g'amgin, qalbi yaralangan, bag'ri kuygan; 2) qattiq sevib qolgan, ma'shuq, oshig'i beqaror. |
| jigarxun | (جگر خون) | fors. g'amgin, qayg'uli, g'am-qayg'udan jigar bag'ri qon bo'lgan kimsa. |
| jilovbardor | (جلو بردار) | turk-fors. jilovdorga qarang. |
| jilovdor | (جلودار) | turk-fors. 1) otboqar; 2) o'z xo'jaynining oti jilovidan tutib yetaklovchi kimsa. |
| jilvador | (جلوه دار) | arab-fors. jilvali, porlovchi, yaraqlovchi. |
| jilvagar | (جلوه گر) | arab-fors. 1) nurafshon, porloq; 2) ishvali, ishvagar, noz-karashmali, noz-istig'noli. |
| jinninamo | (جنی نما) | arab-fors. jinni kabi, devona kabi, jinniga o'xshash. |
| jinnivachcha | (جنی بچه) | arab-fors. jinnidan tug'ilgan, jinnidan tarqagan. |
| jinnixona | (جنی خانه) | arab-fors. jinnilar uyi, ruhiy bemorlar shifoxonasi. |
| jinoyatkor | (جنایتکار) | arab-fors. jinoyatchi, xiyonatchi, yaramas odam. |
| jinoyatkorona | (جنایتکارانه) | arab-fors. jinoiy, jinoyatkorona, jinoiy yo'l bilan. |
| jinsdosh | (جنس داش) | arab-fors. jinsdosh, bir jinsdan bo'lgan. |
| jig'ibiyron | (جیغ و بریان) | fors. bezovta, behalovat, notinch, xavotir, tashvish. |
| jodu | (جادو) | fors. 1) sehrgarlik, jodugarlik, avrash; 2) jozibador, kishini maftun qiladigan. |
| jodugar | (جادوگر) | fors. 1) sehrgar, afsungar, folbin, avroqchi; 2) o'takelgan ayyor, makkor, hiylagar. |
| jola | (ژاله) | fors. 1) ko'z yoshi; 2) shudring, shabnam; 3) momoqaldiroq aralash qattiq yomg'ir. |
| jom | (جام) | fors. 1) tos, tog'ora; 2) kosa, qadah; 3) qo'ng'iroq, zang, jom. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

joma (جامه) fors. ustki kiyim, xalat, libos, to'n.

jomadon (جامه دان) fors. 1) sandiq, kiyim javoni; 2) chamadon.

jomado'z (جامه دوز) fors. tikuvchi.

jomakor (جامه كار) fors. ish kiyimi, maxsus kiyim, korjoma.

jomasho'v (جامه شو) fors. kiyim yuvadigan katta tog'ora.

jon (جان) fors. 1) ruh; 2) inson, kishi, odam; 3) aziz, hurmatli, qadrdon; 4) hayot, umr; 5) kuch, quvvat.

jonajon (جان‌جان) fors. 1) sevikli, qadrdon, aziz; 2) juda muhim, nihoyatda zarur.

jonbaxsh (جانبخش) fors. hayotbaxsh, jon bag'ishlovchi, kuch g'ayrat, dalda beruvchi.

jonboz (جانباز) fors. 1) serg'ayrat, fidokor, tirishqoq, jasoratga to'lib toshgan; 2) o'z hayotini xatarga qo'yuvchi kimsa.

jondor (جاندار) fors. jonzodga qarang.

jondosh (جانداش) fors. yakdil, birdam, jipslashgan, jondosh, hamnafas.

jonivor (جانور) fors. 1) tirik jon, maxluq; 2) jon, zot.

jonkash (جانكش) fors. mehnatkash, tirishqoq, g'ayratli, jafokash.

jonon (جانان) fors. 1) go'zal, sohibjamol, zebo; 2) ajoyib, juda yaxshi; 3) janon (kuy nomi); 4) ayollar ismi.

jonona (جانانه) fors. ma'shuqa, mahbuba, yor, sevgili.

jonsarak (جانسرك) fors. 1) dovdiragan, gangigan, parishon, merov; 2) sabrsiz, beqaror, tek turmas, besaranjom, tinchimaydigan, serharakat.

jonzod (جان‌ذات) fors-arab. tirik jonzod, barcha tirik jon.

joy (جاى) fors. 1) o'rin, joy, yer; 2) lavozim, mansab, o'rin, ish, vazifa; 3) o'rin, to'shak, joy; 4) oila, xonadon.

joynamoz (جاى نماز) fors. joynamoz, musulmonlar namoz o'qiydigan gilamcha.



www.ziyouz.com kutubxonasi

joyravo (جای روا) fors. ko'chalik kiyim.

judo (جدا) fors. ayrilgan, bo'lingan, judo bo'lgan.

juft (جفت) fors. 1) juft, qo'sh, qo'shaloq, ikkita; 2) ikki do'st, ikki dugona; 3) teng, munosib.

juftak (جفتک) fors. yugurib ketmoq, chopib ketmoq, qochmoq, juftakni rostlamoq.

junbish (جنبش) fors. 1) kuchli, keskin harakat; 2) ish, amal, vazifa.

jussador (جثه دار) arab-fors. jussali, gavdali, to'la, barvasta, norg'ul.

juvoldiz (جوالدوز) fors. 1) juvoldiz, katta qop tikadigan igna; 2) qop tikuvchi kimsa.

juvon (جوان) fors. 1) yosh ayol; 2) erdan chiqqan yoki tul qolgan ayol; 3) iffatini yo'qotgan qiz.

juvonbaxt (جوان بخت) fors. baxtli, saodatli, iqbolli, xushbaxt, tolei baland, omadli.

juvonmard (جوانمرد) fors. 1) mard, jasur, botir, dovyurak; 2) ko'ngli ochiq, sahiy, olijanob, tanti, muruvvatli, himmatli.

juvonmarg (جوان مرگ) fors. yosh o'lgan, avji yetilgan paytida halok bo'lgan.

juvonso'xta (جوان سوخته) fors. juvonmarg.

juvozkash (جواز کش) arab-fors. 1) juvozkash, moy ishlab chiqaruvchi kimsa; 2) xotinboz, xotinlar ketidan ilakishib yuradigan kimsa.

juvozxona (جواز خانه) arab-fors. moy ishlab chiqaradigan korxona, moyjuvoz.

juzdon (جزدان) arab-fors. qog'ozlar uchun papka.

juzgir (جزگیر) arab-fors. juzdonga qarang.

jo'ja (جوجه) fors. 1) jo'ja, tovuqning bolasi; 2) farzand, bola.

jo'r (جور) fors. mos tushgan, mos, ohangdosh, hamohang, uyg'un.

jo'sh (جوش) fors. jo'sh urmoq, qaynamoq, mavj urmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

# K

| | | |
|---|---|---|
| kabob | (کباب) | fors. kabob, kavob, sixkavob. |
| kabobpaz | (کباب پز) | fors. kabobpaz, kabob pishiruvchi kimsa. |
| kabobxona | (کباب خانه) | fors. kabobxona, kabob pishirib, sotiladigan joy. |
| kabutar | (کبوتر) | fors. kaptar. |
| kabutarboz | (کبوتر باز) | fors. kaptarvoz. |
| kabutarxona | (کبوتر خانه) | fors. kaptar in, oshiyon qurgan joy. |
| kadxudo | (کدخدا) | fors. 1) uy, oila boshlig'i; 2) qishloq oqsoqoli; 3) qabila boshlig'i; 4) mahalla boshlig'i, raisi; 5) shahar himoyachisi, qo'riqchisi; 6) vazir. |
| kaf | (کف) | fors. qo'l kafti, kaft. |
| kafando'z | (کفن دوز) | arab-fors. o'lik, mayyit uchun kafan tikuvchi kimsa, kafando'z. |
| kafangado | (کفن گدا) | arab-fors. butunlay xonavayron bo'lgan, hech narsasiz qolgan, hatto kafan sotib olishga ham puli qolmagan kimsa. |
| kafolatnoma | (کفالت نامه) | arab-fors. kafolatnoma. |
| kaft | (کف) | fors. qo'lning bilak uchidan barmoqlargacha bo'lgan ichki yaxlit qismi, kaft. |
| kafsh | (کفش) | fors. kavush, mahsi bilan kiyiladigan oyoq kiyimi. |
| kafshdo'z | (کفش دوز) | fors. kavushdo'z, etikdo'z. |
| kaj | (کج) | fors. 1) egri, bukilgan, qing'ir, qiyshiq; 2) teskari, chappa. |
| kajbahs | (کج بحث) | fors-arab. qaysar, o'jar, gapga ko'nmaydigan, behuda bahslashadigan, tixir. |
| kajdum | (کژدم) | fors. chayon. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| kajraftor | (کج رفتار) | fors. o'zgaruvchan, beqaror, bevafo, teskari, egri yuruvchi. |
| kajrav | (کج رو) | fors. egri yuruvchi, teskari, noto'g'ri ish qiluvchi. |
| kal | (کل) | fors. 1) kal, sochi to'kilgan; 2) qo'tir, qirchang'i. |
| kalaka | (کلکه) | fors. masxara, kalaka, kulgi. |
| kalava | (کلافه) | fors. kalava, kalava ip. |
| kalavaxona | (کلافه خانه) | for. ip o'raydigan, kalavalaydigan ishxona. |
| kalavacho'p | (کلافه چوب) | fors. kalava o'raydigan charx. |
| kalimago'y | (کلمه گوی) | arab-fors. doimo shahodat kalimasini takrorlab yuruvchi musulmon. |
| kalla | (کله) | fors. 1) bosh, kalla; 2) ong, aql, farosat; 3) nodon, ahmoq, kallavaram kabi ma'nolarda ishlatiladigan undalma. |
| kallador | (کله دار) | fors. 1) kallasi, boshi katta kishi; 2) qaysar va takabbur. |
| kallak | (کلک) | fors. shoxalari kallaklangan, kesilgan (daraxt haqida). |
| kallakdor | (کلکدار) | fors. 1) kallaklanaverib sershox bo'lib ketgan; 2) kallador. |
| kallapaz | (کله پز) | fors. kalla-pocha pishirib sotuvchi oshpaz. |
| kalla-pocha | (کله پاچه) | fors. 1) so'yilgan hayvon kalla va tuyog'i; 2) kalla-pochadan tayyorlangan ovqat. |
| kallapo'sh | (کله پوش) | fors. bosh kiyimi, do'ppi. |
| kallavaram | (کله ورم) | fors. kallavaram, nodon, beaql, befahm. |
| kallaxom | (کله خام) | fors. 1) kalla terisi shilingan hayvon; 2) sigir bosh terisi. |
| kallaxum | (کله خم) | fors. kallasi, boshi juda katta kimsa. |
| kalon | (کلان) | fors. 1) katta, buyuk, azim; 2) bosh, katta, boshchilik qiluvchi; 3) erkaklar ismi. |
| kalta | (کلته) | fors. kalta, qisqa. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

kaltabin (کلته بین) fors. 1) xira ko'z, faqat yaqindangina ko'radigan; 2) kaltafahm, farosatsiz, uzoqni o'ylamaydigan.

kaltafahm (کلته فهم) fors-arab. befahm, befarosat, farosatsiz, aqli qisqa, kaltafahm.

kaltak (کلتک) fors. 1) tayoq, gavron; 2) tayoq, musht zarbi, urish.

kalvak (کلوک) fors. befahm, anqov, lavang odam.

kam (کم) fors. kam, oz, siyrak, kamchil.

kamalak (کملک) fors. 1) yoy, kamon (qurol); 2) kamalak, yetti hil rang.

kamand (کمند) fors. kamand, ilmoqli arqon.

kamar (کمر) fors. kamar, belbog', qayish.

kamarband (کمربند) fors. 1) kamarband, belga kamar bog'lab olgan, belbog' bog'lab olgan; 2) qilich osib yuradigan qayish; 3) halqa, doira.

kamarbasta (کمربسته) fors. 1) xizmat qilishga tayyor, xizmat qilish uchun belbog' bog'lab olgan; 2) usta deb ma'lum qilingan shogird, usta sifatida mustaqil ishlashga ruxsat olgan shogird.

kambar (کمبر) fors. nozik, keng emas, tor.

kambarg (کمبرگ) fors. kam bargli.

kambag'al (کمبغل) fors. kambag'al, faqir, qashshoq, yo'qsil; 2) kamchil, kamyob, oz, siyrak, ko'p, serob emas.

kambag'alparvap (کمبغل پرور) fors. kambag'allarga g'amxo'rlik qiluvchi, ularni o'z himoyasi ostiga oluvchi, ularga yordam beruvchi.

kamdaromad (کم درآمد) fors. kamfoyda, yaxshi daromad keltirmaydigan, kamdaromad.

kamdiydor (کم دیدار) fors. kam ko'rinadigan, kam ko'rinish beradigan.

kamfahm (کم فهم) fors-arab. haftafahm, zehni past, farosatsiz.

kamgap (کم گپ) fors. kamgap, indamas, kamsuxan, kam gapiruvchi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| kamgo'sht | (كم گوشت) | fors. 1) go'shti kam bo'lgan, kam go'sht beradigan; 2) ozg'in, oriq; 3) shirasi kam, suvi kam. |
| kamhafsala | (كم حوصله) | fors-arab. sust, beg'ayrat, tashabbussiz, biror ishga astoydil yopishib harakat qilmaydigan. |
| kamhosil | (كم حاصل) | fors-arab. kamhosil, kamunum, kamsamara, kammeva, hosili kam. |
| kamina | (كمينه) | fors. 1) odob va kamtarlik yuzasidan "men" ma'nosida ishlatiladi; 2) sodiq xizmatkor, qul. |
| kam-kam | (كم كم) | fors. kam-kam, oz-ozdan, asta-sekin, bora-bora. |
| kam-ko'st | (كم و كاست) | fors. kamchilik, yetishmovchilik, chala. |
| kamnamo | (كم نما) | fors. kam ko'rinadigan, kam keladigan. |
| kamob | (كم آب) | fors. 1) kamsuv, suvi taqchil; 2) kam, noyob, topilmaydigan. |
| kamomad | (كم آمد) | fors. kamlik, yetishmaslik, kamomad. |
| kamon | (كمان) | fors. 1) kamon, yoy; 2) kamoncha (musiqiy); 3) kamalakka o'xshash, egilgan, qayrilma (qosh haqida). |
| kamonkash | (كمان كش) | fors. kamonkash, kamondan otuvchi, jangchi. |
| kampir | (كمپير) | fors. kampir, qari ayol. |
| kampirdahan | (كم پيردهن) | fors. iyagi chiqqan va yuzi ichiga kirib ketgan kishi, og'zi va iyagi kampirlarnikiga o'xshagan. |
| kamsavod | (كم سواد) | fors-arab. chalasavod, savodi kam, chala ma'lumotli, chala mulla. |
| kamsuxan | (كم سخن) | fors. kamgap, indamas, kam gapiruvchi. |
| kamtar | (كمتر) | fors. kamtar, kamsuqum, odobli, maqtanishni istamaydigan, mag'rurlanmaydigan. |
| kamtarin | (كمترين) | fors. eng kamtar, kamtardan kamtar, juda kamtar va itoatkor. |
| kamtarona | (كمترانه) | fors. kamtarlik bilan, o'zini katta, yuqori olmay, oddiygina, odmi. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

kamxarajat (كم خرجت) fors-arab. 1) xarajati kam bo'ladigan, xarajatni ko'p talab qilmaydigan, kamchiqim;.2) kambag'al, faqir, qashshoq.

kamxarj (كم خرج) fors-arab. pulni kam sarflaydigan (puli kam yoki xasis odam haqida).

kamyob (كمياب) fors. kamyob, nodir, kam topiladigan, noyob.

kana (كنه) fors. kana.

kanakunjut (كنه كنجد) fors. kanakunjut.

kanaxona (كنه خانه) fors. 1) kana bosgan uy; 2) zindon, yer osti qamoqxonasi.

kanda (كنده) fors. 1) kelmaslik, qoldirish, yo'q bo'lish (dars, mashg'ulot va shu kabilarda); 2) qazilgan, kovlangan; 3) xandaq; 4) o'yilgan, zarb qilingan.

kandakor (كنده كار) fors. metallarga zarb qiluvchi ishchi.

kandakori (كنده كارى) fors. o'yish va zarb qilish orqali ishlangan, o'yib ishlangan.

kaniz (كنيز) fors. 1) qul qiz yoki ayol, cho'ri ayol; 2) oqsoch, xizmatkor xotin (xon saroyida); 3) qizcha.

kanizak (كنيزك) fors. yosh kaniz.

kanop (كنف) fors. 1) kanop; 2) shu toladan eshilgan ip.

kanopzor (كنف زار) fors. kanopzor, kanop ekilgan maydon.

kanor (كنار) fors. 1) chet, chekka, qirra, lab, yoqa 2) tomon, taraf; 3) burchak; 4) sohil, qirg'oq.

kanora (كناره) fors. kanorga qarang.

kapgir (كفگير) fors. 1) kapgir, chovli; 2) tebrang'ich, soat tebrang'ichi.

kaptar (كبوتر) fors. kaptar.

kaptarboz (كبوتر باز) fors. kaptarboz, kaptar ishqibozi, kaptar boquvchi.

kaptarxona (كبوتر خانه) fors. 1) kaptarxona, kaptarlar turadigan in, uy; 2) kirdi-chiqdi ko'p bo'ladigan (har kim kirib chiqib ketaveradigan) joy.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| kar | (کر) | fors. kar, qarang. karquloq. |
| karam | (کرم) | fors. karam. |
| karamzor | (کرم زار) | fors. karamzor, karam ekilgan maydon. |
| karaxt | (کرخت) | fors. 1) tildan qolgan, tilsiz, soqov; 2) esankirab qolgan, shoshib qolgan, dovdiragan, hayratda qolgan; 3) qish uyqusidagi. |
| karashma | (کرشمه) | fors. ko'z va qosh qoqish, nozu-karashma, ishva, qichiq. |
| karnay | (کرنی) | fors. 1) karnay (musiqa asbobi); 2) og'iz (voro'nkaga o'xshagan kenglik). |
| karvon | (کاروان) | fors. karvon, bir qator arava. |
| karvonsaroy | (کاروان سرای) | fors. karvonsaroy. |
| karvonxona | (کاروان خانه) | fors. karvonsaroy. |
| kas | (کس) | fors. shaxs, kishi, inson, odam, kimsa, zot. |
| kasalmand | (کسل مند) | arab-fors. kasalmand, dardchil, kasalga beriluvchan, zaif, bedarmon. |
| kasalnamo | (کسل نما) | arab-fors. kasalga o'xshash, ko'rinishi kasal kabi. |
| kasalvand | (کسل مند) | arab-fors. kasalmand. |
| kasalxona | (کسل خانه) | arab-fors. shifoxona. |
| kasbdosh | (کسب داش) | arab-fors. hamkasb, hamkor, bir xil kasbli, bir kasbdagi, sherik. |
| kasb-kor | (کسب و کار) | arab-fros. kasb, hunar, mashg'ulot, ish. |
| kashanda | (کشنده) | fors. kashanda, chekuvchi. |
| kashnich | (کشنیچ) | fors. kashnich. |
| kashta | (کشته) | fors. 1) kashta tikish, gul tikib solish; 2) gul, to'r, naqsh, bezak; 3) gul, rasm, chiziq va shu k. tikilgan mato. |
| kashtado'z | (کشته دوز) | fors. kashtachi, gul tikuvchi, kashta tikuvchi. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

kachal (کچل) fors. kal, sochsiz, sochi to'kilgan.

keshvar (کشور) fors. mamlakat, davlat.

kimxob (کمخاب) fors. kimxob, zarbop, kundal.

kimyogar (کیمیاگر) arab-fors. kimyogar, kimyo bilimdoni.

kin (کین) fors. 1) adovat, kek, dushmanlik, ichiqoralik, ginaxonlik; 2) nafrat, jirkanish; 3) qasos, o'ch, intiqom.

kina (کینه) fors. kinga qarang.

kindor (کین دار) fors. yomon, badjahl, alamli, g'arazli, ginali, keki bo'lgan.

kinoyaomiz (کنایه آمیز) arab-fors. kinoyali, piching aralash, kinoya tarzidagi.

kirakash (کراکش) arab-fors. kirakashlik qiluvchi, odam tashuvchi shaxs.

kirdikor (کرد و کار) fors. 1) yomon harakat, nomunosib qiliq, bo'lmag'ur ish; 2) fitna, hiyla-nayrang, yomon niyat.

kissa (کیسه) fors. 1) hamyon; 2) cho'ntak.

kissado'z (کیسه دوز) fors. hamyon tikuvchi usta, kissa tikuvchi usta.

kissavur (کیسه بر) fors. kissavur, cho'ntak kesar o'g'ri.

kitobfurush (کتاب فروش) arab-fors. kitob sotuvchi, kitob savdosi bilan shug'ullanuvchi kimsa.

kitobiy (کتابی) arab-fors. kitobiy, kitobga oid.

kitobxon (کتاب خوان) arab-fors. o'quvchi, kitobsevar, kitobxon.

kitobxona (کتابخانه) arab-fors. kutubxona.

kitobshunos (کتاب شناس) arab-fors. kitobshunos, kitobshunoslik mutaxassisi.

kichik (کوچک) fors. 1) kichkina, jajji, mitti; 2) yosh bola, go'dak; 3) ahamiyatsiz, ahamiyati kam, arzimas.

kofur (کافور) fors. kofur (tabobat va texnikada ishlatiladigan qattiq, o'tkir hidli modda).



www.ziyouz.com kutubxonasi

kokil (کاکل) fors. soch o'rimi, kokil.

kom I. (کام) fors. 1) og'iz; 2) og'iz ichi.

kom II. (کام) fors. kom olmoq - maqsadga erishmoq, komron bo'lmoq.

komron (کامران) fors. 1) baxtli, o'z orzusiga yetishgan, xushbaxt; 2) erkaklar ismi.

komyob (کامیاب) fors. baxt-saodatli, iqbolli, xushbaxt.

kon (کان) fors. 1) kon; 2) biror narsaga boy makon, manba, ombor.

kor (کار) fors. 1) ish, mehnat, mashg'ulot; 2) hojat-ehtiyoj; 3) to'g'rilash yo'li, iloj.

kordon (کاردان) fors. tajribali, ishbilarmon, ishchan, chaqqon, usta.

korgoh (کارگاه) fors. 1) dunyo, olam, koinot; 2) faoliyat maydoni, soha; 3) ustaxona, korxona.

korjoma (کار جامه) fors. ish kiyimi, maxsus kiyim, jomakor.

korson (کارسان) fors. 1) yog'ochdan ishlangan katta tovoq; 2) egarning orqa qismi.

korsoz (کارساز) fors. tadbirkor, ishning ko'zini biladigan, usta, epchil, chaqqon.

korxona (کارخانه) fors. korxona, sanoat muassasi, ishxona.

korchalon (کارچلان) fors. 1) ishboshi, kattakon, sarkor; 2) abjir, olg'ir, yulduzni narvonsiz uradigan, o'zini hammadan bilimdon hisoblovchi.

kosagar (کاسه گر) arab-fors. kosa yasovchi kulol.

kosagul (کاسه گل) arab-fors. kosagul, soqiy, may quyuvchi.

koshin (کاشین) fors. 1) koshin; 2) mozaika.

koshinkor (کاشین کار) fors. 1) qoplovchi usta, naqshinkor; 2) koshindan qilingan; 3) mozaika, qadama.

koshki (کاشکی) fors. koshki, ...qolsa edi, qani endi.

koshona (کاشانه) fors. saroy, hashamatli bino.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| kulba | (كلبه) | fors. kulba, uycha, ko'rimsiz, bechorahol uy. |
| kulbaxona | (كلبه خانه) | kulbaga qarang. |
| kuloh | (كلاه) | fors. darvishlar telpagi. |
| kulohdor | (كلاه دار) | fors. 1) kulohli, boshiga darvishlar telpagi kiygan; 2) podshoh, sulton. |
| kulohdo'z | (كلاه دوز) | fors. telpakdo'z, telpak tikuvchi. |
| kulol | (كلال) | fors. kulol, ko'za yasovchi usta. |
| kunda | (كنده) | fors. 1) to'nka, to'ngak, g'o'la; 2) mahbuslar oyog'iga kiygiziladigan iskanja. |
| kundak | (كندک) | fors. daraxtning ostki qismidan, to'nkadan o'sib chiqqan qismi. |
| kundakov | (كنده كاو) | fors. kundakov qilmoq, to'nkani yerdan kovlab chiqarmoq. |
| kungura | (كنگره) | fors. kungura (devor, bino va shu kabilarning), dandana. |
| kungurador | (كنگره دار) | fors. kungurali, kungurasi bor. |
| kunjara | (كنجاره) | fors. kunjara. |
| kunjut | (كنجد) | fors. kunjut. |
| kunjutpoya | (كنجد پايه) | fors. 1) kunjut poyasi; 2) kunjut ekilgan yer maydoni. |
| kurra | (كره) | fors. kurra, xo'tik, eshak bolasi. |
| kutubxona | (كتب خانه) | arab-fors. kitobxona. |
| kushanda | (كشنده) | fors. 1) qotil, qonxo'r, odamxo'r; 2) qiruvchi, qirib bitiruvchi; 3) zararkunanda, ziyonkunanda, ziyon yetkazuvchi. |
| kushoyish | (كشايش) | fors. muvaffaqiyat, yutuq, yengillik. |
| kushxona | (كشخانه) | fors. kushxona, qassobxona, mol so'yadigan joy. |
| ko'h | (كوه) | fors. tog'. |
| ko'hna | (كهنه) | fors. eski, qadimgi, burungi. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| ko‘knor | (کوکنار) | fors. ko‘knor. |
| ko‘knori | (کوکناری) | fors. nashavand, bangi, ko‘knori, ko‘knor ichuvchi. |
| ko‘knorixona | (کوکناری خانه) | fors. bangi, nashavandlar yig‘iladigan joy. |
| ko‘mak | (کمک) | fors. yordam, madad, ko‘mak. |
| ko‘makdosh | (کمک داش) | fors. ko‘makchi, yordamchi. |
| ko‘r | (کور) | fors. 1) ko‘r, ko‘zi ojiz; 2) savodsiz, o‘qimagan, ilmsiz. |
| ko‘r-ko‘rona | (کور کورانه) | fors. ko‘r-ko‘rona, ko‘rmasdan, tusmollab, surishtirmay, tavakkaliga, mulohaza yuritmay. |
| ko‘rnamak | (کور نمک) | fors. noshukur, qadr bilmaydigan, yaxshilikka yomonlik qaytaruvchi, tuzingni ichib, tuzlig‘ingga tupuradigan, nonko‘r. |
| ko‘sa | (کوسه) | fors. 1) soqolsiz, ko‘sa; 2) qup-quruq, taqir, o‘simliksiz. |
| ko‘sak | (کوسک) | fors. g‘o‘zaning guldan so‘ng tugadigan mevasi. |
| ko‘sanoma | (کوسه نما) | fors. ko‘saga o‘xshash, soqol-mo‘ylavi siyrakroq. |
| ko‘toh | (کوتاه) | fors. 1) qisqa, kalta; 2) yetarli emas, qoniqarsiz, kam, oz. |
| ko‘za | (کوزه) | fors. ko‘za. |
| ko‘zagar | (کوزه گر) | fors. ko‘zagar, ko‘za yasovchi usta. |
| ko‘zaxo‘r | (کوزه خور) | fors. ramazon oyi ro‘zasini buzuvchi kimsa. |
| ko‘shk | (کوشک | fors. qasr, saroy, qala’. |
| ko‘cha | (کوچه) | fors. 1) ko‘cha; 2) tashqari. |
| ko‘cha-ko‘y | (کوچه کوی) | fors. ko‘cha va umuman uy-hovlidan tashqari bo‘lgan joylar. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# L

lab (لب) fors. 1) lab, dudoq; 2) qizg'oq, chet, baland qismi.

labbaygo'y (لبيگوى) arab-fors. xushomadgo'y, laganbardor, tilyog'lamachi.

labdahan (لب دهن) fors. 1) lab va og'iz; 2) gapira olish qobiliyati, o'zini himoya qilish qobiliyati.

labbalab (لب بلب) fors. labolabga qarang.

lab-lunj (لب لنج) fors. lab va lunj.

labolab (لبالب) fors. limmo-lim to'ldirilgan, chekkalariga chiqquncha to'ldirilgan.

lagan (لگن) fors. lagan, katta idish.

laganbardor (لگن بردار) fors. laganbardor, tilyog'lamachi, xushomadgo'y.

lagancha (لگنچه) fors. kichkina lagan, lagancha.

lak (لک) fors. yuz ming (100000).

la'nati (لعنتی) arab-fors. la'nati, la'natlangan, mal'un, ablah.

lang I. (لنگ) fors. lang, katta, keng.

lang II. (لنگ) fors. lang, cho'loq, oqsoq.

langar I. (لنگر) fors. langar, kema langari.

langar II. (لنگر) fors., langar cho'p - dorda muvozanatni saqlash uchun dorvoz qo'lda tutadigan uzun xoda.

larza (لرزه) fors. qaltirash, titrash, silkinish.

larzon (لرزان) fors. qaltirovchi, silkinuvchi, titrovchi, tebranib turuvchi.

lat (لت) fors. zarar, ziyon, lat.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| latifaboz | (لطیفه باز) | arab-fors. latifa eshitish va aytishni yaxshi ko'ruvchi kimsa. |
| latifago'y | (لطیفه گوی) | arab-fors. latifa aytuvchi, latifa aytishni sevuvchi. |
| latta | (لته) | fors. 1) latta, gazlama bo'lagi; 2) lavand, bo'shang, irodasiz, lattachaynar. |
| lattafurush | (لته فروش) | fors. eskichi, eski-tuski kiyim-kechaklarni olib sotuvchi kimsa. |
| lavand | (لوند) | fors. 1) dangasa, ishyoqmas, yalqov, erinchoq; 2) anqov, befahm, angraygan, merov, lavang. |
| laxta | (لخته) | fors. 1) quyilgan, quyilib qolgan (qon); 2) bo'lak parcha. |
| laxtak | (لختک) | fors. bo'lak, parcha, qiyqim (mato). |
| laxcha | (لخچه) | fors. alanga, o't, olov, yolqin, uchqun. |
| lashkar | (لشکر) | fors. lashkar, qo'shin. |
| lashkargoh | (لشکرگاه) | fors. lashkar, qo'shin joylashgan joy, harbiy qarorgoh. |
| lash-lush | (لش و لوش) | fors. lash-lush, eski-tuski, uvada. |
| lobar | (لابر) | fors. 1) lobar, chiroyli, go'zal, kelishgan, yoqimtoy, kishini o'ziga tortadigan; 2) ayollar ismi. |
| lof | (لاف) | fors. 1) mubolag'a, lof, mohovat, haqiqatdan uzoq, yolg'on; 2) quruq gap, puch gap, behuda gap, safsata; 3) maqtanchoqlik, maqtanishlik. |
| lofzan | (لاف زن) | fors. 1) lofchi, yolg'on to'quvchi kimsa; 2) maqtanchoq, kekkaygan, gerdaygan. |
| lojuvard | (لاجورد) | fors. 1) lojuvard (qimmatbaho ko'k tosh); 2) moviy, zangori, ko'k. |
| lol | (لال) | fors. 1) tildan qolish, tilsiz bo'lib qolish, soqov bo'lib qolish; 2) xomush, jim-jit, indamas. |
| lola | (لاله) | fors. 1) lola, gulilola; 2) qizil, alvon, qirmizi; 3) ayollar ismi. |
| lolagul | (لاله گل) | fors. lola guli. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| lolagun | (لاله گون) | fors. lola rang, qizil, qirmizi. |
| lolarang | (لاله رنگ) | fors. lola rang, qirmizi, to'q qizil. |
| lolazor | (لاله زار) | fors. lolazor, lolalarga to'la chamanzor, lola ochilib yotgan joy. |
| lom | (لام) | fors. fors alifbosidagi yigirma yettinchi harf nomi. |
| loviya | (لوبيا) | fors. loviya, loviya o'simligi va doni. |
| loy | (لای) | fors. loy, botqoq, balchiq. |
| loykash | (لای کش) | fors. 1) yuqoriga loy uzatuvchi kimsa (qurilish ishlarida); 2) g'isht korxonasi ishchisi; 3) loy shuvashda ishlatiladigan qurilish asbobi. |
| loyxona | (لايخانه) | fors. loyxona, loy tayyorlanadigan chuqur. |
| loyxo'rak | (لايخورک) | fors. 1) loyxo'rak; 2) yomg'ir chuvalchangi. |
| lozimomoda | (لازم آماده) | arab-fors. ayollar tomonidan to'y yoki chaqaloqni ko'rishga kelganda kiyim, oziq-ovqat va shu kabi shaklida keltiriladigan sovg'a. |
| lozimanda | (لازمنده) | arab-fors. lozimomodaga qarang. |
| log'ar | (لاغر) | fors. oriq, ozg'in, qiltiriq, juda ozib-to'zib ketgan. |
| losh | (لاش) | fors. o'limtik, o'laksa, murda, jasad. |
| lunj | (لنج) | fors. 1) lunj, yuzning labga tutashgan pastki qismi; 2) betning ich tomonidagi bo'shliq, og'iz. |
| lutfkorona | (لطف کارانه) | arab-fors. iltifot bilan, marhamat yuzasidan, rahm-shavqat yuzasidan, lutfan. |
| lug'atnoma | (لغت نامه) | arab-fors. lug'at, qomus. |
| lug'atshunos | (لغت شناس) | arab-fors. lug'atshunos, lug'at mutaxassisi, tilshunos olim. |
| lo'biya | (لوبيا) | fors. loviya. |
| lo'li | (لولی) | fors. 1) lo'li; 2) janjalkash, shallaqi (ko'proq ayollar xususida). |
| lo'livash | (لولی وش) | fors. go'zal, sohibjamol, zebo (mahbuba to'g'risida). |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# M

mabodo (مبادا) fors. 1) agar, agarda, bordi-yu; 2) ehtimol, balki, mumkin bo'lsa.

madadkor (مددکار) arab-fors. 1) himoyachi, homiy, himoya qiluvchi; 2) yordamchi, ko'makchi, dastyor.

madang (مدنگ) fors. 1) ko'cha eshigi yog'och qulfning yog'och kalidi; 2) qari uzum novdasining yog'ochdan pastki qismi.

ma'danshunos (معدن شناس) arab-fors. 1) yer osti boyliklarini qidirib topuvchi mutaxassis; 2) metal temir bo'yicha mutaxassis.

maftunkor (مفتونکار) arab-fors. jozibador, kishini maftun qiluvchi, go'zal, juda chiroyli, dilbar, shaydo qiluvchi, yoqimli.

magar (مگر) fors. 1) shundaymi, rostmi, agar; 2) faqat, yolg'iz; 3) agar, -sa ham.

mahalliy (محلی) arab-fors. mahalliy, yerli, tubjoy.

mahliqo (مه لقا) fors-arab. oy-yuzli, mahvash, mahpora, go'zal.

mahpora (مهپاره) fors. oy yuzli, oydek go'zal, mahvash.

mahsuldor (محصول دار) arab-fors. 1) hosildor, unumdor, serhosil; 2) unumli, barakali, samarali.

mahvash (مهوش) fors. 1) oy yuzli, go'zal, zebo; 2)ayollar ismi.

mahshargoh (محشرگاه) arab-fors.qiyomatda o'liklar tirilib so'roq uchun yig'iladigan joy, mahshargoh.

maishatboz (معیشت باز) arab-fors. aysh-ishrat, kayf-safoga o'ch odam, doim maishat bilan mashg'ul odam.

maishatgoh (معیشت گاه) arab-fors. ishratxona, maishatxona.



www.ziyouz.com kutubxonasi

maishatparast (معیشت پرست) arab-fors. maishatga berilgan, maishatni yaxshi ko'radigan odam.

maishatxona (معیشت خانه) arab-fors. ishratxona, maishatxona.

majlisboz (مجلس باز) arab-fors. tez-tez majlis o'tkazishni yaxshi ko'radigan kimsa, majlisboz.

majlisgoh (مجلس گاه) arab-fors. yig'ilish o'tkaziladigan joy, majlisxona.

majlisxona (مجلس خانه) arab-fors. majlisgohga qarang.

majnunnamo (مجنون نما) arab-fors. jinni, telba kabi, Majnunga o'xshash.

majnunona (مجنونانه) arab-fors. tentaklarcha, telbalik bilan, aqlsizlarcha.

makiyon (ماکیان) fors. 1) makiyon, moda; 2) nomard, xotinchalish (ko'pincha erkaklarga nisbatan ishlatiladi).

makkorona (مکارانه) arab-fors. makkorlarcha, hiyla bilan, ayyorona, ustalik bilan, makkorlik bilan.

maktabdor (مکتب دار) arab-fors. maktabdor, maktab egasi.

maktabdosh (مکتب داش) arab-fors. maktabdosh, maktabda birga o'qigan.

maktabxona (مکتب خانه) arab-fors. maktab, maktab binosi.

malax (ملخ) fors. chigirtka.

ma'lumki (معلوم که) arab-fors. ma'lumki, ma'lum bo'lganidek.

ma'lumotnoma (معلومات نامه) arab-fors. ma'lumotnoma, qo'llanma.

man (من) fors. men (birinchi shaxs birlikdagi olmosh).

manfaatdor (منفعت دار) arab-fors. manfaatdor, aloqador, qiziqishi bo'lgan, manfaati bo'lgan.

manfaatparast (منفعت پرست) arab-fors. manfaatparast, o'z manfaatini ko'zlaydigan kimsa, g'arazgo'y, tamagir.

ma'nodor (معنی دار) arab-fors. 1) ma'noli, bama'ni; 2) mazmunli, sermazmun, jo'yali, o'rinli.

ma'nodosh (معنی داش) arab-fors. ma'nodosh, ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan.

mansabdor (منصب دار) arab-fors. mansabdor, amaldor.



www.ziyouz.com kutubxonasi

mansabparast (منصب پرست) arab-fors. mansabparast, amalparast, mansab yo'lida hech narsadan qaytmaydigan kimsa.

manzarador (منظره دار) arab-fors. manzarali, go'zal, ko'rkam, ziynatli.

manzilgoh (منزلگاه) arab-fors. manzilgoh, to'xtash joyi.

manzilxona (منزل خانه) arab-fors. 1) joy, makon, boshpana; 2) mehmonxona.

ma'rakador (معرکه دار) arab-fors. ma'raka, xudoyi munosabati bilan odamlar yig'ilgan uy sohibi.

mard (مرد) fors. 1) botir, dovyurak, qahramon, jasur; 2) saxiy, qo'li ochiq, hotamtoy, oliyhimmat; 3) erkak, er.

mardikor (مردکار) fors. yollanma ishchi, qora ishchi.

mardon (مردان) fors. 1) sahari mardon - erta tong; 2) erkaklar ismi.

mardona (مردانه) fors. 1) mardlarcha, qahramonlarcha, jasurlik bilan; 2) erkaklarniki, erkaklar uchun.

mardonavor (مردانه وار) fors. jasur, mardlarcha, qahramonlarcha, dovyuraklik bilan.

mardum I. (مردم) fors. xalq, millat, odamlar, el.

mardum II. (مردم) fors. ko'z qorachig'i, gavhari.

mardumxo'r (مردم خور) fors. molimardumxo'r, tekinxo'r, baloxo'r, birovning haqini yeyuvchi.

marg (مرگ) fors. o'lim, jon berish, vafot etish.

margimush (مرگ موش) fors. margimush.

ma'rifatparvar (معرفت پرور) arab-fors. ma'rifat tarafdori, ma'rifatni targ'ib qiluvchi, ma'rifat tarqatuvchi.

marvarid (مروارید) fors. marvarid, dur, inju.

masalnavis (مثل نویس) arab-fors. masalchi, masal yozuvchi adib.

maslahatdosh (مصلحت داش) arab-fors. maslahatgo'yga qarang.

maslahatgo'y (مصلحت گوی) arab-fors. 1) maslahat beruvchi, aql o'rgatuvchi, kengash beruvchi; 2) xayrixoh, do'st.

maslahatomuz (مصحلت آمیز) arab-fors. nasihatomuz, maslahat tarzidagi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

maslakdosh (مسلک داش) arab-fors. hammaslak, hamfikr, fikrdosh.

mast (مست) fors. 1) mast, hushyor emas; 2) sarxush, esankirab qolgan.

maston (مستان) fors. 1) mast, mast qiladigan; 2) ayyor, jodugar (xotinlar haqida).

mastona (مستانه) fors. 1) mast, mastdek; 2) go'zal, maftun etadigan, ajoyib, jazb etadigan.

ma'sumona (معصومانه) arab-fors. ma'sumona, begunohlarcha, soflik, iffat bilan, iffatli.

masxaraboz (مسخره باز) arab-fors. 1) qiziqchi, masxaravoz; 2) hazilkash.

masxaraomuz (مسخره آمیز) arab-fors. kulgili, istehzoli, tahqirona, haqoratomuz.

may (می) fors. may, sharob, musallas.

mayda (میده) fors. 1) mayda, kichik, yirik emas; 2) ahamiyatsiz, arzimas; 3) tanga-chaqa.

maydagap (میده گپ) fors. maydagap, tirnoq ostidan kir qidiruvchi odam, arzimas, bachkana gaplarni gapirib, gapni chuvalashtirib yuradigan.

maygun (میگون) fors. qizil, sharob rangi.

mayiz (مویز) fors. mayiz, kishmish, quritilgan uzum.

maymun (میمون) fors. maymun.

mayparast (می پرست) fors. aroqxo'r, ichkilikvoz, ichkilikka berilgan kishi.

ma'yusona (مأیوسانه) arab-fors. ma'yus, g'amgin, umidsizlik bilan.

mayxona (میخانه) fors. mayxona, may, ichkilik ichiladigan joy.

mayxo'r (میخوار) fors. aroqxo'r, ichkilikvoz, mayxo'r, mayga berilgan.

maza (مزه) fors. 1) ta'm, maza, lazzat; 2) rohat, huzur, zavq, aysh.

maza-bemaza (مزه بی مزه) fors. bo'lar-bo'lmas, bema'ni, bo'lmag'ur.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| mazador | (مزه دار) | fors. mazali, lazzatli, shirin; 2) qiziq, zavqli, ajoyib, yoqimli. |
| mazahomuz | (مزاح آميز) | arab-fors. istehzo bilan, zaharxandalik bilan, haqoratomuz, mazah aralash. |
| mazaxo'rak | (مزه خورک) | fors. mazaxo'rak, biror narsaning mazasiga tushunib qolib, unga berilgan, o'rganib qolgan. |
| mazdur | (مزدور) | fors. yollanma ishchi, mardikor, kunbay ishlaydigan kishi. |
| mazmundor | (مضمون دار) | arab-fors. mazmunli, ma'noli, sermazmun. |
| mag'iz I. | (مغز) | fors. 1) danak, yong'oq va shu kabilarning ichki qismi; 2) asosiy mohiyat, mazmun. |
| mag'iz II. | (مغز) | fors. kiyim, ko'rpa kabilarning chetida ikki qavat qilib tikilgan, rangi shu narsalardan boshqacha bo'lgan tasma, adip, napovuz. |
| mag'rurona | (مغرورانه) | arab-fors. mag'rurona, takabburlik bilan, g'urur bilan, o'zini katta olib. |
| mag'zava | (مغزابه) | fors. 1) sovun aralash kir suv ( kiyim yuvgandan keyingi); 2) tuhmat, bo'hton; 3) ezma va shalviragan, lanj odam haqida. |
| mehmon | (مهمان) | fors. mehmon, qo'noq. |
| mehmondor | (مهماندار) | fors. uyida mehmon bo'lgan kimsa, mehmon kutayotgan kimsa. |
| mehmondo'st | (مهمان دوست) | fors. mehmondo'st, mehmon kutishni yaxshi ko'ruvchi kimsa, mehmonsevar. |
| mehmonnavoz | (مهمان نواز) | fors. mehmondo'st. |
| mehmonxona | (مهمان خانه) | fors. 1) mehmonxona, mehmon kutiladigan uy; 2) musofirxona. |
| mehnatkash | (محنت کش) | ara-fors. 1) mehnatkash, zahmatkash; 2) mehnatsevar, ishchan. |
| mehr | (مهر) | fors. 1) sevgi, muhabbat, ishq; 2) do'stlik, iltifot, marhamat, muruvvat; 3) rahm, shafqat, yumshoq ko'ngillilik. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| mehribon | (مهربان) | fors. 1) mehribon, yaxshi ko'ruvchi; 2) muruvvatli, iltifotli, xushmuomala, oliyjanob; 3) shafqatli, rahmdil, ko'ngilchan. |
| mehrigiyoh | (مهر گیاه) | fors. 1) mehrigiyoh (giyoh); 2) sevikli, yoqimli. |
| me'moriy | (معماری) | arab-fors. me'moriy, me'morchilikka oid. |
| merosxo'r | (میراثخور) | arab-fors. merosxo'r, voris. |
| meva | (میوه) | fors. 1) meva, hosil; 2) natija, samara. |
| mevador | (میوه دار) | fors. mevali, hosilli, sermeva bog'. |
| mevafurush | (میوه فروش) | fors. mevafurush, meva sotuvchi. |
| mevazor | (میوه زار) | fors. mevazor, mevali bog'. |
| mezbon | (میزبان) | fors. mezbon, uy egasi (mehmon kutuvchi). |
| mijgon | (مژگان) | fors. kiprik. |
| millatdosh | (ملتداش) | arab-fors. millatdosh, bir millat kishilari. |
| mim | (میم) | fors. fors alifbosidagi yigirma sakkizinchi harf nomi. |
| minnatdor | (منت دار) | arab-fors. minnatdor, mamnun, xursand, birovning qilgan yaxshiligidan, xizmatidan mamnun va qarzdor. |
| mirishkor | (میرشکار) | arab-fors. 1) tajribali, bilimdon, usta, mohir, uddaburo; 2) saranjom-sarishta. |
| mirob | (میراب) | arab-fors. mirob (suv taqsimlovchi kimsa). |
| miroxur | (میر آخور) | arab-fors. 1) miroxo'r (Buxoro xonligi davrida otxonaga ma'sul kimsa); 2) otboqar. |
| mirza | (میرزا) | arab-fors. 1) kotib, yozuvchi; 2) savodli, bilimli kimsa; 3) janob; 4) erkaklar ismi. |
| mirzaxona | (میرزا خانه) | arab-fors. amir yoki bekning kotibxonasi, ish yuritish xonasi. |
| mirzo | (میرزا) | arab-fors. 1) amirning o'g'li yoki avlodi; 2) mirzaga qarang. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

mirshab (میرشب) arab-fors. 1) kechki qorovul boshlig‘i; 2) politsiya.

mirshabxona (میر شب خانه) arab-fors. politsiya mahkamasi.

mis (مس) fors. mis.

misgar (مسگر) fors. misgar.

misrang (مس رنگ) fors. mis rangi, lo‘m.

mix (میخ) fors. mix.

mixcho‘p (میخ چوب) fors. maxsus cho‘pdan bo‘lgan etik mixi; 2) otquloq (giyoh).

miyon (میان) fors. 1) o‘rta, o‘rtasi, ichi; 2) bel, xipcha bel.

miyona (میانه) fors. 1) o‘rta, o‘rtasi, ichi; 2) o‘rtacha, o‘rta, oddiy.

moh (ماه) fors. oy, qamar.

mohirona (ماهرانه) arab-fors. mohirona, ustalik bilan, mohirlik bilan, mahorat bilan.

mohitob (ماهتاب) fors. 1) yog‘du sochuvchi oy, go‘zal, zebo, sohibjamol; 2) ayollar ismi.

mohiyona (ماهیانه) fors. moyana, maosh, oylik, ish haqi.

mohliqo (ماه لقا) fors-arab. oy yuzli, go‘zal, sohibjamol.

mohpora (ماه پاره) fors. go‘zal, sohibjamol, chiroyli, suluv.

mohtob (ماهتاب) fors. oydin, charog‘on, oy yog‘dusiga cho‘mgan.

mola (ماله) fors. mola, sixmola.

moldor (مالدار) arab-fors. 1) boy, davlatli, badavlat; 2) chorvador, chorvachi.

molimardumxo‘r (مال مرد مخور) arab-fors. tekinxo‘r, baloxo‘r.

molparast (مال پرست) arab-fors. molparast, och, tama’gir, fikri-zikri mol bo‘lgan odam, dunyoparast.

molxona (مال خانه) arab-fors. og‘il, molxona, mol turadigan xona.

monand (مانند) fors. 1) o‘xshash, o‘xshagan, -day, -kabi; 2) muvofiq, munosib, loyiq, qulay.

moparda (ما پرده) fors. hayoli, uyatchan.



www.ziyouz.com kutubxonasi

mor (مار) fors. ilon, ilon yili.

mot (مات) fors. mot (shatranjda).

motamdor (ماتم دار) arab-fors. motam tutuvchi kimsa, azador.

motamsaro (ماتم سرا) arab-fors. motam tutgan, g'amgin, qayg'uli.

motamxona (ماتم خانه) arab-fors. motamxona, motam tutilayotgan uy.

moya (مایه) fors. 1) har narsaning asosi, o'zagi, asli; 2) mol-dunyo, boylik.

moyana (ماهانه) fors. maosh, oylik.

moyanaxo'r (ماهانه خور) fors. faqat moyana, oylik bilan hayot kechiruvchi.

mozoriston (مزارستان) arab-fors. mozor, qabriston go'r.

muborakbod (مبارک باد) arab-fors. tabriknoma, tabriklash, qutlash.

muboraknoma (مبارک نامه) arab-fors. amir yorlig'i yoki yozma farmoyish.

muft (مفت) fors. tekin, bepul, bekorga kelgan.

muftxo'r (مفت خور) fors. tekinxo'r, haromxo'r, tekintomoq.

muhofazakor (محافظه کار) arab-fors. muhofazakor, taraqqiyot dushmani, mutanosib, konservator.

mujda (مژده) fors. 1) yaxshi xabar, xushxabar, bashorat; 2) yaxshi xabar uchun beriladigan in'om; 3) xursandlik, shodlik, xushhollik; 4) erkaklar ismi.

mujgon (مژگان) fors. kipriklar, kiprik.

mulla (ملا) fors. 1) imom, oxund; 2) o'qigan, savodli, ilmli, o'qimishli.

mullabachcha (ملا بچه) fors. 1) madrasa talabasi; 2) mullaning o'g'li yoki qizi.

mullanamo (ملا نما) fors. mullaga o'xshash, mulla kabi.

mullavachcha (ملا بچه) fors. mullabachchaga qarang.

mulohazador (ملاحظه دار) arab-fors. 1) mulohazali, bama'ni, andishali, ehtiyotkor, pishiq; 2) asosli, tubli, jiddiy o'ylab qilingan, o'rinli.



www.ziyouz.com kutubxonasi

mulohazakor (ملاحظه کار) arab-fors. mulohaza bilan, o'ylab ish qiluvchi kimsa.

muloyimona (ملایمانه) arab-fors. muloyimlik bilan, mayinlik bilan, shirinso'zlik bilan, mehribonlarcha.

mum (موم) fors. mum.

munofiqona (منافقانه) arab-fors. munofiqlarcha, riyokorona, ikkiyuzlamalik bilan.

munosabatdor (مناسبت دار) arab-fors. tegishli, aloqador, bog'liq, daxldor.

murda (مرده) fors. murda, jasad, o'lik, o'laksa.

murdaxona (مرده خانه) fors. 1) biror kimsa o'lgan xonadon; 2) o'likxona (kasalxonalarda).

murdaxo'r (مردار خور) fors. 1) o'laksaxo'r, o'laksa yeyuvchi; 2) tekin daromad yo'lida har qanday pastkashlikdan qaytmaydigan kimsa, haromxo'r.

murdasho'y (مرده شوی) fors. murda, o'lik yuvg'uchi, g'assol.

murdor (مردار) fors. 1) iflos, bulg'angan, harom, murdor; 2) o'limtik, o'laksa; 3) ablah, yaramas, razil, past. qabih, pastkash.

murodbaxsh (مراد بخش) fors. orzularni ushaltiruvchi, murodga yetkazuvchi, murodni hosil qiluvchi.

murojaatnoma (مراجعت نامه) arab-fors. murojaatnoma, bayonot, yozma murojaat.

murg' (مرغ) fors. tovuq, tovuq yili.

murg'ak (مرغک) fors. yangi tug'ilgan chaqaloq, go'dak.

musobaqadosh (مسابقه داش) arab-fors. musobaqa qatnashchisi, musobaqalashuvchi.

musofirxona (مسافرخانه) arab-fors. mehmonxona, mehmonsaroy.

mutakabbirona (متکبرانه) arab-fors. takabburona, gerdayib, kekkayib, mag'rurlanib, manmanlik bilan, o'ziga bino qo'yib.

muzaffarona (مظفرانه) arab-fors. zafarli, g'olibona, g'alaba keltiruvchi, muzaffar.



www.ziyouz.com kutubxonasi

muzd (مزد) fors. ish haqi, to'lov, mukofot.

mug' (مغ) fors. 1) otashparast, o'tga topinuvchi, zardushtiy; 2) mayxonachi, may sotuvchi kimsa.

mug'bachcha (مغبچه) fors. 1) otashparastning o'g'li; 2) may, sharob sotuvchining o'g'li; 3) ko'rkam, go'zal, barno yigit; 4) mayxonada xizmat qiluvchi yigit.

mug'ombirona (مغامبرانه) arab-fors. mug'ombirona, makkorona, ayyorlarcha, ayyorona, firibgarlik bilan.

mug'on (مغان) fors. mug'lar, otashparastlar.

mush (موش) fors. sichqon, sichqon yili.

mushak I. (موشک) fors. muskul, mushak.

mushak II. (موشک) fors. mushak, osmonga olov bo'lib otiluvchi asbob.

mushak III. (موشک) fors. mushak sabzi - sabzining yo'g'on va uchi to'mtoq turi.

mushakboz (موشک باز) fors. mushak otuvchi kimsa, mushakboz.

mushk (مشک) fors. mushk (xushbo'y modda).

mushkulgushoy (مشکل گشای) arab-fors. mushkullarni oson qiluvchi, hal qiluvchi kimsa.

mushkulkushod (مشکل گشاد) arab-fors. kishining mushkulini oson qilish, ishini yurgizish maqsadida qilinadigan duo va irim-sirimlar.

musht (مشت) fors. 1) musht, mushtum; 2) mushtum zarbi.

mushtipar (مشت پر) fors. zaif, kuchsiz, ojiz va aziz, zaif va qadrdon (asosan ona, singillar haqida muhabbat bilan aytiladi).

mushtoqona (مشتاقانه) arab-fors. mushtoqlik bilan, intizorlik bilan, sog'inib, ishtiyoqlik bilan, juda qo'msab.

mushtum (مشتم) fors. musht, mushtum.

mushtumzo'r (مشتم زور) fors. zo'ravon, zo'rlik qiluvchi, birovlarga ozor yetkazuvchi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| mushtumxon | (مستم خوان) | fors. "Mushtum" hajviy jurnali o'quvchisi. |
| mo'jizador | (معجزه دار) | arab-fors. mo'jizali, g'aroyib, ajoyib, mo'jizalar yaratuvchi. |
| mo'jizakor | (معجزه کار) | arab-fors. mo'jizali, mo'jizakor, ajoyib. |
| mo'rcha | (مورچه) | fors. chumoli, qumursqa. |
| mo'y | (موی) | fors. soch, tuk; 2) jun, yung. |
| mo'ylab | (موی لب) | fors. mo'ylovga qarang. |
| mo'ylov | (موی لب) | fors. mo'ylov, murt. |
| mo'ylovdor | (موی لبدار) | fors. mo'ylovli, mo'ylov qo'ygan, murtli, mo'ylovi uzun. |
| mo'ysafid | (موی سفید) | fors. 1) sochi oq, sochi oqargan; 2) chol, keksa, qari; 3) aroq (hazil aralash ishlatiladi). |
| mo'ychinak | (موی چینک) | fors. mo'ychinak, qosh, tuklarni terish uchun ishlatiladigan qisqich. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# N

nabira (نبیره) fors. nabira, nevara, o'gil yoki qizning farzandi (boboga, buviga nisbatan).

nafarmon (نفرمان) fors. to'q ko'k, ko'k binafsharang.

nafaqaxo'r (نفقه خور) arab.-fors. nafaqa, yordam oluvchi kimsa.

nafasdosh (نفس داش) arab.-fors. hamfikr, maslakdosh, hamnafas.

nafratomuz (نفرت آمیز) arab.-fors. nafratli, jirkanishli, nafrat ifodalovchi.

nahang (نهنگ) fors. 1) akula; 2) kit; 3) baliq, baliq yili; 4) yirtqich, yulg'ich, odamxo'r.

najotkor (نجات کار) arab.-fors. najotkor, xalos qiluvchi, qutqaruvchi, ozod qiluvchi.

nam (نم) fors. 1) nam, zax, ho'l; 2) qatra, tomchi; 3) ko'z yoshi.

namak (نمک) fors. tuz, namak.

namakdon (نمکدان) fors. tuzdon, tuzluq.

namakob (نمک آب) fors. tuzli suv, namakob, tuz eritilgan suv.

namat (نمد) fors. kigiz, namat, yungdan bosib ishlangan palos.

na'matak (نعمتک) fors. na'matak.

namoyish (نمایش) fors. namoyish, ko'rgazma.

namoyishgoh (نمایشگاه) fors. namoyish, ko'rgazma o'tkaziladigan joy.

namoyanda (نماینده) fors. namoyanda, vakil.

namoyon (نمایان) fors. namoyon, oshkor, oydin, ravshan, ayon.

namoz (نماز) fors. 1) namoz, ibodat, duo; 2) erkaklar ismi.

namozgar (نماز گر) 1) quyosh botishdon oldingi namoz, asr namozi; 2) quoysh botishdan oldingi payt, asr.



www.ziyouz.com kutubxonasi

namozgoh (نمازگاه) fors. namoz o'qiladigan joy, namozxona.

namozxon (نمازخوان) fors. namozxon, dindor, xudojoy, taqvodor, namoz o'qishni kanda qilmaydigan kishi.

namozxona (نمازخانه) fors. namozxona, namoz o'qiladigan joy.

namozshom (نماز شام) fors. 1) quyosh botishi bilan o'qiladigan namoz, shom namozi; 2) quyosh botgandan keyingi vaqt, g'ira-shira kech.

namozshomgul (نماز شام گل) fors. namozshomgul (giyoh).

namuna (نمونه) fors. namuna, misol, o'rnak.

namunaviy (نمونوی) fors. namunali, o'rnak bo'larli, ibratli.

naqdina (نقدینه) arab-fors. naqd pul.

naqshband (نقشبند) arab-fors 1) rassom, naqqosh; 2) matoga gul tikuvchi usta; 3) zar tikuvchi, zardo'z usta.

naqshdor (نقشدار) arab-fors. naqshli, bezakli, gulli.

naqshin (نقشین) arab-fors. naqshinkor, bezakli.

naqshinkor (نقشینکار) arab-fors. naqshli, bezakli, guldor.

naqshkor (نقشکار) arab-fors. 1) naqshli, bezakli; 2) naqsh ishlovchi usta.

nar (نر) fors. nar, erkak.

nargis (نرگس) fors. nargis guli, narkas.

narvon (نردبان) fors. narvon, shoti, zangi.

narx (نرخ) fors. narx, baho, qiymat.

narx-navo (نرخ نوا) fors. bozor bahosi, bozor narxi.

nasabdor (نسب دار) arab-fors. nasabli, nasl-nasabli, nasl-nasabga ega bo'lgan.

nasabdosh (نسب داش) arab-fors. qarindosh, urug', qabiladosh, bir nasabdan bo'lgan.

nasabnona (نسب نامه) arab-fors. shajara, nasabnona.

nasihatgo'y (نصیحت گوی) arab-fors. yaxshi nasihat beruvchi, maslahat beruvchi, pand-o'git beruvchi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| nasihatomuz | (نصيحت آميز) | arab-fors. nasihatomuz, ibratli, nasihat tarzidagi, pand- nasihatga o'xshagan. |
| nasldor | (نسل دار) | arab-fors. 1) aslzod, aslzoda, qadimgi avlodga mansub; 2) naslli, zotli, zotdor, nasli yaxshi. |
| nasldosh | (نسل داش) | arab-fors. 1) urug'dosh, hamqavm, nasldosh; 2) zoti bir, bir zotdan bo'lgan (mol, qo'y va shu kabi). |
| nastarin | (نسترن) | fors. nastarin, atirgul, qizilgul. |
| navbahor | (نوبهار) | fors-arab. erta bahor; navbahor; 2) ayollar ismi. |
| navha | (نوحه) | fors. yig'i, aza. |
| navisanda | (نویسنده) | fors. 1) mirza, kotib; 2) yozuvchi, adib. |
| navjavon | (نوجوان) | fors. yosh yigit, o'spirin, bo'z bola. |
| navkar | (نوکر) | fors. tan soqchi; 2) sarboz, askar; 3) xizmatkor. |
| navkisa | (نوکیسه) | fors. (yangi boy bo'lgan kimsaga nisbatan istehzo sifatida ishlatiladi). |
| navnihol | (نونهال) | fors. 1) ko'chat, yosh daraxt; 2) yosh yigit, yosh qiz. |
| navo | (نوا) | fors. 1) musiqa, ohang, kuy; 2) Shashmaqomdagi ikkinchi maqom nomi; 3) g'am, qayg'y, hasrat, nola. |
| navozanda | (نوازنده) | fors. 1) musiqachi, sozanda, cholg'uvchi, mashshoq; 2) mehribonlik qiluvchi, erkalovchi. |
| navozish | (نوازش) | fors. 1) erkalash, suyish, silash, mehribonlik; 2) sovg'a, hadya; 3) musiqa asbobini chalish. |
| navqiron | (نو قران) | fors-arab. navqiron, ayni-quvvatga to'lgan, qirchillama. |
| navro'z | (نوروز) | fors. 1) yangi kun; 2) yangi yil bayrami; 3) bahor chog'i, bahor; 4) erkaklar ismi. |
| nax | (نخ) | fors. ip, nax. |
| nay | (نی) | fors. nay. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| naynov | (نيناو) | fors. novcha, bo'yi uzun, uzun bo'yli, ozg'in va beso'naqay. |
| nayrang | (نيرنگ) | fors. nayrang, lo'ttibozlik, ayyorlik, hiyla. |
| nayrangboz | (نيرنگ باز) | fors. nayrangboz, firibgar, aldoqchi, ayyor, dog'uli. |
| nayson | (نيسان) | fors. o'rta bahor, aprel oyi. |
| nayza | (نيزه) | fors. 1) nayza; 2) nish (ari, chayon va boshqa). |
| nayzabardor | (نيزه بردار) | fors. nayza ko'targan, nayza bilan qurollangan jangchi. |
| nayzabarg | (نيزه برگ) | fors. nayzabarg (qiyoh). |
| nayzaboz | (نيزه باز) | fors. nayza bilan qurollangan kimsa, nayza ko'targan, abjir. |
| nayzador | (نيزه دار) | fors. nayzabardorga qarang. |
| nayshakar | (نی شکر) | fors. nayshakar, shakarqamish. |
| naycha | (نيچه) | fors. 1) naycha, kichik nay; 2) ip o'raladigan naysimon asbob yoki mashina qismi. |
| nazd | (نزد) | fors. 1) oldida, ro'parasida, qarshisida; 2) fikricha, nazaricha, mulohazasicha. |
| nash'abaxsh | (نشئه بخش) | arab-fors. lazzatbaxsh, huzur bag'ishlovchi, orom beruvchi. |
| nashador | (نشئه دار) | arab-fors. zavqli, yoqimli, zavq-shavq beradigan, rohatlantiradigan. |
| nasha-namo | (نشئه نما) | arab-fors. 1) lazzat, roxat, huzur, halovat, maza; 2) rivojlanish, o'sish, taraqqiyot. |
| nashapoya | (نشئه پايه) | arab-fors 1) nashaning poyasi; 2) nasha ekilgan joy, maydon. |
| nashavand | (نشئه وند) | arab-fors. nasha chekuvchi, bangi. |
| nashtar | (نشتر) | fors. nashtar, nish. |
| nekbaxt | (نيک بخت) | fors. baxtli, saodatli, xushbaxt, iqbolli, tolei baland. |
| nekbin | (نيک بين) | fors. xushbin, ertangi kunga, kelajakka yaxshi umid bilan qarovchi, har bir narsa, kimsaning yaxshi tomonini ko'ruvchi odam. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| nekqadam | (نیک قدم) | fors-arab. baxt, omad, yaxshilik olib keluvchi, qadami qutlug' keldan kimsa. |
| nest-nobud | (نیست نابود) | fors. nobud bo'lmoq, g'oyib bo'lmoq. |
| nigin | (نگین) | fors. 1) qimmatbaho tosh, bebaho tosh; 2) uzuk, halqa. |
| nigoh | (نگاه) | fors. nigoh, nazar, qarash; 2) e'tibor, diqqat. |
| nigor | (نگار) | fors. ma'shuqa, mahbuba, sevikli yor; 2) but, sanam; 3) naqsh, bezak; 4) ayollar ismi. |
| nigoron | (نگران) | fors. biror kimsani kutib zo'riqqan, biror kishini tashvish bilan kutuvchi, ko'ngli xavotirga to'lgan kishi. |
| nihol | (نهال) | fors. 1) nihol,yangi ko'chat, novda; 2) yetilmagan yosh narsa, murg'ak, kurtak. |
| nihon | (نهان) | fors. yashirin, maxfiy, sir tutilgan. |
| nilgun | (نیلگون) | fors. 1) ko'k, osmon rangi, moviy, niliy. |
| nilufar | (نیلوفر) | fors. 1) nilufar (gullari chiroyli suv o'simligi); 2) ayollar ismi. |
| nim | (نیم) | fors. yarim, yarimta, har bir narsaning yarimi. |
| nimdosh | (نیم داش) | fors. kiyilgan, eskirgan. |
| nimmast | (نیم مست) | fors. yarim mast, ozgina ichgan, yengil kayf. |
| nimposhna | (نیم پاشنه) | fors. past poshna, poshnasi past. |
| nimrang | (نیم رنگ) | fors. 1) ochiq rang, ochiq bo'yalgan; 2) nimrang (uzum navi). |
| nimxushk | (نیم خشک) | fors. yarim quruq, yaxshi qurimagan, bir oz nam, ho'l. |
| nimcha | (نیمچه) | fors. 1) yengsiz kamzul, yengsiz kalta kiyim, nimcha; 2) yarim, yarimta; 3) vazni 400 gramga teng og'irlik o'lchovi. |
| nimchorak | (نیم چارک) | fors. 1) sakkizdan bir bo'lak, sakkizning bir qismi; 2) nimchorak, paysa (og'irlik o'lchovi). |



www.ziyouz.com kutubxonasi

niqobdor (نقاب دار) arab-fors. 1) niqobli, niqob kiygan; 2) pardalangan, niqoblab qo'yilgan; 3) endigina tuxumdan chiqqan qurt.

niyoz (نياز) fors. 1) o'tinch, so'rov, iltimos, iltijo; 2) sadaqa, xayr, ehson; 3) erkaklar ismi.

nizomnoma (نظام نامه) arab-fors. 1) qonunlar majmui; 2) ustav, nizom.

nish (نيش) fors. nish, nayza.

nishab (نشيب) fors. nishab, qiyalik, yon bag'ir.

nishasta (نشاسته) fors. kraxmal, ohor.

nishon (نشان) fors. 1) belgi, alomat, tamg'a; 2) orden, medal; 3) nishon, mo'ljal; 4) iz, asar; 5) erkaklar ismi.

nishona (نشانه) fors. 1) belgi, alomat, tamg'a; 2) orden, medal; 3) nishon, mo'ljal; 4) iz, asar; 5) erkaklar ismi.

nishondor (نشان دار) fors.ordenli, ordendor.

nishtar (نيشتر) fors. nish, nishtar.

noahil (نا اهل) fors-arab. 1) jizzaki, chiqishaolmaydigan; 2) o'zboshimcha, itoatsiz, gapga kirmaydigan, qaysar; 3) dushman, yov.

noan'anaviy (ناعنعنوى) fors-arab. noan'anaviy, an'anadan, odatdan tashqari, yangicha tarzda.

nobakor (نابكار) fors. yaramas, muttaham, razil.

nobop (ناباب) fors. 1) to'g'ri kelmaydigan, nomunosib, noloyiq; 2) yomon, yaramas, pastkash; 3) o'tmas, o'tmaydigan (tovar haqida); 4) buzuq, ishdan chiqqan.

nobud (نابود) fors. 1) yo'qolmoq, nobud bo'lmoq; 2) o'lmoq, vafot etmoq (ko'proq bolalar haqida).

nodarkor (نادر كار) fors. keraksiz, ortiqcha, keragi yo'q.

nodon (نادان) fors. 1) johil, qo'pol, o'qimagan, ilmsiz, to'pori; 2) befahm, befarosat, merov, anqov, ovsar.

nodurust (نادرست) fors. noto'g'ri, nobop, xato, yanglish, chakki.



www.ziyouz.com kutubxonasi

nogah (ناگه) fors. nodohga qarang.

nogahon (ناگهان) fors. kutilmagan, tasodifiy, to'satdan, birdan.

nogahoniy (ناگهانی) fors. kutilmagan, tasodifiy, o'ylanmagan.

nogiron (ناگران) fors. nogiron, mayib, majruh, ishga yaroqsiz bo'lib qolgan.

nogoh (ناگاه) fors. 1) birdan, kutilmaganda, to'satdan, qo'qqisdan, behosdan; 2) tasodifan, kutmagan holda, tasodifiy ravishda.

nogohon (ناگاهان) fors. nogahonga qarang.

nogumon (نا گمان) fors. shubhasiz, beshak, begumon.

nohaq (ناحق) fors-arab. 1) g'ayri qonuniy, qonunga xilof; 2) nohaq, adolatsiz, noto'g'ri.

noiloj (ناعلاج) fors-arab. 1) beixtiyor, ixtiyorsiz, bexosdan, nochor, majburan, chor-nochor; 2) biror narsa-ish qilish imkoniyatidan mahrumlik.

noinsof (نا انصاف) fors-arab. 1) vijdonsiz, insofsiz, uyatsiz, nomussiz; 2) nohaq, adolatsiz.

nojins (ناجنس) fors-arab. 1) boshqa jinsdagi, jinsi boshqa, xilma-xil, har xil, tarkibi har xil; 2) yomon, yaroqsiz, yaramas; 3) beadab, tarbiyasiz, yaramas.

nok (ناک) fors. nok, nashvati.

nokas (ناکس) fors. 1) yaramas, past, razil, ablah, orsiz, qabih, pastkash; 2) noshukur, qadr bilmaydigan; 3) xasis, baxil, ziqna, gurumsoq.

nokasta (ناکسته) fors. nokasga qarang.

nokzor (ناکزار) fors. nokzor, nok bog'i.

nola (ناله) fors. 1) nola, oh-zor, oh-voh, ingrash, inqillash, fig'on, faryod; 2) g'amgin, mungli, hazin ashula.

nolish (نالش) fors. 1) oh-voh, ingrash, faryod, zorlanish; 2) shikoyat, hasrat, arz, nola, fig'on.



www.ziyouz.com kutubxonasi

nolon (نالان) fors. 1) oh-voh qiluvchi, yig'lovchi, faryod qiluvchi; 2) shikoyat qiluvchi, hasrat qiluvchi; 3) bemor, kasal.

noloyiq (نالایق) fors arab. 1) nomunosib, yarashmaydigan, xunuk, nojo'ya; 2) ahamiyatsiz, hich narsaga arzimaydigan, g'urur, qadr-qimmati yo'q, behuda.

nom (نام) fors. 1) nom, ism, ot; 2) unvon; 3) shuhrat, ovoza, dongdorlik, dong, shon.

noma (نامه) fors. 1) noma, xat, maktub; 2) kitob, asar.

nomahram (نامحرم) fors-arab. 1) begona, yot (ayollar yashaydigan bo'limga kirishi mumkin bo'lmagan erkak); 2) begona, yot ayol (begona erkakka qarashi man' qilingan ayol).

nomard (نامرد) fors. 1) razil, ablah, yaramas, past, muttaham, qabih; 2) qo'rqoq, yuraksiz; 3) ayol bilan qo'shila olmaydigan kimsa.

noma'lum (نامعلوم) fors-arab. noaniq, notanish, noma'lum.

nomaqbul (نامقبول) fors-arab. 1) noma'qul, ma'qul kelmaydigan, ko'ngilga o'tirmaydigan; 2) xunuk, sovuq, jozibasiz, ko'rimsiz.

noma'qul (نامعقول) fors-arab. 1) nobob, noloyiq, nomunosib, yarashmaydigan; 2) bema'ni, behuda, o'rinsiz.

nomatlub (نامطلوب) fors-arab. yoqimsiz, yoqmaydigan, ko'ngilga xush kelmaydigan, ko'ngildagidek emas.

nom-banom (نام بنام) fors nomma-nomga qarang.

nomdor (نامدار) fors. dongdor, nomdor, mashhur, otoqli, shuhratli.

nomehribon (نامهربان) fors. 1) bemehr, bemuhabbat; 2) berahm, rahmsiz, qalbi tosh.

nomma-nom (نام بنام) fors. nomma-nom, birma-bir otini aytib.

nom-nishon (نام و نشان) fors. nishona, belgi, alomat, iz.

nomuayyan (نام معين) fors-arab. noma'lum, noaniq, mujmal, betayin.



www.ziyouz.com kutubxonasi

nomuborak (نامبارک) fors-arab. 1) baxtsiz, badbaxt, tolei past; 2) jirkanch, iflos, yoqimsiz.

nomunosib (نامناسب) fors-arab. 1) noloyiq, kelishmagan, yarashmagan, to'g'ri kelmaydigan, munosib bo'lmagan; 2) adabsiz, beadab, yaramas.

nomusulmon (نامسلمان) fors-arab. 1) musulmon bo'lmagan kimsa; 2) bag'ri tosh, zolim, berahm, shafqatsiz.

nomutanosib (نامتناسب) fors-arab. nomutanosib, kelishmagan, to'g'ri kelmagan.

nomuvofiq (ناموافق) fors-arab. 1) noloyiq, nobop, munosib bo'lmagan; 2) qoniqarsiz, o'rinsiz, noo'rin.

nomzod (نامزاد) fors. 1) kandidat; 2) kelin; 3) kuyov.

non (نان) fors. 1) non; 2) umuman yegulik-ichgulik, yashash, tirikchilik uchun zarur narsa.

nondon (ناندان) fors. nondon, non idishi, non saqlanadigan quti;.

nonko'r (نان کور) fors. razil, ablah, muttaham, qabih, yaramas, yaxshilikka yomonlik qiluvchi, nontepki;.

non-namak (نان نمک) fors. 1) rizq-ro'z, nasiba, ulush, hissa; 2) yeyish-ichishlik narsa, ovqat.

non-nasiba (نان نصیبه) fors-arab. non-namakka qarang;.

nonpaz (نان پز) fors. nonvoy, novvoy;.

nonxo'r (نان خور) fors. 1) nonni yaxshi ko'radigan, ko'p non yeydigan; 2) birovning qaramog'ida bo'lgan kimsa, nonxo'r; 3) tekinxo'r, xaromxo'r, tekintamoq.

nonxo'rak (نان خورک) fors. tanaffus, dam olish va shu vaqtda ovqatlanish;.

noobod (نا آباد) fors. xarob, vayron, qarovsiz, unchalik obod bo'lmagan, kamxalq;.

nooshno (نا آشنا) fors. notanish, tanish emas, begona;.

nopok (ناپاک) fors. 1) kir, iflos, chirkin; 2) iflos, yaramas, jirkanch, razil, harom-xarish ishlardan qaytmaydigan, qalb.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| noqobil | (ناقابل) | fors-arab. 1) o'jar, gapga kirmaydigan, qaysar, o'zboshimcha; 2) benomus, yaramas, yomon; 3) layoqatsiz, qobiliyatsiz, hunarsiz, salohiyatsiz. |
| nor | (نار) | fors. 1) xol; 2) anor daraxti va mevasi; 3) qonli ko'z yoshi; 4) erkaklar ismi. |
| norasida | (نارسیده) | fors. go'dak, bola, voyaga yetmagan;. |
| noraso | (نارسا) | fors. 1) to'la emas, tugal emas, but emas, komil emas; 2) jismoniy va aqliy jihatdan zaif, orqada qolib ketgan; 3) beadab, tarbiyasiz, ahmoq. |
| norasta | (نارسیده) | fors. norasidaga qarang. |
| noravo | (ناروا) | fors. 1) nomunosib, noloyiq, yarashmaydigan; 2) nojo'ya, noma'qul, yo'l qo'yib bo'lmaydigan. |
| norbachcha | (نار بچه) | fors. 1) bo'ta, bo'taloq, tuya bolasi; 2) xushomadgo'y, laganbardor. |
| nordon | (ناردان) | fors. nordon, achchiq, nordon. |
| norizo | (نارضا) | fors-arab. noroziga qarang. |
| norozi | (ناراضی) | fors-arab. 1) qoniqmagan, qanoatlanmagan, xursand, mamnun emas, ko'ngli to'lmagan; 2) rozi bo'lmagan, ko'nmagan, norozi. |
| notamom | (ناتمام) | fors-arab. 1) tugallanmagan, nihoyasiga yetmagan, chala, cho'ltoq. |
| notob | (ناتاب) | fors. bemor, kasal, betob, tobi yo'q. |
| noumid | (نا امید) | fors. umidsiz, ishonchini yo'qotgan, tushkun, mayus. |
| nov | (ناو) | fors. nov, tarnov. |
| novak | (ناوک) | fors. 1) kichik tarnov; 2) kamon o'qi; 3) kiprik. |
| novvoy | (نانوا) | fors. 1) novvoy, non yopuvchi; 2) bozorda yopilgan nonlarni sotuvchi. |
| novvoyxona | (نانواخانه) | fors. novvoyxona, non yopiladigan joy, korxona. |
| noxin | (ناخن) | fors. tanbur torini chertib chalish uchun ishlatiladigan maxsus metal moslama. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| noxud | (ناخود) | fors. o'zini yomon his qilmoq, hushidan ketmoq, behud bo'lmoq. |
| noxuna | (ناخونه) | fors. ot va mollarning burnida paydo bo'ladigan o'simta. |
| noxush | (ناخوش) | fors. 1) g'imgin, xafa, kayfiyati yomon, buzuq; 2) yoqimsiz, o'rinsiz, ko'ngilsiz; 3) kasal, bemor, betob. |
| noyob | (نایاب) | fors. 1) noyob, nodir, kamyob, kam uchraydigan; 2) qimmatli, bebaho. |
| noz | (ناز) | fors. 1) nozu karashma, ishva, noz; 2) nafosat, nazokat, latofat, go'zallik, ko'rkamlik; 3) injiqlik, noz, tantiqlik, xarxasha. |
| nozanin | (نازنین) | fors. 1) go'zal ayol, sohibjamol, suluv, zebo, go'zal; 2) noz qiluvchi, nozi bor; 3) latif, nafis, ko'rkam. |
| nozik | (نازک) | fors. 1) mayin, yumshoq, muloyim; 2) nafis, go'zal, ko'rkam; 3) mo'rt, tez sinadigan; 4) bejirim, xipcha; 5) qaltis, nozik; 6) jizzaki, serzarda, salga xafa bo'ladigan; 7) ayollar ismi. |
| noziktab | (نازک طبع) | fors-arab. 1) erka, nozik, noziktabiat, tantiq; 2) rahmdil, shavqatli, mehribon; 3) tanlab yeydigan, tanlab istemol qiladigan. |
| noziktabiat | (نازک طبیعت) | fors-arab. noziktab'ga qarang. |
| noshar'iy | (ناشرعی) | fors-arab noshar'iy, shariat tomonidan harom qilingan, man qilingan, shariatga xilof, g'ayri shar'iy. |
| noshod | (ناشاد) | fors. g'amgin, qayg'uli, noxush, xursand emas,kayfi buzuq. |
| noshoyon | (ناشایان) | fors. adabsiz, nomunosib, nojo'ya, noloyiq. |
| noshud | (ناشد) | fors. hech narsaga yaramaydigan, lavang, lapashang, mujmal odam. |
| noshukur | (ناشکر) | fors-arab noshukur, boriga qanoat qilmaydigan, shukur qilmaydigan, ko'rnamak. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| nochoq | (ناچاق) | fors. 1) bemor, kasal; 2) ozg'in, oriq. |
| nochor | (ناچار) | fors. 1) noiloj, ixtiyorsiz ravishda, chor-nochor, majburan; 2) yo'qsil, kambag'al, qashshoq, benavo, abgor. |
| nuktadon | (نکته دان) | arab-fors. aqlli, dono, ziyrak, farosatli, zehni o'tkir. |
| nuqra | (نقره) | fors. 1) kumush, nuqra; 2) ayollar ismi. |
| nurafshon | (نور افشان) | fors. 1) nur sochuvchi, yaltirovchi, porloq; 2) ayollar ismi. |
| nuroniy | (نورانی) | arab-fors. 1) yuzidan nur yog'ilib turadigan, fayzli (keksalar haqida). |
| no'xat | (نخود) | fors. no'xat. |
| no'xta | (نخته) | fors. no'xta (ot, eshak va shu kabi xayvonlarning og'ziga solinadigan temir yugan). |
| no'sh | (نوش) | fors. ichmoq. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# O

ob (آب) fors. 1) suv; 2) oynaning (ko‘zguning) orqasiga berilgan sir.

oba (آبه) fors. kashtachilkda to‘g‘ri chiziq shaklidagi naqsh gul.

obaki (آبكى) fors. 1) obakidandon; 2) obaki (uzum navi).

obakidandon (آبكى دندان) fors. obakidandon (konfet navi).

obdon (آبدان) fors. 1) rosa, xo‘p; 2) juda, o‘ta, ko‘ngildagidek; 3) yaxshi, chuqur, ma’noli (fikr haqida); 4) batamom, butunlay; 5) qush suv ichadigan idish.

obdasta (آب دسته) fors. oftoba., qumg‘on.

obdor (آب دار) fors. 1) yaltiroq, nurli, porloq, shaffof; 2) yoqimli, issiq, oq yuzli, oqyuz kishi; 3) yaxshi toblangan, pishiq, puxta; 4) zaharlangan, uchi zaharlangan (o‘q).

obgardon (آب گردان) fors. dastasi uzun cho‘mich.

obihavo (آب و هوا) fors-arab. havo, iqlim, obi-havo.

obi-diyda (آب ديده) fors. ko‘z yoshi, yosh.

obi-hayot (آب حيات) fors-arab. 1) tiriklik suvi, obi-hayvon; 2) holvaning bir navi; 3) suyikli yorning dahani, og‘zi; 4) avliyo, pirlarning so‘zi.

obi-hayvon (آب حيوان) fors-arab. 1) obi-hayot; 2) ilohiyot ilmi.

obinon (آب نان) fors. obinon, yupqa non.

obi-novvot (آب نبات) fors. 1) o‘rikning juda shirin navi; 2) qovun nomi; 3) novvot.

obi-otash (آب آتش) fors. ovqat tayyorlash qoidasi, ovqat tayyorlash me’yori.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| obi-rahmat | (آب رحمت) | fors-arab. rahmat, barakat suvi (qor, yomg'ir suvi haqida). |
| obi-ravon I. | (آب روان) | fors. 1)oqar suv; 2) chashma, buloq. |
| obi-ravon II. | (آب روان) | fors. yupqa va gulli mato nomi. |
| obi-taom | (آب طعام) | fors-arab. taom, tushlik, suyuq va quyuq ovqat. |
| obi-tob | (آب تاب) | fors. tayyorgarlik yetilganlik darajasi, holati. |
| obi-yovg'on | (آب یاوغان) | fors. sho'rva, suyuq osh, yovg'on, umuman faqirona ovqat. |
| objuvoz | (آب جواز) | fors-arab. 1) suv energiyasi orqali yorma tortadigan mashina, dastgoh, objuvoz; 2) shunday qurilma o'rnatilgan xona, objuvozxona. |
| objuvozxona | (آب جواز خانه) | fors-arab-fors. objuvoz o'rnatilgan xona, objuvoz. |
| obkash | (آبکش) | fors. obkash (ikki uchida chelak ilib yelkaga tashlab suv tashiladigan yog'och asbob). |
| obod | (آباد) | fors. obod, gullagan, yashnagan, ko'rkam. |
| obodon | (آبادان) | fors. obod. |
| obraha | (آبراهه) | fors. qo'shni hovlisidan oqib o'tadigan ariqcha, suv yo'li. |
| obrez | (آب ریز) | fors. uyning poygohida yoki dahlizda yuvinish uchun maxsus yasalgan usti berk o'ra, hanik. |
| obro' | (آبرو) | fors. obro'yga qarang. |
| obro'mand | (آبرومند) | fors. obro'ymandga qarang. |
| obro'y | (آب روی) | fors. 1) e'tibor, qadr, sharaf, hurmat, nufuz; 2) shunday hurmat sohibi. |
| obro'ymand | (آبروی مند) | fors. obro'li, e'tiborli, nufuzli, mo'tabar, hurmatli, muhtaram, izzatli, ulug'. |
| obtova | (آفتابه) | fors. oftobaga qarang. |
| obuna | (آبونه) | fors. obuna, yozilish (matbuot nashrlariga). |
| obxona | (آب خانه) | fors. 1) Buxoro xonligi zamonida zindon xonasi nomi; 2) masjid va madrasa hovlisida tahorat olish uchun qurilgan maxsus xona. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| odambop | ( آدم باپ ) | arab-fors odam uchun, yashash uchun munosib joy. |
| odamfurush | ( آدم فروش ) | arab-fors. odam sotuvchi, qul sotuvchi, qulfurush. |
| odamjon | ( آدم جان ) | arab-fors. mehribon, g'amxo'r, insonparvar. |
| odamkush | ( آدم کش ) | arab-fors 1) qotil, jallod; 2) zolim, sitamgar, azob beruvchi. |
| odamoxun | ( آدم آخون ) | arab-fors. oliyjanob, muruvvatli, himmatli, mard, tanti, odamgarchilikni biladigan, odamning izzat-hurmatini bajo keltiradigan. |
| odamparvar | ( آدم پرور ) | arab-fors. insonparvar, odamlarni sevadigan. |
| odamsar | (آدم سر) | arab-fors. 1) aqlli, miyasi ishlaydigan; 2) kal, boshida sochi yoq, yaltirbosh. |
| odamxo'r | (آدم خوار) | arab-fors. 1) odamxo'r, vahshiy, odam yeyuvchi; 2) berahm, zolim. |
| odamzod | (آدم زاد) | arab-fors. 1) odam, inson; 2) inson nasli, odam avlodi. |
| odamshavanda | (آدم شونده) | arab-fors. 1) himmatli, olijanob, odamning ko'nglini oluvchi, ulfati; 2) odamga o'xshagan, odam qatoridagi. |
| odilona | (عادلانه) | arab-fors. odillik bilan, adolatli ravishda, to'g'ri, haqqoniy, haqiqatga asoslanib. |
| ofarin | ( آفرین ) | fors. 1) maqtov, madh, shon-sharaf, tasanno, tahsin; 2) yasha, balli, barakalla, qandingni ur. |
| ofatijon | ( آفت جان ) | fors. juda go'zal, o'ta sohibjamol ayol. |
| oftob | (آفتاب) | fors. 1) oftob, quyosh, kun; 2) quyosh tarqatayotgan nur, quyosh harorati. |
| oftoba | ( آفتابه ) | fors. oftoba, obdasta, qumg'on. |
| oftobi | ( آفتابی ) | fors. oftobda quritilgan, qoq qilingan (mevalar haqida). |
| oftobparast | (آفتاب پرست) | fors. 1) quyoshga sig'inuvchi, quyoshga ibodat qiluvchi; 2) zardushtiy, zardushtiy dinidagi kishi; 3) kungaboqar. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

oftobro'ya (آفتاب رویه) fors. 1) quyoshga qaragan, quyosh nuri tushib turgan kungay; 2) oftobchuvoq, bahorgi ta'sir kuchi kam, yoqimli oftob.

ogoh (آگاه) fors. 1) ogoh, xabardor, biluvchi, biror sohada ilmi, ma'lumoti zo'r kishi; 2) xushyor, sergak.

oh (آه) fors. 1) oy, voy, ey, uh, ah; 2) xo'rsinish, o'kinish, zorlanish.

oh-afg'on (آه ـ افغان) fors. oh-nola, oh-fig'on.

ohak (آهک) fors. ohak.

ohan (آهن) fors. temir.

ohang (آهنگ) fors. 1) uyg'unlik, moslik, hamohanglik; 2) kuy, maqom, navo; 3) muomala, so'z ohangi.

ohangar (آهنگر) fors. temirchi.

ohangdor (آهنگ دار) fors. 1) xushohang, yoqimli, shirali; 2) ohangli, jarangli.

ohangdosh (آهنگ داش) fors. ohangdosh, hamohang, soz, uyg'un.

ohanjama (آهنگ جامه) fors. 1) yasangan, bezangan, ziynatlangan, chiroyli yasatilgan; 2) tashvish , taraddud, sarsongarchilik, ovaragarchilik; 3) ajoyib-g'aroyib ish, harakat, tartib, qiliq, g'alva.

ohanrabo (آهن ربا) fors. 1) ohanrabo, magnit; 2) o'ziga jazb qiladigan, jozibali, jozibador.

ohista (آهسته) fors. 1) sekin, asta, bamaylixotir, tinch; 2) avaylab, ehtiyot bolib, ehtiyotlik bilan, ayab; 3) sal, biroz, yengilgina, sal- pal, bilinar-bilinmas; 4) bildirmay, yashirincha ;.

oh-nola (آه ـ ناله) fors. nolish, zorlanish, xo'rsinish, zorlanish.

oh-zor (آه ـ زار) fors. oh-zor, oh-voh, nolish.

ojizona (عاجزانه) arab-fors. 1) kuchsiz, zaif, nochorlik bilan, ojizlik bilan; 2) itoatkorona, bo'yin egib, bosh egib, qulluq qilib, o'zini past olib.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| olamgir | ( عالم گیر ) | arab-fors 1) dunyoni zabt etuvchi. fotih. jahongir; 2) olamni o'ziga qaratuvchi, dillarni egallovchi, maftun etuvchi. |
| olamjahon | ( عالم جهان ) | arab-fors. 1) olam , dunyo, jahon; 2) behad ko'p, juda ko'p, bir olam, olam-olam. |
| olamoro | ( عالم آرا ) | arab-fors. dunyoni bezovchi, ko'rkam, go'zal, juda chiroyli, dunyo bezagi, ziynati. |
| olampanoh | ( عالم پناه ) | arab-fors. dunyo himoyachisi, homiysi (shoh va xonlar sifati). |
| olamtob | ( عالمتاب ) | arab-fors 1) dunyoni yorituvchi, butun olamga nur sochuvchi (quyosh sifati); 2) juda go'zal, tengsiz sohibjamol, suluv. |
| olifta | ( آلفته ) | fors. olifta, bashang, po'rim, satang. |
| olimona | ( عالمانه ) | arab-fors 1) olimona, olimlarga xos ilmli. |
| olmos | ( الماس ) | fors. 1) olmos (qimmatbaho tosh); 2) shisha kesadigan asbob. |
| olu | ( آلو ) | fors. olxo'ri. |
| olud | ( آلود ) | fors. kir, iflos, bulg'angan, belangan. |
| olcha | ( آلوچه ) | fors. olcha. |
| olchazor | ( آلوچه زار ) | fors. olchazor, olcha bog'i. |
| omad | ( آمد ) | fors. omad, muvaffaqiyat, yutuq, baxt, tole, ishning o'ngidan kelishi. |
| ombor I. | ( انبار ) | fors. ombor, omborxona. |
| ombor II | ( انبار ) | fors. ariq o'tkazish uchun devor tagidan ochilgan teshik. |
| omborxona | ( انبار خانه ) | fors. ombor, omborxona. |
| omilkor | ( عامل کار ) | arab-fors. mohir, epchil, usta, bilimdon, ishning ko'zini biladigan, ishbilarmon. |
| omixta | ( آمیخته ) | fors. aralash, omixta, qo'shma. |
| ommabop | ( عامه باپ ) | arab-fors. keng ko'pchilikka, ommaga mo'ljallangan, ommaviy, ommabop, hamma tushunadigan, oson, jo'n. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| on | (آن) | fors. on hazrat-janobi oliy. |
| oqilona | (عاقلانه) | arab-fors. oqilona, puxta o'ylab, mulohaza qilib, andisha bilan, oqillarcha o'ylab, aql bilan. |
| orasta | (آراسته) | fors. yig'ishtirilgan, tartibga keltirilgan, yasatilgan, ozoda, toza, batartib. |
| orifona | (عارفانه) | arab-fors. oriflarga xos, donolarcha, oqilona, aqlli. |
| oriyatnishin | (عاريت نشين) | arab-fors. birovning uy-joyida vaqtincha yashovchi, ijarachi. |
| oro | (آرا) | fors. 1) zeb, ziynat, oroyish, pardoz; 2) bazi otlarga qo'shilib bezovchi, qizituvchi, shodlik bag'ishlovchi kabi ma'nolar beradi, masalan jahonoro, majlisoro, suhbatoro. |
| orom | (آرام) | fors. orom, rohat, huzur, osoyishtalik bag'ishlovchi. |
| oromgoh | (آرامگاه) | fors. dam oladigan joy, dam olib yaxshi vaqt o'tkazadigan, ko'ngil ochadigan joy. |
| oromijon | (آرام جان) | fors. 1) jonga, tanga orom beradigan, rohat, huzur bag'ishlaydigan; 2) o'zbek musiqalaridan birining nomi. |
| orasta | (آراسته) | fors. saranjom-sarishta, tartibli, bezatilgan. |
| oroyish | (آرايش) | fors. zeb, ziynat, zeb-ziynat, pardoz, oro, chiroy. |
| orzu | (آرزو) | fors. dildagi istak,ezgu umid, intilish, istak, xohish. |
| orzu-armon | (آرزو آرمان) | fors. dildagi orzu va armonlar. |
| orzu-havas | (آرزو هوس) | fors-arab. 1) dildagi ezgu istak va niyatlar; 2) orzuli katta to'y-tomoshalar, tantanali marosimlar. |
| orzumand | (آرزومند) | fors. orzu qiluvchi, istovchi, intizor, mushtoq. |
| orzumanda | (آرزومنده) | fors. orzumandga qarang. |
| orzu-umid | (آرزو اميد) | fors. dildagi orzu va umidlar, istaklar. |
| osmon | (آسمان) | fors. 1) fazo, samo, falak, ko'k; 2) juda baland, yetib bo'lmaydigan darajada yuqori. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

osmoniy (آسمانی) fors. 1) osmonga doir, osmondagi, osmonda bo'ladigan; 2) moviy, ko'k.

oson (آسان) fors. oson, sodda, jo'n, yengil, qulay, o'ng'ay.

osoyish (آسایش) fors. tinchlik, osoyishtalik, xotirjamlik.

osoyishta (آسایشته) fors. 1) tinch, osoyishta, xotirjam; 2) hayajondan, iztirobdan xoli, betashvish; 3) sokin, harakatsiz.

ostin (آستین) fors. 1) kiyimning yelkadan tirsakkacha bo'lgan qismi; 2) yo'l; usul, tariqa.

ostona (آستانه) fors. 1) eshik, darvoza chorcho'pining ostki ko'ndalang yog'ochi, bo'sag'a; 2) uy, xonadon, dargoh; 3) qishloq yoki shaharga kiraverishdagi joy, bo'sag'a; 4) biror voqea yoki hodisaning boshlanishiga yaqin qolgan payt, arafa; 5) daryo ostidagi, ba'zan suvdan chiqib ko'rinib turadigan va suv oqimini tezlashtirib, kemalar qatnovini qiyinlashtiradigan do'nglik.

osuda (آسوده) fors. tinch, betashvish, xotirjam, osoyishta.

otash (آتش) fors. 1) o't, olov, alanga, yolqin; 2) alangali, qizg'in, jozibali.

otasharava (آتش عرابه) fors-arab. paravo'z, po'ezd.

otashdon (آتشدان) fors. o'txona, pechkaning o't yoqiladigan xonasi.

otashgoh (آتشگاه) fors. o't, olov yonib turgan joy.

otashin (آتشین) fors. qizg'in, jo'shqin, alangali.

otashnafas (آتش نفس) fors-arab. 1) nafasi, dami otashdek issiq, haroratli; 2) nutqi o'tkir, ta'sirli, ehtirosli, duosi ijobat bo'ladigan, nafasi dardga da'vo bo'ladigan.

otashparast (آتش پرست) fors. o'tga topinuvchi, o'tga sajda qiluvchi.

otashqalb (آتش قلب) fors-arab qalbi otash, yuragida o'ti bor, ehtirosli, otashin.

otashxona (آتش خانه) fors. o'txona, o'choq.

otashzabon (آتش زبان) fors. nutqi o'tkir, ta'sirchan, otashin, so'z bilan qalblarni hayajonga keltiradigan.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| ovora I. | (آواره) | fors. 1) biror joyda qo'nim topmagan, darbadar, sargardon, ovorai jahon, 2) biror ish, harakat bilan band, mashg'ul ;. |
| ovora II. | (آواره) | fors. ikki ovora - ikki kishiga bir lagan (kishilarga obqat tortishda). |
| ovoz | (آواز) | fors. 1) tovush, sado, ovoz, un; 2) fikr, mulohaza; 3) saylov jarayoni yoki biror masalani hal qilishda o'z fikrini bayon etish huquqi va usuli. |
| ovoza | (آوازه) | fors. 1) yurt-el orasida biror narsa, voqea haqida tarqalgan xabar, gap-so'z, mish-mish; 2) shuhrat, dovrug', dong, shon, sharaf. |
| ovqatxona | (اوقاتخانه) | arab-fors. oshxona. |
| oxun | (آخون) | fors. 1) oxundga qarang; 2) erkaklar ismi. |
| oxund | (آخوند) | fors. 1) o'qimishli, ilmli kishi; 2) mulla, domla; 3) xalq ichida uyg'urlarga qo'yilgan laqab. |
| oxur | (آخور) | fors. hayvonlarga yem-xashak solib berish uchun yashik yoki sulov tarzida qilingan joy, oxur. |
| oxurcho'p | (آخور چوب) | fors. poyabzalning dastagi mahkam, tik turishi uchun uning ichiga qo'yib tikiladigan yupqa egiluvchan taxtacha, qarto'n yoki qattiq charm. |
| oyna | (آينه) | fors. 1) derazaga o'rnatiladigan shisha; 2) deraza; 3) ko'zgu; 4) ko'zoynak ;. |
| oynaband | (آينه بند) | fors. 1) oyna o'rnatilgan, oyna solingan; 2) oyna yoki ko'zgu qoplab bezatilgan, oynakor. |
| oynador | (آينه دار) | fors. oyna tutilgan, oynaband. |
| oynaksoz | (عينك ساز) | arab-fors. ko'zoynaklarni tuzatuvchi usta. |
| oynasoz | (آينه ساز) | fors. oynachi, oyna sotuvchi. |
| ozod | (آزاد) | fors. 1) ozod, erkin, hur; 2) ochiq, cheklanmagan, taqiqlanmagan; 3) bo'sh, quruq, band bo'lmagan; 4) bekor,bo'sh, ishi yo'q, qo'li bo'sh; 5) erkaklar ismi. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| ozoda | (آزاده) | fors. 1) iflosIanmagan, kir tegmagan, kirlanmagan, toza, pokiza; 2) o'zini va o'ziga qarashli hamma narsani toza tutadigan, tozalikka rioya qiladigan, saranjom-sarishta; 3) ayollar ismi;. |
| ozor | ( آزار ) | fors. kimsaga yetgan, yetkazilgan jismoniy yoki ruhiy azob, jabr, uqubat, qiynoq. |
| ozorijon | ( آزارجان ) | fors. jonga ozor beruvchi, qiynovchi, ranjituvchi. |
| ozurda | (آزرده) | fors. ozor ko'rgan, ranjigan, xafa bo'lgan. |
| og'o | ( آقا ) | turk. 1) aka, katta aka; 2) tug'ishgan akaday yaqin, qadrdon kishi; 3) yurtning, elning kattasi, hokimi; 4) o'zidan kattalarga murojaat shakli, javob ;. |
| og'oz | (آغاز) | fors. boshlash, boshlanish, boshi. |
| og'ush | (آغوش) | fors. quchoq, qo'yin, bag'r. |
| osh | (آش) | fors. 1) suyiq issiq ovqat; 2) palov. |
| oshifta | (آشفته) | fors. sevib, maftun bo'lib qolgan, es-hushidan adashgan, oshiq, shaydo. |
| oshiftahol | (آشفته حال) | fors-arab hayajonga tushgan, es-hushidan adashgan, parishonxotir. |
| oshiqona | (عاشقانه) | arab-fors. oshiqlar kabi, oshiqlardek, oshiqlarcha, muhabbatga yo'g'rilgan. |
| oshkor | ( آشکار ) | fors. 1) hammaga ma'lum, ko'rinib turgan, ayon, ochiq-oydin; 2) yashirmasdan, ro'y-rost, oshkora. |
| oshkora | (آشکارا) | fors. 1) oshkorga qarang; 2) ochiq-oydin, hammaga ma'lum bo'lib, ko'rinib, ko'rinib turgan, ayon. |
| oshna | ( آشنا) | fors. 1) tanish, tanish-bilish; 2) o'z tengqurlariga nisbatan murojaat formasi; 3) ilgaridan ma'lum, tanish. |
| oshno | ( آشنا ) | fors. oshnaga qarang. |
| oshpaz | ( آشپز ) | fors. oshpaz, pazanda. |
| oshpazxona | ( آشپزخانه ) | fors. oshxona, oshpazxona. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| oshtaxta | (آش تخته) | fors. xamir yoyish va undan lag'mon, ugra, shilpildoq va shu kabilarni kesishda foydalaniladigan maxsus taxta. |
| oshxona | (آش خانه) | fors. oshxona. |
| oshxo'r | (آشخور) | fors. palovni yaxshi ko'radigan kishi. |
| oshxo'rak | (آشخورک) | fors. 1) ovqat yeyotganda ustiboshga tegizmaslik uchun bo'yinga bog'lab olinadigan, ko'krakni yopib turadigan fartukcha; 2) o'quvchilarga ovqatlanib olish uchun beriladigan tanaffus. |
| oshyon | (آشيان) | fors. 1) qush uyasi, in; 2) yashirinib, jon saqlab qolsa bo'ladigan joy, makon, boshpana; 3) oila, uy-joi, oilaviy hayot. |
| oshyona | (آشيانه) | fors. 1) binoning yuqori qavati, yuqori qavatdagi xona; 2) qush uyasi, in. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# P

| | | |
|---|---|---|
| padar | (پدر) | fors. ota, dada. |
| padarkush | (پدر کش) | fors. o'z otasini o'ldirgan qotil, padarkush. |
| pahlavon | (پهلوان) | fors. 1) barvasta va zabardast, bahodir; 2) botir, mard, qahramon. |
| pajmurda | (پژمرده) | fors. 1) so'lgan, qovjiragan, qurigan, xazon bo'lgan so'lg'in, kasalmand, sharti ketib parti qolgan. |
| pakana | (پکنه) | fors. 1) bo'yi o'rtachadan past, bo'yi o'smay qolgan, past bo'yli; 2) uncha baland bo'lmagan, pastak. |
| palak I. | (پلک) | fors. qovun, bodring va shu kabi o'simliklarning yerda yoyilib o'sadigan tana, shox va barglari. |
| palak II. | (پلک) | fors. 1) doira shaklida gul-naqsh bilan qoplangan, odatda uy devorlariga bezak uchun osiladigan kashtachilik mahsuloti. |
| palang I. | (پلنگ) | fors. yo'lbars yili. |
| palang II. | (پلنگ) | fors. orqalab yuk tashishda ishlatiladigan maxsus yostiqcha. |
| palag'da | (پلغده) | fors. 1) aynigan, buzilgan, sasigan (tuxum haqida); 2) unmaydigan, quruq (urug'liklar haqida); 3) po'ng'illagan, noaniq, yoqimsiz (ovoz haqida); 4) hech narsaga yaramaydigan, foydasiz;. |
| palid | (پلید) | fors. 1) ortiq darajada kir, iflos; 2) o'taketgan yaramas, qabih, razil, jirkanch. |
| palla I. | (پله) | fors. 1) muayyan davr, vaqt; 2) bosqich, faza. |
| palla II. | (پله) | fors. 1) tarozining narsa qo'yiladigan tarelkasi; 2) yumoloq narsaning teng ikkiga bo'lingan qismlaridan biri, yarmi; 3) urug'ning mustaqil murtakli har bir bo'lagi. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

palos (پلاس) fors. 1) palos, sholcha, 2) darveshlar kiyimi.

palov (پلاو) fors. palov, osh.

palovxo'r (پلاو خور) fors. palovni yaxshi ko'radigan, ko'proq palov yeydigan odam.

pand I. (پند) fors. o'g'itli gap, o'git, nasihat, axloq darsi.

pand II. (پند) fors. aldamoq, aldab ziyon keltirmoq, firib bermoq, pand bermoq.

pandavoqi (پند واقع) fors-arab. gapga, uncha-munchaga tushunavermaydigan, kaltafahm, anqov.

panja (پنجه) fors. 1) qo'lning kaft va barmoqlardan iborat qismi; 2) barmoq; 3) ba'zi hayvon va qushlar oyog'ining uch qismi, changal; 4) istibdod, hukmronlik ramzi.

panjara (پنجره) fors. panjara, to'siq, g'ov.

panjarador (پنجره دار) fors. panjarali, panjarasi bo'lgan, panjara o'rnatilgan.

panjshanba (پنجشنبه) fors. payshanba, haftaning chorshanbadan keyngi to'rtinchi kuni.

panogoh (پناهگاه) fors. o'z panohida, himoyasida saqlaydigan, himoya, panoh topish mumkin bo'lgan joy, narsa, kimsa.

panoh (پناه) fors. 1) saqlash, himoya qilish qobiliyatiga yoki qudratiga ega bo'lgan kimsa, narsa, himoya; 2) himoya, homiylik.

panshaxa (پنج شاخه) fors. odatda beshta egri sanchig'i bo'lgan uzun sopli asbob (odatda paxta, xashak olish, surish uchun ishlatiladi).

par (پر) fors. par, pat.

parda (پرده) fors. 1) deraza, eshiklarni to'sish uchun tutiladigan buyum; 2) sahna asari, filmning bir qismi; 3) torli cholg'u asboblari dastasidan tovush no'talarini belgilovchi bo'g'imlar.

pardavor (پرده وار) fors. pardali, pardalangan, parda tutilgan.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| pardevor | (پرديوار) | fors. 1) bir qator g'isht yoki sinchli yupqa devor; 2) shift, tomdagi yog'ochlar orasida qo'yiladigan loy. |
| pardoz | (پرداز) | fors. pardoz, oro, zeb, bezak. |
| pardoz-andoz | (پرداز انداز) | fors. haddan ortiq pardoz, zeb-oro. |
| pargar | (پرگر) | fors. pargar, sirqul. |
| parhez | (پرهيز) | fors. sog'liqqa to'g'ri kelmaydigan ovqatlardan o'zini tiyish va uning tartibi. |
| parhezdor | (پرهيزدار) | fors. parhez tutuvchi, parhez bilan ovqatlanadigan, parhez saqlovchi. |
| parhezkor | (پرهيزكار) | fors. hayot lazzatlaridan o'zini tiyuvchi, taqvodor. |
| pari | (پرى) | 1) pari; 2) juda go'zal, sohibjamol qiz, nozanin. |
| paripaykar | (پرى پيكر) | fors. pariga o'xshash, g'oyat go'zal, suluv, sohibjamol, parivash. |
| pariro'y | (پرى روى) | fors. parichehra, parivash, go'zal, xushro'y, nozanin. |
| parivash | (پرى وش) | fors. pariga oxshash, juda go'zal, xushro'y nozanin. |
| parixon | (پرى خوان) | fors. duoxon, azayimxon, folbin. |
| parizod | (پريزاد) | fors. 1) paridan tug'ilgan, pari naslidan; 2) parivash, go'zal, sohibjamol, zebo; 3) ayollar ismi. |
| parishon | (پريشان) | fors. 1) har tomonga sochilgan, to'zg'igan, tartibsiz; 2) bir yerga to'planmagan, bo'lingan, tarqoq (fikr-xayol, diqqat - e'tibor haqida). |
| parishonxotir | (پريشان خاطر) | fors-arab, unutuvchan, parishon, xayoli joyida emas, beparvo. |
| parichehra | (پرى چهره) | fors. jamoli pariga o'xshash, g'oyat go'zal, chiroyli, parivash. |
| parma | (پرمه) | fors. 1) aylanma harakat qilib, tig'i bilan narsalarni teshadigan asbob; 2) burg'i. |
| parmakash | (پرمه كش) | fors. parma, burg'i bilan yer qazuvchi usta, ishchi. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

parmuda (پرموده) fors. go‘shtli qo‘shaloq somsa.

parokanda (پراکنده) fors. turli tomonga, duch kelgan yoqqa tarqagan, to‘zg‘igan, tarqoq, tartibsiz, sochilgan.

parqu (پرقو) fors. 1) oqqushning pari bilan to‘ldirilgan (yostiq, to‘shak haqida); 2) par solib tikilgan bolish, par yostiq.

parrak (پرک) fors. parrak.

parranda (پرنده) fors. qushlar, qush.

parrandaboz (پرنده باز) fors. parranda, qushlar tutish, va o‘rgatishga ishqiboz kishi.

parron (پران) fors. tig‘i parron-uchib kelayotgan, teshib o‘tadigan o‘q.

partav (پرتو) fors. nur, shu’la, yog‘du.

parvarda (پرورده) fors. un va qiyomdan tayyorlanadigan mahalliy shirinlik.

parvardigor (پروردگار) fors. borliqni yaratuvchi (xudoning sifatlaridan biri).

parvarish (پرورش) fors. asrash, o‘stirish, voyaga yetkazish va shu kabi maqsadda qilinadigan harakat, qarov, boquv, tarbiya.

parvo (پروا) fors. kimsa yoki narsaga bo‘lgan diqqat-e’tibor, qiziqish, nazar-pisand.

parvona (پروانه) fors. shula yoki chiroq atrofida aylanuvchi tun kapalagi.

parvoz (پرواز) fors. osmonga ko‘tarilish, uchish, parvoz qilish.

parcha I. (پرچه) fors. bo‘lak, qism, parcha, burda.

parcha II. (پرچه) fors. zar ip aralashtirib to‘qilgan qalin ipak mato, kimxobning bir turi.

past (پست) fors. 1) qaddi, boyi uncha baland bo‘lmagan, bo‘yi nisbatan qisqa, pakana, pastak; 2) miqdori, darajasi uncha katta bo‘lmagan, nisbatan kam, oz, quyi; 3)



www.ziyouz.com kutubxonasi

sifati unchalik yaxshi bo'lmagan, oddiy, jo'n; 4) (baxt, omad, tole va shu kabi so'zlar bilan) unchalik yaxshi emas, yurishmagan; 5) seryog'in, yomon; 6) arzimagan narsani yuzga soluvchi, pastkash.

pastak (پستک) fors. bo'yi unchalik baland bo'lmagan, past, pakana.

pastarin (پسترین) fors. 1) sifati, darajasi, mavqei unchalik baland bo'lmagan, oddiy; 2) pastkash odamlarga xos, tuban, razil, jirkanch.

pastkash (پستکش) fors. 1) arzimas narsalarga ham o'zini uradigan, nazari past, maydagap, bachkana; 2) razil, yaramas, qabih, iflos, jirkanch.

pastnazar (پست نظر) fors-arab. nazari past, xasis, baxil, ziqna, maydagap.

paxsa (پخسه) fors. pishitilgan loydan qorilgan devor va uning har bir qavati, qatori.

paxsakash (پخسه کش) fors.paxsa devor uruvchi, devorzan.

paxsazan (پخسه زن) fors. paxsakash, devorzan.

pay I. (پی) fors. 1) tana mushaklarini suyakka biriktirib turuvchi mustahkam, elastik to'qima; 2) mehnatda pishigan, chayir.

pay II. (پی) fors. biror maqsadni amalga oshirish yo'lidagi astoydil harakat, urinish, qasd.

pay III. (پی) fors. pay urmoq-yerga yoyib terib qo'ymoq (uzum, qovun, tarvuz, olma, nok va shu kabi haqida).

pay IV. (پی) fors. sherikchilik asosidagi ishga qo'shilgan hissa, ulush.

paydarpay (پی در پی) fors. izchil, ketma-ket, muntazam, to'xtovsiz, surunkasiga.

paydo (پیدا) fors. paydo bo'lish, yuzaga kelish, yaratilish.

paydor (پیدار) fors. mushaklari rivoj topgan, baquvvat, chayir.

paygir (پیگیر) fors. trubka shaklida o'ralgan uzun qog'ozga yozilgan yorliq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| paykal | (پیکل) | fors. marza, ariq, yo'l va shu kabi bilan ajratilgan katta ekin maydoni, po'l, chek. |
| paykand | (پیکند) | fors. Samarqandning qadimgi nomi. |
| paykar | (پیکر) | fors. qaddi qomat, gavda, jussa, bo'y-bast. |
| paykon | (پیکان) | fors. o'q, nayza uchiga o'rnatiladigan uchli temir. |
| paymon | (پیمان) | fors. ahd, va'da. |
| paymona | (پیمانه) | fors. ichkilik ichiladigan idish, qadah, piyola. |
| payraha | (پیراهه) | fors. 1) yog'och-taxta chopilganda, randalaganda hosil bo'ladigan chiqindi; 2) loygarchilikda, qorda odamlar yuraverib hosil qilgan quruq so'qmoq yo'l; 3) yupqa kesilgan narsa (non, yaxna go'sht, pishloq va shu kabi narsalar) ; barg, yaproq. |
| payrov | (پیراو) | fors. 1) ketma-ket keluvchi, ergashuvchi, izdosh; 2) askiya uchun tanlab olingan ma'lum tema; 3) gap yoki suhbatdan kelib chiqadigan ma'no, kuzatilgan maqsad, xulosa. |
| paysa | (پیسه) | fors. 1) taxminan 50 gramga teng og'irlik o'lchov birligi; 2) Buxoro xonligida: besh tiyinlik chaqa. |
| payvand | (پیوند) | fors. 1) biror o'simlikning novda yoki kurtagini boshqa o'simlik tanasiga o'tkazish, ulash usuli va shu usulda ulab o'stirilgan o'simlik; 2) metall bo'laklarini eritib yoki parchinlab bir-biriga yopishtirish, biriktirish, ulash usuli va shu usulda hosil qilingan chok; 3) ulangan bo'lak, uloq; 4) o'zaro, bog'langan, payvasta ;. |
| payvandi | (پیوندی) | fors. payvand qilingan, ulangan. |
| payvast | (پیوست) | fors. tutash, ulanib ketgan, birikkan. |
| payvasta | (پیوسته) | fors. o'zaro bog'langan, tutash. |
| payg'ambar | (پیغمبر) | fors. payg'ambar, nabi. |
| payg'om | (پیغام) | fors. xabar, mujda, xushxabar. |
| pazanda | (پزنده) | fors. laziz taomlar pishirish san'atini yaxshi egallagan kishi, mohir oshpaz. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

pashsha (پشه) fors. pashsha, chivin.

pashshaxona (پشه خانه) fors. pashsha va chivindan saqlanish uchun tutiladigan maxsus chodir.

pashshaxo'rda (پشه خورده) fors. biror joyga tez-tez kelib turadigan, hira bo'lib yopishib olgan odam.

pesh I. (پیش) fors. ba'zi narsalarning oldinga qaragan tomoni, labi, cheti, qirg'og'i.

pesh II. (پیش) fors. (birin-ketin sodir bo'ladigan ish-harakatni bildiruvchi ikki fe'l oldida takrorlanganda) fursat o'tmasdan, darrov.

pesha (پیشه) fors. ish, mashg'ulot, kasb-hunar.

peshana (پیشانه) fors. 1) manglay, peshana; 2) qismat, taqdir, yozmish; 3) bisot, budu-shud.

peshanabog' (پیشانه باغ) fors. peshana bilan taqib o'raladigan kichik ro'mol.

peshayvon (پیش ایوان) fors. uy yoki imorat oldiga qurilgan ayvon.

peshband I. (پیشبند) fors. peshband, etak.

peshband II. (پیشبند) fors. peshband qilmoq - qo'lini oldiga qilib bo'g'lamoq.

peshdor (پیشدار) fors. qo'shin oldida bo'ruvchi, ilg'or.

peshgir (پیشگیر) fors. etak, peshband.

peshgoh (پیشگاه) fors. 1) saroy, uy sahni, imoratning oldi; 2) shoh taxti ro'parasidagi joy; 3) podshoh, sulton.

peshin (پیشین) fors. 1) kunning yarmi o'tgan payt; 2) kun yarmida o'qiladigan namoz.

peshkash (پیشکش) fors. hadya tarzida beriladigan narsa, sovg'a, tortiq.

peshnop (پیش ناف) fors. qo'y yoki sigirning kindigi atrofidagi yoq'li go'sht.

peshob (پیشاب) fors. siydik.

peshona (پیشانه) fors. peshanaga qarang.

peshqadam (پیش قدم) fors-arab. ishda, o'qishda boshqalardan oldinda boruvchi, ilg'or, o'rnak ko'rsatuvchi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

peshtaxta (پیش تخته) fors. do‘konda, magazinda, bozorda sotuvchini xaridordan ajratib turadigan taxta.

peshtoq (پیش طاق) fors-arab. binolarning old tomonidagi serhasham yuqori qismi, ark.

peshvo (پیشوا) fors. 1) ma’lum bir soha yoki ishda yetakchi, ilg‘or kishi; 2) yo‘lboshchi, dohiy.

peshvoz (پیشواز) fors. turib qarshi olish, kutib olish.

pechakgul (پیچک گل) fors. pechak o‘t, chirmoviq.

pilla I. (پیله) fors. pilla, ipak qurti mahsuli.

pilla II. (پیله) fors. tish og‘rig‘i yoki shamollash natijasida milkda hosil bo‘lgan pufak shish.

pillakash (پیله کش) fors. pillakash, pillachi.

pillapoya (پله پایه) fors. zina yoki narvonning har bir pog‘onasi, bosqichi, pog‘ona.

pillapocha (پله پاچه) fors. pillapoya, pog‘ona.

pinhon (پنهان) fors. kishining nazaridan yashiringan, ko‘zga ko‘rinmaydigan, yashirin, maxfiy.

pinhona (پنهانه) fors. kishilardan maxfiy ravishda, birovga bildirmay, yashirincha.

pinhoniy (پنهانی) fors. pinhon tutilgan, sir saqlangan, yashiringan, maxfiy.

pir I. (پیر) fors. 1) uzoq umr ko‘rgan odam, keksa, qari; 2) diniy mazhab boshlig‘i, diniy rahbar; 3) biror ish, kasb yoki sohani juda yaxshi egallagan kishi, shu sohada eng mohir, usta odam, ustoz.

pir II. (پیر) fors. hafsalasi pir bo‘ldi: 1) ishonchi, e’timodi yo‘qoldi, ko‘ngli qoldi; 2) hafsalasi qolmadi.

piramon (پیرامن) fors. deraza yoki eshik tepasidagi tokcha.

pirovard (پیراورد) fors. tugalish, oxir, nihoya, so‘ng.

pirxona (پیر خانه) fors. pirning dargohi, xonadoni.

pisand (پسند) fors. diqqat-e’tibor, nazar-e’tibor.



www.ziyouz.com kutubxonasi

pisanda (پسنده) fors. 1) oldindan qo'yilgan talab, shart; 2) ta'kidlash, uqtirish.

pista (پسته) fors. pista, pista daraxti va mevasi.

pistadahan (پسته دهان) fors. og'zi kichik va kelishgan (asosan qiz, ayollar haqida).

pistazor (پسته زار) fors. pista daraxtlari bilan band yer, maydon.

piyoda (پیاده) fors. piyoda, yayov, ulovsiz.

piyola (پیاله) fors. piyola.

piyoz (پیاز) fors. piyoz.

piyozdog' (پیاز داغ) fors. yog'da qovurilgan piyoz.

piyozgul (پیاز گل) fors. piyozgul, gulsapsar, nilufar.

piyozi (پیازی) fors. jundan yupqa qilib to'qilgan (mato haqida).

poda (پاده) fors. poda, gala.

podaxona (پاده خانه) fors. poda turadigan joy yoki bino.

podsho (پادشا) fors. podshoh, shoh.

podshoh (پادشاه) fors. podshoh, shoh.

podshohona (پادشاهانه) fors. 1) podsholar kabi, podsholardek; 2) to'kin-sochin, to'q, farovon.

podshoparast (پادشاپرست) fors. podshohparastga qarang.

podshohparast (پادشاه پرست) fors. mamlakatga podsho hukmron bo'lishini yoqlovchi, podshoga tayanuvchi.

podshohzoda (پادشاه زاده) fors. podsho farzandi, podsho naslidan bo'lgan.

pok I. (پاک) fors. 1) top-toza, gard-g'ubor, kir - changdan xoli, pokiza, toza; 2) nomiga gard yuqmagan, sof, vijdonli, halol, to'g'ri.

pok II. (پاک) fors. butunlay, batamom, paqqos.

pokdil (پاکدل) fors. ko'nglida kiri yoq, vijdoni, dili pok, sofdil va samimiy.

pokdomon (پاکدامان) fors. or-nomusini saqlagan, iffatli, to'g'ri, beayb.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| pokiza | (پاکیزه) | fors. 1) top-toza, pok; 2) halol, pok, to'g'ri; 3) ozodalikka qattiq rioya qiladigan, ozoda. |
| pok-pokiza I. | (پاک پاکیزه) | fors. butunlay, batamom, pok, paqqos. |
| poliz | (پالیز) | fors. qovun, bodring kabi palak otib o'sadigan ekinlar ekilgan joy, yer. |
| ponsad | (پانصد) | fors. xonlik davrlarida askar boshliqlariga berilgan unvonlardan buri va shu unvonga ega bo'lgan shaxs. |
| pora I. | (پاره) | fors. 1) parchalangan narsaning bir qismi, bo'lak, parcha; 2) to'la, to'p; 3) asarning tugal qismlaridan biri, qism, bo'lim, bob. |
| pora II. | (پاره) | fors. lavozimli kishiga qonundan tashqari biror ishni bitirib bergani uchun berilgan narsa yoki pul, rishva. |
| pora-pora | (پاره پاره) | fors. bo'lak-bo'lak, parcha-parcha, chilpora. |
| poraxo'r | (پاره خوار) | fors. pora oladigan, poraga o'rgangan, poraxo'r. |
| porso | (پارسا) | fors. 1) or-nomusli, iffatli, pokdomon, sofdil; 2) dindor, xudojo'y; 3) olim, donishmand, orif; 4) erkaklar ismi. |
| posangi | (پاسنگی) | fors. pallalarni tenglashtirish yoki idish og'irligini chiqarib tashlash uchun tarozining bir tomoniga qo'yiladigan qo'shimcha tosh. |
| posbon | (پاسبان) | fors. 1) biror kimsa yoki narsaning xavfsizligini, daxlsizligini ta'minlash uchun po'stda turgan kishi, qo'riqchi, soqchi, qorovul; 2) muhofaza, himoya qiluvchi, saqlovchi, homiy. |
| poy | (پای) | fors. 1) juft holda ishlatiladigan narsaning har biri, bir taqasi (asosan poyabzal haqida); 2) oyoq; 3) birovning qo'lida, ixtiyorida yoki oyog'i ostida. |
| poya | (پایه) | fors. 1) o'simlikning shoxlarini, barg, gul va mevasini ko'tarib turadigan, tik o'sadigan yer usti qismi; 2) ishkom yoki so'rining bag'azlar mahkamlanadigan yog'ochi 3) oyoq, pocha; |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| | | 4) pocha; 5) zanbil, tobut va shu kabining tutqichi, dastasi; 6) pog'ona, pillapoya 7) pog'ona, daraja, bosqich. |
| poyabzal | (پای افزار) | fors. poyabzal, oyoq kiyimi. |
| poyafzal | (پای افزار) | fors. poyafzal. |
| poyandoz | (پای انداز) | fors. 1) alohida hurmatga sazovor kishini kutib olish uchun uning yo'liga, oyog'i ostiga solinadigan palos; 2) ko'rpacha. |
| poydevor | (پای دیوار) | fors. 1) bino, inshoot yoki ularning ayrim qismi ostida tayanch uchun quriladigan mustahkam asos, fundament; 2) zamin, negiz. |
| poydor | (پایدار) | fors. mustahkam asosga, zäminga ega bo'lgan, barqaror. |
| poyga | (پایگه) | fors. 1) kim o'zdi musobaqasi; 2) boshqalarga nisbatan yuqori natijalarga, ko'rsatkichlarga erishish uchun bo'lgan harakat. |
| poygah | (پایگه) | fors. 1) ostona, bo'sag'a; 2) baza, harbiy baza. |
| poygak | (پایگک) | fors. poygahga qarang. |
| poyjoma | (پای جامه) | fors. poyjama, shalvar. |
| poyko'p | (پایکوب) | fors. objuvozning sholi yanchiladigan qismi, gurzisi. |
| poykubxona | (پایکوب خانه) | fors. juvozxona, objuvoz. |
| poymol | (پایمال) | fors. poymol bo'lmoq; 1) oyoq ostida ezilmoq, bosilmoq, toptalmoq, payhon bo'lmoq; 2) oyoq osti bo'lmoq, barbod bo'lmoq, yo'qqa chiqmoq, tahqirlanmoq. |
| poynak | (پای نوک) | fors. 1) tuxumning to'mtoq tomoni, keti; 2) pichoq, xanjar, qilichning uchiga kiyg'izib qo'yiladigan, uni teshilishdan saqlaydigan metal uchlik. |
| poynov | (پایناو) | fors. ariq, hovuz va shu kabining suvi oqib chiqib ketadigan tomoni, etagi. |
| poyon | (پایان) | fors. chek, chegara, oxir, so'ng, nihoya. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

poyqadam (پای قدم) fors-arab. 1) oyoq, oyoq izi, yo'l; 2) qadam qo'yish, tashrif buyurish, kelish.

poytaxt (پایتخت) fors. davlatning hukumat va markaziy idoralari joylashgan bosh shahri, poytaxt.

poytesha (پای تیشه) fors. tik turib yog'och yo'nish va tekislash uchun ishlatiladigan dastasi uzun katta tesha.

pog'ona (پاغانه) fors. 1) pillapoya, pocha; 2) o'sish, yuksalish, taraqqiyot va shu kabi tadrijiy jarayonlarning har bir bosqichi.

poshna (پاشنه) fors. oyoq kiyimining tavoniga tagcharmdan balandroq qilib qoqilgan qattiq charm yoki boshqa biror narsa.

pocha (پاچه) fors. 1) hayvonlar oyog'ining tizzadan pastki qismi; 2) oyoqning tizza bilan to'piq o'rtasidagi qismi, boldir; 3) shimning shalvarning tizzadan pastki qismi; 4) ustki uzun kiyimning etagiga tikilgan jiyak, hoshiya; 5) poya, oyoq; 6) pillapoya, pog'ona.

pochapo'stin (پاچه پوستین) fors. tulki va boshqa hayvonlarning oyog'i mo'ynasidan tikilgan sirma po'stin.

pul I. (پول) fors. pul, aqcha.

pul II. (پل) fors. ko'prik.

puldor (پولدار) fors. ko'p pulga ega bo'lgan, puli ko'p, boy, badavlat.

pulparast (پولپرست) fors. pulga o'ch, pul to'plash payiga tushgan, ochko'z, haris, tama'gir.

puxta (پخته) fors. 1) pishiq, mustahkam; 2) har taraflama o'ylab ish qiladigan, pishiq; 3) atroflicha chuqur o'ylangan, asosli, pishiq.

pushaymon (پشیمان) fors. o'z qilmishi uchun ruhiy ezilish hissi, afsuslanish, afsus, nadomat.

pusht (پشت) fors. pusht, avlod-ajdod, nasl.



www.ziyouz.com kutubxonasi

pushta (پشته) fors. yonma-yon jo'yaklar orasidagi, odatda qator qilib ekin ekiladigan uzun yer bo'lag', ekin palak otishi uchun qoldirilgan bo'sh, joy.

pushtan (پشتن) fors. egarning ot qornidan aylantirib o'tqizib bog'lab qo'yilgan taxtasi, qorinbog'i.

pushti (پشتی) fors. shaftoli guli rangidagi, ochqizil.

puch (پوچ) fors. 1) ichi bo'sh, mag'zi yo'q yoki to'lib yetilmagan; 2) asossiz, amalga oshmaydigan, xom, quruq, yolg'on, bema'ni.

puchak (پوچک) fors. 1) ichi bo'sh, puch; 2) hech narsaga arzimaydigan, qimmati tushib ketgan, qadrsiz, puch; 3) asossiz, puch.

po'st (پوست) fors. po'st, jild, teri, qobiq.

po'stak (پوستک) fors. o'siq junli oshlangan teridan iborat to'shak.

po'stdumba (پوست دنبه) fors. qo'y dunbasining pishirib yeyiladigan yog'li terisi.

po'stin (پوستین) fors. po'stin.

po'stinbop (پوستین باپ) fors. po'stin tikish uchun yaraydigan.

po'stindo'z (پوستین دوز) fors. po'stin tikadigan usta, mo'ynado'z.

po'sht (پشت) fors. 1) odamlarni yo'ldan qochirish uchun qilinadigan xitob.



www.ziyouz.com kutubxonasi

# Q

qabiladosh (قبیله داش) arab-fors. bir qabilaga mansub bo'lgan kishilar (bir-biriga nisbatan).

qabriston (قبرستان) arab-fors. o'liklar dafn qilinadigan joy, go'riston, mozoriston, mozor.

qabulxona (قبول خانه) arab-fars 1) rasmiy idoralarga ish bilan keluvchilar navbat kutib o'tiradigan yoki qabul qilinadigan xona; 2) qarovsiz qolgan bolalar uyi, yetimxona.

qadamgoh (قدمگاه) arab-fors. qadamjoga qarang.

qadamjo (قدمجا) arab-fors. 1) ziyorat qilish, sig'inish uchun boriladigan, muqaddas deb sanalgan joy, ziyoratgoh; 2) ko'rish, biror narsa o'rganish, namuna olish uchun boriladigan serfayz yoki aziz joy.

qadamma-qadam (قدم به قدم) arab-fors-arab 1) izma iz, ketidan qolmay, iz quvib; 2) asta- sekinlik bilan, qadam-baqadam, daraja-badaraja.

qadrdon (قدردان) arab-fors. 1) ko'pdan beri tanish bo'lgan, hurmatli, yaqin kishi, qalin, jonajon do'st; 2) ko'pdan beri tanish.

qadrnoshunos (قدرناشناس) arab-fors 1) hech kimning, hech narsaning qadriga yeta olmaydigan, ko'rnamak, nonko'r.

qadrshunos (قدرشناس) arab-fors. kishi yoki narsaning qadr-qiymatini biladigan, qadriga yeta oladigan, qadrlaydigan.

qahramon (قهرمان) fors. 1) mard, jasur, shijoatli, bahodir, azamat; 2) erkaklar ismi.

qahramonona (قهرمانانه) fors. qahramonlarga xos ravishda, qahramonlik bilan, qahramonlarcha, mardlarcha.

qahvaxona (قهوه خانه) arab-fors. qahvaxona.



www.ziyouz.com kutubxonasi

qalamdon (قلمدان) arab-fors. qalam, pero', ruchka solib qo'yiladigan quticha.

qalamdosh (قلمداش) arab-fors. biror sohada yozma asar yozuvchilarning biri (boshqasiga nisbatan).

qalamkash (قلمكش) arab-fors. qalam tebratuvchi, yozuvchi ( shoir, yozuvchi, jurnalist, tarjimon, rassom va shu kabi haqida).

qalamrav (قلمرو) arab-fors. hukmdorning hukmi yuradigan territo'riya va unung qo'l ostida bo'lgan yerlar.

qalamtarosh (قلم تراش) arab-fors. tig'i sopi ichiga qayirib, yopib qo'yiladigan pichoqcha, pakki.

qalandar (قلندر) fors. 1) darvish, zohid; 2) erkaklar ismi.

qalandarbachcha (قلندربچه) fors. qalandarning shogirdi.

qalandarona (قلندرانه) fors. qalandarlarcha, qalandarlarga xos.

qalandarxona (قلندرخانه) fors. qalandarlar yig'iladigan va tunaydigan joy.

qalbaki (قلبكى) arab-fors. 1) aldash, qalloblik, firibgarlik, maqsadida asliga o'xshatib qilingan, soxta, yasama; 2) riyokorlik bilan, shunchaki qilingan, nosamimiy, yolg'ondakam, yuzaki, yasama, bo'yama.

qalbdosh (قلبداش) arab-fors. butun ruhi, dunyoqarashi, orzu-istagi va shu kabi bir xil bo'lgan (kishilardan biri ikkinchisiga nisbatan).

qand (قند) fors. qand, shirinlik.

qandak (قندک) fors. qandak o'rik - u qadar yirik bo'lmaydigan, kam suv, ammo ser shira, to'q sariq- qizil rangli o'rik navi.

qanddon (قنددان) fors. qand, shakar solib qo'yiladigan maxsus idish.

qarorgoh (قرارگاه) arab-fors. 1) vaqtincha istiqomat qilish yoki qo'nish joyi; 2) davlat boshlig'i, hukumat yoki davlat arbobining doimiy yoki vaqtincha turar joyi, rezidensiya.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| qarzdor | (قرضدار) | arab-fors. 1) qarz bo'lgan kishi; 2) birovning yaxshiligi, xizmati uchun minnatdor, burchli bo'lgan shaxs. |
| qasamxo'r | (قسم خور) | arab-fors. bo'lar-bo'lmasga qasam ichaveradigan, undan qaytaveradigan, beburd kishi. |
| qasamyod | (قسم یاد) | arab-fors 1) qat'iy va'da, ont; 2) sodiqlik haqidagi rasmiy va'da, qasam. |
| qasddor | (قصد دار) | arab-fors. qasdi bo'lgan, yovuz niyatli. |
| qasidago'y | (قصیده گوی) | arab-fors 1) qasida yozuvchi shoir, qasidanavis; 2) xushomadgo'ylik bilan ko'kka ko'tarib maqtovchi, madhiyago'y, maddoh. |
| qasidanavis | (قصیده نویس) | arab-fors. qasidago'yga qarang. |
| qasoskor | (قصاص کار) | arab-fors. qasos oluvchi, qasoskor, o'ch oluvchi. |
| qassobxona | (قصاب خانه) | arab-fors. qassobxona, kushxona. |
| qavsob | (قوس آب) | arab-fors. qavs oyida, ay'ni noyabr oxiri dekabr boshlarida yerni sug'orish uchun beriladigan suv, qavs suvi. |
| qaychi | (قیچی) | turk. qaychi. |
| qiblagoh | (قبله گاه) | arab-fors 1) qibla tomon, qibla; 2) o'ta hurmatga loyiq kishi (ota, ona); 3) ko'z tutiladigan tomon, joy. |
| qiblanoma | (قبله نامه) | arab-fors. ko'mpas, qutbnamo. |
| qimmatbaho | (قیمت بها) | arab-fors. 1) katta pul turadigan, juda qimmat, qimmatli; 2) bahosi yo'q, bebaho. |
| qimmatfurush | (قیمت فروش) | arab-fors. boshqalarga qaraganda baland narx bilan narsa sotuvchi savdogar. |
| qimorboz | (قمار باز) | arab-fors. 1) doim qimor o'ynovchi, qimorga berilgan odam; 2) tavakkalchi, gardkamchi. |
| qimorxona | (قمار خانه) | arab-fors. qimor o'ynaydigan joy, xona. |
| qirmizak | (قرمزک) | fors. qirmizak, nordon. |
| qirmiz(i) | (قرمز(ی)) | fors. qizil rangli, qizil, ol. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| quroatxon | (قرائت خوان) | arab-fors 1) Quronni qiroat bilan asli talaffuziga rioya qilib oqiydigan kishi, qori; 2) ma'nosini chuqur tushinmay yod olib, yuzaki bilgan kishi. |
| qiroatxona | (قرائت خانه) | arab-fors. 1) Quronni yodlash va qiroat bilan o'qishni o'rgatadigan maktab, qozixona; 2) gazeta, jurnal va kitoblar o'qish uchun ajratilgan xona, o'quv zali. |
| qissago'y | (قصه گوی) | arab-fors. 1) qissa o'quvchi, aytuvchi; 2) qissa yozuvchi, qissanavis. |
| qissanavis | (قصه نویس) | arab-fors. qissalar, hikoyalar yozuvchi adib. |
| qissaxon | (قصه خوان) | arab-fors. ko'pchilik o'rtasida qissalar, hikoyalar o'quvchi yoki aytuvchi kishi. |
| qomatdor | (قامت دار) | arab-fors. qomati, gavdasi kelishgan, gavdali, qomatli, jussali, xushqad, xushbichim. |
| qonunshunos | (قانون شناس) | arab-fors. qonunlarni yaxshi biladigan mutaxassis, yurist. |
| qorixona | (قاری خانه) | arab-fors. 1) quronni yoddan o'quvchi qorilar tayyorlaydigan maktab; 2) masjidning quron tilovat qilish uchun ajratilgan xonasi, qiroatxona. |
| qoziboz | (قاضی باز) | arab-fors. qozibozlikni yaxshi ko'radigan, bo'lar-bo'lmasga qoziga murojaat qilaveradigan odam. |
| qozikalon | (قاضی کلان) | arab-fors. bosh qozi. |
| qozixona | (قاضی خانه) | arab-fors. shariat qozisining idorasi, mahkamasi. |
| qozivachcha | (قاضی بچه) | arab-fors. qozizoda. |
| qozizoda | (قاضی زاده) | arab-fors. qozining farzandi, qozilardan tarqalgan, qozilarga mansub kishi. |
| qudratbaxsh | (قدرت بخش) | arab-fors. qudrat, kuch-quvvat bag'ishlovchi, kuchga kuch qo'shadigan. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# R

raf (رف) fors. deraza tokchasi.

raft-omad (رفت و آمد) fors. 1) bordi-keldi munosabatlari, borish-kelish; 2) yurish-turish, oyoq olish.

raftor (رفتار) fors. xatti-harakat, yurish-turish, qadam olish.

rahbar (رهبر) fors. 1) rahbar, boshliq, yo'lboshchi, rahnamo; 2) ta'lim- tarbiya beruvchi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, ustoz.

rahmdil (رحم دل) arab-fors. birovga ozor bermaydigan, ko'ngli yumshoq, rahmli, shafqatli.

rahnamo (رهنما) fors. yo'l ko'rsatuvchi, boshchilik qiluvchi, rahbar.

raisxona (رئیس خانه) arab-fors. rais mahkamasi, rais idorasi.

randa (رنده) fors. randa, duradgorlik asbobi.

rang (رنگ) fors. rang, bo'yoq.

rangbarang (رنگ برنگ) fors. 1) turli rangdagi, rangi har xil; 2) turli-tuman, har-xil.

rangdor (رنگ دار) fors. 1) biror rangga bo'yalgan, rangli; 2) bejamali, jilvali, balandparvoz (so'z, gap va shu kabi haqida).

rangin (رنگین) fors. biror rangga ega bolgan, rangli.

rangorand (رنگارنگ) fors. rang-barangga qarang.

rangpar (رنگ پر) fors. rangi zahil, siniqqan, rangsiz.

rang-ruxsor (رنگ رخسار) fors. rang-ro'yga qarang.

rang-ro'y (رنگ روی) fors. kishi yuzining rangi va ko'rinishi.

rangvor (رنگ وار) fors. biror maqsad uchun zarur bo'yoqlar majmui.



www.ziyouz.com kutubxonasi

ranj (رنج) fors. 1) ko‘ngilga yetgan ozor, alam; 2) mehnat, mashaqqat.

ranjida (رنجيده) fors. qadam ranjida qilmoq - bir yoqqa tashrif buyurmoq, bormoq, kelmoq.

rasadxona (رصد خانه) arab-fors. rasadxona, osmon jismlarini kuzatadigan joy.

rasamad (رسمد) fors. taqsimotda har bir kishi yoki har bir narsaga to‘gri kelgan qism, ulush.

rasida (رسيده) fors. 1) yetuk, barkamol; 2) rasta, do‘konlar qatori.

raso (رسا) fors. 1) kami yo‘q, to‘liq, but; 2) yetuk, barkamol.

rasta I. (رسته) fors. bozorlarda bir turdagi mol bilan savdo qiladigan do‘konlar qatori va ular o‘rtasidagi bozor ko‘cha.

rasta II. (رسته) fors. balog‘atga yetgan payt, balog‘at.

rasta-rasta (رسته رسته) fors. qator-qator, ketma-ket.

rasvo (رسوا) fors. 1) nojo‘ya xatti harakat, yurish-turish bilan el nazaridan qolgan, yaramas, razil; 2) juda ham yomon, tuban; 3) juda ham yomon, yaramas, nokas; 4) izdan chiqib ketgan, yomon ahvolga tushib qolgan, yomon, pachava 5) buzuq, badaxloq.

rav (رو) fors. 1) bir lahza, bir on, bir dam, bir zum; 2) qisqa vaqtda, darrov, tez.

ravish (روش) fors. 1) ish-harakat, voqea-hodisa va shu kabining boshidagi o‘ziga xos xususiyat, yurish-turish taxliti, turq; 2) usul, tarz, yo‘sin; 3) ish -harakatning belgisini, paytini, o‘rnini, holatini, daraja va miqdorini bildiradigan so‘z turkimi.

ravishdosh (روش داش) fors. ish-harakatning ravishini bildiradigan fe’l fo‘rmasi.

ravnaq (رونق) fors. 1) porlash, yaltirash, husn, ko‘rk; 2) mislsiz taraqqiyot, rivoj, barq urish, gullab yashnash.

ravo (روا) fors. 1) yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan, o‘rinli, joiz; 2) munosib, loyiq bo‘lgan, to‘g‘ri keladigan, mos.



www.ziyouz.com kutubxonasi

ravon (روان) fors. 1) bir tekisda va to'xtovsiz boradigan yoki borayotgan, silliq, 2) to'g'ri va tekis (yo'l haqida); 3) mantiq va uslub jihatidan puxta va silliq, bir-biriga yaxshi bog'langan; 4) oson va tekis harakatlanadigan, ishlaydigan; 5) ravona.

ravona (روانه) fors. ravona bo'lmoq 1) biror tomonga yo'l olmoq, jo'namoq, ketmoq; 2) oqmoq.

ravshan (روشن) fors. yorqin nur sochadigan, yorug', yorqin; 2) yaxshi ko'radigan, o'tkir (ko'z haqida) 3) aniq, tushunarli, tushunish oson bo'lgan; 4) ko'zga yaqqol tashlanadigan, ochiq-oydin, aniq, yaqqol; 5) yashirib, sir tutib bo'lmaydigan, ma'lum, oshkor; 6) erkaklar va ayollar ismi.

rax (رخ) fors. raxtga qarang.

raxna (رخنه) fors. 1) o'yilgan, o'pirilgan joy, teshik-yoriq; 2) puturdan ketgan, bo'shashgan joy, nozik yer; 3) nizo, ixtilof, sovuqchilik, zarar.

raxt (رخت) fors. 1) poyabzalning tagcharm bilan boshlig'i birikkan yeridagi gir aylana naqshdor bo'rtig'i; 2) ziynat, hasham.

razilona (رذیلانه) arab-fors. razillarcha, nokaslarcha.

rashk (رشک) fors. 1) yaxshi ko'rgan kishini birovdan qizg'anish, kunchilik; 2) ko'rolmaslik, g'ashlik, hasad.

rez (ریز) fors. 1) musiqa asboblaridan bir ritmda chiqadigan uzuq-uzuq qisqa sadolar; 2) shu turdagi kuy nomi.

reza (ریزه) fors. 1) uncha katta bo'lmagan, mayda, kichik; 2) mayda narsa.

rezaparvar (ریزه پرور) fors. rezavor ekinlarni yaxshi parvarish qiladigan, mirishkor.

rezavor (ریزه وار) fors. 1) mayda-chuyda; 2) ovqatga solish uchun ishla tiladigan ko'kat va sabzavot; 3) bog'chachilik ekinlari va ularning mevalari; 4) rizavor.



www.ziyouz.com kutubxonasi

rezavorfurush (ریزه وار فروش) fors. mayda-chuyda rezavor mollar bilan savdo qiluvchi kishi, rezavorchi.

riboxo'r (ربا خوار) arab-fors. foydaxo'r, sudxo'r.

rind (رند) fors. 1) shariat qoidalariga bo'ysunmovchi, erkin fikr yurituvchi, ziyrak, hushyor; 2) ayyor, makkor, hiylagar.

rivoch (ریواج) fors. revand, ravoch (ko'p yillik o'simlk).

riyokor (ریاکار) arab-fors. munofiq, ikkiyuzlamachi, riyokor.

riyokorona (ریاکارانه) arab-fors. riyokorlik bilan, ikki yuzlamachilik bilan, munofiqona.

rizq-ro'z (رزق و روز) arab-fors. kundalik hayot uchun zarur oziq, ovqat.

rishta (رشته) fors. 1) ip, kanop; 2) teri ostida paydo bo'ladigan ip kabi uzun qurt; 3) ikki narsa, kimsa, haqida va shu kabini o'zaro uzviy bog'lovchi vosita, bog'lanish.

rishvaxo'r (رشوه خوار) arab-fors. poraxo'r.

roh (راه) fors. yo'l.

rohatbadan (راحت بدن) arab-fors. 1) odatda olma gulli kuylakbop harir gazlama; 2) badanga roxat bag'ishlaydigan.

rohatijon (راحت جان) arab-fors. 1) shinniga muz qirib solib tayyorlanadigan moro'jniysimon ovqat; 2) jonga rohat bag'ishlaydigan.

rom (رام) fors. rom qilmoq (yoki etmoq) 1) o'ziga qaratmoq, o'ziga moyil qilmoq, og'dirmoq; 2) nihoyat darajada, nihoyatda, juda; 3) bo'ysundirmoq.

rosa (راسا) fors. 1) bekami ko'st, to'liq, to'la; 2) nihoyat darajada, juda: 3) xo'p yaxshi.

rost (راست) fors. 1) to'g'ri, adil, tik; 2) haqiqatdan iborat bo'lgan, haqiqatga asoslangan, to'g'ri, chin.

rostgo'y (راست گوی) fors. rostini, haqiqatni gapiradigan, to'g'ri so'z.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| royish | (روایش) | fors. 1) mayl, ra'y, moyillik; 2) so'zga kiradigan, mo'min, mo'mintoy. |
| roz | (راز) | fors. maxfiy tutilgan narsa, sir. |
| rubob | (رباب) | fors. mediator bilan chertib chalinadigan besh torli musiqa asbobi. |
| rusta | (رسته) | fors. ichiga o'rik yoki bodom mag'zi solib tayyorlangan parvarda. |
| rustam | (رستم) | fors. 1) bahodir, pahlavon; 2) erkaklar ismi. |
| rustamona | (رستمانه) | fors. pahlavonlarga xos, bahodirona. |
| rux I. | (رخ) | fors. rux, to'ra (shahmat o'yinida). |
| rux II. | (رخ) | fors. kishining yuzi, ruxsor. |
| ruxsatnoma | (رخصت نامه) | arab-fors. yozma ravishda berilgan ijozat, ruxsat. |
| ruxsor | (رخسار) | fors. 1) kishining yuzi, bet, aft-angor; 2) ko'rinish, qiyofa. |
| ro'baro' | (روبرو) | fors. qarama-qarshi tomon, qarshi, ro'para. |
| ro'dapo | (روده پا) | fors. 1) so'rg'ichli sakkizta katta paypaslagichi bo'lgan dengiz hayvoni, sakkiz oyoq; 2) har qanday bahaybat, vahimali narsa. |
| ro'kach | (روکش) | fors. ko'z-ko'z qilib, yomonini yashirish uchun ajratib oldinga qo'yilgan sara narsa, molning, narsaning sarasi. |
| ro'mol | (رومال) | fors-arab. 1) ayollar boshiga o'raydigan odatda, to'rtburchak shaklidagi mato; 2) umuman shunday mato, parcha. |
| ro'para | (روبرو) | fors. biror narsaga yoki kuzatuvchiga, so'zlovchiga qarama-qarshi tomon, qarshi. |
| ro'y | (روی) | fors. yuz, yuza, bet. |
| ro'yirost | (روی راست) | fors. 1) biror andishaga bormasdan, yuz-xotir qilmasdan, to'ppa-to'g'ri, dangal, ochiq; 2) tikka, bor bo'yicha; 3) chinakamiga, astoydil. |
| ro'yixotir | (روی خاطر) | fors-arab. andisha, rioya, yuz-hotir. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| ro'yihush | (روی خوش) | fors. ochiq chehra va iltifot, hushmuomalalik |
| ro'yjo | (روی جا) | fors. guldor yoki sidirg'a choyshab. |
| ro'yxat | (روی خط) | fors-arab. narsalarni, kimsalarni ma'lum tartib bilan hisobga olib, yozib chiqish va shuning natijasi bo'lgan shunday hujjat. |
| ro'z | (روز) | fors. kun, bir kun. |
| ro'za | (روزه) | fors. 1) musulmonlarning har yili butun ramazon oyi davomida dunyoviy ishlardan o'zini tiyib, butun kun hech narsa yemay-ichmay yurish urf-odati; 2) ramazon oyi. |
| ro'zador | (روزه دار) | fors. ro'za tutgan kimsa, ro'zador. |
| ro'znoma | (روزنامه) | fors. 1) majlisning kun tartibi; 2) gazeta. |
| ro'zg'or | (روزگار) | fors. 1) o'ziga mustaqil har bir oila, har bir xo'jalik; 2) mulk, mol-mulk. |
| ro'zg'ordor | (روزگار دار) | fors. oila va xo'jalik egasi, oilali. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# S

| | | |
|---|---|---|
| sababdor | (سبب دار) | arab-fors. 1) sababchi, biron narsa, voqea-hodisaning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan kimsa, narsa; 2) tabiiy hodisalarni yuzaga keltiruvchi omil. |
| sababkor | (سبب كار) | arab-fors. sababdorga qarang. |
| saboqdosh | (سبق داش) | arab-fors. birga o'qigan, saboq olgan kishi, maktabdosh. |
| sabotkor | (ثبات كار) | arab-fors sabotli, bukilmas, irodali, mustahkam, og'ishmaydigan, matonatli. |
| sabr-bardosh | (صبر برداش) | arab-fors. sabr va bardosh, to'zim va chidam. |
| sabz | (سبز) | fors. yashil, maysa rang. |
| sabza | (سبزه) | fors. 1) yam-yashil barra o't, maysa; 2) yam-yashil barra o't bilan qoplangan; 3) endigina o'sa boshlagan murt, soqol (o'spirinlarda); 4) kishmish navi. |
| sabzavot | (سبزوات) | fors. resavor va poliz ekinlari, sabzavot. |
| sabzavotkor | (سبزوات كار) | fors. sabzavot bilan shug'ullanuvchi, sabzavot ekuvchi, yetishtiruvchi. |
| sabzazor | (سبزه زار) | fors. yam-yashil barra o't bilan qoplangan yer, maysazor. |
| sad | (صد) | fors. yuz, yuz soni. |
| sadbarg | (صد برگ) | fors. 1) gul nomi; 2) ayollar ismi. |
| saddi-bast | (صد بست) | fors. bo'y-bast, qaddi-qomat. |
| sadoqatkor | (صدا قت كار) | arab-fors. chin qalbdan berilgan, sadoqatli, sodiq, fidokor. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

sadpora (صد پاره) fors. yuz pora, pora-pora, chil-chil, yuz bo'lak.

sadqayisar (صدقه سر) arab-fors. 1) boshdan sadaqa, boshdan aylansin; 2) ajab bo'libdi, xo'p bo'libdi.

safarbar (سفر بر) arab-fors. jangovar holatga keltirilgan, shay.

safardosh (سفر داش) arab-fors. safarda birga bo'lgan kishilar (bir-biriga nisbatan), safardagi hamroh.

safbasta (صف بسته) arab-fors. safga tizilgan, saf tortgan, bir safdagi.

safdosh (صف داش) arab-fors. 1) harbiy xizmatda birga, bir safda bo'lgan kishilar (bir-biriga nisbatan); 2) bir jabhada, bir tashkilot safida birgalikda ish olib borgan, kurashgan kishilar (bir-biriga nisbatan); 3) bir yoshdagi kishilar, tengqurlar, tengdoshlar (bir-biriga nisbatan).

safobaxsh (صفا بخش) arab-fors. xursandchilik kayfiyati, huzur bag'ishlovchi, kayf-safo baxsh etuvchi, gashtli.

safogoh (صفا گاه) arab-fors. xursandchilik kayfiayti, huzur bag'ishlaydigan, kayf-safo baxsh etadigan joy, gashtli joy.

saforatxona (سفارت خانه) arab-fors. chet eldagi davlat vakolatxonasining binosi, elchixona.

safsataboz (سفسطه باز) arab-fors. safsatabozlikni yaxshi ko'radigan, safsata sotuvchi.

sag (سگ) fors. it, kuchuk.

sagbon (سگبان) fors. it boquvchi.

sahar-mardon (سحر مردان) arab-fors. erta tong, tong otar-otmas payt.

saharxez (سحرخیز) arab-fors. erta bilan barvaqt, saharlab turishga odatlangan, saharda turuvchi, uyg'onuvchi.

sahnabop (صحنه باپ) arab-fors. sahna uchun mos, sahnalashtirilishi oson va foydali.

sahnadosh (صحنه داش) arab-fors. bir sahnada, bir teatrda ishlovchi kishilar (bir-biriga nisbatan).



www.ziyouz.com kutubxonasi

sajdagoh (سجده گاه) arab-fors. 1) sajda, ibodat qilinadigan joy, qadamjo; 2) muqaddas, aziz joy.

sallador (سله دار) arab-fors. 1) boshiga katta salla o'ragan, katta sallali; 2) tepasida, ichida sallaga o'xshash qismi bo'lgan.

sallagul (سله گل) arab-fors. sallagul.

salloxxona (سلاخ خانه) arab-fors. kushxona, qassobxona.

salomnoma (سلام نامه) arab-fors. salom yo'llab, sihat-salomatlik tilab yozilgan xat, salom xati.

salomxona (سلام خانه) arab-fors. amirning, xonning salomga yig'ilganlarni yoki ish bilan kelganlarni qabul qiladigan xonasi.

saman (سمند) fors. och malla, somon rang (ot tusi haqida).

samandar (سمندر) fors. 1) go'yo o't ichida tug'iladigan va o'tda yashaydigan afsonaviy maxluq; 2) ham suvda, ham qurug'likda yashovchi ba'zi kaltakesaksimon dumli jonivorlarning umumiy nomi; 3) erkaklar ismi.

samarador (ثمره دار) arab-fors. samarali, sermahsul, hosildor.

san'atkor (صنعت کار) arab-fors. 1) san'at sohibi, san'atning biror sohasini egallagan va shu bilan shug'ullanuvchi kishi, san'atchi; 2) yuksak mahoratga ega bo'lgan, ijodkor.

san'atkorona (صنعت کارانه) arab-fors. yuksak san'at bilan, mahorat ko'rsatib, mohirona.

san'atshunos (صنعت شناس) arab-fors. san'atshunoslik olimi, mutaxassisi.

sandiqsoz (صندوق ساز) arab-fors. sandiq yasab sotuvchi usta, sandiqchi.

sandiqzada (صندوق زده) arab-fors. sandiqda yotaverib asli sifatini yo'qotgan (mato, mol haqida).

sandon (سندان) fors. temirchi va zargarlarda ishlov beriladigan narsani qo'yib bolg'alaydigan temir kunda.

sang (سنگ) fors. tosh.



www.ziyouz.com kutubxonasi

sangdil (سنگدل) fors. berahm, bag'ri tosh, zolim.

sangob (سنگ آب) fors. teri oshlash uchun tayyorlangan ohak yoki qum eritmasi.

sangsar (سنگ سر) fors. savsarning bir turi.

sangsor (سنگسار) fors. toshbo'ron.

sangtarosh (سنگتراش) fors. tosh yo'nuvchi usta yoki ishchi, toshtarosh.

sangzor (سنگزار) fors. toshloq joy, toshloq, toshzor.

saodatmand (سعادتمند) arab-fors. ulug' baxtga erishgan, baxtli, saodatli.

sar (سر) fors. bosh, kalla.

sara (سره) fors. 1) eng yaxshi, a'lo, sarxil; 2) ayollar ismi.

saraftroz (سرافراز) fors. xursand, shod.

sarak (سرک) fors. 1) sara, eng yahshi, a'lo, sarxil; 2) uchi sinmagan, butun (tuxum haqida).

saranjom (سرانجام) fors. tartibli, sarishta.

saranjom-sarishta (سرانجام سرشته) fors. 1) saronjomlikni yaxshi ko'radigan, batartib; 2) yig'ib-terib joy-joyiga keltirilgan, tartibli, orasta.

sarbador (سربدار) fors. 1) dorga osilgan kimsa; 2) razil, past, yaramas odam.

sarbaland (سربلند) fors. 1) aybsiz, vijdonli, halol, to'g'ri; 2) mashhur, taniqli.

sarbasar (سر به سر) fors. boshdan-oyoq, birma-bir, tartibi bilan.

sarbast (سربست) fors. o'zini erkin his etuvchi, erkin, mustaqil.

sarbon (سربان) fors. 1) karvonboshi, karvon; 2) yo'lboshchi, rahnamo.

sarboz (سرباز) fors. askar, soldat.

sarbozxona (سرباز خانه) fors. sarbozlar turadigan joy, sarbozxona.

sardaftar (سر دفتر) fors-arab. kitobning, daftarning boshidagi varaq, titul.

sardak (سردک) fors. qaynatma ovqatning yuziga chiqqan yog'i.



www.ziyouz.com kutubxonasi

sardara (سردره) fors. eng katta, asosiy eshik, darvoza.

sardoba (سردابه) fors. usti gumbaz shaklidagi g'isht qurilma bilan berkitilgan sun'iy hovuz.

sardor (سردار) fors. qo'mondon, lashkarboshi.

sargardon (سرگردان) fors. 1) sarson, ovora; 2) boshidan o'girish, boshdan o'girib sadaqa qilish.

sarguzasht (سرگذشت) fors. boshdan o'tgan voqealar, boshdan kechirganlar.

sarhad (سرحد) fors-arab. chegara, hudud.

sarhafta (سر هفته) fors. kuyov tomonidan kelin tomonga hafta sari berib turiladigan sovg'a-salom.

sarhovuz (سرحوض) fors-arab. katta hovuz, bosh hovuz.

sarishta (سرشته) fors. saranjom, tartibli.

sarkarda (سر کرده) fors. 1) qo'mondon, lashkarboshi; 2) boshliq, yo'lboshchi.

sarkash (سرکش) fors. itoutsiz, o'jar,qaysar,tixir, ters.

sarkor (سرکار) fors. 1) ma'lum ish yoki sohani boshqargan lavozimli kishi; 2) umuman rahbar, boshliq, ishboshi.

sarkotib (سر کاتب) fors-arab. 1) kotiblar boshlig'i, bosh kotib; 2) umuman kotib.

sarlavha (سرلوحه) fors-arab. 1) kitob, asar, maqola va shu kabining nomi; 2) idora, korxona va shu kabining nomi yozilib osib qo'yilgan lavha.

sarmast (سرمست) fors. andak kayfi bo'lgan, andak kayf qilgan, shirakayf.

sarmoya (سرمایه) fors. 1) katta mablag', kapital; 2) umuman mablag', pul.

sarmoyador (سرمایه دار) fors. katta sarmoya, pul egasi.

sarmunshiy (سرمنشی) fors. bosh munshiy, bosh kotib.

sarnayza (سرنیزه) fors. miltiq nayzasi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

sarnigun (سرنگون) fors. ag'darilgan, to'ntarilgan.

sarnoma (سرنامه) fors. 1) nomaning, maktubning boshida ishlatiladigan duoi salom; 2) epigraf; 3) shior.

sarob (سراب) fors. 1) sarob; 2) xayol, xom xayol.

saromad (سرآمد) fors. biror sohaning eng atoqli arbobi, peshvo, peshqadam.

sarona (سرانه) fors. jon boshiga qarab solingan soliq; 2) ulush, hissa, bo'lak.

sarosar (سراسر) fors. boshdan-oyoq, batamom.

sarosima (سراسیمه) fors. gangish, esankirash.

saroy (سرای) fors. 1) hashamatli katta bino, koshona; 2) karvonsaroy; 3) omborxona, ombor.

sarayvon (سرای بان) fors. karvonlar va savdogarlar qo'nadigan saroy egasi.

sarpo (سرپا) fors. 1) to'y marosimlarida kishilarga taqdim etiladigan bosh-oyoq kiyim, to'n, do'ppi, 2) umuman kiyim-kechak, kiyim-bosh.

sarpoychang (سرپای چنگ) fors. oyoq-yalang, yalang oyoq.

sarpo'sh (سرپوش) fors. qopqoq.

sarsari (سرسری) fors. hech qayerda ishlamay yallo qilib yuruvchi, sanqi, daydi, takasaltang.

sarson (سرسان) fors. ovora, sargardon, daydi.

sarson-sargardon(سرسان سرگردان) fors. ortiq darajada sarson va sargardon, ovorai sarson.

sartarosh (سرتراش) fors. sartarosh, soch-soqol oluvchi.

sartaroshxona (سرتراش خانه) fors. sartoroshxona, sartarosh do'koni.

sarupo (سر و پا) fors. sarpoga qarang.

sarv (سرو) fors. 1) sarv daraxti; 2) qaddi-qomati kelishgan, xushqomat ayol haqida.

sarvar (سرور) fors. 1) yo'lboshchi, rahnamo; 2) ayollar va erkaklar ismi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

sarvatdor (ثروت دار) arab-fors. badavlat, davlatmand, puldor.

sarvinoz (سرو ناز) fors. go'zal va serishva ayol, nozanin, sevikli yor.

sarviqad (سرو قد) fors-arab. qaddi-qomati kelishgan, xushqad, xushqomat.

sarviqomat (سرو قامت) fors-arab. sarviqadga qarang.

sarvon (سروان) fors. 1) yo'lboshchi, rahnamo; 2) qo'shin boshlig'i.

sarvzor (سرو زار) fors. nuqul sarv daraxti bilan band yer, sarvlar o'stirilgan bog'.

sarxat (سر خط) fors-arab. 1) chiroyli yozuv, husnixat; 2) shartnoma, kelishuv (ishga yollanish haqida).

sarxok (سرخاک) fors. devorlarni yog'in suvlari ta'sirida yemirilishdan saqlash uchun devor ustiga qo'yiladigan sersomon lo'mboz.

sarxona (سرخانه) fors. chilimning tamaki solib tutatiladigan sopol qismi.

sarxush (سر خوش) fors. 1) kayf qilgan, kayfi bor, shirakayf; 2) kuchli ta'sir olib mast bo'lgan, kayf qilgan.

sarzamin (سرزمين) fors. vatan, o'lka, mamlakat.

sarchashma (سر چشمه) fors. 1) bosh buloq; 2) bosh manba.

savat (سبد) fors. surx novda, chiviq, sim va shu kabi narsalardan to'qilgan idish, savat.

savdo (سودا) fors. 1) mol ayirboshlash, oldi-sotdi, savdo-sotiq; 2) savdo-sotiqdan tushgan pul; 3) oldi-sotdi muomalasida molning narxi haqida tortishuv.

savdogar (سوداگر) fors. 1) xususiy savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi, savdo-sotiqni kasb qilib olgan kishi; 2) xususiy manfaati uchun arzimagan narsaga ham talashadigan, pastkash odam.

savlatdor (صولت دار) arab-fors. savlatli, haybatli, sersavlat.

savodxon (سواد خوان) arab-fors. o'qish- yozishni biladigan, xat-savodli odam.



www.ziyouz.com kutubxonasi

savolomuz (سؤال آمیز) arab-fors. savolga o‘xshagan, savol tariqasidagi.

savsan (سوسن) fors. gulsapsar.

saxtiyon (سختیان) fors. echki yoki qo‘y terisidan pishirilgan charm.

sayrgoh (سیرگاه) arab-fors. 1) sayr qilib, hordiq chiqarish uchun mos joy; 2) xalq sayillari o‘tkaziladigan joy, bog‘.

sazo I. (سزا) fors. 1) qilmishga yarasha tanbeh, ta’zir; 2) oniy istak, intilish, shaxt.

sazo II. (سزا) fors. sado, tovush, ovoz.

sazovor (سزاوار) fors. munosib, loyiq, arziydigan.

sazoyi (سزایی) fors. el ko‘zida sazoga, tanbeh-ta’zirga loyiq.

sag‘ana (سغنه) fors. sog‘ona, maqbara.

sag‘irxona (صغیرخانه) arab-fors. yetimxona.

sag‘ri (ساغری) fors. 1) ot, eshak, qora mol kabi hayvonlarning orqa oyoq usti qismi; 2) gavdaning dunba bilan bel o‘rtasidagi qismi; 3) ot terisining dum tomon qismidan tayyorlangan ko‘n, charm.

sehrboz (سحر باز) arab-fors. sehrgar, afsunkor, jodugar.

sehrgar (سحرگر) arab-fors. 1) sehr qiluvchi, afsunkor, jodugar; 2) kishining es-hushini olib qo‘yadigan, maftun qiladigan, fusunkor.

selob (سیلاب) arab-fors. 1) sel suvi, sel suvlari; 2) toshqin, sel o‘zan yoki shu maqsad uchun moslangan jar.

semurg‘ (سیمرغ) fors. o‘zbek xalq ertaklarida afsonaviy katta qush.

sepoya (سه پایه) fors. 1) uch oyoqli asbob, uch oyoq; 2) daryo, soy va kanallarni bo‘g‘ish yoki qirg‘oqni suv yuvishdan, toshqindan saqlash uchun uchta xodadan (uchlari biriktirib) yasalgan maxsus uch oyoqli qurilma.

ser (سیر) fors. otlardan sifat yasovchi old qo‘shimcha, mas, sersuv, serhosil, serunum.

seravj (سیر اوج) fors-arab. 1) avji ko‘p, ko‘p avjli (musiqa haqida); 2) yaxshi rivojlangan, avj olgan, yetuk.



www.ziyouz.com kutubxonasi

serbar (سیربر) fors. eni katta, enli, keng.

serbaraka (سیر برکه) fors-arab. barakasi ko'p, sermahsul, barakali.

serbarg (سیر برگ) fors. bargi ko'p, bargi qalin, quyuq, zich.

serdaraxt (سیر درخت) fors. daraxti ko'p, daraxtlarga to'la.

serdaromad (سیر درآمد) fors. daromadi ko'p, ko'p daromad keltiradigan.

serdasturxon (سیر دسترخان) fors. dasturxoni mehmonlar uchun doim ochiq, mehmondo'st.

serfarzand (سیر فرزند) fors-arab. farzandi, bolalari ko'p, ko'p bolali, serbola.

serfayz (سیر فیض) fors-arab. g'oyat fayzli, ko'rkli, ko'zni quvontiradigan.

sergap (سیرگپ) fors. 1) ko'p gapiradigan, gapdan o'g'zi tinmaydigan; 2) quruq gap, safsata sotishni yaxshi ko'radigan, gap chaynaydigan; 3) doim g'ingshib yuradigan, javraqi, vaysaqi.

sergo'sht (سیر گوشت) fors. 1) go'shti ko'p, ko'p go'sht solingan; 2) etli, yo'g'on, semiz; 3) eti qalin, etli, ser et.

serhafsala (سیر حوصله) fors-arab. hafsalali, har bir ishni hafsala bilan qiladigan, erinmas.

serharakat (سیر حرکت) fors-arab. harakatchan, abjir, tirishqoq.

serhasham (سیر حشم) fors-arab. hashamatli, dabdabali.

serhosil (سیر حاصل) fors-arab. 1) ko'p hosil beradigan, hosili ko'p, g'oyat hosildor; 2) semiz.

serjahl (سیر جهل) fors-arab. salga jahli chiqaveradigan, jahli tez.

serjanjal (سیر جنجال) fors-arab. 1) janjalli; 2) janjalkash.

serjilva (سیر جلوه) fors-arab. jilvali, o'ynoqi.

sermahsul (سیر محصول) fors-arab. 1) mahsuli ko'p, g'oyat samarali, unumli, unumdor.

serma'no (سیر معنی) fors-arab. ma'no jihatdan boy, ma'noli.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| sermazmun | (سير مضمون) | fors-arab. mazmun jihatdan boy, chuqur mazmunli. |
| sermashaqqat | (سير مشقت) | fors-arab. mashaqqati ko'p, g'oyat mashaqqatli. |
| sermehmon | (سير مهمان) | fors. mehmoni ko'p, mehmonni ko'p chaqiradigan, uyidan mehmon arimaydigan, mehmondo'st. |
| sermehnat | (سير محنت) | fors-arab. 1) mehnati ko'p, ko'p mehnat talab qiladigan; 2) ko'p mehnat qiladigan, g'oyat mehnatkash. |
| sermeva | (سير ميوه) | fors. 1) mevasi ko'p, ko'p meva qiladigan; 2) meva daraxti ko'p, mevaga, meva daraxtiga boy. |
| sermol | (سير مال) | fors-arab. 1) moli, mol-dunyosi, sepi ko'p; 2) chorvasi, chorva moli ko'p; 3) moli, tovari ko'p. |
| sermulozamat | (سير ملازمت) | fors-arab. mulozamatni, takallufni yaxshi ko'radigan va o'rniga qo'yadigan, go'yat mulozamatli, sertakalluf. |
| sermo'y | ( سير موى ) | fors. 1) serjun; 2) tuki qalin, sertuk (gilam, gazmol va shu kabi). |
| sernam | (سير نم) | fors. nami ko'p, nami me'yoridan ortiq. |
| sernasl | (سير نسل) | fors-arab. nasli ko'p, ko'p tug'adigan, serpusht. |
| sernoz | (سير ناز) | fors. 1) nozi ko'p, noz-karashma qilaverishni yaxshi ko'radigan, g'oyat nozli; 2) tovlanib, tuslanib turadigan, rang-barang, go'zal. |
| serob | (سيراب) | fors. ko'p, mo'l-ko'l. |
| serohang | (سير آهنگ) | fors. ohang jihatdan boy, g'oyat ohangli, ohangdor. |
| serpardoz | (سير پرداز) | fors. 1) pardozi ko'p, pardoz-andozni juda yaxshi ko'radigan, o'ziga haddan ortiq pardoz berib yuradigan; 2) pardozi ko'p, ko'p pardoz berilgan, sernaqsh. |
| serpiyoz | (سير پياز) | fors. piyozi ko'p, serpiyoz. |
| serpul | (سير پول) | fors. puli ko'p, puldor. |
| serpusht | (سير پشت) | fors. tez urchiydigan, ko'p bola tug'adigan, tuxumni ko'p beradigan, sernasl. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

sersavlat (سير صولت) fors-arab. savlatli,juda basavlat.

sersoya (سير سايه) fors. soyasi ko'p, ko'p soya beradigan.

sertakalluf (سير تكلف) fors-arab. sermulozamat.

sertavoze' (سير تواضع) fors-arab. o'ta kamtar, tavozeli, sermulozamat, serta'zim.

serta'zim (سير تعظيم) fors-arab. tavozeli, serta'zim.

sertashvish (سير تشويش) fors-arab. 1) tashvishi ko'p, kishiga tashvish keltiradigan, g'oyat tashvishli, serg'alva, betinch; 2) g'am-tashvishi ko'p, tinib-tinchimas.

sertuxum (سير تخم) fors. 1) tuxumi ko'p, tuxum ko'p solingan; 2) ko'p tuxum qiladigan, tez urchiydigan, serpusht; 3) tez ko'payadigan, tug'adigan.

serzarda (سير زرده) fors. zardasi, jahli tez.

serzavq (سير ذوق) fors-arab. kishiga katta-zavq bag'ishlaydigan, g'oyat zavqli.

serg'ayrat (سير غيرت) fors-arab. g'ayratga to'lib-toshgan, g'ayrati ichiga sig'maydigan, juda ham g'ayratli.

sersharbat (سير شربت) fors-arab. sharbati, shirasi ko'p, sershira.

sershira (سير شيره) fors. sersharbatga qarang.

sershona (سير شانه) fors. shonasi ko'p, ko'p shonalagan yoki shonalaydigan.

sershox (سير شاخ) fors. shoxi ko'p, quyuq, shoxlab ketgan.

setor (سه تار) fors. uch torli, chertib chalinadigan, tambursimon musiqa asbobi.

seshanba (سه شنبه) fors. haftaning dushanbadan keyingi, ikkinchi kuni.

sifatdosh (صفت داش) arab-fors. predmetning belgi-sifatini belgilovchi fe'l formasi.

sim I. (سيم) fors. sim.

sim II. (سيم) fors. kumush, nuqra.

simbar (سيم بر) fors. sutdek oq, nozik badanli.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| simob | (سيماب) | fors. simob. |
| simobi | (سيمابی) | fors. simob rangidagi, kumushsimon oq, yaltiroq, kumush rang. |
| sim-sim | (سيم سيم) | fors. simillab, zirqirab, zirq-zirq. |
| sim-siyoh | (سيم سياه) | fors. qop-qora, tim qora, tim qorong'i. |
| sim tarosh | (سيم تراش) | fors. qashlag'ich. |
| sinfdosh I. | (صنف داش) | arab-fors. bir sinfga, ijtimoiy guruhga mansub kishilar (bir-biriga nisbatan). |
| sinfdosh II. | (صنف داش) | arab-fors. bir sinfda o'quvchi yoki o'qigan bolalar, kishilar (bir-biriga nisbatan). |
| sipar | (سپر) | fors. qalqon. |
| sipo | (سپا) | fors. juda ham oddiy, kamtar, kamsuqum, odmi. |
| sipoh | (سپاه) | fors. 1) xon, amir saroyida uzoq xizmat qilgan lavozimli kishi, amaldor; 2) jangchi, askar; 3) shahmat o'yinida: piyodadan katta donalar (fil, ot, ruh, farzin). |
| sipohi | (سپاهی) | fors. sipoh 1,2 ga qarang. |
| siporish | (سپارش) | fors. 1) topshiriq, vazifa; 2) e'zoz-ikrom, iltifot, mulozamat yoki xushomad. |
| sirdosh | (سرداش) | fors. bir-biriga sirini, ko'ngildagi dard, alam yoki orzu-niyatlarini ishonuvchi kishilar (bir-biriga nusbatan). |
| sirka | (سرکه) | fors. sirka. |
| sitam | (ستم) | fors. 1) jabr, jafo, zulm; 2) qahr-g'azab, zug'um, g'amza. |
| sitamdiyda | (ستم ديده) | fors. jabr-jafo chekkan, azob-uqubat tortgan, alamdiyda. |
| sitamgar | (ستم گر) | fors. 1) jabr-zulm qiluvchi, ezuvchi, zolim; 2) noz-istig'nolari, g'amzayu sitamlari bilan kuyduruvchi, ado qiluvchi. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| sitamkarda | (ستم کرده) | fors. sitamgarga qarang. |
| sitamkor | (ستمکار) | fors. sitamgarga qarang. |
| sitora | (ستاره) | fors. 1) yulduz; 2) ayollar ismi. |
| six | (سیخ) | fors. kabob pishirish uchun metalldan, ba'zan yog'ochdan tayyorlanadigan uchi nayza cho'p. |
| siyna | (سینه) | fors. 1) ko'krak, ko'ks; 2) dil, qalb, yurak; 3) quchoq, bag'r, og'ush. |
| siyoh I. | (سیاه) | fors. 1) qora, qora rangli; 2) hat yozish uchun ishlatiladigan rangli suyuqlik. |
| siyoh II. | (سیاه) | fors. avzo, turq, ko'rinish, siyoh. |
| siyohdon | (سیاهدان) | fors. siyoh quyib qo'yiladigan idish, siyohdon. |
| siyosatboz | (سیاست باز) | arab-fors. siyosatbozlikni yaxshi biladigan, tushunadigan odam. |
| soatsoz | (ساعت ساز) | arab-fors. soat yasovchi yoki tuzatuvchi usta. |
| sodda | (ساده) | fors. 1) tuzilishi, tarkibi jihatdan murakkab bo'lmagan, oddiy; 2) ortiqcha hasham, bezagi yo'q juda ham oddiy; 3) ortiqcha takalluf yoki quvlik-shumlikni bilmaydigan, oddiy, kamtar, soddadil. |
| soddadil | (ساده دل) | fors. quvlik-shumlikni bilmaydigan, ko'ngli ochiq, ko'ngli toza, sofdil. |
| sofdil | (صاف دل) | arab-fors. ko'nglida kiri, gidiri yo'q, dili, qalbi pok, sof, pokiza, halol. |
| sohibhunar | (صاحب هنر) | arab-fors. hunar egasi, hunarmand. |
| sohibkor | (صاحب کار) | arab-fors. o'z ishining ustasi, omilkor. |
| solnoma | (سالنامه) | fors. 1) yilnoma; 2) kalendar. |
| solor | (سالار) | fors. sarkarda, boshliq. |
| soltob | (سالتاب) | fors. yoshi katta, ancha yoshga borib qolgan, qartaya boshlagan. |
| somon | (سامان) | fors. somon. |
| somonxona | (سامان خانه) | fors. somon saqlanadigan joy, xona. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

sopol (سفال) fors. loydan yasab maxsus qo'rada pishirilgan, yasalgan.

sovungar (صابونگر) arab-fors. sovun ishlab chiqaruvchi kosib, hunarmand; 2) sovungarlik sanoati ishchisi.

soxt (ساخت) fors. tashqi ko'rinish, qiyofa.

soxta (ساخته) fors. 1) qalbakilik maqsadida asliga o'xshatib ishlangan, yasalgan, yasama, qalbaki; 2) yetarli asosga ega bo'lmagan, asossiz, puch; 3) samimiyatsizlik bilan shunchaki qilingan, nosamimiy, yuzaki, yasama, bo'yama.

soxtagar (ساخت گر) fors. soxtakorga qarang.

soxtakor (ساختكار) fors. qalbakilik, aldamchilik bilan ish tutuvchi.

soya (سايه) fors. soya, ko'lanka.

soyabon (سايه بان) fors. soyabon.

soyador (سايه دار) fors. soyali, soyasi ko'p.

soyaki (سايكى) fors. uzumning bir turi.

soyaparvar (سايه پرور) fors. 1) soyada o'sadigan, soyani yaxshi ko'radigan; 2) ishlamay, soya-salqin joylarda yotishni yaxshi ko'radigan, ishyoqmas, yalqov.

soz I. (ساز) fors. 1) yaxshi, tuzuk, durust, qulay; 2) sozlangan, sozi to'g'rilangan.

soz II. (ساز) fors. 1) milliy musiqa asboblarining (masalan dutor, tanbur, g'ijjak) umumiy nomi; 2) shunday musiqa asbobining yoki xonandalarning ovozi, sadosi, navosi.

soz III. (ساز) fors. qamish, qamishzor.

sozanda (سازنده) fors. musiqa chaluvchi, mashshoq, navozanda.

sutun (ستون) fors. ustun, sto'lba.

subhidam (صبحدم) arab-fors. erta tong payti, tong, subh.

sud (سود) fors. 1) foyda, naf; 2) sudxo'rlar tomondan qarzga berilgan pul evaziga olinadigan foiz.



www.ziyouz.com kutubxonasi

sudmand (سودمند) fors. foyda keltiradigan, foydali, nafli.

sudxo'r (سود خور) fors. 1) pul qarz berib, foizi, foydasi evaziga boylik orttiruvchi shaxs; 2) umuman foydaxo'r, ekspluatato'r.

suhbatdosh (صحبت داش) arab-fors. suhbatchi, hamsuhbat.

suhbatijon (صحبت جان) arab-fors. suhbati shirin, suhbatoro.

suhbatoro (صحبت آرا) arab-fors. suhbatijon.

suman (سمن) fors. yasmin, yosuman.

sumanbar (سمنبر) fors. gulandom, xushro'y, zebo.

suratkash (صورتکش) arab-fors. 1) surat chizuvchi, surat soluvchi, rassom; 2) fo'to'graf.

suratxona (صورت خانه) arab-fors. 1) fo'to'surat olinadigan ishxona, fo'to'grafiya; 2) rasmlar muzeyi, galereyasi.

surma (سرمه) fors. surma.

surmadon (سرمه دان) fors. surma solinadigan idish.

surmacho'p (سرمه چوپ) fors. surma qo'yadigan maxsus ingichka cho'p.

surnay (سورنای) arab-fors. surnay.

surx (سورخ) fors. yosh, yangi, surxun (novda haqida).

sust (سست) fors. 1) uncha kuchli, shiddatli bo'lmagan, sekin, past; 2) sekin ish qiladigan, imillagan, sustkash.

sustkash (شستکش) fors. sekin qimirlaydigan, imillab ish qiladigan, sust, lanj.

suvori (سواری) fors. 1) ot mingan kishi, otliq; 2) xalq kuylaridan birining nomi.

suxan (سخن) fors. so'z, gap, suhbat.

suxandon (سخن دان) fors. 1) gapga chechan, so'zamol, notiq; 2) badiiy so'z ustasi.

suxanvar (سخنور) fors. 1) suxandon; 2) ko'p gapiradigan, sergap; 3) shirin so'z, shirin suxan.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| suxanchin | (سخن چین) | fors. gap tashuvchi, birovning gapini birovga yetkazib yuruvchi, g'alamis, chaqimchi. |
| so'finamo | (صوفی نما) | arab-fors. so'figa o'xshagan, so'fi taxlitidagi. |
| so'fiyona | (صوفیانه) | arab-fors. 1) so'fiylik ruhidagi, so'fiylik ruhi bilan sug'orilgan; 2) sodda, xudojo'y odamlarga xos bo'lgan. |
| so'xta | (سوخته) | fors. pilikning kiygan qismi. |
| so'zak I. | (سوزک) | fors. siydik yo'llarining yallig'lanishidan iborat yuqumli tanosil kasalligi. |
| so'zak II. | (سوزک) | fors. qattiq sovqatish natijasida panja uchlarida seziladigan sanchiqli og'riq. |
| so'zan I. | (سوزن) | fors. etikdo'z kosiblar ish tikadigan maxsus igna. |
| so'zan II. | (سوزن) | fors. dukkaklilar oilasiga mansub, qumloq yerlarda o'sadigan buta o'simlik, akatsiyaning bir turi. |
| so'zana | (سوزنه) | fors. sidirg'a gazlamaga gul tikib tayyorlangan, devorga osiladigan bezak buyumi, gulko'rpa. |
| so'zanak I. | (سوزنک) | fors. ninachi. |
| so'zanak II. | (سوزنک) | fors. otning peshnobi. |
| so'zona | (سوزانه) | fors. kuygan, alamli. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# T

| | | |
|---|---|---|
| taalluqdor | (تعلق دار) | arab-fors 1)aloqador, daxldor; 2) biror narsa yoki kimsaga qarashli, tegishli, mansub; 3) xotinli, xotini bor, uylangan. |
| tab | (تب) | fors. taft, harorat. |
| tabar | (تبر) | fors. bolta. |
| tab band | (تب بند) | fors. tabgirga qarang. |
| tabgir | (تب گیر) | fors. 1) issiqni oladigan, isitmani tushiradigan; 2) ko'ngilni ko'taradigan, yurakdagi dardga malham bo'ladigan. |
| tabiatshunos | (طبیعت شناس) | arab-fors. tabiatni o'rganuvchi, tekshiruvchi kishi, tabiat olimi. |
| ta'birnova | (تعبیر نامه) | arab-fors. tushlar ta'biridan iborat kitob. |
| tabobatxona | (طبابت خانه) | arab-fors. shifoxona, kasalxona. |
| tabor | (تبار) | fors. birga ko'chib yuradigan lo'lilar to'dasi va ularning ko'ch-ko'roni, shuningdek ularning qo'ngan joyi. |
| tabriz | (تبریز) | fors. 1) O'zbekistonda o'sadigan uzum navlaridan biri; 2) Erondagi shahar nomi. |
| tadbirkor | (تدبیر کار) | arab-fors. tadbir bilan, puxta o'ylab ish qiladigan;. |
| taft | (تفت) | fors. taft, issiq, harorat. |
| tahoratxona | (طهارت خانه) | arab-fors. 1) tahorat olish, yuvinib poklanish uchun moslangan maxsus xona; 2) hojatxona, haloxona. |
| tahqiromuz | (تحقیر آمیز) | arab-fors. tahqir mazmunidagi, tahqir, haqorat ifodalaydigan. |
| tahqirona | (تحقیرانه) | arab-fors. tahqir bilan, tahqirli. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

tajovuzkor (تجاوز كار) arab-fors. tajovuz, bosqinchilik siyosatini qo'llovchi, bosqinchi, tajovuzkor.

tajovuzkorona (تجاوز كارانه) arab-fors. tajovuzkorlarcha, bosqinchilar singari.

tajribador (تجربه دار) arab-fors. tajribali, ko'p tajribaga ega bo'lgan.

tajribakor (تجربه كار) arab-fors. 1) tajribali; 2) tajriba o'tkazuvchi, tajriba bilan shug'ullanuvchi.

takabburona (تكبرانه) arab-fors. takabburlik bilan, kibrlanib, gerdayib, kekkayib.

takdo'zi (تكدوزى) fors. takdo'zi do'ppi - guldan tikilgan do'ppining bir turi, chamandagul do'ppi.

takkash (تك كش) fors. 1) otning qorni ostidan o'tkazib arava shotisiga bog'lanadigan enlik tasma, qorinbog'ich; 2) biror narsaning ostiga qo'yiladigan tayanchiq ostlik.

taklifnoma (تكليف نامه) arab-fors. taklifnoma, chaqiruv qog'ozi.

takyagoh (تكيه گاه) arab-fors. suyanchiq, madadkor, homiy.

takyaxona (تكيه خانه) arab-fors. 1) odamlar to'planib ulfatchilik qiladigan joy; 2) bangi va ko'knorilar to'planadigan joy, ko'knorixona.

talabgor (طلبكار) arab-fors. 1) talab qiluvchi, istovchi, xohlovchi, 2) o'z xohishi, istagi bilan biror vazifa yoki yumushni bajarishga otilib chiqqan kishi; 3) da'vogar.

talabnoma (طلب نامه) arab-fors. biror narsani talab qilib yozilgan xat, hujjat.

ta'limomuz (تعليم آميز) arab-fors. ta'lim mazmunidagi.

taloqnoma (طلاق نامه) arab-fors. taloq qilinganlik to'g'risida er tomonidan yozilgan maktub.

talx (تلخ) fors. kakra, taxir, achchiq.

tamagir (طمع گير) arab-fors. birovdan tama qilishga odatlangan, tama qiluvchi, ochko'z, g'arazgo'y.



www.ziyouz.com kutubxonasi

tamaki (تنباکو) fors. tamaki.

tamakidon (تنباکودان) fors. tamaki solib qo'yiladigan idish.

tamakifurush (تنباکو فروش) fors. tamaki savdosi bilan shug'ullanuvchi kishi.

tamakikor (تنباکو کار) fors. tamaki ekuvchi va yetishtiruvchi dehqon yoki xo'jalik.

tamakizor (تنباکو زار) fors. tamaki ekilgan yer, maydon, tamaki plantatsiyasi.

tamakishunos (تنباکوشناس) fors. tamakichilik mutaxassisi.

tan I. (تن) fors. 1) tana, gavda, jiussa; 2) kishining butun borlig'i, vujudi.

tan II. (تن) fors. 1) kimsaga tegishli qism, ulush yoki narsa; kimsaning zimmasidagi ish va shu k. 2)dastlabki baho, tannarx.

tana I. (تنه) fors. gavdaning bosh va qo'l-oyoqdan boshqa qismi. 2) kishi vujudining sirtqi qismi, badan. 3) kishining butun borlig'i, tani, vujudi. 4) daraxtning, o'simlikning tag, poya qismi.

tana II. (تنه) fors. bir-ikki yoshli urg'ochi buzoq.

tanakor (تنه کار) fors. 1) bo'r kislotasining natriyli tuzi. 2) birlashtiruvchi eng zarur narsa haqida.

ta'naomuz (طعنه آمیز) arab-fors. ta'nali, ta'na ohangida.

tanbal (تنبل) fors. dangasa, yalqov, ishyoqmas.

tanbur (تنبور) fors. uch yoki to'rt sim torli, noxun bilan chertib chalinadigan musiqa asbobi.

tandurust (تندرست) fors. badani sog'lom, baquvvat kishi.

tanfurush (تن فروش) fors. erkaklar bilan jinsiy aloqa hisobiga kun ko'radigan buzuq xotin, fohisha, g'ar.

tang (تنگ) fors. 1) oralig'i, eni, hajmi yetarlicha katta bo'lmagan, tor, 2) qutulish, hal qilish yoki ilojini, davosini topish juda qiyin bo'lgan, g'oyat og'ir, mushkul, nochor.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| tanga | (تنگه) | fors. tanga, pul. |
| tanho | (تنها) | fors. yakka, yolg'iz, tanho. |
| tan-jon | (تن و جان) | fors. kishining butun borlig'i, joni, tani, vujudi. |
| tannarx | (تن نرخ) | fors. mahsulotning ish haqi va ishlab chiqarish xarajatlaridan iborat o'z narxi. |
| tanqidboz | (تنقيد باز) | arab-fors. bo'lar - bo'lmasga tanqid qilishni, hamma narsadan kamchilik izlashni yaxshi ko'radigan odam. |
| tantanaboz | (طنطنه باز) | arab-fors. tantanani, as'asa-dabdabani yaxshi ko'radigan, quruq tantanalarga berilgan, dabdababoz. |
| tantanavor | (طنطنه وار) | arab-fors. tantanali, dabdabali, shodiyona, dang'illama. |
| taqdimnoma | (تقديم نامه) | arab-fors. taqdim, tavsiya mazmunidagi yozma hujjat, tavsiyanoma. |
| taqdirnoma | (تقدير نامه) | arab-fors. taqdirlash haqidagi hujjat, maqtov qog'ozi. |
| tar | (تر) | fors. ho'l, nam, suvli. |
| tarafdor | (طرفدار) | arab-fors. tarafdor, himoyachi, yoqlovchi. |
| tarafkash | (طرفكش) | arab-fors. 1) biror tomonning tarafini oluvchi, tarafdor; 2) qarshi chiquvchi, kurashuvchi, bellashuvchi, talabgor; 3) taraf-bataraf bo'lib kurashuvchi, guruhboz. |
| tarash | (تراش) | fors. kesish, yo'nish, tarashlash. |
| tarasha | (تراشه) | fors. 1) yorib maydalangan o'tin; 2) quruq, qattiq narsa yoki qotma odam haqida. |
| taraqqiyparvar | (ترقى پرور) | arab-fors. taraqqiyot tarafdori, taraqqiyot uchun, jamiyatning olg'a qarab yuksalishi uchun kurashuvchi. |
| tarixnavis | (تاريخ نويس) | arab-fors. tarixni yozib boruvchi, solnomachi. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| tarixshunos | (تاریخ شناس) | arab-fors. tarixchi, tarix ilmi bilan shug'ullanuvchi olim. |
| tarjimashunos | (ترجمه شناس) | arab-fors. tarjima nazariyasini, uning qonun-qoidalarini o'rganuvchi mutaxassis, olim. |
| tark | (ترک) | fors. bukilgan, qaytarilgan joy, tax. |
| tarkash | (ترکش) | fors. teri yoki yog'ochdan yasalgan piyola yoki kosa g'ilofi. |
| tarnov | (ترناو) | fors. suv, suyuqlik oqib o'tishi uchun metall yoki yog'ochdan yasalgan nov. |
| tarnovcho'p | (ترناوچوب) | fors. tizzaga qo'yib ustida chok tikiladigan tarnovchasimon kosibchilik asbobi. |
| tarona | (ترانه) | fors. 1) kuy, ohang; 2) Shashmaqomda musiqa asarining bir qismi. |
| tarozi | (ترازو) | fors. tarozi, og'irlik o'lchash asbobi. |
| tarozibon | (ترازو بان) | fors. tarozida tortuvchi, tarozida tortish ishini bajaruvchi. |
| tarsaki | (ترسکی) | fors. shapaloq, tarsaki. |
| tarso | (ترسا) | fors. g'ayridin, kofir. |
| tasma | (تسمه) | fors. 1) uzun, ensiz teri;2) qayish, kamar; 3) yo'l, iz. |
| tavongar | (توانگر) | fors. badavlat, davlatmand, serpul, boy. |
| tavono | (توانا) | fors. zabardast, baquvvat, sog'lom. |
| tavr I. | (تور) | fors. belgi, tamg'a. |
| tavr II. | (تور) | fors. singari, kabi, xilda, tarzda. |
| tavr III. | (تور) | fors. hol, ahvol. |
| tavsifnoma | (توصیف نامه) | arab-fors. biror kishining sifatlari bayon qilingan hujjat, tavsifnoma. |
| tavsiyanoma | (توصیه نامه) | arab-fors. yozma tavsiya, maslahat. |
| taxt I. | (تخت) | fors. 1) xon va amir o'tirishi uchun saroy to'riga o'rnatilgan, maxsus bezatib ishlangan joy, hashamatdor o'rindiq; 2) davlat, boylik, mol-mulk. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| taxt II. | (تخت) | fors. foydalanish yoki ishlatish uchun tayyor, shay, muhayyo. |
| taxta | (تخته) | fors. taxta. |
| taxtaband | (تخته بند) | fors. taxta qoqilgan, taxta bilan qurshalgan, ajratilgan. |
| taxti-baxt | (تخت بخت) | fors. boylik, davlat. |
| taxtiravon | (تخت روان) | fors. 1) Sharq mamlakatlari va janubiy Amerikada: oliy martabali shaxslar o'tqazilib, yelkada olib yuriladigan, usti berk hashamdor zambar; 2) ravon, tekis (yo'l haqida). |
| ta'zimkor | (تعظيم كار) | arab-fors. sertavoze, serta'zim. |
| ta'ziyanoma | (تعزيه نامه) | arab-fors. kimsaning vafoti haqidagi yozma xabar. |
| ta'ziyaxona | (تعزيه خانه) | arab-fors. motam marosimlari o'tkazilayotgan xonadon, uy, hovli. |
| tashabbuskor | (تشبث كار) | arab-fors. biror ishni, tashabbusni boshlab beruvchi, boshlovchi. |
| tashakkurnoma | (تشكر نامه) | arab-fors. yaxshi xizmatni, ishni taqdirlab berilgan yozma tashakkur, taqdirnoma. |
| tashna | (تشنه) | fors. 1) suvga zor, suvsagan, chanqagan, suvsoq, chanqoq; 2) biror narsaga zor, biror narsa talab, qiluvchi, istovchi. |
| tashrifnoma | (تشريف نامه) | arab-fors. biror marosim, to'y, tantanaga taklif qilib berilgan yozma da'vat, taklifnoma. |
| tashvishmand | (تشويش مند) | arab-fors. boshiga biror tashvish tushgan, tashvish tortayotgan. |
| tashvishnok | (تشويش ناك) | arab-fors. tashvishli, g'amli, g'amnok. |
| tez | (تيز) | fors. 1) oradan ko'p vaqt o'tmasdan, oz vaqt ichida, darrov; 2) katta sur'at bilan, shahdam, jadal; 3) tutilmasdan, to'xtamasdan, qiynalmasdan, ravon; 4) darrov achchiqlanib, qizishib ketadigan, serjahl, jizzaki. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| tezak | (تیزک) | fors. 1) hayvon yoki qush axlati, go'ng; 2) qurigan yoki yoqish uchun maxsus quritilgan go'ng. |
| tezakxona | (تیزک خانه) | fors. tezak saqlanadigan yopiq joy, saroyxona. |
| tezgir | (تیز گیر) | fors. ovni tez oladigan, olg'ir. |
| tezkor | (تیز کار) | fors. tez ishlaydigan, ishni tez, chaqqon bajaradigan. |
| tezob | (تیزاب) | fors. 1) tez oqadigan, tezoqar; 2) turli texno'lo'gik jarayonlarda tozalash, oqlash, oshlash va shu kabi maqsadda ishlatiladigan moddalarning umumiy nomi. |
| tezpazak | (تیز پزک) | fors. tezpishar. |
| tez-tez | (تیز تیز) | fors. 1) tezlik bilan, jadal, ildam; 2) ko'p vaqt ajratmay, bot-bot, o'qtin-o'qtin. |
| tesha | (تیشه) | fors. 1) tesha, chopish quroli; 2) erkaklar ismi. |
| tijoratxona | (تجارت خانه) | arab-fors. ulgurji savdo ishlari amalga oshiriladigan bino. |
| tillado'z | (طلا دوز) | fors. zardo'z. |
| tillado'zi | (طلا دوزی) | fors. zardo'zi. |
| tillakor(i) | (طلا کار(ی)) | fors. tilla bilan bezatilgan. |
| timbon | (تیمبان) | fors. tim soqchisi, bozor qorovuli. |
| tir | (تیر) | fors. o'q, kamon o'qi. |
| tirandoz | (تیر انداز) | fors. kamondan o'q otuvchi, kamonkash. |
| tirband | (تیر بند) | fors. kishi yoki narsalar bilan liq to'lgan, butunlay band, bo'sh joy yo'q. |
| tiyra | (تیره) | fors. qora, qorong'i. |
| tig' | (تیغ) | fors. 1) qilich, xanjar, pichoq, nayza kabi sovuq qurollarning umumiy nomi; 2) kesuvchi asbob, qurol-yaroqning keskin qirrasi, dami; 3) stvo'l, mil; 4) ish, faoliyat, asar, maqola. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| tig'a | (تیغه) | fors. 1) osmonning kuzatuvchi tepasidagi eng baland nuqtasi;2) quyosh harorati, quyosh nuri ko'p yog'ilib, qizdirib turgan joy. |
| tig'dor | (تیغدار) | fors. 1) kesadigan, tig'li; 2) o'tkir, achchiq. |
| to | (تا) | fors. to, gacha. |
| tob I. | (تاب) | fors. 1) *kishi organizmining mo'tadil holati*, sog'lik; 2) yetilganlik darajasi yoki payti; 3) xonish, rag'bat; 4) chidam, bardosh, toqat. |
| tob II. | (تاب) | fors. payt, fursat, on. |
| tobakay | (تابکی) | fors. tokay, qachongacha. |
| tabgir | (تابگیر) | fors. uloqchi, poygachi otni tobga keltiruvchi va otning tobga kelganlik darajasini aniqlovchi mutaxassis. |
| tobon | (تابان) | fors. yorqin, nurli, porloq. |
| tobutkash | (تابوت کش) | arab-fors. 1) birga tobut ko'taruvchilarning har biri; 2) yaxshi-yomon kunlarda bir-biriga yordamlashuvchi bir yerli kishilar. |
| tobutsoz | (تابوت ساز) | arab-fors. tobut yasovchi usta, tobutchi. |
| tobutxona | (تابوت خانه) | arab-fors. masjid huzuridagi tobut saqlanadigan joy. |
| toinki | (تا اینکه) | fors. 1) toki; 2) hatto, ga dovur. |
| toj | (تاج) | fors. toj. |
| tojdor | (تاجدار) | fors. 1) toj-taxt sohibi, toj kiygan, podsho; 2) boshida toji, o'simtasi bo'lgan, tojli. |
| tok | (تاک) | fors. uzum o'simligi. |
| tokay | (تا کی) | fors. qachongacha, qay vaqtgacha. |
| tokbur | (تاک بر) | fors. 1) tok kesuvchi mutaxassis, bog'bon; 2) tok kesadigan maxsus qaychi, tok qaychi. |
| toki | (تا کی) | fors. to, toki. |
| tokzor | (تاکزار) | fors. nuqul tok o'simligi bilan band yer, maydon, bog'. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

tole'mand (طالع مند) arab-fors. toleli, baxtli.

tomoshabin (تماشا بین) arab-fors. 1) biror tomoshani ko'rish uchun kelgan kishi; 2) biror ishga loqaydlik bilan chetdan qarab kuzatib turuvchi odam.

tomoshaxona (تماشا خانه) arab-fors. tomosha ko'rsatadigan joy, tomosha muassasi (teatr, kino, sirk va shu k.).

tor (تار) fors. rubobga o'xshash sim torli xalq musiqa asbobi.

tor-mor (تار - مار) fors. tor-mor bo'lmoq - qaqshatqich zarbaga uchrab yo'q bo'lmoq, mahv bo'lmoq, yer bilan yakson bo'lmoq.

toroj (تاراج) fors. toroj qilmoq (yoki etmoq), talamoq, talab ketmoq, talon-taroj qilmoq.

tova (تابه) fors. tova, ovqat pishiradigan idish.

tovon (تاوان) fors. keltirilgan zararni qoplash uchun to'lanadigan yoki olinadigan haq.

tovondor (تاوان دار) fors. yetkazilgan zarar uchun tovon to'lovchi, to'lovdor.

toza (تازه) fors. 1) kir, changdan xoli, ozoda, pokiza; 2) aralashmalardan xoli, sof, asil; 3) dog' tushmagan, bulg'anmagan, sof, pok; 4) juda ham, rosa.

tozi I. (تازی) fors. oyoqlari ingichka, tumshug'i uzun, xipcha, yugurik ov iti; 2) chopqir ot, tulpor.

tozi II. (تازی) fors. 1) toy, arab qabilasiga mansub; 2) arab, arab ahli; 3) arab tili.

tuman (تومان) fors. Eron pul birligi.

tund (تند) fors. ko'p gapiravermaydigan, indamas, kamgap, kamsuxan; 2) muomalasi sovuq, qo'pol, qo'rs; 3) ko'rinishi, chehrasi sovuq, badchehra, badqovoq.

turkigo'y (ترکی گوی) turk-fors. turkiy tilda o'quvchi va yozuvchi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

turp (ترب) fors. turp.

turptarash (ترب تراش) fors. sabzi, turp, oshqovoq qirish uchun xizmat qiladigan metal asbob, qirg'ich.

turush (ترش) fors. 1) achitish, oshirish yoki ko'pchitish uchun ishlatiladigan vosita; 2) nordon, qimizak.

turshak (ترشک) fors. danagi bilan quritilgan o'rik.

tut (توت) fors. tut mevasi va daraxti.

tutak (توتک) fors. paxtadan qo'lda ip yigirishda ishlatiladigan qovoq naycha.

tutzor (توت زار) fors. nuqul tut bilan band yer, maydon.

tuxmak I. (تخمک) fors. ko'zga qon quyilishi, ko'zning qizarishi bilan bog'liq kasallik.

tuxmak II. (تخمک) fors. vohalarda o'sadigan sariq gulli o'simlik.

tuxum (تخم) fors. 1) tuxum, yumurtqa; 2) jinsiy hujayra; 3) urug'; 4) nasl, avlod, zurriyot.

tuxumdon (تخم دان) fors. ayollarda, urg'ochi hayvonlarda va jonivorlarda tuxum hujayrasi hosil bo'ladigan, juft holdagi jinsiy bez, onalik bezi.

tuxumxo'r (تخم خور) fors. 1) tuxum yeyishni yaxshi ko'radigan; 2) o'z tuxumlarini boshqa hasharotlarning tuxumlari ichiga qo'yadigan hasharot, urug'xo'r.

to'da (توده) fors. bir yerga to'plab qo'yilgan narsa, uyum, to'plam; 2) bir yerga to'plangan kishilar yoki hayvon, qush kabilar; 3) biror maqsad bilan uyushgan kishilar guruhi.

to'daboz (توده باز) fors. guruhboz.

to'dakash (توده کش) fors. to'dadan chaqqonlik bilan ayrilib, tez o'zadigan abjir, kuchli uloqchi ot.

to'da-to'da (توده توده) fors. bir necha to'dadan iborat bo'lgan.

to'p I. (توپ) fors. 1) koptok; 2) zambarak.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| to'p II. | (توپ) | fors. 1) to'da, guruh; 2) korxonada o'ralgan, hali buzilmagan o'lchovli gazmol. |
| to'pxona | (توپخانه) | fors. to'plar, qurol-aslahalar saqlanadigan joy, to'pxona. |
| to'pchi | (توپچی) | fors-turk. to'pchi, to'p otuvchi. |
| to'r | (تور) | fors. 1) katak-katak ko'zli gazmol; 2) baliq tutadigan yoki qush ovlaydigan setka shaklidagi asbob. |
| to'ti | (طوطی) | fors. 1) to'ti qushi; 2) juda go'zal, nozanin ayol haqida; 3) ayollar ismi. |
| to'shak | (توشک) | turk. to'shak, ko'rpacha, poyondoz. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# U

| | | |
|---|---|---|
| uddaburo | (عهده برا) | arab-fors. epchil, abjir, tadbirkor. |
| ulfatijon | (الفت جان) | arab-fors. suhbati shirin, xushchaqchaq, suhbat, o'tirishni qizitadigan kimsa. |
| umid | (امید) | fors. 1) biror istakning amalga oshishiga bo'lgan ishonch, e'timod; 2) orzu, istak, niyat, maqsad; 3) erkaklar ismi. |
| umidbaxsh | (امید بخش) | fors. kishida ishonch va umid hosil qiladigan, kelajakka umid, ishonch bilan qarashga undaydigan, umid bag'ishlovchi. |
| umidvor | (امیدوار) | fors. umid, orzu ifodalovchi, umidli. |
| umrbod | (عمر باد) | arab-fors. 1) hayotning oxirigacha, o'lganga qadar, o'lguncha; 2) hamma vaqt, mangu, abadiy. |
| umrdosh | (عمر داش) | arab-fors. umr yo'ldoshi. |
| ustaxona | (استاد خانه) | fors. ustaxona. |
| ustodona | (استادانه) | fors. ustodlarga o'xshash, ustodlarga xos. |
| ustun | (استون) | fors. ustun. |
| ustuvor | (استوار) | fors. mustahkam, mahkam, buzilmas. |
| ustuxon | (استخوان) | fors. suyak, ustuxon. |
| uzlatnishin | (عزلت نشین) | arab-fors. kishilardan uzoqda, yakka holda yashovchi, go'shanishin. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# V

va'daboz (وعده باز) arab-fors. quruq va'dalar beradigan, va'dabozlikni yaxshi ko'radigan.

vafodor (وفادار) arab-fors. o'z ahd-paymonini muqaddas tutuvchu, so'zida, va'dasida qat'iy turuvchi, sodiq.

vahmak (وهمک) arab-fors. 1) vahimachi; 2) qurtlarning tanasiga tuxum qo'yuvchi hasharot.

vaholanki (و حال آنكه) arab-fors. holbuki.

vahshiyona (وحشيانه) arab-fors. 1) vahshiylarcha, yirtqichlarcha, yovuzlarcha; 2) yovvoyi, jaholatparast kishilarga xos ravishda, yovvoyilarcha, nodonlarcha.

vakolatnoma (وكالت نامه) arab-fors. 1) ishonch qog'ozi, tilxat; 2) vakillik huquqini beruvchi hujjat, ishonch yorlig'i.

vakolatxona (وكالت خانه) arab-fors. biror davlat tomonidan o'zga davlatda ta'sis etilgan va uning manfaatlarini ko'zlab ish ko'radigan muassasa.

vaqfnoma (وقف نامه) arab-fors. mol-mulk yoki daromadni vaqf tariqasida diniy muassasa ixtiyoriga o'tkazish to'g'risidagi hujjat.

vaqfxo'r (وقف خور) arab-fors. vaqf daromadidan foydalanuvchi yoki vaqf mablag'i hisobiga yashovchi talaba.

vasiyatnoma (وصيت نامه) arab-fors. yozma vasiyat, vasiyat matni yozilgan qog'oz, hujjat.

vatandosh (وطن داش) arab-fors. vatani bir, bir mamlakatda tug'ilib o'sgan kishilar (bir-biriga nisbatan).

vatanfurush (وطن فروش) arab-fors. o'z vatanini, xalqini sotuvchi, o'z vataniga, xalqiga xiyonat qiluvchi, sotqin, xoin.



www.ziyouz.com kutubxonasi

vatangado (وطن گدا) arab-fors. vatandan kechib o'zga ellarda darbadar yuruvchi, qochqin.

vatanparast (وطن پرست) arab-fors. vatanni himoya qiluvchi, vatani uchun jonini ham fido qiluvchi.

vatanparvar (وطن پرور) arab-fors. o'z vatani, xalqini cheksiz sevuvchi, vatan manfaatlari uchun jonbozlik ko'rsatuvchi.

vayron (ويران) fors. 1) tamomila buzilib ketgan, yer bilan yakson bo'lgan, xarobaga aylangan; 2) qattiq ozor tortgan, g'am-g'ussaga botgan, shikasta (ko'ngil haqida).

vayrona (ويرانه) fors. 1) vayron-talqon bo'lgan joy, xaroba; 2) vayron.

vayronazor (ويرانه زار) fors. vayronazor, xarobazor.

vayronkor (ويران كار) fors. 1) vayron qiluvchi, xarob qiluvchi; 2) ishni buzuvchi, oraga sovuqchilik soluvchi.

vazifador (وظيفه دار) arab-fors. 1) mansabdor, amaldor; 2) ma'lum miqdorda maosh, pul olib turuvchi.

vazndor (وزن دار) arab-fors. vaznli.

vobasta (وابسته) fors. bir-biriga bog'liq, mos, muvofiq, uyg'un.

vodarig'o (وا دريغا) fors. afsus-pushaymon, oh-vohni ifodalaydi.

vofurush (وا فروش) fors. oyoq kiyimlari bilan savdo qiluvchi do'kondor.

voqeanavis (واقعه نويس) arab-fors. 1) voqealikda yuz bergan haqiqiy hodisalarni aks ettiruvchi yozuvchi; 2) rasmiy yo'l bilan qo'yilgan maxfiy josus, maxfiy kuzatuvchi, ayg'oqchi, josus.



www.ziyouz.com kutubxonasi

# X

xabardor (خبردار) arab-fors. 1) xabari bor, voqif; 2) biror soha bo'yicha muayyan ma'lumotga ega, shu sohani biladigan, omilkor.

xabarnoma (خبرنامه) arab-fors. buror narsa, voqea haqida xabar beruvchi hujjat, chaqiruv qog'ozi.

xafa (خفه) fors. 1) g'amli, qayg'uli, hasratli; 2) ranjigan, ozor topgan, bezgan, arazlagan.

xafagazak (خفه گزک) fors. 1) yallig'lanish, gazak olish (yara haqida); 2) xafa.

xafahol (خفه حال) fors-arab. xafa bo'lgan, ruhi tushgan, ma'yus.

xafaomuz (خفه آميز) fors. xafa bo'lgan singari, ma'yuslik bilan.

xalacho'p (خلاچوب) arab-fors. eshak, tuya kabi hayvonlarni niqtab tezroq yurgizish uchun ishlatiladigan uchli tayoqcha.

xalojoy (خلا جاى) arab-fors. hojatxona.

xaloskor (خلاصكار) arab-fors. xalos qiluvchi, ozod qiluvchi, qutqaruvchi.

xaloxona (خلا خانه) arab-fors. hojatxona.

xalqaro (خلق آرا) arab-fors. 1) xalqlar yoki mamlakatlar o'rtasidagi munosabatga doir; 2) xalqlar o'rtasida mavjud bo'lgan, xalqlarga oid, xalqaro; 3) kishilar o'rtasida, xalq ichida.

xalqona (خلقانه) arab-fors. ko'pchilikka, xalqqa xos, oddiy kishilar, xalq ishlatadigan, xalq sevadigan.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| xalqparvar | (خلق پرور) | arab-fors. xalqqa g'amxo'rlik qiladigan, xalq manfaatlarini ko'zlaydigan, xalqni sevadigan. |
| xam | (خم) | fors. pastga egilgan, quyi solingan. |
| xamak | (خامک) | fors. hali pishib ulgurmagan xom qovun, sapcha. |
| xamirgir | (خمیر گیر) | fors. xamir qoruvchi kishi, ishchi, mutaxassis. |
| xamirturush | (خمیر ترش) | fors. 1) xamirni oshirish uchun ishlatiladigan achitqi; 2) o'g'it, go'ng; 3) biror narsaning boshlanishi, yuzaga kelishi yoki amalga oshishi uchun asos yoki dastak bo'ladigan omil, poydevor. |
| xamsanavis | (خمسه نویس) | arab-fors. xamsa yozuvchi shoir. |
| xanda | (خنده) | fors. kulgi, tabassum. |
| xandon | (خندان) | fors. sho'xlik bilan kuluvchi, kulib turuvchi. |
| xandon-xushon | (خندان خویشان) | fors. kuladigan va boshqalarni kuldiradigan, sho'x, xushchaqchaq. |
| xar | (خر) | fors. eshak. |
| xarak | (خرک) | fors. 1) dutor, tanbur kabi cholg'u asboblarinig ipi yoki simlarini ko'tarib turish uchun ishlatiladigan tirgak, eshak; 2) skameyka. |
| xargo'sh | (خرگوش) | fors. quyon yili, quyon. |
| xarid | (خرید) | fors. sotib olish, xarid qilish. |
| xaridor | (خریدار) | fors. 1) xarid qiluvchi, sotib oluvchi; 2) birovga (odatda biror qiz yoki ayolga) ko'ngil qo'ygan kishi, xushtor. |
| xaridorbop | (خریدار باپ) | fors. xaridorgirga qarang. |
| xaridorgir | (خریدارگیر) | fors. xaridorlarning didiga, talabiga mos, tez sotilib ketadigan (tovar haqida). |
| xarish | (خارش) | fors. 1) ko'pincha uy hayvonlarida bo'ladigan teri kasalligi, quruq qichima; 2) xarish kasaliga, qichimaga muftalo bo'lgan, har narsaga surkalaverib junlari tushib ketgan, qirchang'i. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

xarobazor (خرابه زار) arab-fors. qarovsiz qolgan, xarob bo'lgan uylar, vayronalar, qishloq yoki shaharning qoldig'i.

xarsang (خرسنگ) fors. katta tabiiy tosh.

xarxasha (خرخشه) fors. 1) arzimagan narsa uchun qilinadigan janjal, mashmasha, injiqlik; 2) biror ishni bajarishdagi qiynalish, qiyinchilik, tashvish, daxmaza; 3) noz, istig'no.

xas (خس) fors. 1) quruq o'simlik poyasi, xashak, cho'p; 2) quritilgan o't-o'simliklar, xashak.

xasak (خسک) fors. 1) xashaki; 2) nasli past, noma'lum.

xasaki (خسکی) fors. 1) xashaki; 2) nasli past, noma'lum.

xaskash (خسکش) fors. xashak, xas-cho'p va shu k. larni yig'ish uchun ishlatiladigan uzun dastali, ko'p tishli qurol.

xasmol (خسمال) fors. ko'pincha barmoqda suyakni yorib kuchli og'riq bilan chiqadigan yomon yara, chiqiq.

xaspo'sh (خس پوش) fors. xato va kamchiliklarni birovga bildirmaslik, fosh qilmaslik uchun ularni yashirishga urinish.

xasta (خسته) fors. 1) biror kasallikka chalingan, kasal, kasalmand; 2) qiynalgan, azoblangan, dardli.

xastadil (خسته دل) fors. azob-uqubat chekkan, ruhan ezilgan, qayg'u-xasratli.

xastaxona (خسته خانه) fors. kasalxona, shifoxona.

xas-xashak (خس خاشاک) fors. turli o't-xashak.

xas-cho'p (خس چوپ) fors. turli xas va o'tin-cho'p.

xatarnok (خطرناک) arab-fors. xatarli, xavfli, tahlikali.

xatkash (خط کش) arab-fors. 1) xat yozib beruvchi, mirza; 2) chiziq, yo'l hosil qiladigan qishloq xo'jalik asbobi, marker.

xatparast (خط پرست) arab-fors. xat yozishni yaxshi ko'radigan, ko'p xat yozadigan.

xatcho'p (خط چوپ) arab-fors. o'qilayotgan betni keyin oson topish uchun kitob ichiga solib qo'yiladigan rang-barang



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| | | ipak o'ralgan maxsus uzun cho'p yoki bir parcha qog'oz, lenta. |
| xavotirona | (خواطرانه) | arab-fors. xavotirlanib, xavfsirab, qo'rqa-pisa. |
| xayolkash | (خيال كش) | arab-fors. xayolparast. |
| xayolparast | (خيال پرست) | arab-fors. xayol surishni yaxshi ko'radigan, xayol suruvchi, xayolga beriluvchi, xayolchan. |
| xayolxona | (خيال خانه) | arab-fors. bosh, miya. |
| xayrixoh | (خيرخواه) | arab-fors. yaxshilik qilishni istaydigan, qo'llab-quvvatlaydigan, iltifotli. |
| xayrixohona | (خير خواهانه) | arab-fors. xayrixohlik bilan qilinadigan,qo'llab-quvvatlaydigan, iltifotli. |
| xazanak | (خزانک) | fors. kuzda yig'ishtirib olingan hosilning qoldig'i (poliz ekinlari, olma, uzum va shu kabi haqida). |
| xazinabon | (خزينه بان) | arab-fors. 1) xazinachi; 2) tabiat boyliklarini topib, uni xalq irodasiga bo'y'sunduruvchi kishi. |
| xazinador | (خزينه دار) | arab-fors. xazinachi. |
| xazinaxona | (خزينه خانه) | arab-fors. xazina. |
| xazon | (خزان) | fors. kuzda sarg'ayib to'kila boshlagan barglar. |
| xazonmarg | (خزان مرگ) | fors. juvonmarg, yosh o'lgan, avji yetilgan paytida halok bo'lgan. |
| xazonrez | (خزان ريز) | fors. xazonrez shamol - kech kuzda barg va xazonlarni uchiradigan sovuq shamol. |
| xazonchinak | (خزان چينک) | fors. xazanakka qarang. |
| xashak | (خاشاک) | fors. qurigan o't-o'lan, pichan. |
| xashaki | (خاشاکی) | fors. 1) chorva uchun ozuqa, yem-xashak bo'ladigan; 2) past zotli, zotsiz, jaydari, mahalliy; 3) oddiy, sodda (odam haqida). |
| xashakxona | (خاشاک خانه) | fors. xashak, pichan saqlanadigan joy. |
| xez | (خيز) | fors. sapchimoq, sakramoq, tashlanmoq. |
| xesh | (خويش) | fors. qarindosh, qarindosh-urug', qavm-qarindosh, yaqin odam. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

xesh-aqrabo (خویش اقربا) fors-arab. qarindosh urug'lar, urug'-aymoqlar, qavm-qarindosh, yaqin kishilar.

xijolatomuz (خجالت آمیز) arab-fors. xijolat bo'lgan holda, xijolat bo'lib, xijolat tortib.

xilvatgoh (خلوتگاه) arab-fors. xilvat joy, ovloq joy, chet joy.

xilvatnishin (خلوت نشین) arab-fors. xilvatda yashashni sevadigan, xilvatda yakka-yolg'iz yashaydigan odam.

xilvatxona (خلوت خانه) arab-fors. xilvat yoki ovloq joydagi uy, bino.

xilxona (خلخانه) arab-fors. qabristonning biror urug' - avlodga yoki mahallaga, o'ziga qarashli marhumni dafn etish uchun ajratilgan bir bo'lagi, bir qismi.

xira (خیره) fors. 1) shaffof emas, ravshan yoki tiniq emas, kir; 2) yarqirab ko'rinmaydigan, kirga yoki eskiga o'xshab ko'rinadigan; 3) aniq emas, nimaligin ajratib bo'lmaydigan, yaxshi ko'rinmaydigan; 4) yahshi yoritmaydigan, kuchsiz, zaif; 5) yaxshi ko'rolmaydigan, ko'rish qobiliyati past; 6) jaranglab chiqmaydigan xirillagan, xasta (ovoz haqida); 7) aniq bo'lmagan, aniq ifodalanmagan, noaniq, chigal; 8) kishini xursand qilmaydigan, ko'ngil to'lmaydigan, kamchiligi bor, nomatlub; 9) g'ashga tegadigan, shilqim, sur.

xirad (خرد) fors. aql, zakovat, donolik.

xiradmand (خردمند) fors. aqlli, aql-zakovatli, dono.

xiraxandon (خیره خندان) fors. o'z xursandchiligi uchun boshqalarga ozor beradigan, shilqim, bezori.

xirgoyi (خیرگاهی) arab-fors. past ovoz bilan aytiladigan ashula.

xirmon (خرمن) fors. 1) daladagi hosilni to'plash va tozalash uchun ajratilgan joy, maydoncha; 2) shunday joyda yanchish, tozalash yoki quritish uchun keltirilgan mahsulot (g'alla, paxta va shu. k).

xirom (خرام) fors. chiroyli yurish, noz-tamanno bilan qadam bosish.



www.ziyouz.com kutubxonasi

xiromon (خرامان) fors. 1) chiroyli yurish, noz-tamanno bilan qadam bosadigan; 2) bir-bir bosib, savlat to'kib, xotirjamlik bilan, bemalol.

xirqapo'sh (خرقه پوش) arab-fors. 1) janda kiygan, darveshchilik qiluvchi; 2) yengil-yupun kiyingan, faqir, kambag'al, tilanchi, gadoy.

xirs (خرس) fors. ayiq.

xitobnoma (خطاب نامه) arab-fors. yozma chaqiriq, murojaatnoma.

xiyli (خیلی) fors. xiyla, ko'p, ancha.

xiyobon (خیابان) fors. 1) katta, keng ko'cha; 2) ikki tomoniga qator daraxt, buta va gullar o'tqazilgan yo'l yoki yo'lka.

xiyonatgar (خیانت گر) arab-fors. xiyonatchi, aldoqchi, muttaham.

xiyonatkor (خیانتکار) arab-fors. xiyonatchi, aldoqchi, muttaham.

xiyonatkorona (خیانتکارانه) arab-fors. xiyonatchilarga xos, xiyonatkorlarcha.

xizmatdosh (خدمت داش) arab-fors. birga xizmat qiladigan kishilar, (bir-birlariga nisbatan), hamkasb.

xizmatkash (خدمت کش) arab-fors. 1) xizmatkor; 2) ishdan qochmaydigan, ishchan, mehnatkash.

xizmatkor (خدمتکار) arab-fors. 1) kishilarning shaxsiy xizmatini, uy ishini qiluvchi kishi; 2) xalq yoki jamiyat manfaati uchun xizmat qiluvchi.

xizmatkorona (خدمتکارانه) arab-fors. boylarning xizmatkor, malay yoki qarollari yashaydigan maxsus uy.

xizmatona (خدمتانه) arab-fors. xizmat uchun to'lanadigan haq.

xob (خواب) fors. 1) tush; 2) uyqu.

xobgoh (خوابگاه) fors. uxlaydigan xona, yotoqxona.

xodimgar (خادم گر) arab-fors. xodimilik qiluvchi kishi.

xodimi (خادمی) arab-fors. xodimi qilmoq - birovni ishqalab, uqalab, uqalab yuvintirmoq, massaj qilmoq (hammomda).

xoh (خواه) fors. yoki, yohud, mayli, xohlasa, bo'lsa ham.



www.ziyouz.com kutubxonasi

xohish (خواهش) fors. biror narsani xohlash, istash, unga intilish, istak, mayl.

xoh-noxoh (خواه ناخواه) fors. istar-istamas, chin ko'ngildan xohlamagan holda.

xoinona (خاينانه) arab-fors. xoinlik bilan, xoinlarcha, xiyonatkorona.

xo'ja (خواجه) fors. xo'ja, xo'jayin.

xok (خاک) fors. 1) tuproq, yer; 2) tuproq yoki kulga aylangan inson jasadi.

xoka (خاکه) fors. mayda, kukun (ko'mir haqida).

xakandoz (خاک انداز) fors. olov, kul va shu kabilarni olish, tashish uchun ishlatiladigan dastali asbob, olov kurak.

xoki (خاکی) fors. xoki-anjir daraxtining yozda pishadigan mevasi ( ikkinchi marta kuzda pishadigandan farqlab shunday deyiladi).

xokipok (خاک پاک) fors. muqaddas tuproq.

xokipoy (خاک پای) fors. oyoq ostidagi tuproq.

xokisor (خاکسار) fors. 1) nihoyat darajada sodda, kamtar; 2) itoat qiluvchi, itoatkor, bo'yin eguvchi.

xokiturob (خاک تراب) fors-arab. yer bilan yakson, xarob.

xol (خال) fors. 1) badanda, teri ustida bo'ladigan qora tug'ma dog' yoki bo'rtma; 2) biror narsaning eng muhim, chiroyli joyi, latofat, go'zallik, husn.

xolavachcha (خاله بچه) arab-fors. opa-singillarning farzandlari (bir-birlariga nisbatan).

xoldor (خالدار) fors. 1) badanida xoli bor, xolli; 2) badanida yoki sirtida mayda dog'i yoki dog'lari bo'lgan; 3) erkaklar ismi.

xom (خام) fors. 1) qaynatilmagan, pishirilmagan; 2) tabiiy ravishda pishib yetilmagan, yaxshi ishlov berilmagan, xomaki; 3) qayta ishlanmagan, xomaki; 4) nihoyasiga yetmagan, qayta ishlanishi



www.ziyouz.com kutubxonasi

yoki yozilishi lozim bo'lgan, yengil-yelpi ishlangan, chala, yuzaki; 5) chuqur, puxta o'ylanmagan, amalga oshmaydigan, puch, yuzaki; 6) tajribasi yo'q, ko'p ish bilmaydigan, g'o'r.

xoma I. (خامه) fors. qalam.

xoma II. (خامه) fors. do'ng, tepa.

xomak (خامک) fors. pishib yetilmagan xom qovun, sapcha.

xomaki (خامکی) fors. 1) uzil-kesil hal qilinmagan, aniqlanishi, to'ldirilishi lozim bo'lgan, hali xom; 2) taxminiy, chamali.

xomashyo (خام اشیا) fors-arab. sanoatda qayta ishlanadigan dastlabki material, ishlab chiqarish manbai.

xomkalla (خام کله) fors. hech narsa tushunmaydigan, fahmsiz, tentak.

xomso'z (خام سوز) fors. yaxshi pishmagan, yetilmagan, xom, chala pishgan.

xomtama' (خام طمع) fors-arab. unmaydigan narsadan umid qiluvchi, qo'lga kirar deb behudaga ishonuvchi, laqma.

xomush (خاموش) fors. 1) indamasdan, jim, so'zsiz; 2) g'am-g'ussaga botgan, g'amgin, o'ychan, mayus; 3) avzoyi buzuq, xo'mraygan, jim-jit (ob-havo haqida).

xona (خانه) fors. uy, uy-joy, xona.

xonadon (خانه دان) fors. 1) oila; 2) uy, hovli.

xonaki (خانکی) fors. 1) uyda tayyorlangan, uyda ishlatiladigan, qo'lda qilingan; 2) uyda, xonadonda boqiladigan, qo'lga o'rgatilgan; 3) xona yoki uy uchida bo'ladigan, uyda bajariladigan.

xonanda (خواننده) fors. ashula, qo'shiq aytuvchi san'atkor, hofiz.

xonanishin (خانه نشین) fors. doim uyda o'tiradigan, ko'chaga, boshqa yoqqa chiqmaydigan.

xonaqoh (خانقاه) fors. 1) masjidning namoz o'qiladigan, odatda keng va katta xonasi; 2) eshonning so'filar bilan birga



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| | | zikr tushadigan xonasi, hujrasi; 3) g'aribxona, darveshxona. |
| xonavayron | ( خانه ویران ) | fors. uy-joyi yoki oilasi buzilgan, vayron bo'lgan, hamma narsadan ajralgan, abgor, xarob. |
| xonazod | ( خانه زاد ) | fors. biror xonadonda tug'ilib tarbiya topgan, uyda parvarish qilingan. |
| xonim | (خانم) | turk. 1) ayollarga hurmat yuzasidan murojaat qilganda qo'llaniladi; 2) hurmat yuzasidan ayollar ismiga qo'shib aytiladi; 3) go'zal, barno ayol, xushbichim ayol. |
| xonish | (خوانش) | fors. ashula aytish, kuylash. |
| xontaxta | (خان‌تخته) | fors. palos ustida o'tirib ovqatlanish uchun xizmat qiladigan oyoqlari kalta sto'l. |
| xonumon | (خان و مان) | fors. uydagi mol-mulk, bor bisot, boylik. |
| xonzoda | ( خان زاده ) | 1) xonning farzandi (o'g'li yoki qizi), xon avlodi; 2) ayollar ismi. |
| xor | (خار) | fors. 1) e'tiborga, hurmatga sazovor emas, bee'tibor, kamsitilgan, tahqirlangan; 2) og'ir, ayanchli, nochor, ahvolga tushgan, g'oyat qashshoq; 3) hech kim nazar-pisand qilmaydigan, qadri yo'q, qimmati tushgan. |
| xor-zor | (خار زار) | fors. og'ir, ayanchli ahvolga tushgan, tahqirlangan. |
| xosxona | (خاص خانه) | arab-fors. 1) katta mansab egalari yoki hukumat boshlig'i turadigan joy, saroy; 2) biror shaxsning o'ziga tegishli bo'lgan, o'zigina foydalanadigan uy. |
| xud | (خود) | fors. goh xud, goh behud - goh yaxshi, goh yomon, goh unday, goh bunday, goh o'ziga kelib, goh xushsiz. |
| xud-bexud | ( خود به خود ) | fors. goh xud, goh bexud, goh yaxshi,goh yomon, goh unday, goh bunday, goh o'ziga kelib, goh xushsiz. |
| xudbin | ( خود بین) | fors. o'zini yoki o'z manfaatlarini hammadan yuqori ko'ruvchi odam, xudbin. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

xuddi (خودی) fors. 1) hech o'zgarishsiz, aynan, aniq; 2) go'yo, go'yoki, baayni; 3) bo'lsa-bo'lmasa, hoynahoy, aftidan.

xudkom (خود کام) fors. faqat o'zini o'ylaydigan, o'zini yaxshi ko'radigan, xudbin.

xudo (خدا) fors. Xudo, Tangri, Olloh.

xudobexabar (خدا بیخبر) fors. xudodan qo'rqmaydigan, dinsiz.

xudobezori (خدا بیزاری) fors. har qanday yomon harakatdan ham qaytmaydigan, o'ta dilozor, betavfiq.

xudogo'y (خدا گوی) fors. xudo nomini tildan qo'ymaydigan, doim toat-ibodat bilan shug'ullanadigan.

xudojo'y (خدا جوی) fors. xudo va din yo'lidan chiqmaydigan, xudoga ishonadigan, dindor.

xudoparast (خدا پرست) fors. dinga, xudoga ishonadigan, dindor.

xudotars (خدا ترس) fors. xudodan qo'rqadigan, mo'min, xudojo'y.

xudovand (خداوند) fors. xudoning sifatlaridan biri.

xudovando (خداوندا) fors. ey xudo, xudoyo.

xudoy (خدای) fors. xudo, olloh, tangri.

xudoyi (خدایی) fors. marhumlar ruhiga bag'ishlab yoki biror illatdan eson-omon qutilganligi uchun xudo yo'liga qilinadigan sadaqa, qurbonlik, ziyofat.

xudoyixona (خدایی خانه) fors. kambag'al, yetim-yesirlarga xudoyi tariqasida oziq-ovqat beriladigan joy.

xudoyixo'r (خدایی خور) fors.xudoyiga borib ovqatlanishni odat qilib olgan kishi.

xudoyo (خدایا) fors. ey xudo.

xudparast (خودپرست) fors. faqat o'z manfaatini ko'zlab ish tutadigan, xudbin.

xufiyaki (خفیکی) arab-fors. xufiyonaga qarang.

xufiyona (خفیانه) arab-fors. boshqalarga bildirmasdan, yashirin ravishda, yashirincha.



www.ziyouz.com kutubxonasi

xufton (خفتان) fors. 1) quyosh botgandan bir-ikki soat o'tgach o'qiladigan eng keyingi, kechki namoz; 2) quyosh botgandan bir-ikki soat keyingi vaqt.

xuk (خوک) fors. to'ng'iz yili, to'ng'iz.

xum (خم) fors. xum, og'zi tor sapol idish.

xumdon (خمدان) fors. kulolchilikda loydan yasalgan idishlar yoki g'isht pishiriladigan o'choq.

xumkalla (خم کله) fors. 1) boshi xumday, kallasi katta, kallador; 2) miyasi yo'q, kallavaram, qovoqbosh.

xumori (خماری) arab-fors. xumor bo'lgan, ishtiyoqi baland, mushtoq.

xumpar (خمپر) fors. hazil aralash yengil so'kish shakli, qurgur, shayton, shumtaka kabi.

xun (خون) fors. 1) qon; 2) o'ldirilgan biror kimsa uchun olinadigan qonli o'ch, qasos; 3) umuman o'ldirilgan kimsa, yo'qotilgan yoki tortib olingan narsa uchun to'lanadigan haq, tovon.

xunbor (خونبار) fors. qonga to'lgan, qon oqib turadigan.

xundor (خون دار) fors. xun talab qiladigan, qasoskor.

xunibiyron (خون بریان) fors. nihoyatda xunob, ruhi qattiq ezilgan, alam-iztirob chekkan.

xunob (خوناب) fors. 1) toqati toq, diqqat, bo'g'ilgan, tajang; 2) qiyin, og'ir, mushkul, sermashaqqat, serdiqqat.

xunoba (خونابه) fors. xunobga qarang.

xunolud (خون آلود) fors. qonga belangan

xunrez (خونریز) fors. 1) qon to'kuvchi, jallod; 2) qonxo'r, berahm.

xunuk (خنک) fors. 1) ko'rinishidan kishini o'ziga jalb qilmaydigan, ko'rimsiz, sovuq; 2) ko'ngilga xush kelmaydigan, yoqmaydigan, yoqimsiz, kishida nafrat qo'zg'atuvchi, jirkanch; 3) quloqqa yoqmaydigan, yoqimsiz eshitiladigan; 4) salqin, sovuq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

xunxor (خونخوار) fors. xunxo'rga qarang.

xunxo'r (خون خور) fors. qonxo'r, qotil, zolim.

xurjun (خرجین) fors. egar ustiga yoki yelkaga oshirib tashlanadigan, yuk solinadigan ikki ko'zli qop, qo'sh xalta.

xurmo (خرما) fors. xurmo daraxti va mevasi.

xurmoyi (خرمایی) fors. 1) rangi xurmo mevasi rangiga o'xshagan, qizg'ish-to'q sariq; 2) O'zbekistondagi o'rik mevalaridan biri.

xurmozor (خرما زار) fors. xurmo daraxtlari ekilgan yer, maydon.

xurofotfurush (خرافات فروش) arab-fors. xurofotni targ'ib qiladigan, xurofotni vosita qilib kun ko'radigan.

xurram (خرم) 1) shod, xursand, xushchaqchaq; 2) erkaklar ismi.

xursand (خرسند) fors. 1) hayotdan juda mamnun, kayfiyati juda yaxshi, shod; 2) biror narsadan qanoat hosil qilgan, mamnun, rozi, minnatdor; 3) erkaklar va ayollar ismi.

xurush (خورش) fors. 1) biror ish yoki jarayonning yuzaga kelishi, tezlashuvi uchun yordam beradigan vosita; 2) ovqatga qo'shib iste'mol qilinadigan, unga maza, ta'm beradigan oshko'k, ziravor, dorivor kabi vositalar.

xurshid (خورشید) fors. 1) quyosh, oftob; 2) erkaklar ismi.

xushatvor (خوش اطوار) fors-arab. xushfe'l, yaxshi axloqli, yaxshi xulqli.

xushaxloq (خوش اخلاق) fors-arab. yaxshi axloqli, yaxshi xulqli, odobli.

xushbahra (خوش بهره) fors. kishining bahri-dilini ochadigan xushhavo.

xushbaxt (خوشبخت) fors. baxtli, saodatli.

xushbo'y (خوشبوی) fors. yoqimli hid taratadigan, yaxshi hidli, muattar.

xushdil (خوشدل) fors. ochiq ko'ngil , yoqimli.

xushfe'l (خوش فعل) fors-arab. fe'l-atvori yaxshi, kishiga muomalasi yoqadigan, xushmuomala.



www.ziyouz.com kutubxonasi

xushgap (خوش گپ) fors. shirin so'z, xushmuomala.

xushkayf (خوش کیف) fors-arab. 1) xursand, xushchaqchaq; 2) shirakayf.

xushluqum (خوش لقوم) fors-arab. yutumi yaxshi, lazzatli.

xushmanzara (خوش منظره) fors-arab. ko'rinishi kishining bahri-dilini ochadigan, chiroyli manzaraga ega, ko'rkam.

xushmulozim (خوش ملازم) fors-arab. kishini xursand qilishga tirishadigan, xushmuomala, xushfe'l, sermulozamat, sertavoze.

xushmulozimat (خوش ملازمت) fors-arab. xushmulozimga qarang.

xushmuomala (خوش معامله) fors-arab. mehribon, xushfe'l, odobli.

xushmo'ylov (خوش موی‌لب) fors. mo'ylovi chiroyli, mo'ylovi kelishgan.

xushnavo (خوشنوا) fors. yoqimli kuylaydigan, kuylari, qo'shiqlari kishiga zavq-shavq bag'ishlaydigan, yoqimli.

xushnavoz (خوش نواز) fors. mahorat bilan, yaxshi chaluvchi (musiqa asbobini).

xushnud (خشنود) fors. 1) xursand, shod, mamnun; 2) kishini xursand qiladigan, shodlik baxsh etadigan; 3) erkaklar ismi.

xushohang (خوش آهنگ) fors. yoqimli, mayin, quloqqa yoqadigan.

xushomad (خوش آمد) fors. xushomadgo'ylik, laganbardorlik.

xushomadgo'y (خوشامدگوی) fors. birovga xushomad qiluvchi, laganbardor.

xushomadomuz (خوش آمد آمیز) fors. xushomad tariqasida, xushomad qilganday, laganbardorlik bilan.

xushovoz (خوش آواز) fors. ovozi yoqimli, xushovoz.

xushqad (خوش قد) fors-arab. xushqomatga qarang.

xushqomat (خوش قامت) fors-arab. 1) qaddi-qomati kelishgan, xushbichim; 2) hashamatli, savlatli, odil.

xushro'y (خوشروی) fors. 1) chiroyli, go'zal, sohibjamol, zebo; 2) ochiq chehra bilan, samimiy.

xushsuhbat (خوش صحبت) fors-arab. yaxshi suhbat quradigan, suhbatni qizitadigan, gap-so'zi yoqimli.



www.ziyouz.com kutubxonasi

xushsurat (خوش صورت) fors-arab. ko'rinishi chiroyli, qiyofasi kelishgan, ko'rkam, go'zal.

xushsuxan (خوش سخن) fors. yoqimli so'zlaydigan, shirin so'z, suhbati shirin.

xushtab' (خوش طبع) fors-arab. xushtabiyat.

xushtabassum (خوش تبسم) fors-arab. yuzidan yoqimli tabassum arimaydigan, xushfe'l, ochiq yuzli, ochiq ko'ngilli.

xushtabiyat (خوش طبیعت) fors-arab. hatti-harakati yoqimli, xushfe'l, ochiq, xushmuomala.

xushtakalluf (خوش تکلف) fors-arab. nihoyatda izzat-hurmatni o'rniga qo'yadigan, xushtavoze, sermulozamat.

xushta'm (خوش طعم) fors-arab. ta'mi yaxshi, yoqimli, shirin.

xushtavoze (خوش تواضع) fors-arab. xushmuomala, odobli, iltifotli.

xushtor (خوشتار) fors. 1) biror kimsani sevgan, unga ko'ngil qo'ygan kishi, oshiq; 2) biror narsa bilan juda qiziqadigan, unga mehr qo'ygan, ishtiyoqmand, orzumand.

xushvaqt (خوش وقت) fors-arab. vaqti chog', xursand, shod, xushhol.

xushxabar (خوش خبر) fors-arab. yaxshi xabar, suyunchi, mujda.

xushxandon (خوش خندان) fors. xushchaqchaq, xursand, shod.

xushxat (خوش خط) fors-arab. 1) chiroyli yozilgan xat, chiroyli yozuv; 2) chiroyli yozish san'atiga ega bo'lgan, xatni chiroyli yoza oladigan, xati chiroyli.

xushxon (خوشخوان) fors. ovozi yoqimli ashulachi.

xushxulq (خوش خلق) fors-arab. xushfe'l, xushmuomala.

xushxo'r (خوش خور) fors. ishtaha bilan yeyiladigan yoki ichiladigan, ta'mi yaxshi, totli, mazali.

xo'b (خوب) fors. 1) yaxshi; 2) chiroyli, go'zal kishi; 3) xo'p.

xo'ja (خواجه) fors. 1) biror kimsa yoki narsaning egasi, xo'jayin; 2)birinchi bo'lib islom dinini qabul qilgan yerli kishi, keyinchalik dindorlarning e'tiqodicha, go'yo to'rt xalifadan birining avlodi; 3) O'rta Osiyoda



www.ziyouz.com kutubxonasi

ma'lum imtiyozga ega bo'lgan oqsuyaklar va ularning avlodlari; 4) xo'jazoda erkaklar ismiga qo'shiladi.

| | | |
|---|---|---|
| xo'jazoda | (خواجه زاده) | fors. 1) xo'jayinnig o'g'li; 2) xo'ja avlodidan kelib chiqqan. |
| xo'p | (خوب) | fors. 1) biror ishda rozilik ma'nosini ifodalaydi, mayli. mayliga; 2) nihoyat darajada, rosa, juda. |
| xo'r | (خوار) | fors. xo'rlangan, izzat-nafsi tahqirlangan, poymol qilingan. |
| xo'ra | (خوره) | fors. ovqatni tanlamay ko'p yeydigan, serovqat (asosan hayvonlar haqida). |
| xo'rak | (خورک ) | fors. 1) yeyish mumkin bo'lgan narsa, yemish, ovqat; 2) xo'ra. |
| xo'rakxona | (خورک خانه) | fors. ovqatlanadigan joy, oshxona. |
| xo'randa | (خورنده) | fors. oshxonada ovqat sotib oluvchi kishi, ovqatlanuvchi. |
| xo'rda I. | (خورده) | fors. xo'rda osh - guruchli suyuq ovqat, mastava. |
| xo'rda II. | (خورده) | fors. g'adir-budur joylari yeyilib, silliqlangan, tekis. |
| xo'sh I. | (خوش) | fors. 1) so'roq gap oldida kelib, aytingchi, javob beringchi, tushuntirib beringchi kabi ma'nolarni ifodalaydi; 2) nutq jarayonida topilmay qolgan so'z o'rnida yoki pauza o'rnida qo'llanadi; 3) yaxshi, yoqimli. |
| xo'sh II. | (خوش) | fors. xayr, xayrlashuv. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# Y

**yagana** (یگانه) fors. ekin tupining yaxshi rivojlanishi uchun ortiqchasini yulib tashlash, siyraklatish.

**yagona** (یگانه) fors. 1) birgina, bittagina, yolg'iz, yakka, birdan-bir.

**yak** (یک) fors. bir, yakka, yagona.

**yakandoz** (یکنداز) fors. uzun ko'rpacha.

**yakbora** (یکباره) fors. 1) hamma baravar, bir vaqtning o'zida, bir yo'la, yoppasiga; 2) nogahon, to'satdan.

**yakdil** (یکدل) fors. yakdil, birdam, ohil.

**yakdona** (یکدانه) fors. 1) donasi yirik boshi siyrak uzum turi; 2) bir donagina paydo bo'lgan, yakka, yagona; 3) tengi yo'q, eng yaxshi, benazir.

**yakka** (یکه) fors. 1) bir, bitta, yolg'iz, yagona; 2) boshqalarga qo'shilmasdan, birlashmasdan ishlaydigan yoki alohida ayrim yashaydigan.

**yakkaxon** (یکه خوان) fors.ashulani yakka ijro etuvchi hofiz, solist.

**yakka-yakka** (یکه یکه) fors. boshqalarga qo'shmasdan, bitta-bitta, bittalab, alohida-alohida.

**yakkash** (یکش) fors. 1) nuqul, hamisha, hamma vaqt, doimiy; 2) bir, bitta, yolg'iz, yagona.

**yakcho'p** (یک چوب) fors. ariq yoki anhor ustidan o'tish uchun qo'yilgan uzun xoda.

**yakro'ya** (یک رویه) fors. bir tomonlama, bir yoqlama.

**yaksar** (یک سر) fors. bir yo'la, bira to'la, birdan.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| yakson | (یکسان) | fors. yakson bo'lmoq - tor-mor bo'lmoq, yo'q bo'lmoq, tugatilmoq. |
| yaktak | (یک تک) | fors. uzun, oldi ochiq erkaklar ko'ylagi. |
| yaktan | (یک تن) | fors. fikri, maqsadi bir xil, bir tan-bir jon, hamjihat, ahil. |
| yakto | (یک تا) | fors, tengi yo'q, misli ko'rilmagan, yagona. |
| yakshanba | (یکشنبه) | fors. haftaning so'nggi yettinchi kuni, umumiy dam olish kuni. |
| yax | (یخ) | fors. muz, yax. |
| yaxna | (یخنه) | fors. tayyorlab sovutib qo'yilgan, sovuq, muzday. |
| yaxob | (یخاب) | fors. 1) hosildorlikni oshirish, sho'r yuvish, yerni zararli hasharotlardan tozalash uchun ekin maydonini qishda sug'orish; 2) muzli suv, muzday suv. |
| yetimona | (یتیمانه) | arab-fors. yetimga o'xshab, yetimlar singari. |
| yetimparvar | (یتیم پرور) | arab-fors. yetimlarga mehribonlik, g'amxo'rlik qiladigan, yetimlarning boshini silaydigan. |
| yetimvachcha | (یتیم بچه) | arab-fors. yetim bola. |
| yetimxona | (یتیم خانه) | arab-fors. yetimxona. |
| yo | (یا) | fors. yo, yoki |
| yobon | (یابان) | fors. yovonga qarang. |
| yod | (یاد) | fors. xotira, es. |
| yodaki | (یادکی) | fors. xatga qaramasdan, yoddan. |
| yodgor | (یادگار) | fors. 1) biror shaxs yoki voqea-hodisani eslatib turuvchi narsa, nishona, esdalik; 2) erkaklar va ayollar ismi. |
| yodnoma | (یادنامه) | fors. biror tantana munosabati bilan muassasa, tashkilot yoki ayrim shaxs nomiga yuborilgan tabriknoma, yodnoma. |
| yoki | (یا که) | fors. yoki. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

yol (يال) fors. ba'zi hayvonlar gardanida bo'ladigan uzun soch, yol.

yoldor (يالدار) fors. 1) qalin va uzun yolli, seryol; 2) junli, seryol.

yor (يار) fors. 1) dildan yaqin kishi, do'st, muhib; 2) sevgili, mashuq, mashuqa.

yor-birodar (ياربرادر) fors. do'stlar, oshna-og'aynilar, o'rtoqlar.

yor-do'st (ياردوست) fors. yor-birodar.

yor-yor (يار يار) fors. kelin uzatishda ijro etiladigan, har bayti yor-yor iborasi bilan tugaydigan qo'shiq.

yori(y) (ياری) fors. ko'mak, yordam.

yoron (ياران) fors. yaqin kishilar, do'stlar.

yovar (ياور) fors. yordam beruvchi kishi, yordamchi, madadkor, homiy.

yovon (يابان) fors. dala, dasht, shahardan tashqari yer.

yoxud (يا خود) fors. yoki, yo.



www.ziyouz.com kutubxonasi

# Z

| | | |
|---|---|---|
| zabar | (زبر) | fors. qisqa “a” unlisi va uning harf ustiga qo‘yiladigan qiya defis shaklidagi diakritik belgi. |
| zabardast | (زبردست) | fors. 1) jismoniy jihatdan baquvvat, kuchli; 2) yetuk, o‘tkir, zo‘r; 3) ulkan, katta. |
| zabon | (زبان) | fors. 1) til; 2) so‘zlash qobiliyati, nutq. |
| zabtkor | (ضبط کار) | arab-fors. zabt etuvchi, o‘z hukmiga bo‘ysunduruvchi. |
| zabun | (زبون) | fors. 1) nimjon, zaif; 2) og‘ir, mushkul, tang. |
| zada | (زده) | fors. zada bo‘lmoq - biror kimsa yoki narsadan yurak oldirib, bezillab qolmoq, bezor bo‘lmoq, bezmoq. |
| zafarnoma | (ظفر نامه) | arab-fors. 1) qo‘lga kiritilgan zafarlar, g‘alabalar qissasi; 2) Sharofiddin Ali Yazdiy asari nomi. |
| zahar | (زهر) | fors. 1)tirik organizmni o‘ldiradigan modda, og‘u; 2) og‘u singari achchiq, kishining hayotini og‘ulaydigan, kishiga tatimaydigan narsa; 3) jahl, g‘azab; 4) achchiq og‘riq; 5) juda ham achchuq. |
| zaharxanda | (زهر خنده) | fors. achchiq kinoya, piching, istehzo. |
| zahmatkash | (زحمت کش) | arab-fors. mehnat qiluvchi, mehnatkash, jafokash. |
| zahra | (زهره) | fors. 1) o‘t, safro; 2) jur’at, shijoat, jasorat. |
| zambarak | (زنبرک) | fors. uzun stvo‘lli artilleriya quroli, to‘p. |
| zambil | (زنبیل) | fors. zambar, zambil. |
| zambilkash | (زنبیل کش) | fors. zambilda yuk tashuvchi, zambilchi. |
| zambilg‘altak | (زنبیل غلتک) | fors. zambilga o‘xshatib yasalgan va yuk tashishda foydalaniladigan bir g‘ildirakli qo‘l arava. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

zamharir (زمهریر) fors. 1) qattiq sovuq, qahraton qish, ayoz; 2) sovuq, qahraton joy.

zamin (زمین) fors. 1) yer shari, yer; 2) ekin ekiladigan yer; 3) qulay shart-sharoit, imkon; 4) asos, negiz, baza; 5) tayanch, tayanchiq.

zamindor (زمین دار) fors. katta yer - suv egasi.

zamonasoz (زمانه ساز) arab-fors. zamonning, davrning oqimiga qarab ish tutuvchi, zamonga moslashuvchi, tutrug'i yo'q kishi.

zamondosh (زمان داش) arab-fors. biror kimsa bilan bir zamonda, bir davrda yashagan yoki yashaydigan kishi.

zanbar (زنبر) fors. zambil.

zanbil (زنبیل) fors. zambil.

zang I. (زنگ) fors. qo'ng'iroq va umuman tovushli signal berish uchun belgilangan metal predmet.

zang II. (زنگ) fors. 1) metalning suv yoki havoda o'ksidlanishi tufayli uning sirtida hosil bo'ladigan o'ksid qatlami; 2) dog', g'ubor.

zang III. (زنگ) fors. tok tanasining ildizga yaqin qari qismi.

zangi (زنگی) fors. zangi, negr.

zangila (زنگوله) fors. qo'l va oyoqlarga qo'ng'iroqchalar taqib o'ynaladigan o'yin , raqs.

zangori (زنگاری) fors. yashil bilan ko'k o'rtasidagi rangga ega bo'lgan, och havorang, moviy.

zanji (زنجی) fors. qora tanli, negr.

zanjir (زنجیر) fors. 1) zanjir, tartib bilan bir-biriga o'tkazilgan metall xalqalar tizimi; 2) kishan, bo'g'ov; 3) asorat, qullik; 4) rishta, ip.

zanjirband (زنجیربند) fors. 1) zanjirga bog'langan, kishanlangan, zanjirdagi; 2) asoratga, qullikka solingan.

zar (زر) fors. 1) oltin, tilla; 2) oltin, pul, boylik; 3) zardo'zlikda ishlatiladigan, oltin yoki kumush



www.ziyouz.com kutubxonasi

bilan qoplangan ipak yoki sim; 4) bezak yoki o'rov uchun ishlatiladigan yupqa metal varag'i.

zarafshon (زرافشان) fors. zar sochuvchi, oltinday tovlanuvchi, yarqirovchi.

zarang I. (زرنگ) fors. kungurador yapaloq bargli, yog'ochi qattiq daraxt; 2) shu daraxtdan yasalgan kosa.

zarang II. (زرنگ) fors. 1) zichlanib ketgan, qattiq (yer haqida); 2) chaqqon, abjir, sho'x.

zararkunanda (ضرر كننده) arab-fors. 1) qishloq xo'jalik ekinlariga, o'rmon va omboga zarar yetkazuvchi hayvon yoki hasharot; 2) jamiyatga, xalqqa zarar keltiruvchi shaxs, jinoyatchi.

zarbdor (ضرب دار) arab-fors. 1) texnikani yaxshi egallagan, no'rmalarni oshirib bajaradigan va boshqalarga har jihatdan o'rnak bo'ladigan ilg'or xodim; 2) keskin zarba berish uchun belgilangan; 3) zarbali.

zarbof (زرباف) fors. zardan yoki zar qo'shib to'qilgan mato, kimxob.

zarbxona (ضربخانه) arab-fors. tanga, chaqa, o'rden, medal va shu kabi zarb qilinadigan korxona.

zarda (زرده) fors. 1) o't, safro; 2) qizilo'ngachning achishib ogrishi, jig'ildon qaynashi; 3) jahl, g'azab, zo'g'im.

zardevor (زرديوار) fors. ip yoki gazlamaga har xil gullar tikib uyning devorlariga, shiftga taqab gir aylana osiladigan bezak buyum.

zardob (زرداب) fors. 1) qatiqdan yoki ivigan sutdan ajralib chiqadigan sarg'ish suyuqlik; 2) jarohatlangan yoki kasallangan a'zodan ajralib chiqadigan yoki unda yig'ilib qoladigan suyuqlik; 3) qon va limfaning ivishidan hosil bo'ladigan suyuqlik va undan tayyorlanadigan suyuq dori.

zardoli (زردلو) fors. o'rik va uning mevasi.

zardusht (زردشت) fors. Zardusht (zardushtiylik dini asoschisi).



www.ziyouz.com kutubxonasi

zardo‘z (زردوز) fors. zardan gul tikuvchi chevar.

zardo‘zi (زردوزی) fors. zar tikilgan, zar bilan tikilgan.

zargar (زرگر) fors. zargar, oltin, kumush va turli qimmatbaho toshlardan ziynat buyumlari, bezaklar yasaydigan usta.

zarhal (زرحل) fors-arab. 1) bro‘nza pudrasidan tayyorlangan bo‘yoq; 2) shunday bo‘yoq bilan yozilgan, chizilgan yoki oltin suvi yugurtirilgan, zarrin.

zarnigor (زرنگار) fors. 1) zar bilan qoplangan, zarrin; 2) ayollar ismi.

zarrabin (ذره بين) arab-fors. zarrabin, mikrosko‘p.

zarrin (زرين) fors. 1) zar tikilgan, zar gul bilan qoplangan, zarnigor; 2) oltinday tovlanib, jilolanib turadigan, yarqiroq.

zarvaraq (زرورق) fors-arab. 1) zarbof; 2) zardek nurafshon, yorqin, zarhal.

zarxarid (زر خريد) fors. pulga sotib olingan, oltin barobariga kelgan.

zarcho‘va (زرد چوبه) fors. ziravor, zarcho‘va.

zarshunos (زرشناس) fors. 1) biror narsaning qadri-qimmatiga yeta biladigan, unga nozik did bilan baho bera oladigan kishi; 2) biror sohada mukammal bilimga ega bo‘lgan, o‘z kasbini puxta egallagan kishi.

zavolijon (زوال جان) arab-fors. jonning zavoli, jon ofati.

zavqbaxsh (ذوق بخش) arab-fors. zavq bag‘ishlaydigan, kishining zavqini keltiradigan, nash’ali.

zaxm I. (زخم) fors. 1) tig‘, nayza kabi o‘tkir narsalardan badanga yetgan jarohat; 2) kishiga o‘tkazilgan alam.

zaxm II. (زخم) fors. og‘ir oqibatlarga olib boradigan yuqumli tanosil kassalligi, sifilis.

zeb (زيب) fors. bezak, ziynat, ko‘rk, husn.

zebigardon (زيب گردن) fors. oltin yoki kumushdan yasalib bo‘yinga osiladigan ziynat buyumi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

zebo (زیبا) 1) g'oyat go'zal, barno, kelishgan; 2) xushmanzara, ko'rkam, 3) ayollar ismi.

zeboqad (زیبا قد) fors-arab. zeboqomatga qarang.

zeboqomat (زیبا قامت) fors-arab.qaddi-qomati kelishgan, xushqomat, zeboqad.

zer (زیر) fors. qisqa "i" unlisi o'rnida harf ostiga qo'yiladigan qiya defis shaklidagi diakritik belgi.

zero (زیرا) fors. chunki, negaki, sabab shuki, shunday bo'lganidan.

zeroki (زیرا که) fors. zeroga qarang.

zevar (زیور) fors. 1) zeb-ziynat, bezak, taqinchoq; 2) ayollar ismi.

zikrxona (ذکر خانه) arab-fors. zikr tushadigan yoki zikr tushiladigan joy.

zimiston (زمستان) fors. 1) qish; 2) ro'shnolikdan, ziyodan mahrum hayot, qorong'ilik; 3) qorong'i, qorong'ilik; 4) qop-qorong'i, tim qorong'i, zim-ziyo.

zina (زینه) fors. 1) zinapoya; 2) bosqich, pog'ona.

zinapoya (زینه پایه) fors. zina, zinapoya, pillapoya.

zinda (زنده) fors. 1) tirik, barhayot; 2) shum, shumtaka, badbaxt ( asosan bolalarga nisbatan ishlatiladi).

zindon (زندان) fors. 1) yer ostidagi zax va qorong'i qamoqxona; 2) kishining boshi azob-uqubatlardan chiqmaydigan joy, azobxona, g'urbatxona.

zindonbon (زندانبان) fors. zindon soqchisi, qorovuli.

zinhor (زنهار) fors. aslo, sira, mutlaqo, hech.

zinhor-bazinhor(زنهار به زنهار) fors. sira ham, hech-hech, aslo- aslo.

zinokor (زنا کار) arab-fors. zino qiluvchi, buzuq.

zira (زیره) fors. zira.

ziravor (زیره وار) fors. ovqatni xushbo'y va xushxo'r qiluvchi o'simliklar yoki ularning urug'i, ildizi, bargi va shu



www.ziyouz.com kutubxonasi

kabi ( mas. zira, zirk, qoraqand, zarcho'va, qalampir, murch).

zirk (زرک) arab-fors. 1) tog'da o'sadigan tikanli buta; 2) shu buta mevasi.

ziyodon (ضیادان) arab-fors. qandil, shamdon.

ziyon (زیان) fors. ziyon, zarar, shikast, nuqson.

ziyonkor (زیانکار) fors. ziyon, zarar yetkazuvchi.

ziyonkunanda (زیان کننده) fors. zararkunandaga qarang.

ziyoratgoh (زیارتگاه) arab-fors. ziyorat qilinadigan muqaddas yer, qadamjo.

ziyoratxona (زیارتخانه) arab-fors. ziyoratgohning ziyoratchilar sig'inadigan, tavof qiladigan binosi, xonasi.

ziyrak (زیرک) fors. 1) tez fahmlaydigan, fahmi o'tkir, uquvli; 2) tez sezadigan, sezgir, sergak, hushyor.

zoda (زاده) fors. tug'ilgan, tavallud topgan.

zodagon (زاده گان) fors. oqsuyak, aslzoda.

zohidona (زاهدانه) arab-fors. zohidlarcha, zohidlar kabi.

zol (زال) fors. 1) ko'p ish ko'rgan, ko'p ish qo'lidan keladigan, tadbirli; 2) qari chol, qariya.

zolimona (ظالمانه) arab-fors. zolimlarga xos bir ravishda, zolimlarcha, zolimlik bilan.

zor (زار) fors. 1) 1) hasratli yig'i, nola, fig'on, afg'on; 2) o'tinchli iltimos, iltijo; 3) muhtoj.

zora (زاره) fors. qani endi, koshki, koshki edi.

zormonda · (زار مانده) fors. zor qolgur, qurib ketgur, sabil qolgur.

zotdor (ذاتدار) arab-fors. yaxshi zotga mansub, nasldor, zotli.

zog' (زاغ) fors. qarg'a, zog'.

zud (زود) fors. tezlik bilan, hayallamay, tez.

zulf (زلف) fors. ayollarning ikki chakkasidagi jamalagi, kokili.

zulfak (زلفک) fors. zulf, gajak, jamalak.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| zulfakdor | (زلفكدار) | fors. gajakdor. |
| zulfin | (زلفين) | fors. qulf osish uchun eshikka o'rnatilgan kichkina halqasimon temir. |
| zulmkor | (ظلمكار) | arab-fors. birovga jabr-zulm qiluvchi, azob beruvchi, jafokor, zolim. |
| zo'r | (زور) | fors. 1) kuch, quvvat; 2) kuchli, baquvvat, qudratli, zabardast; 3) katta, ulkan, buyuk; 4) mahoratli, mohir. |
| zo'raki | (زوركى) | fors. o'z xohishidan tashqari qilingan, g'ayriixtiyoriy, soxta, yasama. |
| zo'r-bazo'r | (زور به زور) | fors. zo'rg'a, bazo'r, arang. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# G‘

| | | |
|---|---|---|
| g‘aladon | (غله دان) | arab-fors. 1) omborda g‘alla (don, un) saqlash uchun atrofi o‘ralgan joy; 2) sto‘l, javon, tikuv mashinasi va shu k/ larning narsa solib qo‘yiladigan tortmasi, yashigi; 3) pul yoki mayda buyumlar saqlash uchun xizmat qiladigan yashik, quticha. |
| g‘alati | (غلطى) | arab-fors. 1) kishi hayratda qoladigan, ajoyib; 2) odatdagidek emas, boshqalarga o‘xshamaydigan, o‘zgacha, boshqacha; 3) o‘z tabiiy holatini o‘zgartirgan, allanechuk bir holga kelgan. |
| g‘alladon | (غله دان) | arab-fors, g‘aladon. |
| g‘allakor | (غله كار) | arab-fors. 1) don yetishtirish ishi bilan shug‘ullanuvchi dehqon; 2) don, g‘alla yetishtiriladigan. |
| g‘allaxona | (غله خانه) | arab-fors. don ombori. |
| g‘altak | (غلتک) | fors. g‘altak, ip g‘oltagi |
| g‘altakarava | (غلتک عرابه) | arab-fors-arab. g‘altakarava, bir g‘ildirakli qo‘l aravacha. |
| g‘amboda | (غمباده) | arab-fors. g‘am azobidagi, g‘amli, qayg‘uli. |
| g‘amgin | (غمگين) | arab-fors. g‘am yoki tashvishga botgan, g‘am bosgan, qayg‘uli, ma’yus, xafa. |
| g‘amguzor | (غمگسار) | arab-fors. birovning g‘am- qayg‘usini yengillashtiruvchi kishi, g‘amxo‘r, mehribon. |
| g‘amkash | (غمكش) | arab-fors. g‘am, alam chekuvchi, sabr-toqatli. |
| g‘amnok | (غمناک) | arab-fors. g‘amgin, xafa, ma’yus. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| g'amxona | (غم خانه) | arab-fors. qayg'u, g'am-hasratli joy. |
| g'amxo'r | (غمخوار) | arab-fors. kimsa uchun qayg'uradigan, g'amxo'rlik qiladigan, mehribon. |
| g'amxo'rona | (غمخوارانه) | arab-fors. g'amxo'rlik qilib, mehribonlarcha. |
| g'amzada | (غمزده) | arab-fors. g'am-alam bilan ezilgan, ko'p azob chekkan, g'amboda. |
| g'ar | (غر) | fors. suyuq oyoq xotin, buzuq xotin, fohisha. |
| g'arazgo'y | (غرض گوی) | arab-fors. yomon maqsadni ko'zlab, g'araz, adovat bilan ish tutuvchi, yomon niyatli, g'alamis, g'arazchi, kekchi. |
| g'arbachcha | (غربچه) | fors. g'arvachchaga qarang. |
| g'arvachcha | (غربچه) | fors. 1) g'ardan tug'ilgan bola, g'arning bolasi; 2) g'ardan tarqagan, haromi. |
| g'arib-benavo | (غريب بى نوا) | arab-fors. nihoyatda g'arib, nochor, ayanch ahvolda qolgan. |
| g'aribon | (غريبان) | arab-fors. shomi g'aribon - g'aribona shom payti, kishini iztirobga soladigan, ko'zga xunuk ko'rinadigan, ko'ngilsiz, huvillagan kechki payt. |
| g'aribona | (غريبانه) | arab-fors. g'ariblarga xos, faqirona, qashshoqlarcha. |
| g'aribparvar | (غريب پرور) | arab-fors. g'ariblarga yon bosadigan, ko'maklashadigan, kambag'alparvar. |
| g'avg'o | (غوغا) | fors. 1) betartib ovozlar, qiy-chuv, shovqin; 2) janjal, urish, g'alva, nizo; 3) g'am, tashvish. |
| g'azabdor | (غضب دار) | arab-fors. g'azabkorga qarang. |
| g'azabkor | (غضب كار) | arab-fors. nafrati, g'azabi to'lib toshgan, g'azablangan. |
| g'azabnok | (غضبناک) | arab-fors. nafrat va g'azabga to'lgan, g'azabli. |
| g'azalbop | (غزل باپ) | arab-fors. g'azal yozishga arziydigan, g'azal yozish uchun munosib. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

g'azalgo'y (غزل گوی) arab-fors. g'azal aytuvchi, gazal yozuvchi.

g'azalnavis (غزل نویس) arab-fors. g'azal yozuvchi.

g'azalxon (غزل خوان) arab-fors. 1) g'azal o'quvchi, g'azal aytuvchi, g'azal shinavandasi; 2) g'azal yozuvchi.

g'olibkor (غالب کار) arab-fors. g'alabaga olib boruvchi, g'alaba qozonuvchi, g'olib.

g'olibona (غالبانه) arab-fors. goliblarga xos, goliblarcha, zafarli, tantanali.

g'oratgar (غارتگر) arb-fors. talon-taroj qiluvchi, talovchi, vayron qiluvchi, buzuvchi.

g'oyibona (غايبانه) arab-fors. 1) o'zini ko'rmagan yoki suhbatlashmagan holda, orqavarotdan, sirtdan; 2)`noma'lum, favqulodda.

g'ulomgardish (غلام گردش) arab-fors. ichkaridan tashqarini ajratib turuvchi to'siq.

g'ulg'ula (غلغله) fors. g'ulu, g'alva, tashvish.

g'uncha (غنچه) fors. 1) hali ochilmagan, gulbarglari hali yozilmagan gul; 2) biror hodisaning endigina boshlanayotgan payti, boshlanishi.

g'urbatxona (غربت خانه) arab-fors. g'am-g'ussa ko'p bo'ladigan joy.

g'ururona (غرورانه) arab-fors. g'urur bilan, mag'rurona.

g'uslxona (غسل خانه) arab-fors. ustidan suv quyib yuvinadigan, cho'miladigan xona.

g'o'r (غور) fors. 1) pishib yetilmagan, xom (ho'l meva, qovun-tarvuz va shu kabilar haqida); 2) qiyomiga yetkazilmagan, pishiq ishlanmagan, xom; 3) hayot tajribasi kam, turmush qiyinchiliklarini ko'rmagan, bo'z.

g'o'ra (غوره) fors. o'rikning pishib yetilmagan mevasi, dovuchcha; 2) umuman pishib yetilmagan meva; 3) hayot tajribasi kam, turmush qiyinchiliklarini ko'rmagan, bo'z, g'o'r.



www.ziyouz.com kutubxonasi

g'o'za (غوزه) fors. 1) paxta; 2) ko'sak.

g'o'zafurush (غوزه فروش) fors. paxtani olib sotuvchi savdogar, paxtafurush.

g'o'zapoya (غوزه پایه) fors. hosili terib olingan g'o'za o'simligining poyasi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

# Sh

| | | |
|---|---|---|
| shab | (شب) | fors. kech, tun, kecha. |
| shabdor | (شب دار) | fors. yo'ng'ichqaning bir turi. |
| shabgard | (شبگرد) | fors. tungi qorovul, mirshab. |
| shabiston | (شبستان) | fors. 1) kechki yotoqxona, ichki haram doirasi; 2) qorong'ilik, zulmat hukmron bo'lgan joy, qora tun. |
| shabko'r | (شب کور) | fors. kechasi, qorong'i tushganda ko'rolmaydigan. |
| shabnam | (شبنم) | fors. shabnam, havodan ingan musaffo tomchi. |
| shabohang | (شباهنگ) | fors. katta it burjidagi eng yirik yorug' yulduz. |
| shaboxun | (شباخون) | fors. shaboxun urmoq - 1) biror tomonga qarab yugurmoq, chopmoq, juftakni rostlamoq; 2) kechasi qo'qqisdan hujum qilmoq, bildirmay bostirib kirmoq. |
| shabparak | (شب پرک) | fors. ko'rshapalak. |
| shabrang | (شبرنگ) | fors. qora rangdagi, qora. |
| shab-ro'z | (شب و روز) | fors. kecha-kunduz, kun-tun. |
| shabchiroq | (شب چراغ) | fors. 1) qorongilikda nur sochib turadigan afsonaviy tosh; 2) chaqnab turadigan, rangdor, yarqirama tosh; 3) shamchiroq. |
| shabchor | (شب چار) | fors. chorva mollarini tunda o'tlatish. |
| shafaqrang | (شفق رنگ) | arab-fors. qizil rangli, lolarang. |
| shaftoli | (شفتالو) | fors. shaftoli daraxti va mevasi. |
| shaftolixo'r | (شفتالو خور) | fors. 1) shaftoli yeyishni yoqtiradigan, shaftoli yeydigan kimsa; 2) mevaxo'r yirik qush. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| shaftolizor | (شفتالوزار) | fors. shaftoli ekilgan maydon, shaftoli bog'i. |
| shah | (شاه) | fors. 1) shahmat o'yinida biror figura bilan bevosita raqibning shohiga qilingan hujum; 2) shoh, podsho. |
| shahanshoh | (شهنشاه) | fors. shohanshohga qarang. |
| shahar | (شهر) | fors. shahar. |
| shaharnamo | (شهرنما) | fors. shaharga o'xshash, shahar kabi. |
| shaharsoz | (شهر ساز) | fors. shahar qurilishi bo'yicha mutaxassis, shahar quruvchi me'mor. |
| shahboz | (شهباز) | fors. 1) shunqor, lochin; 2) mard, jasur yigit. |
| shahmat | (شهمات) | fors. shahmat, shahmat o'yini. |
| shahnoz | (شهناز) | fors. 1) o'zbek xalq klassik kuylaridan birining nomi; 2) ayollar ismi. |
| shahodatnoma | (شهادت نامه) | arab-fors. 2) biror o'quv yurtini tamomlaganlik haqidagi rasmiy hujjat, guvohnoma; 2) biror faktni tasdiqlaydigan rasmiy hujjat, guvohnoma. |
| shahrisabz | (شهر سبز) | fors. yashil, gullagan, obod shahar. |
| shahrisabzi | (شهر سبزی) | fors. uzum navining nomi. |
| shahriston | (شهرستان) | fors. shahar qal'asi, atrofi istehkom-qo'rg'onlar bilan qurshalgan shahar. |
| shahriyor | (شهريار) | fors. 1) shoh, podsho; 2) erkaklar ismi. |
| shahsuvor | (شهسوار) | fors. 1) hashamatli, dabdabali otliq, mohir chavandoz; 2) pahlavon, bahodir (sevimli yor, mahbubga nisbatan). |
| shahvatparast | (شهوت پرست) | arab-fors. shahvatga berilgan, shahvoniy hissi kuchli. |
| shahzod | (شهزاد) | fors. 1) shohning o'g'li, shoh nasli; 2) erkaklar ismi. |
| shahzoda | (شهزاده) | fors. 1) shohning o'g'li, shoh nasli; 2) erkaklar va ayollar ismi. |
| shakar | (شکر) | fors. 1) shakar, qand; 2) shirin, mazali, totli; 3) kishiga yoqadigan, yoqimli; 4) ayollar ismi |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| shakarak I. | (شکرک) | fors. qovun turlaridan biri. |
| shakarak II. | (شکرک) | fors. o'simlik biti, shira. |
| shakarangur | (شکر انگور) | fors. uzumning po'sti yupqa, nimrang va shirin bir navi. |
| shakarguftor | (شکر گفتار) | fors. gapi-so'zi yoqimli, tili shirin, shirinso'z. |
| shakarnay | (شکرنی) | fors. shakarqamish. |
| shakarob | (شکرآب) | fors. achchiq-chuchuk. |
| shakarpalak | (شکر پلک) | fors. sirti serto'r, o'zi ser et shirin oq qovun turlaridan biri. |
| shakarpaz | (شکرپز) | fors. pashmak, holva, obaki, novvot kabi milliy shirinliklar pishiruvchi mutaxassis, qandolatchi. |
| shakarpoya | (شکرپایه) | fors. shakarqamish o'simligining poyasi, shakarqamish. |
| shakldor | (شکل دار) | arab-fors. 1) shaklli, muayyan shaklga ega bo'lgan, jimjimador, serhasham. |
| shalvar | (شلوار) | fors. cholvor. |
| shamdon | (شمعدان) | arab-fors. sham o'rnatib qo'yiladigan moslama. |
| shamshir | (شمشیر) | fors. 1) qilich; 2) o'tkir, yetuk (aql, zehn haqida). |
| shamshod | (شمشاد) | fors. yog'ochi qattiq, doim yashil, tik o'sadigan janubiy daraxt. |
| shamchiroq | (شمع چراغ) | arab-fors. sham. |
| shanba | (شنبه) | fors. haftaning jumadan keyinga, yakshanbadan oldingi oltinchi kuni. |
| sharbatdor | (شربت دار) | arab-fors. suvli, shirali, shirin. |
| shariatpanoh | (شریعت پناه) | arab-fors. shariat qonun-qoidalarini izchillik bilan amalga oshiruvchi, shariatni himoya qiluvchi, qo'llab-quvvatlovchi shaxs. |
| sharm | (شرم) | fors. hayo, or, nomus, uyat. |
| sharmanda | (شرمنده) | fors. sharmu hayoni yo'qotgan, hayosiz, rasvo. |
| sharm-hayo | (شرم و حیا) | fors-arab sharm va hayo, uyalish hissi. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| sharmisor | (شرمسار) | fors. sharmanda. |
| sharobxona | (شراب خانه) | arab-fors. sharob ichiladigan joy, mayxona. |
| sharobxo'r | (شراب خور) | arab-fors. sharob ichishga ruju qilgan, berilgan, mayparast, mayxo'r. |
| sharqona | (شرقانه) | arab-fors. sharq xalqi uslubi, odati yoki madaniyatiga xos, sharqcha. |
| sharqshunos | (شرق شناس) | arab-fors. sharqshunoslik mutaxassisi. |
| shartnoma | (شرط نامه) | arab-fors. shartnoma, bitim. |
| shavhar | (شوهر) | fors. xotinning eri, er, rafiq. |
| shaxsiyatparast | (شخصیت پرست) | arab-fors. o'z shaxsiyatini, qadr-qimmatini boshqalardan yuqori qo'yadigan, faqat o'z manfaatini o'ylab ish tutadigan, xudbin. |
| shaydo | (شیدا) | fors. 1) biror kimsani g'oyat darajada sevib qolgan, maftun bo'lgan, uning uchun hamma narsadan kechishga tayyor, jo'shqin oshiq; 2) biror narsaga g'oyat darajada qiziqadigan, ashaddiy ishqiboz. |
| shaydoyi | (شیدایی) | fors. 1) shaydo, jo'shqin oshiq; 2) biror kimsani g'oyat darajada sevish yoki biror narsaga nihoyatda berilish tufayli aql-hushini yo'qotgan, devona, majnunnamo. |
| shaytonbachcha | (شیطان بچه) | arab-fors. shaytonning bolasi, kichkina shayton. |
| shashmaqom | (شش مقام) | fors-arab. o'zbek-tojik xalqlarida: oltita yirik maqomni (buzruk, navo, dugoh, segoh, rost, iroq maqomlari) o'z ichiga olgan klassik musiqiy asar. |
| shashqator | (شش قطار) | fors-arab. tinmay oqadigan, duv-duv to'kilib turadigan, qator-qator (ko'z yoshi haqida). |
| shashqol | (ششقال) | fors. tekis yerga tashlab o'ynaladigan, kub shaklidagi, xolli tosh, kubik. |
| sher | (شیر) | fors. 1) arslon (yirtqich hayvon); 2) azamat, polvon, shavvoz (ko'pincha yigitlarga murojaat qilinganda ishlatiladi). |



www.ziyouz.com kutubxonasi

sherandom (شیر اندام) fors. qaddi-qomati sherga o'xshagan, shertaxlit.

sherbachcha (شیر بچه) fors. qo'rqmas, baquvvat yigit, azamat, shavvoz.

sheroziy (شیرازی) fors. surrang yoki kul rang jingalak junli qo'zichoq terisi, qorako'l terining a'lo navi.

she'rxon (شعر خوان) arab-fors. sher o'qishni yaxshi ko'ruvchi, she'rni ko'p o'quvchi kishi.

sherzod (شیرزاد) fors. 1) jasur, azamat odam; 2) erkaklar ismi.

sheva I. (شیوه) fors. 1) umumxalq tilining ma'lum territo'riyaga xos tarmog'i, mahalliy til, dialekt; 2) til.

sheva II. (شیوه) fors. 1) noz-karashma, ishva; 2) odat, ravish, yo'sin, qonun-qoida, yo'l-yo'riq.

shiddatkor (شدت کار) arab-fors. shiddatli, qattiq.

shifobaxsh (شفابخش) arab-fors. shifo bo'ladigan, davo bo'ladigan, shifoli.

shifokor (شفاکار) arab-fors. kasallikdan xalos qiluvchi, davolovchi, tabib.

shifoxona (شفاخانه) arab-fors. shifoxona, kasalxona.

shijoatkor (شجاعت کار) arab-fors. shijoatli, mard, jasur.

shijoatkorona (شجاعت کارانه) arab-fors. shijoat bilan qilinadigan, mardona, fidokorona.

shikast (شکست) fors. 1) jismoniy zarar, lat; 2) narsaning zararlangan, buzilgan, singan, lat yegan joyi; 3) ko'ngilsiz hodisa, zarar, ziyon-zahmat, falokat.

shikasta (شکسته) fors. qayg'u, g'am bilan ezilgan.

shikastaband (شکسته بند) fors. singan-chiqqanni tuzatuvchi tabib, siniqchi.

shikoyatboz (شکایت باز) arab-fors. doim asossiz shikoyat qilish yoki shikoyatnoma yozish bilan shug'ullanuvchi kimsa.

shikoyatnamo (شکایت نما) arab-fors. shikoyatga o'xshash, shikoyatomuz.

shikoyatnoma (شکایت نامه) arab-fors. shikoyat.

shikoyatomuz (شکایت آمیز) arab-fors. shikoyatga o'xshash, shikoyatnamo.



www.ziyouz.com kutubxonasi

shinavanda (شنونده) fors. 1) ixlosmand, ishqiboz, muxlis; 2) biror ishga omil, uni yaxshi biladigan, hadisini olgan; 3) kishi dilidagini topib gapiradigan, didli; 4) ulfat uchun hech narsani ayamaydigan, odamshavanda.

shingarf (شنگرف) fors. qizil rangli mineral, oltingugurtli simob.

shir (شیر) fors. sut.

shira I. (شیره) fors. shira, sharbat.

shira II. (شیره) fors. 1) o'simlik shirasini so'rib oziqlanadigan mayda tekinxo'r hasharot, o'simlik biti; 2) shirinliklar.

shirador (شیره دار) fors. shirali.

shirakayf (شیره کیف) fors-arab. biroz mast, ozgina kayfi bor, qittak ichib olgan.

shirapaz (شیره پز) fors. shakarpaz, qandalotchi.

shiravor (شیره وار) fors. qand-qurs, meva-cheva kabi shirin narsalar majmuyi, shirinliklar.

shiravorpaz (شیره وارپز) fors. shirinliklar pishiruvchi, shakarpaz, qandolatchi, holvachi.

shirdon (شیردان) fors. kavsh qaytaruvchi hayvonlar me'dasining bir bo'limi.

shirguruch (شیر برنج) fors. guruchni sutda pishirib tayyorlangan shovlasimon quyuq taom.

shirin (شیرین) fors. 1) shakar, bol, qiyom va shu k. ning tamiga oid; 2) kishi huzur qiladigan, orom oladigan, lazzatlanadigan, xush yoqadigan; 3) juda yaxshi, juda soz, ajoyib, xayron qolarli; 4) ayollar ismi.

shirinak (شیرینک) fors. shirinak o'ynamoq - kimniki shirin chiqishi uchun bahslashmoq ( qovun, tarvuz haqida).

shirindimog' (شیرین دماغ) fors. kayfiyati yaxshi, dimog'i chog', xursand.

shirinkalom (شیرین کلام) fors-arab. shirin so'z, xushmuomala, shirinsuxan.



www.ziyouz.com kutubxonasi

shirinkoma (شیرین کامه) fors. oldi-sotdi vaqtida o'rtada turgan dallolga, vositachiga beriladigan haq, pul.

shirinsuxan (شیرین سخن) fors. shirinso'z, gap-so'zi yoqimli.

shirinxo'r (شیرین خور) fors. mazali, shirin ovqatni yaxshi ko'radigan, shirintomoq.

shirxo'ra (شیر خوره) fors. bir onani emgan, emishgan, emikdosh.

shirxo'rda (شیر خورده) fors. sutda pishirilgan xo'rda.

shirzada (شیر زده) fors. yosh bolalarda uchraydigan suyak kasali, suyaklarning o'z vaqtida qotmay noto'g'ri o'sishi, raxit; 2) shunday kasalga chalingan bola.

shitob (شتاب) fors. tezlik, shoshilish, oshiqish.

shisha (شیشه) fors. 1) shisha, oyna; 2) shisha, butilka.

shishadam (شیشه دم) fors. shisha sanoatida: puflab shisha buyumlar yasovchi ishchi.

shishak (شیشک) fors. bir yoki ikki yoshli qo'y.

shishasoz (شیشه ساز) fors. shisha sanoatida ishlovchi kishi.

shod (شاد) fors. xursand, quvnoq, xushhol.

shodiyona (شادیانه) fors. 1) shod-xurramlik, tantana; 2) shod-xurramlik yoki tantana bilan o'tadigan; 3) shod-xurramlik bilan, tantana bilan, tantanavor; 4) xushxabar keltirgan kishiga beriladigan in'om, sovg'a, suyunchi.

shodmarg (شادمرگ) fors. shodlik yoki sevinchdan yuragi yorilib o'lish.

shodmon (شادمان) fors. 1) shod, xursand, quvnoq; 2) erkaklar ismi.

shodon (شادان) fors. shod, quvnoq.

shod-xandon (شادخندان) fors. shod-xurram, xushchaqchaq.

shod-xurram (شاد خرم) fors. shod va xurram, nihoyatda xursand, xushchaqchaq.

shogird (شاگرد) fors. shogird.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| shoh | (شاه) | fors. 1) podshoh; 2) shahmat o'yinida eng asosiy figura; 3) shahmat o'yinida biror dona bilan bevosita raqibning shohiga qilinadigan hujum, kisht; 4) narsa yoki kimsalarning eng yaxshisi, sarasi. |
| shohanshoh | (شاهنشاه) | fors. Eron shohining unvoni va shu unvonga ega bo'lgan shaxs. |
| shohi | (شاهی) | fors. ipakdan to'qilgan gazlama, shoyi. |
| shohnishin | (شاهنشین) | fors. podsho, xon kabi oliy hukmron o'tiradigan, uning taxti qo'yilgan xona. |
| shohnoma | (شاهنامه) | fors. 1) Firdavsiyning qadimgi shohlar tarixiga bag'ishlangan po'emasining nomi; 2) umuman yirik badiiy, ko'pincha she'riy asar. |
| shohona | (شاهانه) | fors. 1) podsholarga xos, shohlarda bo'ladigan, oliy darajadagi, juda yaxshi; 2) dabdabali, hashamatli; 3) eng yirik va yaxshi, olamshumul. |
| shohroh | (شاهراه) | fors. katta yo'l, bosh yo'l. |
| shohrux | (شاهرخ) | fors. 1) shahmatda: rux donasi; 2) shoh bilan kisht berib ruxni urish; 3) erkaklar ismi. |
| shohtut | (شاه توت) | fors. shotut. |
| shoirona | (شاعرانه) | arab-fors. shoirlarga xos ilhom bilan, ko'tarinkilik bilan, shoirlarcha. |
| shokosa | (شاه کاسه) | fors. katta kosa. |
| shol I. | (شال) | fors. yungdan to'qilgan qalin mato, yung gazlama. |
| shol II. | (شال) | fors. 1) falaj kasali; 2) shunday kasalga yo'liqqan kishi. |
| shol III. | (شال) | fors. bo'yinga osib yoki teshigidan kiygizib qo'yiladigan jazo taxtasi. |
| sholi | (شالی) | fors. sholi. |
| sholikor | (شالیکار) | fors. 1) sholi ekib, guruch yetishtirish bilan shug'ullanuvchi dehqon; 2) sholi ekiladigan, sholi yetishtiriladigan. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| sholipoya | (شالی پایه) | fors. 1) sholi ekilgan maydon; 2) sholi o'simligining poyasi. |
| sholizor | (شالیزار) | fors. sholi ekilgan maydon, sholizor. |
| sholpar | (شالپر) | fors. yungdan to'qilgan, junli. |
| sholg'am | (شلغم) | fors. sholg'am. |
| shom | (شام) | fors. 1) quyosh botib qorong'ilik tusha boshlagan payt; 2) musulmonlarning bir kunda o'qiladigan to'rtinchi kechki namozi. |
| shona I. | (شانه) | fors. g'o'za g'unchasi. |
| shona II. | (شانه) | fors. taroq. |
| shonabarg | (شانه برگ) | fors. shonabarg, yonbarg. |
| shox I. | (شاخ) | fors. shox, butoq. |
| shox II. | (شاخ) | fors. hayvon shoxi, muguz. |
| shoxa | (شاخه) | fors. shox, butoq. |
| shoxdor | (شاخدار) | fors. shoxli hayvon. |
| shoyad | (شاید) | fors. ehtimol, balki, qani, zoraki. |
| shoyon | (شایان) | fors. sazovor, arziydigan, arzigunday. |
| shud | (شد) | fors. kishidagi biror ishni uddalay olish qobiliyati, layoqat. |
| shudgor | (شدگار) | fors. 1) haydalgan, chopilgan yer; 2) haydash, chopish. |
| shuhratparast | (شهرت پرست) | arab-fors. manman, maqtanchoq, kekkaygan. |
| shukrona | (شکرانه) | arab-fors. biror narsaga erishganlik, yetishganlik evaziga bildiriladigan mamnuniyat, xursandchilik, minnatdorchilik, tashakkur. |
| shukuh | (شکوه) | fors. tantana, ulug'vorlik, sharaf, shavkat. |
| sho'r I. | (شور) | fors. tuzi ko'p, ta'mi o'tkir. |
| sho'ra I. | (شوره) | fors. sho'ra (yovvoyi o't). |
| sho'ra II. | (شوره) | fors. tokning (uzumning) to'p guli, g'unchasi. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| sho'razor | (شوره زار) | fors. sho'ra ko'p o'sadigan yer, sho'ra bilan qoplangan maydon. |
| sho'rida | (شوريده) | fors. bechora, sho'rlik. |
| sho'rpeshona | ( شور پيشانه) | fors. peshanasi sho'r, baxti qora, baxtsiz. |
| sho'rtak | (شورتک) | fors. biroz sho'r, sho'rroq. |
| sho'rtang | (شورتنگ) | fors. sho'rtak. |
| sho'rtob | (شورتاب) | fors. sho'r bilan qoplangan, sho'r bosgan yer. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# Ch

| | | |
|---|---|---|
| chak | (چک) | fors. tomchining urilishidan hosil bo'ladigan tovush haqida. |
| chakana | (چکنه) | fors. 1) donalab yoki maydalab, tortib sotiladigan; 2) unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan, arzimas, mayda chuyda. |
| chakida | (چکیده) | fors. qoradori, taryak, afyun. |
| chakidaxo'r | (چکیده خور) | fors. qoradori iste'mol qiluvchi bangi. |
| chakka I. | (چکه) | fors. 1) erigan qor yoki yomg'ir o'tib tomdan uy ichiga tomayotgan suv,tomchi; 2) mutlaqo, hech, bir tomchi ham, bir qatra ham. |
| chakka II. | (چکه) | fors. suzma. |
| chakkaxona | (چکه خانه) | fors. hamma joyidan chakka o'tib yotgan xona, uy. |
| chakmazak | (چکمیز ک) | fors. siydik tutolmaslik, siydik oqib turish kasalligi. |
| chamadon | (چمدان) | fors. quti shaklidagi, kiyim-kechak solib yuriladigan yo'l-ro'zg'or buyumi. |
| chaman I. | (چمن) | fors. gul ko'p joy, gulzor, chamanzor, gulshan. |
| chaman II. | (چمن) | fors. sekin yuradigan, yalqov (ot va eshak haqida). |
| chamanzor | (چمنزار) | fors. gulzor, gulxona, gulshan. |
| chambar | (چنبر) | fors. g'ildirak, doira shaklidagi narsa, doira. |
| chambarak | (چنبرک) | fors. 1) kosa, tovoq va shu k. narsa solib osib qo'yish uchun simdan, novdadan va egiluvchan materiallardan yasalgan halqa; 2) g'ildirak, doira shaklidagi, doiraviy. |
| chambarchas | (چنبرچس) | fors. 1) yechilib ketmaydigan qilib, chirmab, mustahkamlab; 2) uzviy, mustahkam, jips (aloqa, bog'lanish haqida). |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| chandon | (چندان) | fors. 1) marta, karra, martaba; 2) har qancha, qanchalik. |
| chang I. | (چنگ) | fors. chang (cholg'u asbobi). |
| chang II. | (چنگ) | fors. panja, changal. |
| changak | (چنگک) | fors. 1) go'sht ilish uchun yog'och, temir va shu k.dan yasalgan panjali ilmoq, ilgak; 2) ilgakli, panjali maxsus asboblar nomi. |
| changal I. | (چنگل) | fors. 1) panja, chang; 2) zulm, arosat, tutqunlik va shu k. ramzi, iskanja; 3) siqimga sig'arli narsa, siqim. |
| changal II. | (چنگل) | fors. 1) tikanli butalar, o'simliklar; 2) changalzor. |
| changalzor | (چنگلزار) | fors. changal qoplagan maydon, butazor. |
| chap | (چپ) | fors. 1) chap, so'l; 2) o'ng kelmaydigan, teskari, noqulay; 3) kimsa bilan muomalasi, munosabati, murosasi to'g'ri kelmay qolgan, zid, qarshi. |
| chapak | (چپک) | fors. chapak, qars, qarsak. |
| chapdast | (چپدست) | fors. chaqqon, epchil, abjir, juda usta. |
| chappa | (چپه) | fors. teskari, ters. |
| chapg'alat | (چپغلط) | fors-arab. shamg'alat. |
| charmfurush | (چرم فروش) | fors. charm bilan savdo qiluvchi, charm sotuvchi odam. |
| charog'bon | (چراغ بان) | fors. 1) ko'cha chiroqlariga qarovchi kishi; 2) ilm-ma'rifat tarqatuvchi kishi. |
| charog'on | (چراغان) | fors. 1) ravshan yoritilgan, yorug'; 2) yorqin, porloq, ravnaqli. |
| charvi | (چربی) | fors. molning (qo'y, echki, ot va shu k.ning) ichaklari atrofida bo'ladigan yog', ichki yog'. |
| charvoq | (چرباغ) | fors. chorbog', shahardan tashqaridagi hovli-joyli, qo'rg'onli bog', bog'cha. |
| charx | (چرخ) | fors. 1) ip yigiradigan dukli dastaki asbob; 2) har xil asboblarning, qurilmalarning aylanadigan |



www.ziyouz.com kutubxonasi

qismi, parragi; 3) kesuvchi asboblarning tig'ini o'tkirlaydigan, qayraydigan asbob; 4) gardish, aylana.

charxak (چرخک) fors. 1) chambarak; 2) ip kalavalaydigan charxsimon moslama.

charxpalak (چرخ فلک) fors-arab. 1) suv kuchi bilan aylanib katta ariqdan suv chiqaradigan eng qadimiy qurilma, chig'ir; 2) bir nechta kajavasi bo'lgan, gorizontal o'q atrofida aylanuvchi katta g'ildirak tarzidagi ommaviy o'yin-kulgi qurilmasi.

chavandoz (چوندار) fors. ot choptirish, uloq chopish, otda o'ynash san'atini egallagan odam.

chavgon (چوگان) fors. ot ustida uchi egri tayoq bilan to'pni urib o'ynaladigan o'yin.

chashm (چشم) fors. ko'z.

chashma (چشمه) fors. 1) yer ostidan chiqayotgan suv manbai va uning suvi, buloq; 2) manba.

chashmband (چشم بند) fors. chachvon, paranji ostidan betga tutiladigan to'r parda, chimmat.

chehra (چهره) fors. 1) yuz, aft-angor, bet, ko'rinish; 2) kishi kayfiyati, ruhiy holati yoki xulq-atvorining yuzdagi aksi.

chikora (چکاره) fors. nima darkor, hech gap emas.

chil (چهل) fors. qirq, o'ttiz to'qqizdan keyingi va qirq birdan oldingi son.

chilangar (چلنگر) fors. temirchi, temir buyumlar yasovchi usta.

chilim (چلم) fors. sarxonasiga tamaki solib nayi orqali chekiladigan dastgoh.

chilimkash (چلمکش) fors. 1) chilim chekuvchi; 2)chilim solib odamlarga chektirib yurib tirikchilik qiluvchi odam, poyaki.

chilla (چله) fors. 1) yilning eng issiq yoki eng sovuq qirq kuni; 2) bola tuqqan yoki tug'ilgandan boshlab keyingi



www.ziyouz.com kutubxonasi

qirq kunlik davr; 3) yakka o'zi odamlardan yashirinib, qirq kun toat-ibodat qilish marosimi.

chillak (چلک) fors. 1) bitta uzun, bitta kalta yog'och bilan o'ynaladigan bolalar o'yini va shu o'yinda xizmat qiladigan ingichka yog'och; 2) varrak ipi o'raladigan qisqa cho'p.

chillaki (چلکی) fors. 1) erta pishar uzum, uzumning eng oldin pishadigan turi; 2) erta pishar, ertagi; 3) yaxshi tayyorgarlik ko'rmagan, chala o'qib tez yetilgan.

chillakiro'zon (چلکی روزان) fors. yangi bola ko'rgan onaning chillasi chiqqandan so'ng o'z ota-onasinikiga yoki boshqa yaqinlarinikiga mehmonga borishi va shu munosabat bilan o'tkaziladigan marosim.

chillayosin (چله یاسین) fors-arab. kasallikni davolash, mushkulni oson qilish va shu k. maqsad bilan o'qiladigan duo.

chillashir (چله شیر) fors. inson organizmida nikotin kislotasi yetishmasligi, terining va ichak yo'llarining zararlanishidan iborat kasallik.

chilon (چیلان) fors. chilonjiyda, jiydaning yumaloq mevali turi.

chilparchin (چلپرچین) fors. parcha-parcha, mayda-mayda, chil-chil.

chilpora (چل پاره) fors. chilparchin.

chiltan (چل تن) fors. bir-biridan ajralmaydigan qirq ruh.

chiltor (چل تار) fors. ko'p torli qadimiy cholg'u asbobi.

chil-chil (چل چل) fors. mayda-myda, parcha-parcha, kul-kul.

chilchiroq (چلچراغ) fors. ko'p shamli chiroq, qandil.

chilcho'p (چل چوب) fors. nisholda tayyorlashda ishlatiladigan bir dasta cho'p.

chin-mochin (چین ماچین) fors. Janubiy Xitoy, Tibet va Sharqiy Turkiston territo'riyasining inqilobdan oldingi manbalarda uchraydigan nomi.

chinni (چینی) fors. 1) idish-tovoq yasash uchun ishlatiladigan oq loy va undan yasalgan buyumlar; 2) ayollar ismi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

chinnifurush (چینی فروش) fors. chinni sotuvchi, chinni asboblar sotuvchi savdogar.

chinnigul (چینی گل) fors. chinnigul.

chinnisoz (چینی ساز) fors. chinni buyumlar yasovchi kishi.

chinor (چنار) fors. chinor daraxti.

chirk (چرک) fors. 1) yog' va qurum aralash yopishqoq o'tirindi; 2) qotib qolgan arava moyi.

chirkin (چرکین) fors. 1) chirk bosgan, chirk bosib qoraygan, xira; 2) razil, qabih, tuban; 3) chirik, chirigan, o'lib borayotgan.

chiroq (چراغ) fors. 1) xonani, joyni yoritish uchun xizmat qiladigan uy-ro'zg'or asbobi, lampa; 2) o'zidan kichiklarga, bolalarga murojaat va erkalatish shakli.

chiroqpoya (چراغ پایه) fors. chiroq qo'yadigan ostlik, chiroq o'rnatiladigan uch oyoq.

chirog'bon (چراغبان) fors. ko'cha chiroqlarini yoquvchi, chiroqchi.

chiston (چیستان) fors. 1) topishmoq, jumboq; 2) qochiriqli gap, ibora, qochiriq, qochirim.

chit (چیت) fors. paxta tolasidan to'qilgan mato.

chitfurush (چیت فروش) fors. chit savdosi bilan shug'ullanuvchi savdogar, bazzoz.

chitgar (چیتگر) fors. qustar to'qimachilik korxonasida chitga gul bosuvchi usta.

chizi (چیزی) fors. bir oz, ozgina, andak.

chodir (چادر) fors. 1) matodan qurilgan kapa, palatka; 2) go'shanga, chimildiq; 3) ayollar paranji o'rnida yopinadigan maxsus yopinchiq; 4) parda, yopinchiq, urtuk.

choh (چاه) fors. 1) chuqur o'ra, quduq; 2) qa'r, og'ush.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| chok | (چاک) | fors. 1) gazmol, teri va shu k. dan tikilgan buyumlarning tikib biriktirilgan joyi; 2) detallarning payvandlab yoki boshqa biror usul bilan ulangan joyi. |
| chokar | (چاکر) | turk. xizmatkor, chorakor, malay. |
| chop | (چاپ) | fors. chop qilmoq (etmoq) - nashr etmoq, matbuotda bosib chiqarmoq. |
| chopxona | (چاپخانه) | fors. chopxona, matbuot, nashriyot. |
| chor | (چهار) | fors. to‘rt, to‘rtta. |
| chora | (چاره) | fors. chora, iloj, tadbir. |
| chorak | (چارک) | fors. 1) to‘rtdan bir ulush, teng to‘rt bo‘lakning har biri; 2) ba’zi joylarda besh pudga, ba’zi joylarda besh qadoqqa, ya’ni ikki kilogramga teng og‘irlik o‘lchovi; 3) o‘quv yilining to‘rtdan bir qismi. |
| chorakor | (چاره کار) | fors. kimsaning yerida, uning ot-ulovi va ish-qurollaridan foydalanib hosilning to‘rtdan birini olish sharti bilan yollanib ishlagan dehqon. |
| chorasoz | (چاره ساز) | fors. tadbirkor, tadbirli, ishbilarmon. |
| chorbozor | (چار بازار) | fors. fors. haftaning har xil kunlarida, boshqa-boshqa yaqin qishloqlarda birin-ketin o‘tkaziladigan bozorlar. |
| chorbog‘ | (چهار باغ) | fors. shahardan tashqaridagi hovli-joyli, qo‘rg‘onli bog‘, bog‘cha. |
| chordard | (چار درد) | fors. bola tug‘ishdagi dard, to‘lg‘oq. |
| chordevor | (چهار دیوار) | fors. hamma tomoni devor bilan o‘rab olingan, to‘rt devor. |
| chorgoh | (چارگاه) | fors. o‘zbek klassik kuylaridan birining nomi. |
| chorikor | (چاریکار) | fors. chorakorga qarang. |
| chor-nochor | (چار ناچار) | fors. 1) noiloj, istar-istamas; 2) muhtojlik bilan, muhtojlikda. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

chorpalak (چار پلک) fors. bodring, qovun, g'o'za singari o'simliklarda to'rtinchi barg chiqargan nihol.

chorpoya (چار پایه) fors. ochiq havoda o'ltirishga, yotishga mo'ljallangan to'rt oyoqli va panjarali katta keng yog'och karovot, so'ri.

chorraha (چهار راهه) fors. ko'chalarning, serqatnov, gavjum joyi, chorko'cha.

chorsi (چهار سو) fors. 1) to'rt tomoni teng to'rtburchak shaklidagi, kvadrat; 2) belbog'.

chorsu (چهار سو) fors. 1) chorraha, chorko'cha; 2) bozor o'rtasidan kesishib o'tgan to'rt yo'l.

chortang (چارتنگ) fors. qizg'in, jo'shqin, jonli (gap, syhbat va shu k/ haqida).

chortoq (چارطاق) fors-arab. xonlarga, beklarga mansub hashamatli bino, saroy, qasr.

chortor (چارتار) fors. to'rt torli musiqa asbobi.

chorva (چهارپا) fors. chorva, to'rt oyoqli mollar.

chorvador (چار و ادار) fors. chorvachilik bilan shug'ullanuvchi kishi, chorvachi.

choryor (چهاریار) fors. Muhammad payg'ambarning to'rtta eng yaqin safdoshi, eng oldingi to'rt xalifa (Abubakr, Umar, Usmon, Ali).

chorzarb (چار ضرب) fors-arab. o'zbek klassik kuylaridan birining nomi.

chorshanba (چهارشنبه) fors. haftaning yakshanbadan keyingi uchinchi kuni.

chorcho'p (چهارچوب) fors. 1) to'rtta taxtachadan tuzilgan ramka; 2) imoratning to'rt devori poydevoriga qo'yiladigan to'rt tagsinch.

choy (چای) xit. choy.

choydon (چایدان) xit-fors. choy idish, choy quti.



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| choyfurush | (چایفروش) | xit-fors. choy savdosi bilan shug'ullanuvchi savdogar. |
| choyjo'sh | (چایجوش) | xit-fors. choydish, choygum. |
| choykor | (چایکار) | xit-fors. choy yetishtiruvchi dehqon yoki xo'jalik. |
| choypoya | (چای پایه) | xit-fors. dala-dashtda suv-choy qaynatish uchun yasalgan qurilma, uch oyoq. |
| choyxona | (چایخانه) | xit-fors. choyxona. |
| choyxo'r | (چایخور) | xit-fors. 1) choyni yaxshi ko'radigan, ko'p choy ichadigan; 2) choyxonada choy ichuvchi, mijoz. |
| choyshab | (چایشب) | fors. o'rin-to'shak ustiga yoziladigan yalang qavat yopinchiq. |
| choycho'p | (چایچوب) | fors. cho'l-qumda o'sadigan, xushbo'y, och binafsha rang gulli ko'p yillik o'tsimon o'simlik. |
| choshgoh | (چاشتگاه) | fors. ertalab kun ancha ko'tarilib qolgan vaqt. |
| chun | (چون) | fors. xuddi, -day, -dek, o'xshab. |
| chunki | (چونکه) | fors. negaki, zeroki sabab shuki. |
| chunon | (چنان) | fors. shuncha, shunday, shu qadar. |
| chunonchi | (چنانچه) | fors. ya'ni, masalan, chunonchi. |
| cho'p | (چوب) | fors. cho'p, tayoqcha. |
| cho'pon | (چوپان) | fors. cho'pon, mol boquvchi |



www.ziyouz.com kutubxonasi

بدیهی می‌نماید و زبان پویا زبانی است که بتواند از دگر زبان‌ها با حفظ اصالت وام گیرد و زبان ازبکی نیز در این خصوص از دیگر زبان‌ها مستثنی نیست.

البته تأثیر واژگان فارسی در زبان ازبکی دلایل فراوانی دارد. مهمترین آن را می‌توان هم زیستی و هم وطنی تاجیکان با ازبکان و همجواری با کشورهای تاجیکستان و افغانستان و وجود آثار علمی و دینی فراوان ازبکستان در زبان فارسی نام برد. البته واژه‌های ازبکی زیادی نیز در زبان فارسی ـ تاجیکی این سرزمین وجود دارد که محققان تحقیقاتی انجام داده‌اند و تکمیل‌تر خواهند نمود.

امید است که این تحقیق علمی و زبان شناسی بتواند ضمن ایفای نقش لغت‌نامه‌ای در امر لغت شناسی نیز کارآمد افتد و مورد استفاده‌ی دانشجویان و استادان و دیگر محققان قرار گیرد.

**عباسعلی وفایی**

**رایزن فرهنگی سفارت جمهوری اسلامی ایران**

**ازبکستان ـ تاشکند**

**۱۳۸٤**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**به نام خدا**

## مقدمه

زبان فارسی در گذشته زبان علمی و دولتی آسیای مرکزی بوده است. دروس در مدارس و دانشگاه‌ها به این زبان تدریس می‌شده است. آثار متعددی در حوزه‌های مختلف علمی در این زبان به رشته‌ی تحریر درآمده است که اینک از ذخایر ماندگار و جاویدان به شمار است. به ویژه آن که در این دیار دو شهر بزرگ تاریخی و علمی سمرقند و بخارا پایگاهی بس سترگ در حوزه‌ی زبان و ادبیات فارسی بوده‌اند و امروز نیز فارسی گویان آن بی‌شمارند. پس از رواج زبان ازبکی در کشور ازبکستان و شناخته شدن آن به عنوان زبان رسمی یک اتحاد و اتفاقی بین این دو زبان ایجاد شد. دانشمندان و عالمان در رشد آن دو، فراوان کوشش داشته‌اند و آثاری در هر دو زبان بوجود آوردند. این دو از یکدگر تأثیرات فراوانی در گستره‌ی مفاهیم و محتوا و واژگان یافته‌اند که گزارش هر یک خود کتاب‌هایی علی‌حده می‌طلبد. در این اثر تنها به تأثیر واژگانی زبان فارسی ـ تاجیکی در زبان ازبکی پرداخته شده است تا نموده آید چه میزان واژه‌های فارسی در زبان ازبکی به کار رفته است. تأثیر پذیری هر زبان از زبان دیگر و استقراض واژگانی، امری

www.ziyouz.com kutubxonasi

بسم الله الرحمن الرحيم

www.ziyouz.com kutubxonasi

ABBOSALI VAFOIY, SHERALI AVEZMETOV

**O'ZBEK TILIGA O'ZLASHGAN FORSCHA SO'ZLAR**

Muharrir ***J.Muhammad***
Musahhih ***Z.Rustamov***
Tex. muharrir ***B.Yusupov***
Komputer ishlari ***B.Hoshimova***

Bosishga 12.12.2005 y.da ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/16.
Bosma tobog'i 14,25. Shartli bosma tobog'i 18,0.
Adadi 1000 nusxa. Bahosi kelishgan narxda.
Buyurtma № 122.

«Marifat-print» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
700017, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Sugaliota ko'chasi, 7-a

www.ziyouz.com kutubxonasi

## Qaydlar uchun

www.ziyouz.com kutubxonasi

# Qaydlar uchun

www.ziyouz.com kutubxonasi